O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi

“FAVQULODDA VAZIYATLAR VA AHOLI MUHOFAZASI”

fanidan

O’ QUV – USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: **600 000 – Xizmatlar**

Ta’lim sohasi: **640 000 – Hayot faoliyat xavfsizligi**

Ta’lim yo’nalishi: **5640 100 – Hayotiy faoliyat xavfsizligi**

Namangan - 2021

Ushbu ma’ruzalar matni O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligida № BD 5640100-2.08 raqam bilan ro’yxatga olingan va 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug’ining bilan tasdiqlangan na’munaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

Ma’ruzalar matni sarlavha, mundarija, asosiy matn, nazorat uchun savollar va foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan. Asosiy matnda talabalar o’zlashtirishi lozim bo’lgan zaruriy ma’lumotlar berilgan bo’lib, Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi kursidan talabalar egallashi lozim bo’lgan bilim va ko’nikmalarni o’z ichiga qamrab olgan bo’lib fanni o’rganishlarida nazariy jihatdan yordam ko’rsatadi.

Tuzuvchilar: **A.B.Nabiyev** Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi mudiri, PhD

Taqrizchi: **X.Akramov** Texnologik ta’lim kafedrasi dotsenti, p.f.n.

“Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi” fanidan ma’ruzalar matni NamDU Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasining 2021 yil 27 -avgustdagi 1- sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri **A.Nabiyev**

“Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi” fanidan ma’ruzalar matni NamDU San’atshunoslik fakultetining 2021 yil 28 -avgustdagi 1- sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Fakultet dekani **O’.Abdullayev**

MUNDARIJA

1. O’quv materiallari:
1.1. Ma’ruza mashg’ulotlari.....
1.2. Seminar mashg’ulotlari.....
1.3. Amaliy mashg’ulotlari.....
2. Mustaqil ta’lim mashg’ulotlari.....
3. Glossariy.....
4. Ilovalar:
4.1. Namunaviy fan dasturi.....
4.2. Ishchi o’quv dasturi.....
4.3. Tarqatma materiallar.....
4.4. Testlar.....
4.5. Baholash mezoni.....
4.6. Oraliq nazorati savollari.....
4.7. Umumiy savollar.....
4.8. Foydalanilgan adabiyotlar.....

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“FAVQULODDA VAZIYATLAR VA AHOLI MUHOFAZASI”
fani bo’yicha

O’QUV-METODIK MATERIALLAR

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“FAVQULODDA VAZIYATLAR VA AHOLI MUHOFAZASI”
fanining

MA’RUZALAR MATNI

1-ma’ruza. Kirish. “Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi” faning maqsad va vazifalari

O’quv savollari:

1. Kirish.
2. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi haqida umumiy tushunchalar.
3. O’zbekistonda fuqaro muhofazasini tashkil etishning umumiy tamoyillari.

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng mamlakatimizda aholi va hududlarni tabiiy ofatlar, texnogen avariya va falokatlardan himoya qilish bo’yicha yaxlit davlat tizimi, zarur me’yoriy-huquqiy baza shakllantirildi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, aholini falokatlar (paytida) davrida harakat qilishga tayyorlash borasida ko’lami va mazmuni jihatidan ulkan tadbirlar amalga oshirildi. SHu bilan birga, mamlakat aholisini va hududlarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofa qilish siyosiy ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Yurtboshimizning “Mamlakatimizda olib borilyotgan islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo’yicha mutloqo yangicha tamoyillar ishlab chiqishdan iboratdir” degan fikrlarida har bir sohani rivojlantirish va uning istiqbollari belgilash nazarda tutilgandir. Yurtimizni turli javhalarda rivojlantirish, belgilangan vazifalarni bajarish, aholini xafvsizligi ta’minlash bo’yicha mahalliy hokimiyat organlari, davlat va xo’jalik boshqaruv organlari faoliyatiga qo’shimcha vazifalar yuklandi.

2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha **“Harakatlar strategiyasi”** qabul qilindi. Harakatlar strategiyasini beshinchi ustuvor yo’nalishning 1-bandi 6-xatboshida “**favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish vazifalari”** belgilanib berildi. SHuni alohida ta’kidlash joizki, ustuvor yo’nalishda davlat hokimiyat organlari faoliyatini yanada mustahkamlash bilan birga hududlarda yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo’yicha vazifalar belgilab berildi. Qolaversa, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlarining avariya, halokat, tabiiy va boshqa ofatlar oqibatida jabrlangan fuqarolar, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning bartaraf etishda ishtirok etgan shaxslarni ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy muhofaza qilish, tibbiy reabilitatsiya qilish bo’yicha faoliyatini muvofiqlashtirishda qo’shimcha vazifalar belgilab berildi.

SHuningdek, bugungi kunda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi izchil amalga oshirilmoqda. CHunki, ilmiy tadqiqotlar yaqin o’n yillikda tabiiy va texnogen xususiyatli lokal, mahalliy, respublika va transchegaraviy favqulodda vaziyatlar yuz berishi xavfi tendentsiyasi oshishini tasdiqlamoqda.

Xalqaro amaliyotda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini kamaytirish yuzasidan fuqaro muhofazasi bo’yicha tadbirlarini o’z vaqtida samarali

o’tkazish va tegishli choralarini qo’llash, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishdan bir necha barobar arzon va samarali ekani o’z tasdig’ini topmoqda. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar jamiyatning rivojlanishida hozirgi kunda jiddiy tahdidlardan bir qismini tashkil etadi.

SHuni alohida ta’kidlash lozimki, XXI asrning boshlaridanoq xavfsiz hayotni ta’minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qoldi, chunki ishlab chiqarish jarayonining misli ko’rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta’minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim nohush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof-muhit tozaligi va iqtisodning barqaror rivojlanishga tahdid solib turibdi. BMTning “Xalqaro fuqaro muhofazasi tashkiloti” xujjatlarida “dunyoda taraqqiyot shiddat bilan rivojlanib borishi bilan yonma-yon, xavf-xatar ham ortib boradi, shu bois “barqaror rivojlanish kafolati bu fuqarolar muhofazasi”dir deb bejiz yozib qo’yilmagan. SHuning uchun fuqarolarni fuqaro muhofazasiga tayyorlashga alohida e’tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin yildan-yilga soni ortib borayotgan favqulodda vaziyatlar, ularni bartaraf etishga sarflanayotgan iqtisodiy xarajatlar bunday hatti-harakatning samaradorligi pastligini ko’satmoqda va alohida yo’l tutish kerakligini taqozo etmoqda. Ya’ni sodir bo’lishi mumkin bo’gan favqulodda vaziyatlarni oldindan bashorat qilish, aholini xavf haqida mumkin qadar erta ogoh etish, uni oldini olish va undan himoyalanish tadbirlariga ko’proq e’tiborni qaratish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Butun jahon “**Qizil Xoj**” hamjamiyati tashkilotining ma’lumotlariga ko’ra oxirgi 30 yil mobaynida butun dunyoda tabiiy ofatlardan qariyb 1 mlrd. insonlar jabrlangan va ko’rilgan moddiy zarar miqyosi yiliga 100 mlrd. dollarni tashkil etgan. SHu sababdan ham O’zbekistonda o’z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardanoq, eng muhim vazifalar qatoridan mamlakat aholisi va hududini turli xil favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari o’rin oldi.

Bunday dolzarb muammolar xususida Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan ta’kidlanganidek: «Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan»[1]. Vatanimizning yaxlitligi, aholi xavfsizligi tahdidi to’g’risida Prezidentimiz «O’zbekiston XXI asrga intilmoda» asarida ham batafsil to’xtab o’tganlar.

Darhaqiqat, o’tgan XX asrning sobiq ittifoq davrida Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar, shu jumladan, halqimizning boshidan o’tkazilgan totalitar, mamuriy-buyruqbozlik tizimi atrof-muhitga bepisand munosabatda bo’lish, tabiiy resurslardan vahshiyona foydalanish bilan tavsiflanardi. Ushbu davr orqali o’simlik va hayvonot dunyosining genofondiga salbiy tasiri, biologik xilma-xillikning qisqarishi, katta hajmdagi sanoat va boshqa tur zaharli chiqindilarning tashqariga chiqarilishi, yerlarning cho’llanishi, yer va suv resurslarining degradatsiyasi, Orol dengizining halokati kabi mintaqaviy hamda global miqyosda echilishi lozim bo’lgan ekologik muammolar meros bo’lib qoldi. SHu kabi muammolar tufayli inson manfaatlari muhofazasi ayniqsa, O’zbekistonda davlat siyosatining birlamchi

[1] I.Karimov, «O‘zbekiston XXI asr bo’sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», T. O’zbekiston, 1997 y

darajasiga ko’tarildi. SHu munosabat bilan hozir O’zbekistonda ekologik harakatning tuzilishi bugungi davrning dolzarb talabi hisoblanadi.

SHu nuqtai nazardan xalqimizni dushman tomonidan bo’ladigan ham ichki, ham tashqi ta’sirlardan saqlash, hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblansa, ikkinchi tomondan bizning o’lkamiz tabiiy ofatlar (er silkinishi, yer surilishi, sel, suv toshqini, kuchli shamol va boshqalar), bo’lishiga moyil o’lka bo’lganligidan hamda texnogen avariyalar, halokatlar va ekologik muvozanatni buzilishi natijasida uning oqibatlaridan fuqarolarni, iqtisodiyot tarmoqlarini, moddiy resurslarni, texnikalarni va tabiatni asrash, zarar ko’rgan hududlarda qutqarish va kechiktirib bo’lmaydigan tiklash ishlarini olib borish ham juda muhim dolzarb muammolardan hisoblanadi.

1.2 Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi haqida umumiy tushunchalar

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning qonuniy asosini O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O’zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Favqulodda vaziyatlar vazirining ko’rsatma va boshqa tegishli me’yoriy hujjatlari tashkil etadi.

Bizga ma’lumki, XX asrning 60-yillaridan fuqaro mudofaasi tizimi faoliyat ko’rsatib kelgan. Uning asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg’in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida iqtisodiyot bo’ektlarining barqarorligini ta’minlash hamda halokat o’choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o’z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi.

Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg’in qurollari emas, balki boshqa xavf-xatarlar ham tahdid solib turadiki, ularni aslo nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Bular turli tabiiy ofatlar, avariya, halokatlardir. Sodir bo’lib o’tgan bir nechta halokatlar (CHernobil atom elektr stantsiyasidagi avariya, 25 000 odamning yostig’ini quritgan Spitak zilzilasi va boshq.) fuqaro mudofaasining o’rni va vazifalariga boshqacha ko’z bilan qarash kerak ekanligini ko’rsatib berdi. Fuqaro mudofaasi qo’shinlari bunday yirik ko’lamdagi ofatlarga qarshi kurashishga tayyor emas ekanligi, fuqaro mudofaasi vazifalari faqatgina harbiy davr chegarasida qolishligi mumkin emasligi, ular oldiga qo’yilgan vazifalar ko’lamini kengaytirish lozimligi ayon bo’lib qoldi.

90-yillarga kelib yadro urushi xavfi kamaydi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qo’yildi, yangi-yangi zamonaviy qurol turlari kashf etildiki, ular odamlar uchun xavfli bo’lmay, balki iqtisodiyot ob’ektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bularning hammasi fuqaro mudofaasi tizimi o’rnida yangi tizim tashkil etilishi lozimligini isbotlab berdi.

SHu o’rinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga to’g’ri keladi. Favqulodda vaziyatning o’zi nima, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani ko’zda tutish lozim?

Favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo’lishi, ularning sog’ligi yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda

odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Vatanimiz Prezidenti tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat tufayli inson manfaati, inson qadriyati eng oldingi o'rindadir. Asosiy Qomusimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosini ham inson, uning qadr-qimmati, salomatligi tashkil etadi. Insonning hayoti, yashashga bo'lgan huquqi Konstitutsiya bilan muhofaza qilinadi.

O'zbekitson Respublikasi Prezidenti favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiya) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekistoan Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida O'zbekitson Respublikasi Oliy Majlisining tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi.

Oliy majlisning vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash kiradi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng tashkil etilgan Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalaridan biri favqulodda vaziyatlarda aholi hayoti va sog'ligini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilishdan iborat. Bu vazifani samarali tashkil etish uchun muhofazaning qonuniy, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, muhandislik texnik, maxsus asoslariga ega bo'lishimiz zarur.

Har bir rahbar, har bir favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining xodimi texnogen, tabiiy va ekologik favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan vaqtda vaziyatga baho berishni, tezlik bilan tegishli qarorlar qabul qilishni, qidiruv-qutqaruv va shoshilinch ishlarni o'tkazishda boshqaruvni amalga oshirish yo'llarini bilishi va bu borada yuqori malakaga ega bo'lmog'i kerak.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish –favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish – oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y berganda esa odamlar sog'ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish – favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan zonalarni xalqaga olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar majmui.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan dadil qadamlardan biri – avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida **O'zbekistoan Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi PF-1378 sonli Farmoni bilan** Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilishi bo'ldi.

Farmon bilan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayotini va salomatligini, moddiy va ma’naviy qadriyatlarni muhofaza qilish, shuningdek tinchlik va harbiy davrlarda favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazirlikning asosiy vazifalaridan biri deb belgilandi.

Aholi va iqtisodiyot ob’ektlarini muhofaza qilishni ta’minlashga rahbarlik qilish O’zbekitson Respublikasining Bosh vaziriga yuklatilgan.

Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalanish usullariga o’rgatish;

-ob’ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga o’rgatish;

-boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish;

-iqtisodiyot ob’ektlarining barqaror ishlashini ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini o’tkazish;

-aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;

-fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarining shayligini ta’minlash;

-aholini umumiy va yakka tartibdagi muhofazalanish vositalari bilan ta’minlash;

-aholining harbiy harakatlar olib borish paytidagi yoki shu harakatlar oqibatidagi hayot faoliyatini ta’minlash;

-radiatsiyaviy, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazoratini olib borish;

-qutqarish va boshqa kechiktirib bo’lmaydigan ishlarni tashkil qilish va o’tkazish;

-harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarur ko’rgan hududlarda jamoat tartibini yo’lga qo’yish va saqlab turish;

-aholini va hududlarni muhofaza qilish borasida boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va tegishli hududlarning hokimlari, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda vazirlar, davlat qo’mitalari va uyushma boshqaruv raislari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda ishlab chiqarish korxonalari direktorlari, rahbarlari aholi va iqtisodiyot ob’ektlari muhofaza etishga rahbar eitib tayinlanadilar.

Mahalliy hokimiyat organlarining Konstitutsiyamiz tomonidan belgilagan vazifalari qatoriga jumladan quyidagilar kiradi:

-qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;

-mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig’imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg’armalar hosil qilish;

-atrof muhitni muhofaza qilish.

Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlarda favqulodda vaziyatlar boshqarmalari (bo’limlari)ning tashkil etilishi va boshqarma (bo’lim) boshliqlarining o’rinbosarlari joylardagi o’rinbosarlari hisoblanishi aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining ish faoliyatini yanada mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo’ldi.

Fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlari bajarilishini ta’minlash hamda ushbu maqsadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun respublika, viloyat, tuman, shuningdek ob’ekt fuqaro muhofazasi xizmatlari tashkil etiladi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalari tarkibi, uning tarkibiy tuzilishi, shuningdek fuqaro muhofazasi tuzilmalari faoliyatining boshqa masalalari O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig’i tomonidan belgilab qo’yilgan.

Fuqaro muhofazasi qo’shinlarining faoliyati, ularni butlash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

1.3 O’zbekistonda fuqaro muhofazasini tashkil etishning umumiy tamoyillari

O’zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi tuzilmalari asosiga quyidagi tamoyillar kiritilgan:

-hududiy tamoyil:

O’zbekiston Respublikasi ma’muriy bo’linishiga qarab, viloyatlar, shaharlar, tumanlarda fuqaro muhofazasi bo’limlarining tashkil etilishi;

-ishlab chiqarish tamoyili:

vazirliklar, davlat qo’mitalari, trestlar, koorparatsiyalar, kompaniyalar, assosatsiyalar, tashkilotlar va korxonalarda fuqaro muhofazasi bo’limlarining tashkil etilishi.

Fuqaro muhofazasi bo’yicha umumiy rahbarlikni O’zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri olib boradi.

Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalanish usullariga o’rgatish;

-ob’ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalanish usullariga tayyorlash;

-boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil etish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish;

-iqtisodiyot ob’ektlarining barqaror ishlashini ta’minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o’tkazish;

-aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;

-fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarini shayligini ta’minlash;

-aholini umumiy va yakka muhofazalanish vositalari bilan ta’minlash;

-aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatidagi hayot faoliyatini ta’minlash;

-radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatuv va laboratoriya nazorati olib borish;

-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo’lmaydigan ishlarni o’tkazish;

-harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarar ko’rgan hududlarda jamoat tartibini yo’lga qo’yish va saqlab turish;

-aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasini boshqarish O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga topshirilgan.

Qoraqalpog’iston Repsublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlarida fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni tegishli lavozimiga ko’ra fuqaro muhofazasi boshlig’i bo’lgan Qraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari amalga oshiradi.

Vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni ularning lavozimiga ko’ra mazkur organlar va tashkilotlar fuqaro muhofazalarining boshliqlari bo’lgan rahbarlari amalga oshiradilar.

Fuqaro muhofazasi boshlig’i o’z vakolatlari doirasiga quyidagi huquqlarga ega:

-fuqaro muhofazasining tegishli rejalarini amalga joriy etish;

-aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish to’g’risida qarorlar qabul qilish;

-fuqaro muhofazasi bo’yicha tegishli direktivalar, buyruqlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarish;

-o’z tasarrufidagi hududlar hamda tashkilotlarning kuchlari va vositalarini fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni o’tkazishga jalb etish;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Fuqaro muhofazasi boshliqlarining aholi va hududlarni zamonaviy qirg’in vositalari qo’llanishi oqibatlaridan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishga oid harakatlarni muvofiqlashtirish tegishli hududlar, tarmoqlar va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi boshliqlari zimmasiga yuklanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Fuqaro muhofazasi fanini o’qitilishidan maqsad nima?
2. Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. FVlarda fuqaro muhofazasi muhofazasi bilan bog’liq organlar tizimlari va ular tarkibidagi hizmatli qismlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquqlari nimalardan iborat?
5. Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi majburiyatlari nimalardan iborat?
6. Fuqarolarning fuqaro muhofazasi sohasidagi huquq va majburiyatlari O’zR qaysi qonunlarida aks ettirilgan?
7. Fuqarolarni FVlardan muhofaza qilishning qonunlar bilan belgilangan tamoyillari nimalardan iborat?

2-maruza: Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga oid qonun va qonunosti hujjatlarning mazmuni va mohiyati

O'quv savollari:

1. Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, Fuqaro muhofazasi to'g'risida va boshqa qonunlar mazmuni.
2. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri-Fuqaro muhofazasi boshlig'ining normativ-huquqiy hujjatlar.

So'nggi yillarda Oliy Majlis tomonidan yangi asrda aholining xavfsizligini kafolatlovchi, fuqarolar mas'uliyati va jamiyat taraqqiyotining xuquqiy zaminini belgilovchi bir nechta qonunlar qabul qilindi. "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida", "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida", "Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining (OIV kasalliganing) oldini olish to'g'risida", "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida", "Fuqaro muhofazasi to'g'risida", "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida", "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida", "Terrorizmga qarish kurash tug'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Yuqorida sanab o'tilgan qonunlar ichida 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodaa vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

Qonunda davlat hokimiyati va boshqaruvining barcha darajadagi organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan aholini va hududlarni favqulodaa vaziyatlarda muhofaza qilishning asosiy tamoyillari, maqsadlari, vazifalari va usullari aniqlanib, mustahkamlab qo'yilgan. I bo'lim "Umumiy qoidalar" deb nomlanib, o'z ichiga 1-5-moddalarni oladi. Ularda qonunning asosiy maqsadi, favqulodda vaziyatlar bo'yicha asosiy tushunchalar, qonun hujjatlari, muhofazaning asosiy tamoyillari va favqulodda vaziyatlarga oid axborotlar qanday bo'lishi lozimligi ko'rsatib berilgan.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy tamoyillari insonparvarlik, inson hayoti va sog'ligining ustuvorligi; oshkoralik; axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchli bo'lishi; favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choralarining oldindan ko'rilishidan iborat,

II bo'limda – "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni ta'minlash tizimi" (6—14-moddalar) - muhofaza tizimini tashkil etuvchi organlar, ularning vazifalari haqida so'z yuritiladi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday

vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (FVDT), Vazirlar Mahkamasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning majburiyatlari belgilab berilgan.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi Favqulodda vaziyatlar vazirligining vazifalari 8-moddada keltirilgan:

-favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bunday vaziyatlarda aholi hayoti va sog'ligini, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

-aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etadi;

-o'z vakolati doirasida vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi;

-boshqaruv organlarining, aholini va hududlarni muhofaza qilish kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo'lishini tashkil etadi;

-favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari boshqaruvini amalga oshiradi, boshqaruv punktlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tuzadi;

-favqulodda vaziyatlar sharoitida avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar o'tkazilishini tashkil etadi;

-aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

-ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlar bo'yicha loyihalar va qarorlar yuzasidan davlat ekspertizasi o'tkazilishida ishtirok etadi;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

"Fuqarolarning huquq va majburiyatlari" deb nomlanuvchi III bo'lim qonunning asosiy bo'limi hisoblanadi. CHunki ushbu qonun umuman ayni insonni, uning hayotini, salomatligini va shaxsiy mulkini muhofaza qilishga qaratilgan. Bu bo'limda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uzviy birlikda ko'rib chiqilgan.

20-25-moddalar qonunning IV bo'limiii tashkil etadi. Bu bo'lim "Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish"ga bag'ishlangan bo'lib, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan kuch va vositalar, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalar chegarasi, qo'shimcha kuch va vositalar qaerdan olinadi kabi savollarga javob beradi.

"Yakunlovchi qoidalar" deb nomlanuvchi V bo'lim moliyaviy va moddiy resurslarning zahiralarini barpo etish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi. Bu yerda shuningdek aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi qonunni buzganlik uchun tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar javobgar bo'lishlari ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi 1999 yil 20 avgustdagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish

to’g’risida”gi qonunning qabul qilinishi, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini og’ishmay amalga oshirish, haqiqiy xavf-xatar manbalarini va ularning tabiatini anglab yetish har bir kishiga o’zini yuz berishi mumkin bo’lgan avariya, halokat, tabiiy ofatlardan muhofaza qilinganini sezish imkoniyatini beradi.

O’zbekiston Respublikasi 2000 yil 26 maydagi “Fuqaro muhofazasi to’g’risidagi” qonun harbiy harakatlar olib borish davri masalalariga bag’ishlangan. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Qonun V bo’lim va 23 moddalardan iborat. I bo’lim – “Umumiy qoidalar” - beshta moddani o’z ichiga olib, bu moddalarda fuqaro muhofazasining asosiy tushunchalari, vazifalari, qonun hujjatlari, ushbu qonunni buzganlik uchun javobgarlik va xalqaro hamkorlik to’g’risida ma’lumotlar berilgan.

Fuqaro muhofazasi - harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O’zbekiston Respublikasi aqolisini, hududlarni, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o’tkaziladigan tadbirlarning davlat tizimi.

Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalanish usullariga o’rgatish;

-ob’ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayyorlash;

-boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish;

-iqtisodiyot ob’ektlarining barqaror ishlashini ta’minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o’tkazish;

-aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;

-fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarining shayligani ta’minlash;

-aholini umumiy va yakka muhofazalanish vositalari bilan ta’minlash tadbirlarini o’tkazish;

-aholining harbiy harakatlar olib borish paytidagi yoki shu harakatlar oqibatidagi hayot faoliyatini ta’minlash;

-radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish;

-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo’lmaydigan ishlarni o’tkazish;

-harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarar ko’rgan hududlarda jamoat tartibini yo’lga qo’yish va saqlab turish;

-aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

“Fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, davlat organlari va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari” deb nomlangan II bo’limning asosiy maqsadi fuqaro muhofazasiga rahbarlikni amalga oshiruvchi fuqaro muhofazasi

sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari, vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlari, tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifalari nimalardan iborat degan savollarga javob berishdan iborat.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi fuqarolarning huquq va majburiyatlari III bo'limda keltirilgan. Fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish uchun fuqaro muhofazasi sohasida yetarli bilimga ega bo'lishlari zarur. SHu sababli ham ularni fuqaro muhofazasi sohasida o'rgatish 1b-modda bilan umumiy va majburiy deb belgilab qo'yilgan.

IV bo'lim – "Fuqaro muhofazasi xizmatlari va kuchlari" - fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur xizmatlar va kuchlar, tuzilmalarning tarkibini aniqlab beradi.

Va nihoyat, V bo'lim "Fuqaro muhofazasini moliyaviy ta'minlash. Fuqaro muhofazasi ob'ektlari va mol–mulki" deb nomlangan. Bu bo'limda fuqaro muhofazasini moliyalash, fuqaro muhofazasi qo'shinlarining asosiy fondlari, ob'ektlari va mol-mulki masalasi ko'rib chiqilgan.

Ma'lumki, respublikamizda mavjud bo'lgan gidrotexnika inshootlarida avariya, halokat yuz bergudek bo'lsa, aholi va hududlarimizga ma'lum mikdorda xavf tug'dirishi mumkin. SHu sababli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasida, ya'ni 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan qonunlardan biri "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" deb nomlandi.

Qonun 15 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ularni rekonstruktsiya qilish, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda gidrotexnika inshootlari, foydalanuvchi tashkilot, favqulodda vaziyat, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi, xavfsizlik deklaratsiyasi, xavfsizlik mezonlari, gidrotexnika inshooti avariya xavfining yo'l qo'yiladigan darajasi kabi tushunchalarga ta'rif berilgan. Bundan tashqari qonunda Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ko'rsatib berilgan hamda gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazorati haqida so'z yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspektsiyasi gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazoratiii amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'lishlari alohida belgilab qo'yilgan (15-modda).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000 yil 31 avgustda qabul qilingan "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi qonun alohida o'rin tutadi. Ushbu qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'ligi va mol-mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Favqulodda vaziyatlar ichida o’zining keltiradigan kulfatlari bilan radiatsiyaviy avariyalar alohida ajralib turadi. Boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarning inson sog’ligiga keltiradigan zarari tezda ko’zga ko’rinmaydi. SHuning uchun ushbu qonun aholi hayoti va salomatligini muhofaza qilishda muhim o’rin tutadi.

Ushbu qonun V bo’lim va 28 modadan iborat bo’lib, ularda asosiy tushunchalarga ta’rif berilgan, radiatsiyaviy xavfsizlikni tartibga solish, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlashga qo’yiladigan talablar, radiatsiyaviy avariya sodir bo’lganda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash kabi masalalar ko’rib chiqilgan. Qonunning I bo’limida ushbu qonunning maqsadi, qonunda qo’llaniladigan asosiy tushunchalar, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy tamoyillari, fuqarolarning radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlashdagi huquq va majburiyatlari, fuqarolarning ijtimoiy muhofazasi masalalariga o’rin berilgan.

Ikkinchi bo’lim “Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash sohasini tartibga solish” deb nomlanadi va radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash sohasi davlat tomonidan qanday tartibga solinadi, nazorat qanday olib boriladi, davlat ekspertizasi qanday bo’ladi kabi savollarga javob beradi. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi davlat nazoratini sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi, O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi, O’zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo’mitasi va O’zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo’mitasi amalga oshiradi (8-modda).

“Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlashga doir talablar” III bo’limda (12-22-moddalar) keltirilgan. Bo’limda tabiiy radionuklidlar ta’sir etish chog’ida, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda ichimlik suvidan foydalanishda, tibiiy rentgenoradiologik muolajalar o’tkazilganda xavfsizlikni ta’minlash tartiblari yoritib berilgan.

“Radiatsiyaviy avariya sodir bo’lganda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash”ni IV bo’limdagi 23-25-moddalar bayon etadi. Bu bo’limda fuqarolar va atrof muhit radiatsiyaviy avariyalardan muhofaza qilinishlari shartligi (23-modda) bildirilgan va ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchining avariya sodir bo’lgan paytdagi majburiyatlari (24-modda) keltirilgan.

V bo’lim – “Yakuniy qoidalar” xalqaro shartnomalar, nizolarni hal etish va qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka bag’ishlangan.

Oxirgi vaqtlarda yuzaga kelgan ayrim vaziyatlar respublikamiz hududida terroristik harakatlar ham sodir bo’lishi mumkinligini ko’rsatib berdi. Respublikamiz hukumati aholi xavfsizligini ta’minlash uchun 2000 yil 15 dekabrda “Terrorizmga qarshi kurash to’g’risida” maxsus qonunni qabul qildi.

Qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo’lib, asosiy vazifalari etib shaxs, jamiyat va davlatning terrorizmdan xavfsizligini ta’minlash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini qimoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Qonun “Umumiy qoidalar”, “Davlat organlarining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari”, “Terrorchilikka qarshi operatsiyaning o’tkazilishi”, “Terrorchilik harakati oqibatida yetkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi” hamda “Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok

etayotgan shaxslarning huquqiy va ijtimoiy qimoyasi” deb nomlanuvchi V bo’limdan iborat bo’lib, 31 moddani o’z ichiga oladi.

Terrorizmga qarshi kurashni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar ko’maklashishlari zarurligi 6-moddada belgilab berilgan.

Terrorizmga qarshi kurashishni O’zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo’mita, Davlat bojxona qo’mitasi, Mudofaa hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi amalga oshiradi (8-modda). Jumladan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlardan aholini muhofaza qilish, terrorchilar harakat qilayottan zonada joylashgan alohida muhim, toifalangan va boshqa ob’ektlar barqaror ishlashini, shuningdek terrorchilik oqibatlarini tugatish yuzasidan vazirliklar, davlat qo’mitalari, idoralar va mahalliy davlat Hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tadbirlar o’tkazadi hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi (14-modda).

O’zbekiston Respublikasi 2006 yil 28 sentyabrda “Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarini sanoat xavfsizligi to’g’risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 23 moddadan iborat bo’lib, maqsadi xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Respublikamiz hukumati tomonidan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil topgan kundan e’tiboran aholi xavfsizligini kafolatlovchi, fuqarolar mas’uliyati va jamiyat taraqqiyotining huquqiy zaminini belgilovchi bir qancha rahbar va me’yoriy hujjatlar qabul qilindiki, ular o’z navbatida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni oydinlashtirib berishga qaratilgandir. Bu hujjatlar jumlasiga O’zbekiston Resdublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va favqulodda vaziyatlar vazirining qabul qiladigan tashkiliy ko’rsatmalari ham kiradi.

1.2 O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Qarorlari

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 11 aprelda qabul qilingan 143-sonli “O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to’g’risida”gi qarorida O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to’g’risidagi Nizom va uning tuzilmasi to’g’risida so’z yuritilgan.

O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi avariyalar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi ishlarga rahbarlikni hamda ularni muvofiqlashtirib borish ishlarini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Vazirlik tarkibida Vazir (hay’at raisi), lavozimi bo’yicha vazir o’rinbosarlari, vazirlikning hamda unga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, shuningdek, boshqa vazirliklar va idoralarning rahbar xodimlari asosida faoliyat olib boradi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 24 avgustdagi “O’zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat

qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 242-sonli qarori qabul qilindi. FVDT boshqaruv organlari, respublika va mahalliy hokimiyat organlarini, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiradigan korxonalar va muassasalarning kuch va vositalarini birlashtiradi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xavfsizligini, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tinchlik va harbiy davrda davlat iqtisodiyotiga zararni kamaytirishni ta’minlashga mo’ljallangan.

Qarorda FVDTning vazifalari, tarkibiy tuzilmasi, FVDT rahbar
va kundalik boshqaruv organlari, kuch va vositalari, moliyaviy va moddiy resurslar zahiralari, xabar berish, aloqa, boshqaruv tizimlari, faoliyat rejimlari keng, aniq va ravshan yoritib berilgan. FVDT boshqaruv organlarining respublika, mahalliy va ob’ektlar darajasidagi vazifalari belgilangan. Qarorga FVDT funktsional quyi tizimini tashkil etuvchi vazirlik va idoralar ro’yxati ilova qilingan bo’lib, ulardan har birining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi funktsiyalari keltirilgan.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi 455-sonli “Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarniig tasnifi to’g’risida”gi qarorida mamlakatimiz hududida sodir bo’lishi mumkin bo’lgan barcha favqulodda vaziyatlar kelib chiqish xarakteriga va o’lchamlariga ko’ra tasniflab berilgan.

Favqulodda vaziyatlar xarakteriga ko’ra tabiiy, texnogen va ekologik hamda o’lchamiga ko’ra lokal, mahalliy, respublika va transchegara favqulodda vaziyatlarga bo’linadi.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimida kadrlar tayyorgarligi masalasi muhim o’rin tutadi.

Aholini va rahbarlar tarkibini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash masalalari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 20 oktyabrda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to’g’risida”gi 427-sonli qarorida bayon qilib berilgan.

O’zbekiston Respublikasi fuqarolarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda, shuningdek yashash joyida ularning yoshlari va ijtimoiy guruhlari bo’yicha o’tkazilishi lozim. Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo’yicha tayyorgarlikdan o’tgan fuqarolarimiz muhofazalanishning qoidalarini, birinchi tibbiy yordam ko’rsatish usullarini, jamoa va yakka tartibdagi muhofaza vositalaridan foydalanish qoidalariny bilishlari zarur.

Aholini favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilishga tayyorlash uchun Favqulodda vaziyatlar vazirligi bir nechta vazirliklar - Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog’liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda faoliyat ko’rsatishib kelmoqda. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlar aholi o’rtasida keng tashviqot qilinishi, o’quv dasturlari ishlab chiqilishi, o’quv qo’llanmalari, darsliklar tayyorlanishi talab etiladi.

Tayyorgarlik ishlarini olib borishni samarali tashkil etish maqsadida har bir o’quv yiliga tashkiliy ko’rsatmalar qabul qilinadi. Unda umumiy o’rta ta’lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy o’quv yurtlari, korxona, tashkilot va muasssasalarda, shuningdek aholi manzilgohlarida alohida dastur asosida tayyorgarlik ishlari olib borilishi zarurligi ta’kidlanib, o’rganilishi lozim bo’lgan mavzularning taxminiy ro’yxatlari keltiriladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil topgunga qadar ham aholi salomatligini ta’minlash, aholi va hududllrni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalariga katta axamiyat berilgan. Bu borada respublikamiz hukumati tomonidan bir nechta qarorlar qabul qilingan. Ulardan biri O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994 yil 12 aprelda qabul qilgan “Toshqin, sel oqimlarini oqizib yuborish va ko’chki hodisalari bilan bog’liq bo’lgan halokatli oqibatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari to’rrisida”gi 201-sonli qaroridir.

Ma’lumki, har yili sel, toshqin, o’pirilish va ko’chkilar tufayli yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlar katta vayronagarchiliklarga sabab bo’ladi, respublika iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkaziladi, ba’zan esa odamlarning o’limiga sabab bo’ladi. Sel, toshqin oqimlarini talafotsiz oqizib yuborish, ko’chki hodisalarining oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida joylarda tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish, shuningdek, odamlarning to’liq xavfsizligini ta’minlash bo’yicha ishlarni tashkil etish uchun shaxsiy javobgarlik viloyatlar, shaharlar, tumanlar hokimlari, vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining zimmasiga yuklanadi.

Bugungi kunda, sel va suv toshqinlarini oldini olish bilan bog’liq mamlakatimizning normativ-huquqiy hujjatlaridan eng asosiylaridan biri O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 fevralь “Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko’chish va yer ko’chki hodisalari bilan bog’liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to’g’risida”gi 585-sonli qarori xizmat qilmoqda.

Joylardagi imkoniyatlardan biri-muqobil xizmatchilar hisobiga ixtiyoriy avariya-qutqaruv tuzilmalarini tashkil qilish, ularni zarur kiyim-kechak, asbob-uskunalar bilan ta’minlash va umuman moliyaviy, moddiy-texnik zahiralarni to’plash ishlarini tashkil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hal qilinmagan muammolar qatoriga:

-ko’chki va toshqin xavfli hududlaridan aholini ko’chirish;

-sel kelishi holatlarini oldindan bilish;

- xavfli joylarda yangi qurilishga yo’l qo’ymaslik;

- rahbar xodimlarni va aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va shu sharoitlarda xavfli joylarda yashayotgan aholimizni ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida sug’urta tizimlaridan to’la darajada foydalanish muammolari kiradi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yilning 18 yanvarida “O’zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 32-sonli qarori ushbu maqsadlarda samaradorlikni oshirish, shuningdek aholi yashash

joylarida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Qarovsiz qolgan it, mushuk va boshqa hayvonlarni tutish hamda qirib tashlash va ularni tayyorlov tashkilotlariga foydalanish uchun yetkazib berish vazifasi shaharlarda -O'zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga hamda O'zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining joylardagi korxonalariga, qishloq joylarda - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga, uning veterinariya xizmati organlariga, o'zini-o'zi boshqarishning mahalla, ovul va shaharcha organlari (fuqarolar yig'ini)ga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2003 yil 13 yanvardagi "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 15-sonli sonli qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o'tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

Davlat standartlari. O'zbekiston Respublikasi aholisini va iqtisodiyot ob'ektlarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli turli halokatlardan muhofaza qilish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli tadbirlar orasida huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va qayotga tadbiq etish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Mana shunday muhim hujjatlardan biri Davlat standartlari hisoblanadi.

Davlat standartlari tashkilotlar, muassasalar, idoralar va ilmiy dargohlarda ish yuritish, amalda qo'llash bo'yicha favqulodda vaziyatlarning yagona tizimiga asos yaratadi. Fuqaro muhofazasi instituti xodimlari tomonidan bir nechta standartlar tayyorlangan:

1. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Asosiy tushunchalarning atamalari va ta'riflari".

2. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar. Atamalar va ta'riflar".

3. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar. Atamalar va ta'riflar".

4. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va bashoratlash. Atamalar va ta'riflar".

5. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi. Asosiy qoidalar".

6. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar manbalari. SHikastlovchi omillar va ular ko'rsatkichlarining tasnifi va nomenklaturasi".

7. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar manbalari. SHikastlovchi omillar. SHikastlovchi ta'sir ko'rsatkichlarining nomenklaturasi".

Barcha davlat va nodavlat tashkilotlari joriy hujjatlarini ishlab chiqilgan standart talablari asosida muvofiqlashtirishlari va ularga tayanib ish yuritishlari talab qilinadi.

1.3 O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri-Fuqaro muhofazasi boshlig’ining normativ-huquqiy hujjatlar

Inson, hujjat, axborot, boshqarishning barcha pog’onalarini, shu kabilar ish yuritishning ajralmas qismidir. Ijtimoiy, siyosiy va turli soha rahbarlari ish yuritishda oqilona va samaralisi normativ-huquqiy hujjatdir. Mukammal va oqilona tashkil etilgan norma ijodkorligi har qanday davlat boshqaruvi organlarida ish yuritishning asosi hisoblanadi.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar FVDT va fuqaro muhofazasi tuzilmalariga vazifalarni belgilab berish bilan bir qatorda ularni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yuzaga kelganda bartaraf etish bo’yicha vazifalarni o’zida aks ettiradi. Eng asosiysi, insonlar hayot faoliyatiga jiddiy shikastlar va tabiiy ofatlar ta’sirini oldini olish bo’yicha chora-tadbirlarni mustahkamlaydi.

O’zbekiston Respublikasi “Fuqaro muhofazasi to’g’risida”gi qonun asosida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga rahbarlik qilish vakolatli davlat organlariga vazifalar belgilab berilgan. Ushbu qonunning II bobi Fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, davlat organlari va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari keltirib o’tilgan. Qonunning 6-moddasida “Fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish” deb nomlanilgan hamda O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasiga umumiy rahbarlikni O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshirish belgilab berilgan. SHuningdek, O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri mamlakat fuqaro muhofazasining boshlig’i etib belgilab berilgan. Qolversa, Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hududlarida fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni tegishincha lavozimiga ko’ra fuqaro muhofazasining boshlig’i bo’lgan Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari amalga oshirishi nazarda tutilgan.

Fuqaro muhofazasi boshlig’i o’z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

fuqaro muhofazasining tegishli rejalarini amalga joriy etish;

aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish to’g’risida qarorlar qabul qilish;

fuqaro muhofazasi bo’yicha direktivalar, buyruqlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarish;

o’z tasarrufidagi hududlar hamda tashkilotlarning kuchlari va vositalarini fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni o’tkazishga jalb etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Fuqaro muhofazasi boshliqlarining aholini va hududlarni muhofaza qilish masalalari bo’yicha direktivalari, buyruqlari, qarorlari va farmoyishlari barcha tashkilotlar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiyligi belgilab berilgan.

Aholini va hududlarni zamonaviy qirg’in vositalari qo’llanilishi oqibatlaridan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishga oid harakatlarni muvofiqlashtirish tegishli hududlar, tarmoqlar va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi boshliqlari zimmasiga yuklanadi.

Fuqaro muhofazasi tomonidan qabul qilinadigan me’yoriy-huquqiy hujjatlar hududdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, moddi-ma’naviy boyliklarni asrash, aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va harbiy davrlarda muhofaza qilish uchun xizmat qiladi.

Fuqaro muhofazasi boshlig’ining ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab berilgan vazifa hamda topshiriqlar hududiy davlat va xo’jalik boshqaruv organlari hamda fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar tarkibiga favqulodda vaziyatlarning oldini olish chora-tadbirlari, favqulodda vaziyatlarni o’z vaqtida monitoring qilib borish, fuqaro muhofazasi ishlariga jalb etiladigan kuch va vositalarni doimiy shayligini ta’minlash hamda nazorat qilishni joy olgan bo’ladi. Bundan tashqari aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, boshqaruv organlari va xizmatlarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash, o’rgatish, shuningdek tashkiliy masalalarni o’zida mujassam etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yuzaga kelganda bartaraf etish uchun tadbirlar majmuini oldindan ishlab chiqish va ularni bajarish uchun mas’uldir. Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen ofatlardan muhofaza qilishda normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi favqulodda vaziyatlarning oldini olishning dastlabki va samarali bosiqichi hisoblanadi.

“Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo’yicha ____ yilda amalga oshirilgan tadbirlar yakuni va ____ yil uchun belgilangan vazifalar to’g’risida” (keyingi o’rinda Asosiy tadbirlar rejasi deb yuritiladi) Fuqaro muhofazasi boshlig’ining buyrug’i.

O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri-Fuqaro muhofazasi boshlig’i tomonidan har yili, yil boshida ushbu hujjat qabul qilinadi va joylardagi Fuqaro muhofazasi boshliqlariga ijro uchun yuboriladi. Asosiy tadbirlar rejasida yil mobaynida davlat va xo’jalik boshqaruv organlari hamda ularni funtsional quyi tizimlari korxona va tashkilotlarda o’tkaziladigan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar rejasini o’z ichiga oladi.

Asosiy tadbirlar rejasini maqsadi, FVDT uning funktsional va hududiy quyi tizimiga kiruvchi idora va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish, aholini, shuningdek hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, FVDTning boshqaruv organlari hamda kuch va vositalarining tayyorgarligini ta’minlash hamda aholini favqulodda vaziyatlar sodir bo’lganda to’g’ri xarakat qilishni o’z ichiga oladi.

Asosiy tadbirlar rejasiga quyidagilar ilova qilinadi:

- favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimining boshqaruv organlari, kuchlari va aholini tayyorlash bo’yicha joriy yil uchun tashkiliy ko’rsatmalar;
- aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo’yicha FVDTni viloyat hududiy quyi tizimining joriy yil uchun asosiy tadbirlar;

- viloyat, shahar va tumanlarda hamda korxona, tashkilot va iqtisodiyot ob’ektlarida joriy yilda o’tkazilishi rejalashtirilgan o’quv mashg’ulotlar reja-jadvali;
- Fuqaro muhofazasi instituti va viloyat FVB Aholi va rahbarlar tarkibini tayyorlash markazida fuqaro muhofazasi sohasi bo’yicha ob’ekt xodimlarini tinglovchilar bilan jamlash o’z ichiga olgan bo’ladi.

Asosiy tadbirlar rejasi fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish strategik chora-tadbirlari majmui desak, maqsadga muvofiq bo’ladi. Asosiy tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni bajarilgangaligi to’g’risida axborotlarni Fuqaro muhofazasi boshlig’ining yuqori turuvchi rahbariyatiga berib boriladi.

SHunday qilib, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muqofazasining huquqiy asosini tashkil etuvchi hujjatlar bilan tanishib chiqdik. Bu hujjatlar talablarini chuqur bilmasdan turib favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini samarali amalga oshirib bo’lmaydi. Har bir rahbar xodim, har bir fuqaro muhofazasi bo’yicha mutaxassis bu hujjatlarni bilib, o’rganibgina qolmay, zarur bo’lgan vaziyatlarda ulardan kelib chiqadigan talablarni amalda qo’llay bilishi ham lozimdir.

3-ma’ruza: Geologik xavfli hodisalar

O’quv savollari:

1. Zilzilalar kelib chiqish sabablari va zilzila vaqtida harakatlanish qoidalari.
2. Er ko’chkilari va tog’ o’pirilishlari vujudga kelish sabablari.
3. Geologik xavflar yuzaga kelganda harakatlanish qoidalari va ularning oldini olish chora-tadbirlari.

Er silkinishi va uning oqibatlari. Tabiiy ofatlar ichida eng xavflisi va dahshatlisi bu - yer silkinishidir (zilzila). Yer silkinishi - yer osti zarbasi va yer ustki qatlamining tebranishi bo’lib, tabiiy ofatlar, texnologik jarayonlar tufayli yuzaga keladi. Yer ostki zarbasining paydo bo’lish o’chog’i, yerning ostki qatlamidagi uzoq vaqt yig’ilib qolgan energiyaning ozod bo’lish jarayoni tufayli yuzaga keladi. O’choqning ichki qismi markazi giposentr deyiladi, yerni ustki qismidagi markaz epitsentr deyiladi.

Er silkinishi yuzaga kelish sabablariga ko’ra quyidagi guruhlarga bo’linadi:

- Tektonik zilzilalar;
- Vulqon zilzilalari;
- Ag’darilish, o’pirilish zilzilalari;
- Texnogen (insonning muhandislik faoliyati bilan bog’liq) zilzilalar.

Yuqorida qayd etilgan yer silkinish turlari ichida katta maydonga tarqaladigani va eng ko’p talafot keltiradigani tektonik yer silkinishidir.

Bunday yer silkinishlar haqida gap ketganda litosfera o’ramlarida bo’ladigan harakat (tektonik kuchlar) tushuniladi.

Qiya sathlarida tog’ jinslarining katta bo’laklarini ag’darilishi yoki tog’larning o’pirilishi natijasida yuzaga keluvchi yer silkinishlar ag’darilish zilzilalari deyiladi. Bu yer silkinishining tarqalish maydoni kichik, ko’p hollarda talofotsiz bo’ladi.

Vulqon jarayoni, ya’ni yer ostidagi magmani vulqon kanali orqali yer yuzasiga chiqishi bilan bog’liq bo’lgan yer silkinishiga vulqoniy yer silkinishi deb ataladi. Bunday yer silkinish vulqonning faollashishi bilan bog’liq bo’lganligi sababli aksariyat ko’p hollarda ular aniq bashorat qilinadi. SHuning uchun uning keltiradigan talofoti deyarli kuchli bo’lmaydi.

Insonning muhandislik faoliyati bilan bog’liq bo’lgan yer silkinishlar asosan oxirgi yillarda kuzatilmoqda. Bunday yer silkinish yirik suv omborlari vujudga kelgan hududlarda, gaz, neft mahsulotlarining yer ostidan so’rib olinishi jarayoni amalga oshgan maydonlarda yuz bermoqda. Inson o’zining muhandislik faoliyati bilan yer osti komponentlariga muayyan ta’sir etishi, u yoki bu darajada o’zgartirishi yer silkinishining vujudga kelishiga sabab bo’lmoqda. Daryo vodiylariga to’g’onlarning qurilishi natijasida maydoni bir necha ming km^2, hajmi bir necha yuz km^3 dan katta bo’lgan (masalan, CHorvoq suv omborining umumiy hajmi 2,1 mld. m^3, suv sathi maydoni 3640 ga teng) suv omborlari vujudga kelmoqda. Yer qa’ridan 4000-5000 m chuqurlikda yotgan gaz, neft yer sathiga so’rib chiqarilmoqda, yer ostida uzoq geologik davrlar mobaynida yotgan ko’mir ana shu yer qa’rida yondirilib gazga aylantirib olinmoqda. Vaqtincha saqlash maqsadida ba’zan yer osti g’orlariga, chuqurlarga va tog’ jinslari g’ovaklariga gaz, neft mahsulotlari yuqori

bosim ostida kiritilmoqda, juda katta miqdordagi mineral suvlar yer ostidan chiqarib olinmoqda. Yer qa’rining odamlar ta’sir etish joylarida yig’ilayotgan energiya miqdorining u yoki bu darajada oshishi yoki kamayishi oqibatida sodir bo’lgan yer silkinishlar Hindiston, AQSH va O’zbekistonda kuzatilganligi fandan ma’lum. Jumladan, CHorvoq suv ombori qurilib bo’lingandan keyin bu hududda bir necha marta yer silkinishlar bo’lib o’tgan. Tekshirishlarning ko’rsatishicha, bu yer silkinishlar o’zlarining tayyorlanish, sodir bo’lish mexanizmlari bilan CHorvoq suv omboriga yig’ilgan suvning miqdori va yig’ilgan suvni suv omboridan chiqarilish tezligi bilan bog’liq holda yuz berishi kuzatilgan. Bunga birinchidan, suv omborining 2,1 mld. m^3 dan ortiq suv bilan to’latilishi jarayonida, ombor tubida yotuvchi tog’ jinslarining siqilishi va taranglashishi oqibatida yuz beradigan mikrosiniqlar, darz ketishlar va ularning nisbiy harakati sabab bo’lsa, ikkinchidan, suvni suv omboridan bir me’yorida chiqarilmasligi va tog’ jinslariga ta’sir qiluvchi kuchlarning nomutanosib holatda bo’shatilishi, o’zgarishi sabab bo’lgan.

Respublikamizning g’arbiy hududida 1976, 1984 yillarda yuz bergan 8-10 balli Gazlidagi yer silkinishlarini ba’zi olimlar ana shu hududdagi mavjud gaz konlari va ulardan gazni so’rib olish jarayoni bilan bog’lashadi. 1976 yildagi Gazli yer silkinishining giposentri (zilzila o’chog’i, litosferaning ma’lum chuqurlikdagi tog’ jinslari qatlamlarining uzilishi, surilish joyi) yer qobig’ining 5-25 km chuqur oralig’ida, 1984 yilgi yer silkinishida esa 50-200 km oralig’ida joylashgan. Yer silkinish hodisasini vujudga keltiruvchi energiyaning yig’ilishi, sarflanish darajasi, silkinish hududlaridan so’rib olingan gazning miqdori, yer qa’ri tog’ jinsi qatlamlariga tushayotgan tabiiy bosimning mutanosibligini ma’lum darajada buzilganligini oqibati zilzilaning sodir bo’lish vaqtini tezlashtiradi.

Er silkinish o’chog’i - giposentrning joylashgan chuqurligi bo’yicha: yerning yuza qismida - 70 km gacha, o’rta qismida - 70-300 km va chuqur qismida - 300 km dan pastda «mantiya» qatlamida vujudga keladigan xillarini ajratish mumkin. Respublikamizda kuzatiladigan zilzilalarning o’chog’i asosan 70 km gacha chuqurliklarda joylashganligi qayd etilgan.

Mantiyadagi katta bosim yoki portlashlar tufayli zilzila o’chog’i vujudga keladi, natijada katta kuchlanishlar paydo bo’ladi, bular o’z navbatida yerning ustki qatlamining tebranishiga olib keladi. Giposentrdan hamma tarafga, qaytar seysmik to’lqinlar tarqaladi, ular asosan uzunasiga va ko’ndalang turlariga bo’linadi (sxema). Yer ostidan uzunasiga tarqalayotgan (vertikal tarzda) to’lqinlar o’z yo’nalishi bo’yicha navbatma-navbat yer po’stlog’ini siqib, er yuzasiga chiqqanda tovush chiqaradi. Bu esa yer silkinish oldidan chiqadigan tovushning o’zginasidir. Ko’ndalang to’lqinlar (gorizontal) yer yuzasiga chiqib zilzila to’lqinlarini vujudga keltiradi va epitsentrdan barcha taraflarga tarqaladi:



Kuchli yer silkinishi oqibatida yerning yaxlitligi, butunligi o’zgaradi, inshootlar, jihozlar buziladi, kommunal-energetik qismlar ishdan chiqishi, insonlar o’limi yuz beradi. Yer silkinishi ko’pchilik hollarda ma’lum intensivlikda chiqadigan tovush bilan yuz beradi va uning past-balandligi yer qimirlashining kuchiga bog’liq. Yer qimirlashining asosiy ko’rsatkichlari quyidagilardan iborat: yer silkinish o’chog’ining chuqurligi, silkinish amplitudasi va yer silkinishining intensiv energiyasi.

Er silkinish kuchining xususiyatlari :

MSK shkalasi bo’yicha yer silkinish kuchiga qarab quyidagi holatlar kuzatiladi:

1 ball - sezilarsiz, faqatgina seysmik asboblar qayd qiladi;

2 ball - juda kuchsiz, uy ichida o’tirgan ba’zi odamlar sezishi mumkin (deraza oynalari titraydi);

3 ball - kuchsiz, ko’pchilik odamlar sezmaydi, ochiq joyda tinch o’tirgan odam sezishi mumkin. Osilgan jismlar asta sekin tebranadi;

4 ball - o’rtacha sezilarli. Ochiq joyda, bino ichida turgan odamlar sezadi. Uy devorlari qirsillaydi. Ro’zg’or anjomlari titraydi, osilgan jismlar tebranadi;

5 ball - ancha kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg’onadi, ba’zi odamlar hovliga yugurib chiqadi. Idishlardagi suyuqlik chayqalib to’kiladi, osilgan uy jihozlari qattiq tebranadi;

6 ball - kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg’onadi, ko’pchilik odamlar hovliga yugurib chiqadi. Uy hayvonlari betoqat bo’ladi. Ba’zi hollarda kitob javonidagi kitoblar, ro’zg’or buyumlar javonlaridagi idishlar ag’darilib tushadi;

7 ball - juda kuchli. Ko’pchilik odamlarni qo’rquv bosadi, ko’chaga yugurib chiqadi, avtomobil haydovchilari harakat vaqtida ham sezadi, uy devorlarida katta - katta yoriqlar paydo bo’ladi, hovuzlardagi suv chayqaladi va loyqalanadi.

8 ball - yemiruvchi. Xom g’ishtdan qurilgan imoratlar butunlay vayron bo’ladi, ancha pishiq qilib qurilgan imoratlarda ham yoriqlar paydo bo’ladi, uy tepasidagi mo’rilar yiqiladi, ba’zi daraxtlar butun tanasi bilan yiqiladi, sinadi, tog’li joylarda qulash, surilish hodisalari yuz beradi.

9 ball - vayron qiluvchi. Yer qimirlashiga bardosh beradigan qilib qurilgan imorat va inshootlar ham qattiq shikastlanadi. Oddiy imoratlar butunlay vayron bo’ladi, yer yuzasida yoriqlar paydo bo’ladi, yer osti suvlari sizib chiqishi mumkin.

10 ball - yakson qiluvchi. Hamma imoratlar yakson bo’ladi. Temir yo’l izlari to’lqinsimon shaklga kelib bir tomonga qarab egilib qoladi, yer osti kommunal quvurlari uzilib ketadi, cho’kish hodisalari yuz beradi. Suv havzalari to’lqinlanib qirg’oqqa uriladi, qoyali yon bag’rlarda katta-katta surilish hodisalari sodir bo’ladi.

11 ball - fojiali. Hamma imoratlar deyarlik vayron bo’ladi, to’g’onlar yorilib ketadi, temir yo’llar butunlay ishdan chiqadi, yerning ustki qismida katta-katta yoriqlar paydo bo’ladi, yer ostidan balchiqlar ko’tarilib chiqadi, surilish, qulash hodisalari nihoyasiga yetadi.

12 ball - kuchli fojiali. Yerning ustki qismida katta o’zgarishlar yuz beradi. Hamma imoratlar butunlay vayron bo’ladi, daryolarning o’zani o’zgarib, sharsharalar paydo bo’ladi, tabiiy to’g’onlar vujudga keladi.

MDH hududining 20 foyizga yaqin yeri seysmoaktiv mintaqa hisoblanib, bunday hududlarga asosan tog’lik o’lkalar, Kavkazorti, SHimoliy Kavkaz, Karpat bo’yi, Janubiy Qrim, Moldaviya, Primore o’lkasi, Saxalin, Kamchatka, Kuril orollari, Turkmaniston va O’rta Osiyoning tog’li o’lkalari kiradi.

Yuqorida aytilganidek, yer silkinishida katta moddiy yuqotish hamda minglab odamlar o’limi yuz beradi. Masalan, 1990 yilda Erondagi 8 balli yer qimirlashi oqibatida 50 ming odam o’lib, 1 mln ga yaqin odamlar esa qon yo’qotib, jarohat olganlar. Xuddi shunday holat 1988 yil 7 dekabrda Armanistondagi yer qimirlashida ham kuzatildi. U yerda juda katta kuch bilan (10,5 ball) yer silkingan va oqibatda 25 ming odam o’lgan.

Xuddi shunga o’xshash holat 1966 yildagi Toshkent zilzilasida ham kuzatilgan. Unda 8 balli silkinish sodir bo’lib, imoratlarga, katta qurilishlarga ziyon yetgan. Silkinishlar bir necha kungacha vaqti-vaqti bilan takrorlanib turgan. Buning oqibatida 35 mingdan ortiq uylar vayron bo’lib, 78 ming oila boshpanasiz qolgan, 2 mln. kvadrat metr yerdagi turar joylar, 7600 o’rinli maktablar, 2400 o’rinli maktabgacha tarbiya muassalari ishdan chiqqan, 690 savdo va 84 turli korxona idoralari ziyon ko’rgan.

Er silkinishi keltiradigan talofat inshootning turiga, konstruksiyasiga bog’liq bo’lishi bilan bir qatorda, qurilish maydonlarining muhandis-geologik sharoitiga, ya’ni tog’ jinslari turlarining mustahkamligi darajasiga, xossa va xususiyatlariga bog’liq. Masalan, 1966 yili Toshkent shahrida bo’lgan silkinish natijasida shaharning yer osti suvlari sathi yer yuzasiga yaqin bo’lgan pastqam joylarga joylashgan imoratlar kuchli talofat ko’rdi. SHundan keyin 1966 yili shahar hududida qayta muhandis-geologik xaritalash ishlari o’tkazilib, shahar markazi tuproq sharoiti nuqtayi nazaridan 9 ballik mintaqaga o’tkazildi. Bu degan so’z, 9 ballik mintaqada quriladigan inshootlar konstruksiyasiga va usuliga ma’lum talablar qo’yish va ularni bajarishni talab qiladi.

Seysmoaktiv hududlarda qurilish ishlarini olib borishda davlat tomonidan tasdiqlangan qonun-qoidalarga, talablarga rioya qilinmog’i zarur. Ya’ni shahar qurilishida imoratlarning balandligiga va shakliga katta talablar qo’yiladi, ular quyidagilardan iborat:

- shahar hududida katta-katta ochiq maydonlarning bo’lishi, ya’ni silkinish sodir bo’lgan taqdirda va undan keyin odamlarning yashashi uchun yengil qurilmalar qurish uchun xavfsiz joy zarur;
- suv havzalarining bo’lishi, ya’ni zilzila vaqtida chiqishi mumkin bo’lgan yong’inlarni o’chirish maqsadida foydalanish uchun suv zaxirasiga ega bo’lish;
- inshootlar orasidagi masofa, inshoot balandligidan 1,5 martda katta bo’lishi, chunki imorat talafot ko’rganda bir-biriga ta’sir qilmasligi kerak.

Afsuski, hozirgacha yer silkinishini aniq vaqtini va joyini ayta oladigan uslub yo’q. Lekin yerning tavsifli xususiyatlari, tirik mavjudodlarning xatti-harakatlari o’zgarishiga qarab olimlar yer silkinishi haqida muhim ma’lumotlarni beradilar.

Er silkinishini belgilaydigan ayrim ko’rsatkichlar quyidagilardan iborat: kuchsiz tebranish chastotasining keskin o’sishi, yerning deformatsiyalanishi, tog’ jinslarining elektr qarshiligi o’zgarishi, yer osti suvlar sathining ko’tarilishi, yer osti suvlarida radon miqdorining ortishi va boshqa o’zgarishlar. Bulardan tashqari, yer silkinishi oldidan uy hayvonlarining xatti-harakatlari ham o’zgaradi. Masalan, mushuklar tashqariga chiqib ketadilar, qushlar o’z uyalaridan uchib chiqadilar, chorva mollar juda bezovta bo’lib qoladilar va boshqalar.

Fan va texnikaning rivojlanishi so’zsiz yer silkinishini oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Jumladan, yuqorida ta’kidlanganidek, yer osti suvlarida yer silkinishidan oldin radon gazi miqdorini oshish qonunini birinchi bo’lib o’zbek olimlari tomonidan aniqlangan va bu qonuniyat Toshkent zilzilasi oqibatlarini o’rganishda o’z tasdig’ini topdi.

Hozirgi kunda bu usul bilan Respublikamizda va Markaziy Osiyo davlatlarida ro’y bergan bir necha zilzilalar bashorat qilindi va ular tasdiqlandi.O’zbekiston olimlarining bunday kashfiyoti bilan qiziqib Amerika olimi O. Jeyms shunday degan edi: «Yaqin kunlarda o’zbek mutaxassislari zilzila haqidagi bashoratni xuddi iqlim sharoitini bashorat qilgandek radio orqali e’lon qilish darajasiga etib boradilar». Lekin bu yerda shuni aytib o’tish kerakki, yer silkinishni oldindan bashorat qilish muammosi hali butunlay hal etilmagan. Bunga birdan-bir sabab bu masalaning murakkabligi, ya’ni zaminida yer silkinish jarayonini vujudga keltiradigan giposentr-o’choqning nihoyatda yashirinligi hamda shu «o’choqda» yig’ilgan va yer silkinishiga olib keladigan energiyaning hamda uning sodir bo’lish qonuniyatlarini hali yetarlicha bilmasligimizdadir.

Er silkinish ofatidan muhofaza qilishning bir usuli bu oldindan seysmoaktiv mintaqalarni belgilash hisoblanadi. Bunda insonlar va iqtisodiyot tarmoqlari uchun xavfli bo’lgan 7-8 balli yuqori yer silkinishi mumkin bo’lgan joylarni belgilab xarita tuziladi. Mana shunday seysmoaktiv mintaqalarda oldindan turli muhofaza omillari ko’rilib, inshootlarni qurish, ta’minlash va ba’zi xavfli ishlab chiqarish tarmoqlarini (kimyo zavodlari, AES lar va shunga o’xshash korxonalarni) hatto to’xtatish ishlari amalga oshiriladi.

SHunday ishlar, ya’ni O’zbekistonning seysmoaktiv hududlari xaritasi 1977 yilgacha amal qilib keldi, hozirda O’zbekistondagi ko’plab seysmolog, geolog, muhandis olimlarning uzoq yillar mobaynida o’tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida 1996 yilda O’zbekiston Fanlar Akademiyasining seysmologiya instituti tomonidan O’zbekistonning yangi seysmoaktiv xaritasi tuzilib, bunda har bir hududning seysmologik xususiyatlari hisobga olingan **(1- rasm).**

Xaritada ko’rsatilishicha seysmik rayonlashtirish MSK-64 skalasi bo’yicha quyidagi 3 toifadagi mintaqalarni (zonalarni) belgilashga qaratilgan:

Zona 1> 9 va Mmax > 7,5 (45%);
Zona 1> 8 va Mmax > 6,5-7,0 (49%);
Zona 1< 8 va Mmax < 7 (6%).

Jumladan: Qoraqalpogiston Respublikasi - 6 ballgacha; Xorazm va Samarqand viloyatlarida - 7 ballgacha; Toshkent, Qarshi, Buxoro, Termez, Namangan, Farg’ona shaharlarida - 8 ballgacha; Andijon viloyatida - 9 ballgacha yer silkinish ehtimoli mavjud.

Zilzilaning kuchini baholash. Insoniyat o’zining butun tarixiy taraqqiyoti mobayinida ko’p yer silkinishlarni boshidan kechirgan, unmg ayanchli oqibatlarining guvohi bo’lgan. O’tgan xx asrda eng kuchli yer silkinishlar quyidagi joylarda kuzatilgan:

1920-Yllda Xitoyda - 180 ming,
1923-yilda Yaponiyada -100 ming,
1948-yilda Ashxabadda -110 ming,
1960-yilda Marokashda -12 ming,
1968-yilda Eronda -12 ming,
1970-yilda Peruda -66 ming,
1988-yilda Armanistonda -25 ming,
1990-yilda Tayvanda - (o’lganlar soni aniq emas) va
1999-Yllda Turkiyada - 18 ming odam o’lgan.

Kuchli yer silkinishlari O’zbekiston hududlarida ham kuzatilgan. Jurnladan, 1902-yilda 8-9 ball bilan Andijonda, 1946-yilda Namanganda (CHotqol zilzilasi), 1868 va 1966-yilda 7-8 ball bilan Toshkentda, Gazli-da 8-10 ball bilan va boshqajoylarda. Biming asrimizda esa: 2001-yilda Hindistonda 7,9 ball kuch bilan yer silkinishi oqlbatida 30 mingdan ortiq odam nobud bo’lgan va yuz mingdan ortiq insonlar, boshpanasiz qolganlar, 2003-yil Eronning Kerman viloyati-ning Bam shahrida 6,5 Magnituda kuch bilan yer silkinib, 50 mingdan ortiq odarnlar o’lgan, 50 mingdan ortiq odarnlar jarohatlangan va shahar-dagi uylaming 90 foizdan ortig’i butkul vayron bo’lgan. Ma’lumotlarga ko’ra, Eronda 1990-yildan to shu kungacha 950 martadan ortiq zilzilalar sodir bo’lib, uning oqibatida 117 mingdan ortiq insonlar halok bo’lib, 140 mingdan ortiq insonlar turli darajali jarohat olganlar. 2004-yil Marokko yer sllkinishida 12 ming, 2008-yil Xitoyning "Sechuan" zilzilasida 62 mingdan ortiq odarnlaming o’limi hamda 200 mingdan ortiq insonlaming og"ir jarohat olishi va 5 mIn. dan ortiq ins on-laming boshpanasiz qolishiga olib keldi.

Markaziy Osiyo davlatlarinmg katta yer maydoni yuqori seysmoak-tivlik xususiyatiga ega SHundan O’zbekiston hududining 80% yeri ham yer silkinishiga moyil hisoblanib, u yerlarda 20 mIn dan ortiq odarnlar yashaydi. O’zbekiston seysmologlarining ma’lumotlariga ko’ra, kuchli yer silkinishlari quydagi hududlarda kuzatilishi murnkin: Janubiy Far-g’ona, SHarqiy Farg’ona, Pskom - Korjantaus, Janubiy Tyan-SHan. Ay-nan shu hududlarda o’tgan asrlarda xavfli yer silkinishlar kuzatilgan.

Jurnladan, 1209-y. - Xorazm, 1620-y. - Farg’ona, 1902-y. - Andijon, 1976 va 1984-y. - Gazli va xokoza. Yuqori buzish kuchiga ega bo’lgan yer silkmishlari: 818-y.-Buxoro, 838-y. - Farg’ona, 1208-y. -Xorazm, 1602,1797, 1798, va 1820-y. Farg’ona, 1946 CHotqol, 1976 va 1984-y. Gazli va 1966-y. Toshkentda bo’lgan. Kuchli yer silkinishida yuqorida aytilganidek, yeming yaxlitIigi buzilib, yoriqlar, buloqlar hosil bo’ladi. Bunday vaziyatlarda ko’piriklar, yo’llar, inshoot va qurilmalaming sochilishi yoki buzilishi yuz beradi. Mas alan , 1908-y. Kalifomiyadagi (AQSH) zilzilasida uzunligi 450 km.-ga cho’zilgan yoriqlar paydo bo"lgan. 1957-y. 4-dekabrdagi Gobbiy (Mongoliya) zilzilasida esa uzunligi 260 km. bo’lgan yoriq paydo bo’lib. yoriqning ikki tarafida kengligi 10 m. gacha yerlarning cho"kishi yuz bergan. Xuddi shunga o’xshash holat 1948-yildagi Ashxabod zilzilasida ham kuzatilgan.

Uzoq tarixiy saboq, ya’ni yer silkinishl kishilami ruhiy holatiga bo’lgan ta’siri, imorat va inshootlarning buzilishi, vayron qt1inishi, yer yuzasida vujudga kelgan o’zgarishlar (er sathida yoriqlar va buloqlar-ning paydo bo’lishi) yuz bergan hodisalaming kuchini baholashga o’r-gatgan. Natijada nisbiy baholash shkalasi paydo bo’lgan. Zilzila kuchi ikki xiI o’lchov birligida o’lchanadi. 1. Ball arda; 2. Magnitudada. Dunyoning juda ko’p davlatlarida yer silkinish kuchi 12 balli Xalqaro o’lchov birligida o’lchanadi.

Ball -er yuzasining tebranma harakat darajasini ko’rsatadi. Silki-nish kuchini ballarda o’lchashda «seysmograf»lardan foydalanib, tog’ jinsi zarrachalarining tebranma harakat tezligi topiladi. Ya’ni yozib olin-gan «seysmogrammalar» orqali zarrachalarning tebranish amplitudasi aniqlanadi va shu asosda seysmik to’lqin tezlanishini quyidagi formula orqali hisoblab chiqarish mumkin:

$$a = A\frac{4\pi^2}{T^2}$$

Bunda: a -seysrnik to’lqin tezlanishi, m/s2;

A -tog’ jinsi zarrachasi tebranish amplitudasi, mm;

T -seysmik tebranish davri, s;

$\pi = 3,14$

Yer silkinishining ba'zi ko'rsatkichlari

Rixter bo'yicha (magnituda)	Dunyo bo'yicha 1 yilda yer silkinishning o'rtacha soni	Yerning silkinish muddati, soniya	Kuchli yer silkinishning ta'sir etgan joy radiusi, km.
8,0-8,9	1	30-90	80-160
7,0 - 7,9	15	20-50	50-120
6,0 - 6,9	140	10-30	20-80
5,0-5,9	900	2-15	5-30
4,0 - 4,9	8000	0-5	0-15

Imorat va inshootlarga yer silkinishining ta'siri

Zilzila ta'sirida odatda imorat va inshootlar talafot ko'radi. Ko'rilgan talafot darajasi inshoot loyihasiga.. ishlatilgan qurihsh materiallariga bog'liq. SHuning uchun hamma inshootlar va ularning ko'radigan talafotlari davlat standarti bilan tartibga solinadi.

Inshootlar ko'radigan talafotlari quyidagicha tasninanadi:

1-darajali talafot. Bunda yengil shikastlanish yuz beradi.

2-darajali talafot. Og'ir bo'lmagan shikastlanish sodir etiladi, devor-larda katta bo'lmagan yoriqlar pay do bo'ladi.

3-darajali talafot. Inshootlarning og'ir shikastlanishi yuz beradi, de-vorlarda katta va chuqur yoriqlar paydo bo'ladi.

4-darajali talafot. Imorat va inshootlar ichki devorlarning to'liq buzilishi yuz beradi.

5-darajali talafot. Imorat va inshootlar to'liq buzihshi sodir bo'ladi.

Imorat va inshootlaming konstruksiyasi va qurilish materiallariga qarab tasniflanishi:

A guruh -xom g'isht, paxsa devorli imoratlar:

B guruh -pishiq g'ishtdan qurilgan inshootlar;

V guruh -temir beton, sinchli, va yog'ochdan qurilgan inshootlar.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda davlat standarti (GOST) tomonidan imoratlar guruhining har bir balda ko'radigan talafot darajalari qonunlashtirib qo'yilgan. **Jumladan:**

6 ball - yer silkimsh jarayonida A guruhga mansub inshootlar 2-darajali talafot, B guruhi inshootlari I-darajali talafot ko'radi.

7 ball-A guruhidagi inshootlar 3-darajali talafot ko'radi.

8 ball - A guruhidagi inshootlar 5-darajali, B guruhidagi inshootlar ham 3, 4-darajali, V guruhidagi inshootlar 2-darajali talafot ko'radi.

9 ball - B guruhidagi inshootlar 4-daraj ali, shuningdek, V guruhidagi inshootlar ham 4-darajali talafot ko'radi.

10 ball - B guruhidagi inshootlar 5-darajali, V guruhidagi inshootlar 4-darajali talafot ko'radi.

11 ball - B guruhidagi inshootlar to'liq qulaydi. Tog' jinslarining tik va gorizontal yo'nalishdagi harakati kuzatiladi.

12 ball -amalda yer yuzasida tik inshoot qolmaydi.

Bu fikrlar, u yoki bu ballarda yer silkinishi sodir bo'ladigan hudud-larda ko'riladigan talafot darajasi hisobga olingan holda, faqat ma'lum guruhdagi inshoot va imoratlar qurilishi lozim, degan so'zdir.

Er silkinishi keltiradigan talafot inshootning turiga, konstruksiyasiga bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda. qurilish maydonlarining muhan-dis-geologik sharoitiga, ya'ni tog' jinslari turlarining mustahkamligi da-rajasiga, xossa va xususiyatlariga bog'liq. Masalan, 1966-yili Toshkent shahrida bo'lgan silkinish natijasida shaharning yer osti suvlari sathi yer yuzasiga yaqin bo'igan pastdan joylarga joylashgan imoratlar kuchli talafot ko'rdi. SHundan keyin 1966-yili shahar hududida qayta muhan-dis-geologik xaritalash ishlari o'tkazilib, shahar markazi tuproq sharoiti nuqtayi nazaridan 9 ballik mintaqaga o'tkazildi. Bu degan so'z, 9 ballik mintaqada quriladigan inshootIar konstruksiyasiga va usuliga ma'lum talablar qo'yish va ulami bajarishni talab qiladi.

Seysmoaktiv hududlarda qurilish ishlarim olib borishda davlat to-monidan tasdiqlangan qonun-qoidalarga, talablarga rioya qilinmog'i zarur. Ya 'ni shahar qurilishida imoratlarning balandligiga va shakliga katta talablar qo'yiladi, ular quyidagilardan iborat:

• shahar hududida katta-katta ochiq maydonlaming bo'lishi, ya'ni silkinish sodir bo'lgan taqdirda va undan keyin odamlaming yashashi uchun yengil qurilmalar qurish uchun xavfsiz joy zarur;

• suv havzalarming bo'lishi, ya'ni zilzila vaqtida chiqishi mumkin bo'lgan yong'inlami o'chirish maqsadida foydalanish uchun suv zaxi-rasiga ega bo'lish;

• inshootIar orasidagi masofa, inshoot balandligidan 1,5 martda kat-ta bo'lishi, chunki imorat talafot ko'rganda bir-biriga ta'sir qilmasligi kerak.

Inshootlarni yer silkinishiga bardosh berish xususiyatiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi:

• A - 7 ballgacha chidaydigan kuchsiz seysmochidamli uylar. Bunga tuproqdan, g'ishtdan qurilgan uylar kiradi.

• B - 8 ballgacha chidaydigan uylar. Bu xildagi uylar har xiI yo-g'och karkaslardan tayyorlanadi (sinchi uylar).

• V - 9 ballgacha chidaydigan seysmochidamli uylar. Bu xildagi uy-larga katta metall karkaslardan tayyorlanadigan, temir-beton konstruk-siyalardan qurilgan inshootlar kiradi.

Er silkinish oqibatlarini tugatish chora-tadbirlari

Er silkinishining oqibatlarini tugatishda ishga yaroqli har bir kishi ishtirok etishi zarur va quyidagi ishlar birlamchi ishlar hisoblanadi:

• Yer tagida qolgan. buzilgan va yong'inli uyda qolgan odamlami qutqarish;

• Ishlab chiqarish, kommunal-energetik tizimlarda sodir bo'ladigan avariyalarni to'sish va to'g'riiash (chunki bular inson hayotiga xavf soladi);

• Buzilgan uyiami, mshootlami tiklash:

• Talafot ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish shahobchalarini tayyorlash;

• Yer silkinish o'chog'ida suv ta'rninotini tiklash, Albatta, mana shu ishlami bajarishda ishtirok etayotgan har bir odam ehtiyot choralarini ko'rgan holda kerakli Joylarda shaxsiy himoya vositalardan foydalanishlari zarur. Har qanday

o’zboshimchalik, belgilan-magan chora-tadbirlar va xatti-harakatlami amalga oshirish man etiladi.

Er silkinishi boshqa turdagi tabiiy ofatlarni falokatlarni masalan, yer surilishi, suv toshqinlari, qor ko’chkisi, yong’in chiqishi hamda avariyalarni: kommunal-energetik tizimlami izdan chiqlSHi, kimyo sanoati korxonalarida avariya natijasida KTZM laming tashqariga to’kilishi.

AESlarda radioaktiv moddalarni atmosferaga chiqishi va boshqa xavfli ofatlami yuzaga kelishiga sabab bo"lishi mumkin.

Afsuski, hozirgacha yer silkinishini aniq vaqtini va joyini ayta oladigan uslub yo’q. Lekin yerning tavsifli xususiyatlarlari tirik mavjudodlarning xatti-harakatlari o’zgarishiga qarab olimlar yer silkinishi haqida muhim ma’lumotlami beradilar.

Er silkinishini belgilaydigan ayrim ko’rsatkichlar quyidagilardan iborat: kuchsiz tebranish chastotasining keskin o’sishi, yeming deformatsiyalanishi, tog’ jinslarining elektr qarshiligi o’zgarishi, yer osti suvlar sathining ko’tarilishi, yer osti suvlarida radon miqdorining ortishi va boshqa o’zgarishlar. Bulardan tashqari. yer silkinishi oldidan uy hayvonlarining xatti-harakatlari ham o’zgaradi. Masalan, mushuklar tash-qariga chiqib ketadilar, qushlar o’z uyalaridan uchib chiqadilar, chorva mollar juda bezovta bo’lib qoladilar va boshqalar.

Fan va texnikaning rivojlanishi so’zsiz yer silkinishini oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Jurnladan, yuqorida ta’kidlanganidek, yer osti suvlarida yer silkinishidan oldin radon gazi miqdorini oshish qonunini birinchi bo’lib o’zbek olimlari tomonidan aniqlangan va bu qonuniyat Toshkent zilzilasi oqibatlarini o’rganishda o’z tasdig’ini topdi.

Hozirgi kunda bu usul bilan Respublikrunlzda va Markaziy Osiyo davlatlarida ro’y bergan bu necha zilzilalar bashorat qilindi va ular tasdiqlandi. O’zbekeston olimlarining bunday kashfiyoti bilan qiziqib Amerika olimi O.Jeyms shunday degan edi: «Yaqin kunlarda o’zbek mutaxassislari zilzila haqidagi bashoratni xuddi iqlim sharoitini bashorat qilgandek radio orqali e’lon qilish darajaslga yetib boradilar. Lekin bu yerda shuni aytib o’tish kerakki, yer silkinishni oldindan bashorat qilish muammosi hali butunlay hal etilmagan. Bunga birdan-bir sabab bu masalaning murakkabligi, ya’ni zaminida yer silkinish jarayonini vujudga keltiradigan giposentr-o’choqning nihoyatda yashirinligi hamda shu «o’choqda» yig’ilgan va yer silkinishiga olib keladigan energiyaning hamda uning sodir bo’lish qonuniyatiarini hali yetarlicha bilmasligimizdadir.

Er silkmish of au dan muhofaza qilishnmg bir usuli bu oldindan seysmoaktiv mintaqalarni belgilash hisoblanadi. Bunda insonlar uchun, iqtisodiyot tarmoqlari uchun xavfli bo’lgan 7-8 balli yuqori yer silkinishi mumkin bo’lgan joylami belgilab xarita tuziladi.

O’zbekistonning seysmoaktiv hududlari xaritasi 1977-yilgacha amal qilib keldi, hozirda O’zbekistondagi ko’plab seysmolog, geolog, muhandis olimlarning uzoq yillar mobaynida o’tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida 1996-yilda O’zbekiston Fanlar Akademiyasming seysmologiya instituti tomonidan O’zbekistonning yangi seysmoaktiv xaritasi tuzilib, bunda har bir hududning seysmologik xususiyatlari hlsobga olingan. Yangi xaritada ko’rsatilishicha seysmik

rayonlashtirish MSK-64 shkalasi bo'yicha quyidagi 3 toifadagi mintaqalarni (zonalarni) belgilashga qaratilgan:

Zona 1> 9 va Mmax'{ > 7,5 (45%);

Zona 1> 8 va Mmax { > 6,5-7,0 (49%);

Zona 1 < 8 va Mmax { < 7 (6%).

Jumladan: Qoraqalpoglston Respublikasi - 6 ballgacha; Xorazm va Samarqand viloyatlarida - 7 ballgacha; Toshkent, Qarshi, Buxoro, Termiz, Namangan, Farg'ona shaharlarida - 8 ballgacha; Andijon viloyatida - 9 ballgacha yer silkinish ehtimoli mavjud.

Ushbu xaritada Toshkent shahri uchun ham 6-9 ballgacha bo'ladigan mikroseysmoaktiv hududlar ham belgilab qo'yilganki, hozirgi kunda mana shu ma'lumotlar asosida Toshkent shahrida maqsadli quri-Iishlar amalga oshirilmoqda.

Zilzila vaqtida harakatlanish. SHu yerda ta'kidlab o'tish kerakki, Respublikamizda 170 ta shahar va tumanlar mavjud bo'lib, ulardan 13 tasi yirik shaharlar hisoblanadi. SHaharlarda qurilishlar 5 ta kategoriya bo'yicha amalga oshirilib, ular katta-kichikligidan qat'iy nazar halqa yo'li bilan belgllanishi zarur. CHunki, FV da fuqarolarni faqat tranzit yo'llari orqali (jumladan, halqa yo'llar orqali) harakat qilishga yo'naltirilishi lozim. SHuning uchun har bir korxona rahbari yer silkinishi oqibatlarini kamaytirishning asosiy tadbirlarini bilishi zarur. Bular quyidagilardan iborat:

• Hududning seysmik xaritasi, unda zilzila bo'lish ehtimoli bor joylar va uning kuchi ko'rsatiladi :

• Zilzilaga bardosh beradigan uylar va sanoat inshootlarini qurish;

• Zilzila sodir bo'lib qolgan holda aholi o'zini qanday tutishi va xatti-harakatlar haqida tushuntirish;

• Seysmik stansiyalarda uzluksiz navbatchilikni tashkil qilish va olib borish;

• Zilzilalar haqida aniq xabar va aloqa sistemasini tashkil qilish;

• Qutqaruv, kuch va vositalarni tayyor holga keltirib qo'yish:

• AhoIini xavfsiz hududga o'z vaqtida evakuatsiya qilish tadbirlarini ishlab chiqish;

• Moddiy-texnik ta'minoti (palatkalar, oziq-ovqat, dori-darmon) za-xiralarini tashkil qilish:

• Zilzila haqida xabar beruvchl belgilarni aholiga tushuntirish va o'z vaqtida qo'llash:

Er silkinishini tavsitlaydigan belgilar quyidagilardan iborat:

• yer ostki suvlarining fizik-kimyoviy tarkibini o'zgarishi (laborato-riyada aniqlanadi);

• qushlar va uy hayvonlarining bezovtalanishi, gaz hidining kelishi, havoda chaqmoq chaqishi va yorug'lik paydo bo'lishi:

• bir-biriga yaqin, Ie kin tegmayotgan elektr sirnlaridan uchqun chi-qishi, uylarning ichki devorlarida zangori shu'lalar paydo bo'lishi va luminitsent lampalarining o'z-o'zidan yonishi;

Mana shu belgilarni bilgan har bir fuqaro yoki zilzila haqida xabar eshitganda, sarosimasiz va ishonchli harakat qilishi kerak. Zilzila haqida oldindan xabar berilsa, uyni tashlab chiqishdan avval, gaz va boshqa isitkich asboblarini o'chirish, bolalar

va qariyalarga yordam bensh, zarur buyumlarni, oziq-ovqat, dori-darmonlami va hu,ijatlami olib ko’chaga chiqishlari kerak. Agar zilzila kutilmaganda boshlanib qoIsa, u hoida de-raza va eshik oraliqlariga yoki ko’taruvchi ustunlar tagiga turib olish ke-rak. Dastlabki silkinish zarbasi tinishi bilan zudlik bilan tashqariga chi-qish kerak. SHuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko’p qavatli binolarning eng nozik, ishonchsiz joylari zinapoya va lift shaxtalaridir. SHuning uchun zllzila boshlangan paytda zinapoyalardan yugurish tavsiya etilmaydi va liftlardan foydalanish ta’qiqlanadi, Korxona va muassasalarda zilzila paytida ish to’xtatiladi. Elektr toki suv, gaz va bug’lar to’xtatilib, fuqarolar muhofazasi qismlaridagi ishchi va xizmatchilar oldindan belgilab qo’yilgan joyga to’planadilar, boshqalar esa xavfsiz joylarda bo’ladilar. Zilzila vaqtida uyda bo’imagan fuqarolar uyga shoshmasligi, balki o’sha joy rahbarlanning ko’rsatmalarini diqqat bilan kutib, unga rioya qilgan hoida harakat qilishlari kerak. Zilzila vaqtida jamoat transportini to’la to’xtatIlishini kutib, oldin boialarni, nogiron va qariyalarni tushirish kerak. Yurib ketayotganda sakrab tushib qolish yaramaydi, zilzila vaqti-dajabrlanganlarga asosan yordamni fuqarolar muhofazasi qismlari bera-di, lekin zarur bO’lgan hollarda ahohmng ham yordam berishi maqsadga muvofiqdir.

Er surilishi (er ko’chkisi): sabablari va talafotlari. Tog’ jinslari qatlamlarini qiya sath bo’ylab o’z og’irligi, gidrodinamik, gidrostatik, seysmik kuchlar ta’sirida surilishiga yer surilishi (ko’chki) deyiladi.

Er surilishining vujudga kelish qonuniyatlarini, ularning dinamikasini o’rganish katta ahamiyatga ega. Bu – qurilish ishlarini olib borish sharoitini aniqlashda, iqtisodiyot tarmoqlarini va inson hayotini saqlashda muhim omil hisoblanadi. Yer surilishi oqibatida iqtisodiyot katta zarar ko’radi, ba’zi yirik inshootlar, yo’llar bir necha yuz metrga surilib tashlanadi, katta-katta ekin maydonlari foydalanishga butunlay yaroqsiz bo’lib qoladi, butun-butun qishloqlar, shaharlar vayron bo’ladi, minglab kishilar boshpanasiz qoladi, halokatga uchraydi.

Er surilishi - tog’ jinsining surilish tezligi hamda suriluvchi tog’ jinsini miqyos darajasiga ko’ra turli xilda bo’lishi mumkin. Jumladan, tog’ jinsining surilish tezligi sekin, o’rtacha va kuchli xillari bo’lib, birinchisida surilish bir necha santimetrga, o’rtacha surilishda bir necha metrga, kuchli bo’lganda esa tog’ jinslari soatiga bir necha kilometrga suriladi. Kuchli yer surilishi halokatli bo’lib, ko’plab odamlarning o’limi kuzatiladi. Yer surilishida suriluvchi tog’ jinsi massasi bir necha million, ba’zan milliard kub metrga yetadi. Amerika mutaxassisi F. Jensning ma’lumotiga ko’ra, AQSHda tog’ jinslari surilishlari va cho’kish hodisasi natijasida 1925-1971 yillar mobayinida 75 mld. dollar zarar ko’rilgan, bu esa yiliga 1,63 mld. dollar mablag’ni yo’qotish demakdir.

Markaziy Osiyo Respublikalari hududlarida ham hozirgi kungacha ko’p yer surilishlari kuzatilgan. Masalan, 1964 yil aprel oyida Tojikistonning Ayniy qishlog`ida bo’lgan yer surilishida Zarafshon daryosi butunlay to’silib qolgan. Faqat axolining o’z vaqtida olib borgan sayi - xarakatlari natijasida falokatli oqibatlarning oldi olingan. Eng xavfli yer ko’chkisi 1920 yilda Xitoyning Kansu viloyatida bo’lgan. Bunda kuchli yer silkinishi oqibatida shaxar va qishloqlarni tog’ jinslari bosib, 200 ming insonlarning o’limiga sabab bo’lgan. Xuddi shunday falokat 2009 yilda Indoneziyaning Summatra orolida yuz bergan. Bu falokatning yuz berishiga

kuchli yer silkinishi oqibatida bhalandligi 80 m, uzunligi 400 m bo'lgan tuproq jinsi xarakatga kelib, minglab odamlarning tuproq ostida qolishiga olib kelgan. SHuningdek, 1911 yil 18 fevral kuni Pomirning Muzko'l tog' tizmasida 9 balli yer silkinishi natijasida Usoy yer surilishi sodir bo'lgan. Bu yer silkinish ta'sirida 2,5 km^3 g'ovak tog' jinsi Murg'ab daryosiga surilib tushgan. Bunda surilish 2,5 km masofani bosib o'tib, daryo o'zanini to'sib qo'ygan. Yer surilishi bo'lgan joyga qalinligi 450-500 m, uzunligi 2 km, kengligi 1 km qumtosh, ohaktosh, gips va boshqa tog' jinslaridan iborat massa surilgan. Talofot natijasida Usoy qishlog'i yer surilmasi oqibatida qolib, 54 kishi nobud bo'lgan. Yer surilishi natijasida daryo o'zanini to'sib, balandligi 703-788 m, eni 4,3-5,3 km bo'lgan tabiiy to'g'on vujudga kelgan. Hozirgi paytda bu yerda dunyoga mashhur Sorez ko'li mavjud va yig'ilgan suv miqdori taxminan Norak suv ombori suvi hajmiga to'g'ri keladi.

1984 yil 20 dekabrda Tojikistonning SHarora qishlog'ida ro'y bergan yer surilishi natijasida, taxminan, kengligi 400 m, uzunligi 4,5 km, qalinligi 4,8 m.ga yaqin bo'lgan tog' jinsi harakatga kelib, 540 dan ortiq insonning yostig'ini quritgan. Bu surilishning yuzagi kelishiga asosiy sabab yer qa'rida tarqalgan g'ovak tog' jinslarining suv bilan to'yinishi, yer sathi suvlarining ko'tarilishi hamda 7 balli yer silkinishidir.

Er surilish ofati O'zbekiston hududini ham chetlab o'tmadi. O'zbekiston xududida shu kungacha 12 mingdan ortiq yer ko'chkilari, har yili 150-200, namgarchilik yuqori bo'lgan joylarda esa mingga yaqin ko'chkilar yuz bergan. Masalan, keyingi 20 yil ichida Ohangaron tumaninig konchilik sanoati rivojlangan Olmaliq, Oltintopgan, Bo'stonliq tumanining Xumson, Bog`iston, Xo'jakent, CHibortog` qishloqlarida, Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarining tog` oldi va tog`li xududlarida, shuningdek Namangan, Farg`ona viloyatlarining ayrim xudidlarida yer surilish xodisalari ro'y bermoqda. Halokatli yer surilishlari 1907 y. Qoratog`, 1930, 1943 y. Fayzabod, 1940 y. Xait, 1989 y. G`uzorda yuz berganligi adabiyotlarda keltirilgan.

1973 yili Respublikamizning, Ohangaron vodiysida kuzatilgan tog' jinslarining surilishi XX asrning eng kuchli yer surilishi hisoblanib, uni adabiyotlarda «ATCHI» surilishi deb nomlanadi. Bu surilishda tuproqning hajmi 700 mln m^3 ni tashkil etadi. Bu fojianing ro'y berishiga asosiy sabab, Ohangaron daryosining chap qirg'og'idagi 100-130 m chuqurlikdagi ko'mir qatlamlarini yer qa'rida yondirilishidir. Yondirilgan ko'mir qatlamlarining qalinligi 5-15 metr bo'lib, umumiy hajmi 3,700000 m^3. ni tashkil etgan. 1991 yil Ohangaron vodiysida yana kuchli «Jigariston» yer surilishi ro'y berdi. Ma'lumotlarga qaraganda, bu yer surilishida hajmi 30 mln. m^3 g'ovak tuproq 7 sek davomida surilib, 50 dan ortiq inson hayotini olib ketdi. Bu yer surilishining asosiy sababi katta qalinlikdagi serg'ovak jinslarning mavjudligi va bu tog' jinslarini uzoq yillar davomida olib borilgan portlatish ishlari natijasida silkitib turishi hamda yog'ingarchilikning ko'p bo'lganligidadir. 1994 yil 16 aprelda Ohangaron tumanining Qoraxittoy hududida ham yer surilishi kuzatilib, bu falokatda ham insonlar aziyat chekdilar.

Yuqorida keltirilgan yer surilishlari yuzaga kelishining asosiy sababi tabiiy omillar bo'lib, bunday hodisalar insonning muhandislik faoliyati natijasida ham yuzaga kelishi mumkin.

Er surilishini yuzaga kelishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- Tog' yon bag'ri etaklarining tabiiy holatini oqar suvlar, suv omborlari ta'sirida buzilishi hamda rejasiz olib borilgan qurilish ishlari;
- Qiya sathlarda tarqalgan tog' jismlarining xossa va xususiyatlari, mustahkamlik darajasining o'zgarishi, sug'orish ishlari, qor-yomg'ir suvlari ta'sirida namlikning oshishi;
- Tog' jismlariga yer osti suvlari (gidrodinamik) va yer ustki suvlari (gidrostatik) bosimining ta'siri;
- Tog' jinsining zichligini va mustahkamligining, burg'ulash hamda tog'-kovlash ishlari natijasida buzilishi;
- Tektonik va seysmik kuchlar ta'siri. Surilishlarni yuzaga kelishida hududning iqlim hamda gidrogeologik sharoitlari va boshqalar.

Tog' jinslarining qiya sath bo'ylab surilishida iqlim sharoiti eng muhim omillaridan biri bo'lib u sekin, davomli yog'ingarchiliklar kuzatiladigan yerlarda keng tarqalgan bo'ladi. Bunga sabab yomg'ir suvlari tog' jinslari qa'riga singib (shimilib) ularning zarrachalari orasidagi bog'lanishni, ishqalanishga qarshiligini kamaytiradi, og'irligini oshiradi. Qiya sathlardagi tog' jinsining og'irligi, mustahkamligi o'zgarishi bilan ularning muvozanat holati buziladi va past tomonga surilish yuzaga keladi. SHuning uchun surilishlar asosan qorlar erib, yog'ingarchilik ko'paygan mart oylarida boshlanib, may, iyunda to'xtaydi.

Yog'ingarchilik, qorlar va muzliklarning erishi natijasida daryo va suv havzalarida suv sathining ko'tarilishi qirg'oqlarning yuvilishiga, ya'ni qiya sathlardagi muvozanat holatlarining buzilishiga sabab bo'ladi. Misol sifatida Amudaryo, Zarafshon daryosi qirg'oqlarida, CHorvoq suv ombori atrofida kuzatilgan surilmalarni sanab o'tish mumkin.

Respublikamizda surilish hodisalari asosan dengiz sathidan 800-1800 m balandlikda, lyoss jinslari tarqalgan, qiyaligi $15\text{-}35^0$ bo'lgan tog' yon bag'rilarida kuzatiladi. Ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lgan hollarda (ketma-ket yer silkinishi, gilli va bo'shoq lyoss tog' jinslari suv bilan to'yinishi) bundan ham baland sathlarda kuzatilishi mumkin.

Er surilishida 3 ta bosqich kuzatiladi:

1-bosqich. Surilishning tayyorlanish bosqichi. Bu bosqichda qiya sathlardagi tog' jinsi turg'unligi susayadi, yer sathida turli kenglikdagi yoriqlar paydo bo'ladi.

2-bosqich. Tog' jinslarining katta tezlik bilan yoki sekin-asta surilishi kuzatiladi. Surilish tezligi yuqorida qayd etilgan omillarning ta'sir darajasiga bog'liq bo'ladi.

3-bosqich. Surilishning so'nish bosqichi. Bunda tog' jinslari surilishdan to'xtaydi.

Er surilishlarni chuqur o'rganish - ularni oldidan bashorat qilish imkonini beradi. Buning uchun kompleks muhandis-geologik qidiruv ishlari o'tkaziladi. Surilishi kuzatiladigan maydonlarning tabiiy sharoiti va geologik muhiti fizik andozalarida o'rganiladi, hisoblash ishlari bajariladi.

Er surilishi ofati oldidan kuzatiladigan belgilar quyidagilardan iborat:

Er yuzasida yoriqlarni paydo bo'lishi, yo'llarda uzilishlarning yuzaga kelishi, daraxtlarning to'g'ri o'smasligi (qiyshayib o'sishi), uylarning devorlari yorilishi,

binolar, inshootlar tuzilishida muvozanatining buzilishi va boshqa belgilar paydo bo’ladi.

Mabodo, hududlarda yer surilishi xavfi bo’lsa yoki harakatdagi surilish kuzatilsa, ularni bartaraf qilish, oldini olish ishlari bajariladi, chora-tadbirlar belgilanadi.

Er surilishini vujudga kelishi va harakatdagi surilishlarga qarshi olib boriladigan ishlar mazmuniga qarab ikki guruhga bo’linadi:

- Surilishlarning oldini olish usullari;
- Er surilishni harakati va ta’sirini bartaraf etish usullari.

4-ma’ruza Gidrometeorologik xavfli hodisalar

O’quv savollari

1. Suv toshqinlari va sel haqida umumiy ma’lumot.
2. Qor ko’chkisi va kuchli shamollar tasnifi

Kuchli shamol, qurg’oqchilik va uning oqibatlari. Kuchli shamol, qurg’oqchilik ofatlari ham gidrometerologik favqulodda vaziyatlar turiga kirib, ularning tabiat va jamiyatga salbiy ta’sirlari ortib bormoqda. Jumladan, 1970 yil 13 noyabrda Pokistonning sharqiy hududlarida bo’lgan kuchli shamol oqibatida 10 ml. aholi talofot ko’rdi. SHundan 500 ming kishi halok bo’ldi va bedarak yo’qoldi. SHunga o’xshash salbi oqibatlar 2002 yilda Rossiyada, 2003, 2004 yilda AQSHning bir qancha hududlarida kuzatilgan kuchli dovullar oqibatida ham ro’y bergan.

Kuchli shamol va insonlar hayotiga va iqtisodiyot tarmog’iga jiddiy zarar yetkazadigan ofatdir. Bu ofat uzoq davom etuvchi va buzish kuchiga ega. Bu ofatning tezligi 30-90 m/s ga yetadi. O’rta Osiyo mintaqalarida shamolning kuchi 40-60 m/s ga, O’zbekistonning Xovos, Bekobod tumanlarida esa 50-60 m/s tashkil etadi. Kuchli shamolni paydo bo’lishi, ya’ni atmosferada muvozanatning buzilishi natijasida havo oqimi juda katta tezlikda harakatlanib, ba’zi joylarda, u aylanma (voronka) harakatga kelib qoladi. Bunday ofat oqibatida odamlarning halok bo’lishi, inshootlarning buzilishi, ekinzorlarning payhon etilishi, elektr, aloqa tarmoqlarining izdan chiqishi va boshqa oqibatlarga olib keladi. SHuningdek, kuchli shamol esganda odamlar, uy hayvonlari yuradigan yo’llardan adashadilar, simyog’ochlar, daraxtlar ag’anaydi, uylarning tomlari buzilishi natijasida odamlar turli darajada jarohat oladilar. Masalan, 1997 yilda 2maydan 3mayga o’tar kechasi Qashqadaryo viloyatida kuchli shamol ta’sirida 156838 ga qisloq xo’jalik ekinzorlari, 12 km elektr tarmoqlarining shikastlanishiga, 250 turar joy uylarini, 79.5 km avtomobil yo`llarini suv bosishiga, 393 bosh yirik shoxli qoramolar, 7254 bosh qo’y, echkilar, 26 bosh ot va 13 ming 280 ta xonaki parrandalarning o’limiga olib kelganligi ma’lum.

Bu ofatdan saqlanishning yana bir omili - ofat haqida odamlarni o’z vaqtida ogoh qilishdir. Albatta, hozirgi paytda ob-havoni bir necha kun oldindan ayta oladigan zamonaviy uslublar yaratilganki, bularning bergan ma’lumotlari asosida nafaqat odamlarni, balki uy hayvonlarini, moddiy boyliklarni falokatdan asrash, buzilishini yoki yaroqsiz holga kelishini oldini olish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, kuchli shamol ofati yuz berganda fuqaro muhofazasi tizimlari davlat organlari xodimlari boshchiligida qutqaruv va buzilgan joylarda tiklash ishlarini bajaradi, jabr ko’rganlarga birlamchi tibbiy yordam ko’rsatadi.

Qurg’oqchilik ofati ham O’zbekistonga xos bo’lib, ilgari bunga deyarli e’tibor berilmagan. Lekin keyingi yillarda ekologiyaning haddan tashqari buzilishi, suv resurslaridan noto’g’ri foydalanish va boshqa sabablar oqibatida bizning mintaqada ham bunday ofat aynan hozirgi paytda kuzatilmoqda.

Qurg’oqchilikda odamlarni o’limi, daraxtlar, ekinzorlarning qurishi, kuchli yong’inlarning chiqishi va turli xil kasalliklarning tarqalishiga imkoniyat yaratiladi. Takidlash joizki, O’zbekistonda qurg’oqchilik muammosi Orol dengizi bilan bog’liqdir.

Respublikamiz Prizidenti Islom Karimov «O'zbekiston XX asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida ta'kidlaganidek: «Yaqin-yaqinlargacha cho'lu-sahrolardan tortib olingan va sug'orilgan yangi yerlar haqida dabdaba bilan so'zlanardi. Ayni chog'da ana shu suv Orolda tortib olinganligi, «jonsizlantirib qo'yilganligi» xayolga kelmasdi, endilikda Orolbo'yi ekologik kulfat hududiga aylandi». Ma'lumki, Orol dengizi suvi yildan yilga kamayib, qurib bormoqda. Buning oqibatida dengizga yaqin bo'lgan joylarda dov-daraxtlar, ekinzorlar qurib, turli xil kasalliklar ko'payib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, Amudaryo suvining bor-yo'g'i 10 foiz miqdori Orol dengiziga quyilmoqda. Ammo hozirgi vaziyatda dengizga quyilayotgan suv hajmidan ko'ra atmosferaga bug'lanayotgan suv miqdori bir necha barobar ko'pdir. SHu sababdan, Orol dengizi suvining balandligi ancha pastga tushib ketgan. Endi Orolni ilgarigi holatiga qaytarish uchun unga taxminan 50 km^3 suv quyish kerak, bu degan so'z butun boshli Sirdaryo suvini to'liq quyish bilan barobardir.

Qor ko'chkisining sabablari va oqibatlari. Tog'larning tik yon-bag'irlaridan qor massasining pastlik tomon ag'darilib yoki sirpanib tushishiga tog' ko'chkisi deyiladi. Baland tog'larning ustiga ko'p qor yog'ib, uning qalinligi ortadi va o'z og'irlik kuchi ta'sirida zichlashib, qayta kristallanib, yonbag'irlikka pastlikka qarab osilib turadi va natijada uning qalinligi oshgan sari turg'unligi susayib boradi. Kuchli shamol ta'sirida mana shunday qor massasi harakatga kelib pastlik tomon siljiy boshlaydi yoki ag'darilib tushadi. Qor ko'chkisida suriluvchi massaning hajmi bir necha ming m^3 dan million m^3 gacha tashkil yetadi. Qor ko'chkilari quruq yoki ho'l bo'lishi mumkin. Agar qorning ustki qismi biroz muzlagan bo'lib, uning ustiga qalin qor yog'ib pastga qarab siljisa, quruq ko'chki hosil bo'ladi. Agar qor erigan suvga shimilib, uning tagi ho'llanishi natijasida pastga ag'darilishi ho'l ko'chki hosil bo'ladi. Ho'l ko'chkilar 20-50 km/soat tezlikda, quruq ko'chkilar esa 100 km/soat, ba'zan 300-400 km/soat tezlikda siljiydi. Qor ko'chkilari pastga qarab harakat qilganda, yon-atrofdagi qor massalarini hamda tog' jinslarini o'zi bilan surib ketadi. Mana shuning natijasida qor massasi kattalashib, hajmi bir necha mln. m^3 ga, tezligi esa soatiga 250-350 km ga yetib, o'z yo'lidagi o'rmonlarni sindirib ketadi, imorat va inshootlarni vayron qiladi, oqibatda juda katta moddiy zararni keltirib, insonlar o'limiga sabab bo'lishi mumkin.

Katta hajmli qor ko'chkilari asosan $25\text{-}60^0$ li qiyalikda kuzatiladi. Sirti tekis, o't bilan qoplangan qiyaliklar qor ko'chkisi xavfli bo'ladigan joylar hisoblanib, butali, toshli joylar qor ko'chkisiga to'sqinlik qiladi. SHuning uchun o'rmonzorlarda qor ko'chkisi juda kam kuzatiladi. Masalan, 1990 yilning 13 iyulida Pomir tog'ining eng yuqori cho'qqisida yer silkinishi oqibatida katta hajmdagi qor massasi ko'chib, pastlikka 5300 m balandlikda joylashgan alpinistlar lageriga qulab tushgan va oqibatda 40 nafar odam qor ostida qolgan. 1999 yil 21 noyabrda ko'p miqdorda qor yog'ishi natijasida «Qamchiq» dovonining 157-167 km larida sodir bo'lgan. Bu ofat oqibatida 29 odam halok bo'ldi, 19 kishi turli jarohatlar olgan va 73 kishi sovuqda uzoq muddat qolib ketgan. Favqulodda vaziyatlar vazirining buyrug'iga ko'ra tezkor guruhlar hodisa yuz bergan joyga yetib kelib, tegishli chora-tadbirlar ko'rilgan. Ko'rilgan tadbirlar oqibatida 34 ta turli rusumdagi avtomobillar qor uyumi ostida qolganligi, 6 ta mashinani qor chuqurlik tomon surib tushirganligi aniqlanib zudlik

bilan ular qutqarilgan. Ofat yuz bergan joyga Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari avariya qutqaruv bo'limlari, «Najotkor» Respublika qidiruv-qutqaruv markazi, CHirchiq shahri «Haloskor» maxsus harbiylashtirilgan qidiruv qutqaruv qismi o'z texnik vositalari bilan jalb qilinganlar. Ular yo'llarni qor uyumlaridan tozalab, odamlarni xavfsiz joylarga olib chiqilib, jabr ko'rganlarga birinchi tibbiy yordam va boshqa ko'maklarni ko'rsatganlar. Umuman, bu ofat oqibatida 400 ta transpor vositasi va 1200 dan ziyod yo'lovchi qutqarib qolingan.

Hozirgi vaqtda tog'li hududlarda maqsadli qurilishlar (suv omborlari, geslar, dam olish uylari, davolanish maskanlari) qurilishi munosabati bilan qor ko'chkilari bo'lishi mumkin bo'lgan hududlar aniqlanib, o'rganilib tegishli tadbirlar qilingan. Qor ko'chkilarini oldini olish uchun muhandislik choralarini ko'rish (tog' yon-bag'irlari tekislanib, supalar tashkil etish, daraxtzorlar barpo etish, harakatga keluvchi qor uyumlarini yo'qotish, to'siqlar o'rnatish va boshqa himoyalanuvchi vositalar qurish) talab etiladi.

Sel, uning xususiyatlari va talafotlari. Tog' hududlarida kuchli yomg'irlarning yog'ishi, muzlik va qorlarning tez erishi natijasida hosil bo'lgan daryo toshqinlarini, tog' yon bag'rilarida nuragan tog' jinsi bo'laklarini suv oqimi bilan tekislikka tomon oqizib tushirilishi sel hodisasi deb yuritiladi. Sel oqimi massasining taxminan 50-60 foizi turli kattalikdagi tog' jinsi bo'laklaridan, o'simlik va daraxt bo'laklaridan iborat bo'ladi. Sel oqimining davomiyligi ko'pincha, 0,5-2 soatdan 12 soatgacha, tezligi 5-8 m/s dan 12 m/s gacha etishi mumkin, sel massasining zichligi esa 1,2-1,9 t/m^3 ni tashkil etadi.

Sel oqimlarining tezligini 3 guruhga bo'lish mumkin: juda tez (100 ming m^3 dan ko'p sel massasining harakati, 6-10 yilda bir marta), o'rtacha (10 dan 100 ming m^3, 2-3 yilda bir marta) va kuchsiz (10 ming m^3 dan kam). Bunday fizik ko'rsatkichlarga ega oqim juda katta kuch bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlariga sezirarli zarar keltiradi, oqim yo'lida uchragan suv inshootlarini, yo'llarni, qishloq va shaharlarni, bog'larni, ko'priklarni vayron qilib ketadi, ulkan maydonlarni loy, qum, tosh qatlamlari bilan ko'mib tashlaydi.

Sel - arabcha so'z bo'lib, tog'lik hududlardagi suv toshqini ma'nosini anglatadi.

Sel oqimlari o'zi bilan olib keladigan qattiq zarrachalarning o'lchamiga qarab uch guruhga bo'linadi:

- suv-toshli sellar;
- loyqa sellar;
- aralash sellar.

Er yuzasida yuz bergan ofatli sellarga misol qilib, 1934 yilining yangi yil kechasi AQSHning Los-Anjeles shahri atrofida kuzatilgan sel oqimini ko'rsatish mumkin. SHu kuni shaharga yaqin Kordelera tog'ida kuchli yomg'ir yog'ib, uning miqdori 538 mm.ni tashkil etgan. Yomg'ir tinishidan sal oldinroq tog'dan katta tezlikda suv toshqini pastga harakat qilgan. Bu suv toshqini 100 m masofagacha yoyilib unga yaqin bo'lgan ikki shahar - Lya Kreket va Montero shaharlariga katta talofat yetkazgan. Suv oqimi to'lqinining balandligi 6 m.gacha yetgach, o'z yo'lida 500 ta ko'prikni, bir qancha imoratlar va inshootlarni vayron qilgan, qanchadan-qancha odamlarni boshpanasiz qoldirgan.

Markaziy Osiyoda eng kuchli sel oqimlari Qozog'iston Respublikasining Olma-Ota shahridan o'tuvchi, shahar nomi bilan ataluvchi daryo vodiysida kuzatilgan. Masalan, 1921 yil 8 iyun kuni kechqurun yuz bergan sel oqimi natijasida shaharga olib kelingan tog' jinslari 100 mingta vagonga jo bo'lgan. Bu ofat natijasida 400 dan ortiq kishi halok bo'ldi. Sel oqimining vujudga kelishiga tog'lik hududlardagi qorlar va muzliklarning erishi, kuchli yomg'ir yog'ganligi sabab bo'lgan.

Olma-Ota shahri va uning atrofida juda ko'p talofotli sel oqimlari kuzatilgan. Ulardan yana biri Medeo sel to'g'oni qurilgandan keyin, 1973 yil 15 iyul kuni ro'y bergan. SHu kuni kuchli yomg'ir ta'sirida baland tog'likdagi tabiiy ko'l to'g'onlarining buzilishi natijasida kuchli sel oqimi hosil bo'lgan. Bu oqim taxminan 2 soat davom etib, uning sarfi 2000-3000 m^3/s ga etgan va Medeo to'g'oniga 400 000000 m^3 sel massasi olib kelib tashlangan. Ertasi kuni sel qayta takrorlanganda Medeo seli to'g'ondan oshib ketishiga atigi 6 m masofa qolgandi. Agar sel to'g'ondan oshib harakatlansa, Olma-Ota shahriga juda katta xavf tug'dirishi mumkin edi. SHuning uchun buni oldini olish maqsadida to'g'ondagi suv asta sekin chiqarib yuborilib, to'g'onning balandligi 150 m gacha ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Qashqadaryo, Surxandaryo va Farg`ona viloyatlarining tog`lik xududlari sel ofati bo'ladigan zonalar hisoblanadi. Oxirgi 100 yil ichida O'zbekiston Respublikasi hududida 2500 dan ortiq sel oqimlari kuzatilgan. Bulardan 1400 dan ortig'i loyqa, 350 dan ortig'i suv-toshlik, 650 dan ortig'i aralash sellardir. Respublikamizning Farg'ona vodiysida, Toshkent oldi hududlarida sel oqimlari tez-tez kuzatilib turiladi. Sel oqimlari Respublikamiz hududida bahor mavsumida va yozning birinchi oyida yuz beradi. Bunga sabab hududimiz joylashgan mintaqaning tabiiy sharoiti bo'lib, bahor oylaridagi kuchli jala, yomg'irlar, haroratning issiq kelishi, tog'larda muzlik va qorlarning tez erishi, daryo o'zani qiyaligining $3\text{-}5^0$ dan kattaligi, suv yig'ish maydonida zarrachalari bog'lanmagan bo'shoq tog' jinslarining mavjudligi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi. Masalan, 1998 yil yozda havoning birdan issib ketishi natijasida Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyati tog'laridagi qorlarni erishi tezlashib, buning oqibatida 1998 yilning 7 iyulidan 8 iyulga o'tar kechasi katta suv oqimi paydo bo'lgan. Bu oqim SHohimardon soyga qo'shilib, uning suv sig'imini 200 m^3/s ga ko'paytirib yuborgan va kuchli oqim natijasida 52 ta xo'jalik, 36 ta dam olish maskanlari zarar ko'rgan. 8-9 iyul kunlari odamlarni SHoximardon qishlog'idan ko'chirish ishlari boshlangan. Bu ofat oqibatida 104 ta odam jasadlari, 68 ta har-xil hayvonlarning tanalari topilgan. Kuchli sel oqimi natijasida 15 km gaz o'tkazish, 14 km avto yo'l, 4 ta yirik avtomobil ko'prigi, 3 km suv o'tkazish tizimlari, 3 km elektr uzatish tarmoqlari yaroqsiz holatga kelgan, 200 dan ortiq savdo shaxobchalari butunlay vayron bo'lgan. Bu tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishga 2000 ga yaqin fuqarolar, 438 ta texnikalar jalb qilingan.

2002 yilning iyul oyida xuddi shu yerda Vodil qishlog'ida sel ofati ro'y berdi. Ofat o'chog'i Qirg'izistoning Qadamjoy tumanidan boshlangan kuchli jala yomg'iri oqibatida SHohimardonsoy daryosidagi suv sathi keskin ko'tarilib, Vodil qishlog'iga katta sel oqimi yopirilib keldi. Bu ofat Vodio qishlog'i hududlaridagi uylarga, yo'llarga, ekinzorlarga, kommunikatsiya tizimlariga katta zarar yetkazgan.

Sel oqimlarining oldini olish, ularga qarshi kurashish, sel bo'lishi mumkin bo'lgan maydonlarni aniqlash, ularni vujudga kelish sabablarini chuqur o'rganish, atrof-muhitni muhofaza qilishning asosini tashkil etib katta xalq xo'jalik ahamiyatiga ega. SHuning uchun sel hodisasini bartaraf qilish maqsadida olib boriladigan ishlar ilmiy, amaliy xulosalarga, chora-tadbirlarga asoslangan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Bular quyidagilardan iborat:

1. Sel bo'lishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarida doimiy kuzatish ishlarini olib borish. Bunda suv yig'ish maydonida bo'shoq tog' jinslari yig'ilishining oldini olish, oqar suvlar oqimiga to'sqinlik qiluvchi tabiiy va sun'iy to'siqlardan tozalash ishlari;
2. Sel oqimi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarini muhofaza qilish, ya'ni bu maydonlarda o'simlik dunyosini saqlash, daraxtlar va butalarni kesish, maydonlarda shudgorlash va sug'orish ishlarini olib borishni chegaralash;
3. O'rmon xo'jaliklarini rivojlantirish, ya'ni tog' yon-bag'rilarida butalar va daraxtlarning ekilishini yo'lga qo'yish talab etiladi, chunki bu o'simliklar tog' jinslari qatlamlarini mustahkam ushlab turadi, qor erishini sekinlashtiradi, yer yuzasini yuvilishdan saqlaydi;
4. Tog'li hududlardagi daryolarning o'zanida suv oqimini boshqaruvchi inshootlar qurish, tabiiy, sun'iy to'g'onlarni tartibga solish, temir yo'l, avtomobil yo'llari ostiga sel o'tkazuvchi katta diametrli quvurlar yotqizish ishlarini tashkil etish.

Sel oqimiga qarshi kurashish uslubini tanlash maqsadida maxsus muhandis-geologik qidiruv ishlari olib boriladi. Olingan natijalardan (har tomonlama tahlil qilish asosida) o'rganilayotgan hudud uchun xarita tuziladi.

Bu xaritada:

- sel kuzatiladigan;
- sel kuzatilishi mumkin bo'lgan;
- sel kuzatilmaydigan maydonlar ajratiladi.

Sel kuzatiladigan va kuzatilishi mumkin bo'lgan joylarning iqlim sharoitiga, geologik o'zgarishlarga, vujudga kelishi mumkin bo'lgan sel oqimi kuchiga qarab kurashish usullari tanlanadi, tadbir choralari belgilanadi. Tog'lik hududlarda shaxsiy imoratlarni qurish ishlari sel xavfi xaritasi bilan tanishgan holda, maxsus tashkilotlar ruxsati asosida olib borilishi kerak.

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, yuqorida aytilgan hamma ofat turlari O'zbekistonga xos xarakterlidir. SHuning uchun shu o'lkada yashovchi har bir fuqaro yuqoridagi aytilgan tabiiy ofatlardan qo'rqmasdan, esankiramasdan, yuqori tashkilotlar, fuqarolar muhofazasi organlari tomonidan beriladigan har bir ko'rsatma, yo'riqnomalarga qat'iyan rioya etib, harakat qilish zarur. Bunda hech qanday o'zboshimchalik, odamlarni bezovtalantirish, xavfsirash, faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan harakatlarni qilish ta'qiqlanadi. Qaerda yuqori intizom, chuqur ishlangan omillar bo'lsagina, o'sha yerda ofat oqibatlari tugatilib, hayot tezda o'z iziga tushib ketadi.

5-ma’ruza Favqulodda epidemiyalar,epizootik va epifitotik vaziyatlar

O’quv savollari

1. Epidemiya haqida umumiy tushuncha
2. Karantin va o’ta xavfli kasalliklarning oldini olish

Epidemiya-alohida xavfli infektsiyalarga tegishli bo’lmagan, yuqish manbai bitta yoki yuqish omili bir xil bo’lgan, odamlarning guruh bo’lib kasallanishi, bir aholi punktida 50 kishi va undan ortiq kasallanishi aytiladi.

Yuqumli kasllikning paydo bo’lish omillari 3 turda nomoyon bo’ladi:

1. Kasallikning yuqtiradigan manbaning mavjudligi;
2. Kasallikning yuqish va tarqalish yo’llarining mavjudligi;
3. Kasallikka beruluvchi odamlarning mavjudligi.



Kasallikning yuqish yo’llari

1. havo-tomchi
2. Oziq ovqat orqali
3. Qon orqali
4. Kontakt yo’llari.

Yuqumli kasalliklarning paydo bo’lish xavfi

1. Aholi zichligi
2. Aholining ko’chib yurishi
3. Kommunikatsiya tarmoqlarining ishdan chiqishi
4. Sog’liqni saqlash dasturlarining bajarilmay qolishi

Ba’zi yuqumli kasalliklarning xususiyatlari

Kasallik turi	Kasallikning tarqalishi	Yashirin kasallik vaqti, kun	Ish faoliyatini yo‘qotish muddati, kun
O‘lat	Kasallangan bemorlardan havo orqali, qurt-qumursqalardan yuqishi orqali	3	7-14
Sibir yarasi	Kasallangan hayvon juni, terisi ushlanganda, zararlangan go‘shtdan	2-3	7-14
Sapa	Yuqoridagiga o‘xshash	3	20-30
Tularemiya	Zararlangan suvdan foydalanganda, kasallangan kemiruvchilar bilan munosabatdan	3-6	40-60
Vabo	Zararlangan suv, ovqatdan	3	5-30
Sariq bezgagi	Chivin chaqqanda, kasallangan odam, hayvondan	4-6	10-14
Suvchechak	Zararlangan narsa-buyumdan, kasallangan odam bilan muloqatda	12	12-24
Botulizm	Zaharlangan oziq-ovqatlarni iste’mol qilganda	0,5-1,5	40-60

o’lat, vabo, sarg’ayma isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan *alohida xavfli infektsiyalar;*

odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar - epidemik toshmali terlama, Brilь kasalligi, Ku-isitma;

zoonoz infektsiyalar - Sibirь yarasi, quturish;

virusli infektsiyalar - SPID;

aniqlanmagan etiologiya bilan guruh bo’lib kasallanish - 20 kishi va undan ortiq;

tashhisi aniqlanmagan bezgak kasalligi - 15 kishi va undan ortiq;

o’lim yoki kasallanish darajasi o’rtacha statistik darajadan 3 baravar va undan ortiq bo’lgan *vaziyat;*

zaharli moddalar bilan zaharlanish - jabrlanganlar soni - 10 kishi, vafot etganlar soni - 2 kishi va undan ortiq;

oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish - jabrlanganlar soni - 10 kishi, vafot etganlar soni - 2 kishi va undan ortiq.

Vabo - bu ham juda xavtli hisoblanib, uning tarqatuvchisi vabo vibroini mikrobidir. Vabo bilan kasallangan bemomi ichi ketib, qusadi, qaltiraydi va juda ozib-to’zib ketadi. Agar kasallik davolanmasa., tezda o’ladi.

Sibir yarasi - buni tarqatuvchisi Sibir yarasi mikrobi hisoblanadi. U teri, nafas yo’h, oshqozon ichak yo’Ii bilan kirib, o’zining ta’slrini ko’r-satadi. Agar u teriga tushsa, avval dog’ hosil bo’ladi, so’ngra u shishib ichiga qon to’ladi va yorilib, yara hosil qiladi. Sibir yarasi bo’lgan tananing sezuvchanligi ancha pasayib ketadi.

Botulizm - bu kasallikni botulizm toksini tarqatadi. Bu toksin juda zaharli hisoblanadi. Masalan, uning 0,00000012 g kristal holdagi toksini odamni zaharlashi

mumkin. Botulizm kasalligi oshqozon-ichak yo'Ii bilan tarqatilib, as os an asosiy asab tizimining, yurak asablarini izdan chiqaradi. Botulizm bilan kasallangan bemor holsizlanadi, boshi og'rib, ko'rish qobiliyati pasayadi. Til muskullari falajlanadi. Kasalning haro-rati normal odam haroratidan ancha past bo'ladi va bu kasallik o'z vaq-tida davolanmasa o'lim bilan tugaydi.

Epidemiya jihatidan noqulay viloyatlar

Viloyatlar	Zararlanish turlari
Buxoro	Qrım gemoragik bezgagı
Qashqadaryo	Kuydirgı, qrım gemoragık bezgagı
Andıjon	Kuydırgi
Namangan	Kuydirgı
Sirdaryo	Kuydırgi
Surxondaryo	Kuydirgi
Toshkent	Kuydirgi
Farg'ona	Kuydirgi
Xorazm	Kuydırgı
Qoraqalpog'ıston Respublıkasi	Kuydırgi, kana ensefalıtı

Karantin - zararlangan o'choqni to'sish hamda o'tkir yuqumli kasalliklarni yo'qotishga qaratilgan rejimli chora-tadbirlar sistemasidir. Zararlangan o'choqlarda komendantlik xizmatlari (qurollangan muhofa-za tizimi) tashkil etiladi. Bunday vaziyatlarda o'choqdan tashqariga chiqish va o'choqqa ki-rish, hatto mol-mulkni kiritish ta' qiqlanadi. Korxona va tashkilotlar alo-hida ish rejimiga o'tkazilib, bunda aholi (ishchi va xizmatchilar) kichik-kichik guruhlarga bo'linib, ularga tibbiy kuzatuv xizmati tashkil etiladi. Bulardan tashqari o'choqda kerakli profilaktik va sanitar-gigienik omil-lar o'tkaziladi harnda o'choqni dezinfeksiya va deratizatsiya qilish, aho-lini qayta sanitar ishlovdan o'tkazish omillari amalga oshiriladi. Zararlangan o'choqlarga oziq-ovqat va boshqa kerakli mol-mulklar-ni kiritish tibbiyot tizimlarining qattiq nazorati ostida maxsus shahob-chalar orqali arnalga oshiriladi. Karantin muddati muayyan kasalliknmg rivojlanish (inkubatsiya davri) davrining uzunhgi bilan, yuqori tashkilotlarning FM shtablari tomonidan belgilanadi. Karantin omili oxirgi kasalni tuzatib o'choqdan chiqib ketishi va dezinfeksiya orrulini tarnom bo'lishi bllan tugatiladi.

Observatsiya -yuqumli kasallikni tarqalmaslik uchun bajariladigan omil bo'lib, bunda maxsus tibbiy nazorat tashkil etiladi. Zararlangan o'choqda bo'lgan harnma fuqarolaming kasallangan-ligini o'z vaqtida aniqlash, ularni izolatsiya qilish va profilaktik ornillarni arnalga oshirish uchun kuzatuv tashkil etiladi. Bunda kasallangan kuzatuv va so'rov orqali aniqlanadi. Yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olish uchun zararlangan o'choqlarga kirish va chiqish ta'qiqlanadi o'choqlardagi turli xildagi mol-mulklami zararsizlantirmasdan turib, olib chiqib ketishga ham rux-sat berilmaydi. Oziq-ovqat va suv ta'minoti nazorati kuchaytiriladi. Ob-servatsiya davri harn, xuddi karantin davri kabi fuqaro muhofazasining mahalliy miqyosdagi shtablari tomonidan belgilanadi.

Kasalliklik tarqalishining oldini olish:

1. Dizenfektsiya;

- Mexanik usul,
- Fizik usul,
- Kimyoviy usul

2. Deratizatsiya;
3. Dizenseksiya usullaridan foydalaniladi.

Dizenfektsiya, ***yuqumli kasallik keltirib chiqaruvchilarni yo'qotish*****-** zarasizlantirish, tashqi muhitda kasal tug'diruvchi mikroorganizmlarni yoki ularni tashib yuruvchilarni fizik, kimyoviy yoki biologik usullar bilan yo'q qilish yoki faolsizlantirish bo'yicha tadbirlar.

Dizenseksiya- kasallik qo'zg'atuvchilari-zararli bo'g'imayoqlilar, qishloq xo'jalik zarakunandalari va boshqalarni tashib yuruvchilarni qirib tashlash tadbirlari; termik yoki kimyoviy ishlov berish, qushlar yoki mikroorganizmlar yordamida amalga oshiriladi.

Deratsizatsiya- ***kemuruvchi zarakunandalarni yo'q qilish*** **–** yuqumli kasalliklar manbai yoki tashuvchilari bo'lgan, yoxud xo'jalikka zarar yetkazuvchi kemuruvchilarga qarshi kurash chora-tadbirlari majmui. Kemuruvchilarni kimyoviy, mexanik, va biologik usulllar bilan yo'q qilish, chiqindini yig'ish va olib tashlashni tartibga solish, oziq-ovqatlarni saqlash joylarini kemuruvchilar o'taolmaydigan qilib jihozlashni o'z ichiga oladi.

6-ma’ruza Transport avariyalari va halokatlari

O’quv savollari

1. Transportdagi avariyalar va ularning turlari
2. Transportdagi avariyalarning oldini olish chora-tadbirlari

Transportning xohlagan turi inson salomatligi va hayoti uchun xavf tug’diradi. Texnik taraqqiyot bir vaqtning o’zida harakatlanish qulayligi va tezligi bilan birga anchagina katta darajadagi xavf-xatarni ham yuzaga keltirdi. Transport avariyasining turidan kelib chiqib, ko’plab jarohat va kuyish, jumladan inson hayoti uchun xavf tug’diradigan shikastlarni olish ehtimoli mavjud.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qaroriga asosan “Transport, energetika va kommunal tizimlardagi avariyalar” texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar turlariga kiradi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 427-sonli qaroriga asosan aholi tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o’tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 143-sonli qaroriga asosan “O’zbekiston havo yo’llari” aviakompaniyasi, “O’zbekiston temir yo’llari” kompaniyasi. “O’zavtotrans” davlat korporatsiyasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi buyurtmanomalari bo’yicha favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatish uchun zarur bo’lgan avariya-qutqarish xizmati, harbiy qismlar kuchlari va vositalari hamda yuklarningfavqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan joylarga birinchi navbatda olib borilishi hamda qaytarib olib kelinishini ta’minlasinlar.”

Transportdagi avariyalar va xalokatlar

Havo transportidagi avariyalar. Aviatsiya halokatlari ko’plab sabablar tufayli sodir bo’ladi. Samolyot ayrim konstruktsiyalarining buzilishi, dvigatellarning ishlamay qolishi, boshqaruv tizimi, elektr, aloqa, uchirish tizimining ishdan chiqishi, yoqilg’i yetishmasligi, ekipaj va yo’lovchilar hayoti xavfsizligini ta’minlashdagi uzilishlar og’ir oqibatlarga olib keladi.

a) Havo transportidagi avariya va xalokatlar

Ko’rinishi: o’zi bilan birga yulovchilarni, ekipaj a’zolarini xalok bo’lishiga olib keladi, havo transportlarini portlashiga, yonishiga, buzilishiga, qolaversa yer yuzidagi binolarni va boshqa xalq xo’jaligi ob’ektlarini buzilishiga olib kelib, turli darajadagi qutqaruv, qidiruv va tezkor yordam ishlarini olib borishni talab etadigan holat

Oldini olish bo’yicha chora tadbirlar:

Rejaviy - profilaktik ko’rik va ta’mirlash ishlarini o’z vaqtida o’tkazilishi, xizmat muddati qoidalari talablariga amal qilish, boshqarish va aloqa tizimlarining ish sifatini oshirish, bundan tashqari xodimlarning bilimi va tajribasini oshirib borish.

Muhofaza tadbirlari:

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242- Qaroriga muvofiq “O’zbekiston Havo yullari” milliy aviakompaniyasiga va unga qarashli qarashli “Avariya -qutqaruv va qidiruv xizmati” lariga “Aviatsiya texnikasidan avariyasiz

foydalanish va parvozlar xavfsizligi bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish" vazifasi yuklatiladi. Bundan tashqari soha xodimlarini muhofazalanish kafolatlari Qonun asosida ham amalga oshiriladi

b) Temir yuldagi avariya va xalokatlar

Temir yo'l transportidagi avariyalar. Temir yo'l transportidagi avariya va halokatlarga asosan yo'llar, harakatdagi tarkib, signalizatsiyaning nosozligi, dispetcherlar xatosi, mashinistlarning e'tiborsizligi va loqaydligi sabab bo'ladi.

Ko'rinishi:

Ushbu transport turida uchraydigan favqulodda vaziyatlar yonginlar-portlashlarga, yo'nalishdagi vagonlarni izdan chiqishiga, axolini, yo'lovchilarni nobud bo'lishiga (yuk vagonlariga yuklangan davlat boyliklarini nobud bo'lishiga) qolaversa, sodir etilgan joylardagi axoli va xududlarning turli darajada zarar ko'rishiga, ayniqsa turli zaxarli modda yuklatilgan vagonlar xalokatga uchraganda xududlarni, axolini zaxarlanishiga olib keluvchi holat

Oldini olish bo'yicha chora tadbirlar:

Rejaviy- profilaktik ko'rik va texnik ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida o'tkazilishi, transport turini ishlatish muddati qoidalari talablariga amal qilish, boshqarish va aloqa tizimlarining ish sifatini oshirish, dispetcherlik xizmatini yaxshilash, bundan tashqari xodimlarning bilimi va tajribasini oshirib borish va x.k.

Jumladan 16-moddasida bayon etilgandek "Fuqaro muhofazasi sohasida rahbarlar va mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malaka oshirish muassasalari, maxsus o'quv-uslubiyot markazlarida, kurslarda, shuningdek ish joyida amalga oshiriladi".

Muhofaza tadbirlari:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242- Qaroriga muvofiq "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aktsiyadorlik kompaniyasiga "Temir yo'l transporti vositalaridan avariyasiz foydalanish, tashish chog'ida portlovchi, yong'in xavfi bo'lgan yuklar va KTZM xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish" vazifalari yuklatiladi

Harakatdagi tarkibning relьslardan chiqib ketishi, to'qnashuvlar, pereezdlardagi to'siqlarga borib urilish, bevosita vagonlarning o'zida yong'in va portlashlarning kelib chiqishi ko'proq sodir bo'ladi. SHunga qaramay, poezdda yurish samolyotda uchishdan taxminan uch marta, avtomobilda yurishdan 10 marta xavfsizroqdir.

v) Avtotransport avariya va xalokatlari (shu jumladan, yo'l transport hodisalari)

Avtotransport avariya va halokatlar bu transportdagi fuqarolarni halok bo'lishiga, portlash va yong'inlarni chiqishiga olib keladi, tezlikni oshirish, yo'l belgilariga amal qilmaslik, qarama – qarshi yo'lga o'tib olish va avtomobilni mast xolda boshqarish, mashinani nosozligi sabab bo'ladi. Agarda yuk tashuvchi maxsus avtotransportlarda avariya holati sodir etilganda, neft va gaz, portlovchi yoki zaharlanuvchi moddalarning avariya sodir etilgan joylarda moddalar tarqalishiga hamda ushbu hududdagi aholini nobud bo'lishiga, zaxarlanishiga, bino va inshootlarni buziliga olib keladi.

Ko'rinishi:

-transportdagi fuqarolarni halok bo’lishiga, portlash va yong’inlarni chiqishiga olib keladi. Agarda yuk tashuvchi avtotransportlarda avariya holati sodir etilganda, turli neft, portlovchi modda yoki zaharlanuvchi moddalarning avariya sodir etilgan joylarda tarqalishiga xamda ushbu xududdagi axolini nobud bo’lishiga, zaxarlanishiga, bino va inshootlarni buzilishiga olib keladi

Oldini olish bo’yicha chora tadbirlar:

Rejaviy - profilaktik ko’rik va texnik ta’mirlash ishlarini o’z vaqtida o’tkazilishi, texnik nosoz transport vositasidan foydalanmaslik, barcha turdagi yo’l harakati qoidalariga rioya qilish, DAN xodimlarining, haydovchilarning, qolaversa aholining birinchi tibbiy yordam ko’rsatish bo’yicha bilim va malakalarini oshirish, yo’l tarmoqlarini me’yoriy talab darajasida saqlash, shaharlarda ko’p sathli yo’llardan, piyodalarning yer osti yo’laklaridan samarali foydalanish va x.k.

Muhofaza tadbirlari:

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242 -Qaroriga muvofiq Davlat avtomobil nazorati organiga “Yo’l transport xavfsizligini ta’minlash xizmatiga raxbarlik qilish” vazifasi yuklatiladi.

g) Metropoliten stantsiyalarida bo’lishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlar.

Ko’rinishi:

- fuqarolarning nobud bo’lishiga, turli xil tan jaroxatlari olishiga olib keladi, qolaversa portlash va yong’inlar sodir etilishi mumkin. Metropoliten stantsiyalarni va vagonlarni buzilishiga olib keladi.

Oldini olish bo’yicha chora tadbirlar:

Rejaviy- profilaktik ko’rik va texnik ta’mirlash ishlarini o’z vaqtida o’tkazilishi, texnik nosoz transport vositasidan foydalanmaslik, barcha turdagi yo’l harakati qoidalariga rioya qilish, haydovchilarning, tarmoq xodimlarining ish yuzasidan bilim malakalarini oshirib borish, yo’l tarmoqlarini me’yoriy talab darajasida saqlash, va x.k. Metro ichidagi tele moslamalarda muhofazalanish to’g’risidagi qisqa videolavhalar ko’rsatib borish.Qonun moddalarini tarmoqqa aloqador qismlariga so’zsiz amal qilish.

Muhofaza tadbirlari:

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242- Qaroriga muvofiq “O’zbekiston Respublikasi Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat qumitasi” ga, “kon, ruda, kimyoviy, neftь va gaz qazish hamda qayta ishlash sanoati va “Toshmetroqurilish” ob’ektlarida ishlarni olib borishning ahvoli va xavfsizligi ustidan davlat nazoratiga raxbarlik qilish” ishlari yuklatiladi

d) Magistral quvur tarmoqlarida, neftь va gaz burg’ulash maydonlaridagi bulishi mumkin bo’lgan avariyalar

Ko’rinishi:

-portlovchi moddalar bilan bog’liq bo’lgan portlashlar-yong’inlar, fuqarolarni halok bo’lishi, suyuqliklarni tarqalishiga, xududlarni, inshootlarni, binolarni buzilishiga olib keladi.

Ochiq turdagi neftь va gaz konlari fontanlarining yonishi.

O’zbekiston xuddudida asosiy neft, gaz maxsulotlarini tarqatuvchi quvurlar ko’p, ular asosan yer osti va ustki qismlaridan o’tkazilgan.

Oldini olish bo’yicha chora tadbirlar:

Texnik xujjatlarda ko’rsatilgan me’yor talablari bo’yicha rejaviy- profilaktik ko’rik va texnik ta’mirlash ishlarini o’z vaqtida utkazilishi, barcha xavfsizlik choralariga amal qilish, barcha xizmat muddati talablariga rioya qilish va x.k.

Muhofaza tadbirlari:

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242- Qaroriga muvofiq Neftь va Gaz milliy korporatsiyasiga “ishlab chiqarish va texnologik jarayonning kuchli xavfli o’ziga xosliklari bilan bog’liq bo’lgan avariyalar va halokatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo’yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish”,hamda “idoraga qarashli ob’ektlarda avariyalarning kelib chiqishi extimollarini va oqibatlarini bashoratlash, tarmoqning birlashmalari va ob’ektlarida favqulodda vaziyatlar chog’ida ishlarning barqarorligini oshirish” vazifalari yuklatilgan.

7-ma’ruza Kimyoviy xavfli ob’ektlar
O’quv savollari

1. Kimyoviy xavfli ob’ektlar
2. Kimyoviy xolatni aniklash va baxolash

Kimyoviy xolat deb, dushman tomonidan kimyoviy kurollar ishlatilganda yoki kimyoviy ob’ektlarda xalokat yuz berganda atrof-muxitga kuchli ta’sir etuvchi zaxarli moddalar (KTZM) tarkalganligi natijasida xosil bulgan sharoitga aytiladi. Kimyoviy xolatni baxolash deganda — kuchli ta’sir etuvchi zaxarli moddalarni odamlarga, xayvonlarga, suv va boshka ob’ektlarga ta’sir etish darajasini anikpash xamda kimyoviy xujum yoki ishlab chikarish tarmoklaridagi falokat okibatlarini tugatish uchun eng makbul uslubni tanlash tushuniladi. Kimyoviy xolatni baxolashda kuyidagi ma’lumotlarga tayaniladi:

* zaxarli moddalarning turi va uning ishlatilgan vakgi;
* zaxarli modtsaning ishlatshshsh vositasi; » zaxarli moddaning ishlatilgan joyi;
* shamolning tezligi vayunalishi;
* xavo va yerning xarorati;
» kimyoviy shikastlanishning mikyosi va tavsifini aniklash;
* xavoningturgunlikdarajasi (inversiya, izotermiya va konvektsiya)
fuqarolarning ximoyalanish darajasi.

Kimyoviy xolatni baxolash bashorat usuli xamda tekshiruv natijalari orkali amalga oshiriladi.Xalkxujaligi ishlab chikarish ob’ektlarida kimyoviy xolat radiatsiyaviy va kimyoviy tekshirish guruxlari, postlari orkali aniklanadi. Kimyoviy xolatni baxolashda xavoning turgunlik darajasini bilish muxim axamiyatga ega, chunki aynan xavoning xolatiga kura kimyoviy shikastlanish zonasining mikyosi xamda talofatlanish xajmi sarxisob kilinadi. Xavoning vertikal turgunligi uchta darajaga bulinadi: Inversiya, izotermiya va konvektsiya (10jadval). Izotermiya odatda, kechkurungi vakglarda kuyosh botishiga taxminan 1 soatlar kolganda vujudga keladi va kuyosh botgandan 1 soatlardan keyin u parchalanib ketadi.

Inversiyada xavoning pastki katlami yukori katlamidan sovukrok buladi xamda bu xolat zaxarlangan xavoning balandlikka tarkalishiga karshilik kursatadi va zaxarlangan xavoning uzok vakg saklanishiga kulay sharoit yaratib beradi.

Izotermiya— xavo muvozanatining barkarorligi bilan tavsiflanadi. U kuprokbulutli xavoga xos, lekin inversiyadan konvektsiyaga (ertalabki vakglarda) va aksincha (kechkurungi vakglarda) utish soatlarida xam vujudga kelishi mumkin.

Konvektsiya odatda, kuyosh chikishidan 2 soat keyin xosil buladi va kuyosh botishidan 22,5 soat oldin buziladi.Bu kuprok, yozgi ochik kunlarda kuzatiladi. Konvektsiyada xavoning pastki katlamlari yukoridagilaridan kura ancha issik buladi va bunday xolat zaxarlangan xayuning tez tarkalishiga, okibatda zaxarlanish ta’sirining kamayishiga olib keladi.

KTZM kullaniladigan ob’ektlardagi avariyada kimyoviy xolatni baxolash

KTZM ishlatiladigan ob’ektlardagi avariyada kimyoviy xolatni baxolash, fukarolarning zaxarlanish uchoklarida bulishlari mumkin bulgan xolda, ularning ximoyalanishini tashkil etish maksadida utkaziladi.

Ob-xavo ma’lumotlariga kura xavoning vertikal turgunlik darajasini baxolash

vaziyatda utkaziladi.Bunda zaxarli moddalarning anik miktsori va obxavo sharoitlari xisobga olinadi.

SHunga xam axamiyat berish lozimki, kaynash xarorati 20°S dan past bulgan zaxarli moddalarni (masalan, fozgen, vodorod ftorid va shunga uxshashlar) tukilishi bilan juda oz vakg mobaynida buglanib ketadi va buglangan zaxarli modda miktsori, uning tukilgan suyuk mikdoriga teng buladi. Agar kaynash xarorati 20°S dan yukori bulgan (uglerod (IV) sulfid, sinil kislotasi va boshkalar) va kaynamaydigan zaxarli suyukliklar (ammiak, xlor, oleum va xokazolar) usha ob’ekt xududi buylab tarkaladi va xavoning yer ustki katlamini zaxarlaydi.

KTZM bulgan joylardagi kimyoviy xolatni baxolashda, kimyoviy zaxarlangan xudud ulchamini, kimyoviy shikastlanish uchogini, zaxarli xavoning xududga yetib kelish va shikastlash vakgini xamda kimyoviy shikastlanish uchoklarida fukarolarni talafotlanish extimollari kuzda tutiladi.

Ochik joyda KTZM bilan zaxarlangan xavoning tarkalish chukurligi (KTZM idishi ximoyalanmagan, shamol tezligi 1m|s, **izotermiya)***

KTZM nomi	Ilinjdagi KTZM miqdori (obektda), T					
	5	10	25	50	75	100
Xlor, fozgen	4,6	7	11,5	16	19	21
Ammiak	0,7	0,9	1,3	1,9	2,4	3
Oltin - gugurt oksid	0,8	0,9	1,4	2	2,5	3,5
Vodorod sulfid	1,1	1,5	2,5	4	5	8,8

Izox: in barobar katta, konvekt

Xavon un tugrilovchi

Xavoning vertikal turgunlik darajasi	Shamol tezligi, m/s					
	1	2	3	4	5	6
Inversiya	1	0,6	0,45	0,38	-	-
Izotermiya	1	0,71	0,55	0,5	0,45	0,41
Konvektsiya	1	0,7	0,62	0,55	-	-

8-ma’ruza Yong’in-portlash xavfi mavjud bo’lgan ob’ektlardagi avariyalar

O’quv savollari

1. Yong’in. Yong’in va portlashning asosiy sabablari hamda turlari.
2. Yong’inning keng tus olish sabablari.
3. Yong’inning shikastlovchi omillar.

O’zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 455-sonli qaroriga asosan “Yong’in –portlash xavfi mavjud bo’lgan ob’ektlardagi avariyalar “ texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar turlariga kiradi. O’zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 427-sonli qaroriga asosan aholi tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o’tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

Yong’in chiqish va portlash xavfi bor ob’ektlarda favqulodda vaziyatga olib keluvchi asosiy sabablar:

Yong’in - bu nazorat qilib bo’lmaydigan hodisa bo’lib, bebaho moddiy va madaniy boyliklarni bir daqiqada yo’q qiluvchi ofat, ayniqsa u fuqarolarning joniga kulfat keltiruvchi favqulodda vaziyatdir].

Yong’inning kelib chiqishi uchun uch omilning bir vaqtni o’zida bir joyda bo’lishini o’zi kifoya. Ya’ni:

- yonuvchan modda (neft, atseton, qog’oz, yog’och va boshqalar0);
- havo harorati (kislorod miqdorining ortishi);
- uchqun-alanga (gugurt, uchqun, elektr simining qisqa tutashuvi).

Respublikamizda yong’in va portlash xavfi bor ob’ektlar juda ko’p bo’lib, ular aholi va hudud uchun xavf-xatarlar manbai hisoblanadi va muayyan sharoitda ulardagi xavfli hodisalar favqulodda vaziyatga aylanib ketishi mumkin.

Yong’in va portlashlarning asosiy sabablari va turlari:

- yong’in xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik;
- fuqarolarning loqaydligi, e’tiborsizligi;
- elektr simlarining nosozligi;
- gaz, ko’mir, o’tin bilan isitiladigan vositalardagi nosozliklar va foydalanish qoidalariga rioya qilmaslik;
- bolalarni karuvsiz koldirib yongin bilan o’ynashlari;
- qasddan yongin qo’yishlar;
- boshqa sabablar.

Eng asosiysi shundaki, fuqarolarimizning o’zlari yong’in sodir bo’lishini sababchisi bo’lib qolishadi. SHuning uchun ham;“Yong’inni oldini olmoq uni o’chirishdan afzalroqdir” degan shiorni har doim yodda tutish lozim.

Yong’inning tez keng tus olishi sabablari:

- yong’inning sodir bo’lish omili;
-yong’in sodir bo’lgan joylarda, yon-atrofning qizib ketishi:
-yong’inda yonayotgan jismlardan chiqayotgan tutun va zaxarli moddalar.
- yong’in sodir bo’lgan joylarda va tevarak-atroflarda havo haroratining o’zgarishi.

Bu yong’inning birlamchi keng tus olish omillari bo’lsa, ikkilamchisi:

- yong’in sodir bo’lgan bino yoki inshoot devorining qulab tushishi;
- portlashlar sodir bo’lishi;
- yong’in sodir bo’lgan joylarda turli kimyoviy va zaharli moddalarning atrof-muhitga tarqalishi;
-yong’inni suv bilan o’chirilganda turli kimyoviy moddalar qorishmasi xosil bo’lishi natijasida portlashlar yuz berishi.

Ma’lumotlarga ko’ra, yong’inda nobud bo’lganlarning 60-80 foizi nafas olish yo’llarining zaxarlanishi yoki toza havoning yetishmasligi oqibatida halok bo’lar ekanlar.

Yong’in kengligi jihatidan uch turga bo’linadi:
- kichik hajmda;
- o’rta hajmda;
- katta hajmda.

Yong’inning tez keng tarqab ketishining asosiy sabablari va uning chegaralari:
- inshootlarni loyixasini ishlab chiqishda yo’l qo’yilgan xato va kamchiliklar;
- inshootlar qurilishida Qurilish me’yorlari va qoidalari va davlat standartlariga rioya qilmaslik;
- yong’in nazorati, gazdan foydalanishni nazorat qilish xodimlari tomonidan ko’rsatilgan yong’inni oldini olish tadbirlarining bajarilmasligi;
- fuqarolarning yong’in sodir etilganda o’z vazifalarini bilmasliklari va vahimaga tushishlari;
- bolalarning yong’in chiqishiga olib keluvchi o’yinlariga beparvolik;
- yong’inga qarshi kurashda qo’llaniladigan qutqaruv vositalarining kamligi.

Yong’inning oldini olish chora-tadbirlari:

Bulardan tashqari gidrotexnik inshoot ahvolini doimo kuzatib turish (uskuna-jihozlar va yuksak malakali mutaxassislar yordamida), FVDT tarkibiga kiruvchi funktsional kichik tizimlari va organlarini sohaga aloqali faoliyatini tizimli nazorat qilib turish, gidrotexnik inshoot zonasini chet kishilar kirishidan ishonchli qo’riqlash ishlarini olib borish talab etiladi. Falokatlarga olib keladigan noqulay omillar bo’lishi ehtimolini oldindan aytish tahminlarini tuzish uchun gidrometeorologik sharoitni muntazam kuzatib borish eng muhum masala xisoblanadiBunday holatlarda eng xavfli joylar - yonish va portlash xususiyati yuqori bo’lgan moddalar saqlanadigan omborlar va joylardir. O’zbekiston hududida bunday tashkilot va omborlar soni 500 dan ziyodroq.

Yonish va portlash xususiyatiga qarab xavflilik jihatidan ular 6 guruhga bo’linadi: A, B, V, G, D, Ye.

A guruhi - neft ishlab chiqaruvchi zavodlar, kimyoviy korxonalar, neft o’tkazuvchi quvurlar, neft omborxonalari.

B guruhi - ko’mir kukuni, yog’och qipig’ini tayyorlovchi-jo’natuvchi tsexlar, un va unni qayta ishlab chiqarish kombinatlari.

V guruhi - yog’och paxta va ularni qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar, qog’oz korhonasi.

Ushbu guruhlar eng xavfli ob’ektlardan hisoblanadi.

O’tga chidamliligi jihatidan qurilish inshoatlari va binolar (1-jadvalga qarang, s-soat) 5 turga bo’linadi :

Barcha qurilish materiallari o’tga chidamliligi jihatidan 3 turga bo’linadi:

- yonmaydigan - bu materiallar olovning ta’sirida yoki yuqori haroratda yonmaydi, tutamaydi va erimaydi. Bularga beton, gips, pishiq g’isht, marmarlar kiradi;

- og’ir yonuvchan - bu materiallar yuqori harorat ta’sirida qiyinchilik bilan uchqunlanadi, tutaydi va ko’mirlanadi hamda olov manbai bo’lgandagina yonishda davom etadi. Bularga DVP, DSP va boshqalar kiradi;

- yonuvchan - bu materiallar yong’in-olov yoki yuqori harorat ta’siri ostida uchqunlanadi, tutaydi yoki olov manbai olib tashlangandan so’ng ham yonishda va tutashda davom etadi. Bularga yog’och materiallari, tsellyuloza, plastmassa, tol, qog’oz, bitumlar va boshqalar kiradi.

Qurilish inshootlari va binolarni yonginga chidamlilik darajasi

Yong’inga chidam-lilik darajasi	Bino va inshoatlarning qismlari			
	Zinalar	Zina va Zina maydonlari	Qoplama tuzilishlari	Qoplama qismlari
I	3 s yonmaydigan	1 s Yonmaydigan	1 s yonmaydigan	0,5 s Yonmaydigan
II	2,5 s yonmaydigan	1 s Yonmaydigan	0,25 s yonmaydigan	0,25 s Yonmaydigan
III	2 s yonmaydigan	1 s Yonmaydigan	0,25 s yonmaydigan	Yonadigan
IV	0,5 s qiyin yonadigan	0,25 s qiyin yonadigan	0,25 s qiyin yonadigan	Yonadigan
V	Yonadigan			

Amaldagi tartibga asosan yonuvchan va yengil yonuvchan qurilish materiallari jamoat joylarida, bolalar muassasalari va shifoxonalarda ishlatilishi qat’iyan man etiladi. Ayniqsa xaykaltaroshlik materiallari, chunki ular yonganda o’zidan inson salomatligiga xavf keltiruvchi turli zaxarli gazlarni chiqaradi. Bu borada binolarda sodir bo’lgan yong’inlarning tez va keng tus olishiga va tarqalishiga olib keluvchi holatlarni sodir etib, asosiy binolarni ushlab turuvchi inshootlarning buzilishiga olib keladi.

Endi yong’in kabi portlash haqida ham fikr yuritamiz. Avvalo shuni aytish joizki, yong’in va portlashlar o’zaro uzviy bog’liqligi sababli barcha tashkilotlarda sodir bo’ladigan yong’inlar natijasida portlashlar ham bo’lishi mumkin yoki aksincha portlash natijasida yong’inlar sodir bo’lishi mumkin.

Portlash - bu qisqa vaqtning o’zida chegaralangan hajmdagi, katta miqdordagi quvvatning ajralib chiqishidir.

Portlash gazlarning qattiq qizishi oqibatida yuqori bosim ta’sirida sodir bo’ladi. Portlashlar asosan yong’in va portlash xavfi bor tashkilotlarda sodir sodir bo’lib uning, oqibatida yong’inlar kelib chiqishi mumkin . Portlovchi moddalar saqlanadigan omborlar, ular bilan bog’liq bo’lgan tashkilotlar portlash xavfi bor tashkilotlar xisoblanib, ularda ma’lum sharoitlarda portlash sodir bo’lishi mumkin. Bularga mudofaa, neft va neft mahsulotlarini qayta ishlab chiqaruvchi-saqlovchi, kimyoviy, gaz, paxta, qog’oz, non mahsulotlari, yengil sanoat korxonalari, ular ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarni saqlovchi omborxonalar va ular bilan bog’liq bo’lgan barcha muassasalar kiradi.

O’zbekiston hududida gaz bilan ta’minlangan fuqarolar uylarini nazarda tutmagan holda 500 dan ziyod portlash va yong’in chiqish havfi mavjud tashkilotlar bor.

Portlashning zarar yetkazuvchi omillari;

- zarba mavji (zarba to’lqinlari);
- siniq parchalarning sochilishi.

Bular birlamchi holatlar bo’lsa, ikkilamchisi portlashlar, yong’inlar, falokatlar, kimyoviy va radiatsion shikastlanishlar, keng tusda to’g’onlarning buzilishi va suv toshqinlarining sodir etilishi, binolarning qulashiga olib kelishi mumkin.

Zarba to’lqinlari yuqori bosimdagi portlashdan hosil bo’lgan havo to’lqinlarining kuchli ovoz chiqarib tarqaladigan zarba mavji qarshi kelgan qattiq jismlarning parchalanishiga va sochilishiga olib keladi.

Siniq parcha - maydonlarda parchalangan buyumlarning siniq qismlarini tashkil etadi.

Portlash-suyuqliklarning,portlovchi moddalarning kuch yoki issiqlik ta’sirida o’zi joylashgan hajmga sig’may qolishi tufayli chiqishidir.

Portlatuvchi omillar;

- kimyoviy (portlovchi moddalar);
- yadroli (yadroli qurollar);
- mexanik uslubdagi (yuqori bosimdagi suyuqliklarni quyuvchi-tarqatuvchi idishlarning yorilishi);
- Elektromagnit (uchqun razryadi, lazer uchquni va b.);
- tovushli va boshqa quvvatlar.

Bizning O’zbekiston diyorimizda yiliga 15-17 dan ziyod portlashlar sodir bo’ladi, asosan portlashlar aholi yashaydigan xonadonlarda gazdan noto’g’ri foydalanish oqibatida sodir bo’ladi, bular xonadonlardagi portlashdar deyiladi.

Bularning asosiy kelib chiqish sabablari gaz bilan ishlash tartib-qoidalariga rioya qilmaslikdir. Bu borada 1998 yil davomida xonadaonlarda 50 ziyod portlashlar sodir bo’lgan, oqibatda fuqarolar nobud bo’lganlar, ko’plab odamlar turli tan jarohatlari olishgan. Ularning ko’pini yosh bolalar tashkil etayotganligi juda achinarli xoldir, xuddi shuningdek, 1998 yilda SHatlik-Xiva, Mubarak-Zarbuloq yuqori bosimdagi gaz quvurlarida nosozlik tufayli portlash sodir bo’lib, ko’plab fuqarolarimiz nobud bo’lgan va tan jarohatlari olishgan.

Yana bir fojea - bu 1989 yil 3 iyundagi Boshqirdiston Resublikasidagi temir yo'l yaqinida gaz quvurlaridagi nosozlik tufayli portlash natijasida Novosibirsk-Adler, Adler-Novosibirsk yo'nalishida ketayotgan poezdlar o'zaro to'qnashuvlar natijada 37 vagonlarda yong'in sodir bo'lib 1284 yo'lovchidan 780 nafari halok bo'lganligi qayd etilgan.

Aytilganlardan ko'rinib turibdiki, yong'in va portlashlar qo'qqisdan sodir bo'ladi va ko'plab odamlarning o'limiga yoki og'ir tan jarohati olishlariga olib keladi. Barcha turdagi faqulodda hodisalar insonlar boshiga kulfatlar keltiradi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi hukumatining Qonun va qarorlarining bosh shiori fuqarolarni muhofaza etishdir.

Bu borada favqulodda vaziyatlarni sodir bo'lishini oldini olish maqsadida barcha rejalashtirilayotgan tadbirlarni 3 turga bo'lish mumkin:

- qonuniy;
- tashkiliy;
- muhandislik-texnik.

I tur - qonuniy - bu borada turli qonunlarga va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda olib boriladigan ishlar, binolarning loyixasini tuzishdan tortib, binoni qurib bitkazishda Qurilish me'yorlari va qoidalariga amal qilishdir ulardan foydalanish davridagi qoida va tartibga amal qilish tadbirlardir. (Yong'in va portlash ehtimoli bor bo'lgan tashkilotlar).

II tur - tashkiliy - bu borada aholi va hududlarni-tashkilotlarni ogohlantirish tadbirlari, qolaversa favqulodda vaziyat sodir bo'lganda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar rejasini tuzishdir.

III tur -muhandislik-texnik ish rejalari - ishlab chiqarish jarayonlarida yong'in-portlashlar bo'lishi ehtimoli (xavfi) bor tashkilotlarda xavfli texnologiyalar o'rniga boshqa xavf tug'dirmaydigan texnologiyalarni ishlab chiqishga tadbiq qilishdir.

"Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonunini 11 va 12 moddalarida bu turdagi ob'ektlarda ishlovchi xodimlarni, ular joylashgan xududga yaqin yashovchi aholi muhofazasi xuquqiy tomondan kafolatlangani qayd etilgan.

Ba'zi bir yong'in va portlash xavfi bor ob'ektlarda favqulodda vaziyat sodir bo'lganda ulardan birinchi navbatda ko'riladigan bevosita qanday zararlar, ikkinchi navbatda esa bilvosita qanday zararlar bo'lishi mumkinligini bilish muhim xisoblanadi. Har qanday vujudga kelgan favqulodda vaziyat, ya'ni portlash va yong'in tufayli zarar ko'rgan muassasa, korxona va tashkilotlarni avvalgi ish faoliyat xolatiga tezlik bilan keltirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga intilish kerak.

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 242-sonli qaroriga asosan "Yong'inlarni profilaktika qilish va o'chirishga oid tadbirlarini tashkilt etish va amalga oshirish, ular bilan bog'liq birinchi navbatdagi avariya-qutqaruv ishlarini amalga oshirish. FVDT boshqaruv organlari va aholini yong'in holati, yuzaga kelgan yong'inlarni bartaraf etish, ziyon va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararning dastlabki bahosi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash."

Er yuzida, jumladan O'zbekiston Respublikamiz hududida sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlarni taxlil qilinsa 80-85 % texnogen xususiyatli favqulodda

vaziyatlarga to’g’ri keladi. SHu sababli, sodir etilishi ehtimoli bo’lgan favqulodda vaziyatlarni taxminlash, baho berish, ularni xarakterini keng jihatdan aholi va xududlarga ta’sir qilishini aniqlash, aholini favqulodda vaziyatlarda xarakatlanishga tayyorlash, ogohlantirish tizimini takomillashtirish, iqtisodiyot ob’ektlarini qo’riqlanishini va uning xavfsizligini ta’minlash borasida avtomatik tizimlarni joriy etish lozimdir. Hozirgi sharoitda aholi va iqtisodiy ob’ektlar muhofazasini yuksak darajaga ko’tarish maqsadida umuman mamlakat milliy boyliklarini turli texnogen halokatlar ta’siridan muhofaza qilish Davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri deb hisoblanmoqda. Bu esa turli favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish va oldindan aytish bo’yicha samarali tadbirlarni o’tkazish, sodir bo’lgan taqdirda tezkor harakat qilish va xavfsizlikni tiklashni taqazo etmoqda. Bizning ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatimiz yuzlab yong’in, portlash va kimyoviy xavfli korxonalarimiz faoliyat ko’rsatmoqda, ularning xavfsizligini ta’minlash va barqaror ishlashiga erishish davlat siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

9-Ma’ruza. Energetik va kommunal tizimdagi avariyalar

O’quv savollari

1. Gidrotexnika inshootlari va ularda yuzaga keladigan avariyalar.
2. Energetik va kommunal tizimdagi avariyalar.

O’zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 455-sonli qaroriga asosan “ Gidrotexnik xalokatlar va avariyalar texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar turlariga kiradi.

O’zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 427-sonli qaroriga asosan aholini tabiiy hamda texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o’tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

Gidrotexnika inshootlarida sodir bo’ladigan favqulodda vaziyatlarni kelib chiqish sabablari va ularning salbiy oqibatlari

Gidrotexnik (gidrodinamik) falokat (halokat) - bu gidrotexnik inshootni (GTI) yoki uning biror qismini ishdan chiqib buzilishi natijasida boshqarib bo’lmaydigan juda katta suv massasini bostirib kelishi tufayli vujudga keladigan favqulodda vaziyatdir. Suv omborlari, daryolar, kanallardagi gidrotexnik inshootining buzilishi, baland tog’ ko’llarining urib ketishi natijasida suv bosishi gidrotexnik halokatlar va falokatlarni sodir bo’lishiga olib keladi hamda odamlarni qurbon bo’lishiga, sanoat va qishloq xo’jalik ob’ektlarini ishini izdan chiqishiga, suv bosgan hududdagi aholining hayot faoliyatini izdan chiqishiga sabab bo’ladi va shoshilinch ko’chirish (evakuatsiya) tadbirlarini o’tkazishni talab qiladi.

Respublikamizda gidrodinamik xavfli ob’ektlar juda ko’p bo’lib, ular aholi va hudud xavf-xatar manbai hisoblanadi va muayyan sharoitda ularda sodir bo’lgan avariyalar favqulodda vaziyatga olib kelishi mumkin.

Gidrodinamik xavfli ob’ektlar - bu suv oqimi bo’ylab o’zidan oldingi va o’zidan keyingi suv sathlarida farq paydo qilib beradigan inshoot. Bosimga ega bo’lgan gidrotexnika inshootlari (sun’iy va tabiiy to’g’onlar) bunday ob’ektlar qatoriga kiradi.

- Вьеf - bu daryo (kanal, irmoq va h.k.) ning bosim inshooti (to’g’on, shlyuz va h.k.) ga tutashib (tegib) turadigan qismi;
- Yuqorigi bьef - bu daryo (kanal, irmoq va h.k.) ning oqim bo’ylab bosim inshooti (to’g’on, shlyuz va h.k.) dan oldingi (yuqori) qismi yoki suvning yuqorigi sathi va u egallab turgan maydon;
- Pastki bьef - bu daryo (kanal, irmoq va h.k.) ning oqim bo’ylab bosim inshooti (to’g’on, shlyuz va h.k.) dan keyingi (quyi) qismi yoki suvning pastki sathi va u egallab turgan maydon.

To’g’onlar sun’iy va tabiiy bo’lishi mumkin. Sun’iy to’g’onlarni odamlar o’z ehtiyojlari uchun barpo etadilar. Bular: GESlar, suv tortgichlar, irrigatsion tizimlar va boshqa ob’ektlarning to’g’onlari. Tabiiy to’g’onlar tabiat hodisalari (ko’chkilar, sellar, qor ko’chkilari, o’pirilishlar, zilzilalar va b.) ning ta’sirida hosil bo’ladi.

Masalan, Tojikiston hududidagi Murg’ob daryosi va Sarez qishlog’i o’rnida sodir bo’lgan kuchli zilzila tufayli o’pirilish natijasida Sarez ko’li paydo bo’lgan.

Gidrotexnika inshootlari:

1. Qaerdaligiga qarab:

- yer usti (daryo, ko’l, kanal va h.k.) inshootlari;
- yer osti (o’tkazgich quvurlar, tunnellar va h.k.) inshootlari.

2. Foydalanish maqsadi va xususiyatiga qarab:

- suv-energetika inshootlari;
- suv ta’minoti inshootlari;
- sug’orish inshootlari;
- oqava chiqindi suvlar chiqarish inshootlari;
- suv-transport inshootlari;
- baliq xo’jaligi inshootlari;
- sport inshootlari;
- bezak inshootlari va h.k.

3. Funktsional vazifasiga qarab:

- GES va boshqa gidrotexnik inshootning suv bo’g’ish inshootlari (to’g’onlar, ko’tarmalar);
- suv o’tkazish inshootlari, kanallar, tunnellar, quvur o’tkazgichlar;
- tarnovlar, suv tashlamalar, osma quvurlar, shlyuzlar va h.k.;
- tashlandiq suv inshootlari (ortiqcha suvni chiqarish uchun): o’zan inshootlari, qirg’oq inshootlari, yuza inshootlar, chuqur inshootlar va h.k.;
- tartiblash (to’g’rilash) inshootlari - suv oqib ketishi sharoitini hamda daryolar o’zani va qirg’oqlarini muhofaza qilish sharoitini yaxshilash uchun: ko’tarmalar, g’ovlar, qirg’oq mahkamlagichlar va h.k.;
- baliq xo’jaligi inshootlari kabi (baliq o’tkazish va baliq boqish uchun) turlarga bo’linadi.

Har bir gidrotexnik inshootda gidrotexnik qulf, ventilь, g’ov, surma to’siq va h.k. singari maxsus uskuna-jihozlar va turli qurilmalar bo’ladi.

Bir qancha vazifalarni bajarishga mo’ljallanib, bir butun qilib birlashtirilgan gidrotexnik inshoot majmui gidrouzellar deb ataladi.

Gidrodinamik falokatlarning sabablari va turlari.

Markaziy Osiyo hududida quyidagi gidrotexnika inshootlari mavjud-Qayroqqum, CHordara, Toxtagul, Andijon, Karkidon, Tolimarjon, Nurek, Ragun va boshqalar. O’zbekiston Respublikasida xozirgi paytda 18,9 mlrd. 700 mln. m^3 suv sig’dira oladigan 53ta suv ombori, daryo suvlarini viloyat va tumanlarga taqsimlab beruvchi 150dan ortiq suv to’g’onlari, 28122 km uzunlikdagi magistral kanallar va boshqa zarur suv inshootlari mavjud. Harbiy holat sharoitida yoki favqulodda vaziyat jarayonida ular ma’lum xavf tug’diradilar. Masalan, CHorvoq suv ombori inqirozga uchrasa Toshkent viloyatini 25 km^2 maydoni suv ostida qoladi, sanoat korxonalari, turar joy binolari, ekin maydonlari zarar ko’radi.

Bir qator gidrotexnika inshootlari katta shaharlar va yirik aholi yashash joylari yaqinida bo’lib, yuqori darajadagi xavfli ob’ektlardir.

Bularning buzilishi juda katta hududlar, jumladan shaharlar va aholi yashash joylarini suv ostida qolishiga olib kelishi, natijada shoshilinch evakuatsiya

tadbirlarini o’tkazishni talab etishi mumkin, bu esa o’sha joylarni juda katta moliyaviy zarar ko’rishlariga sabab bo’ladi.

Gidrotexnika inshootlariga ularni buzilishiga olib keluvchi quyidagi yemiruvchi kuchlar doimo ta’sir ko’rsatib turadi: suv oqimi, tebranish, balchiq-cho’kindilar, o’zgaruvchi harorat, statistik va dinamik kuchlar, metall zanglashi, betonning suyuqlikka qorishib yuvilishi, yerning yuvilib ketishi va h.k. SHu sababli, vaqt o’tgan sari, rejaga ko’ra bajarish lozim bo’lgan ta’mirlash ishlari amalga oshirilmasa inshoot yemirilib, unga yondosh hududni suv bosish ehtimoli orta boradi. Tuzulishiga ko’ra murakkab muhandislik inshooti bo’lgan bunday qurilmalarni loyihalash va qurishda yo’l qo’yilgan xatoliklar xam favqulodda vaziyatni sodir bo’lishiga olib kelishi mumkin. Huddi shundan, ko’p yillar oldin qurilgan bunday qurilmalarda, ularning uzoq muddatdan beri ishlatilib kelinayotgani uchun uskunalarning tabiiy yoyilishi va eskirishi tufayli ham nosozliklar kelib chiqishi mumkin. Favqulodda vaziyatlarning sodir bo’lishiga olib keluvchi sabablariga yana xavfli tabiat hodisalari, ya’ni tabiiy ofatlar (zilzila, ko’chki, kuchli shamol, sel va h.k.) kiradi. Ularning ta’siri natijasida gidrotexnik inshootlar buzilishi, natijada ko’lami turlicha bo’lgan suv toshqinlari sodir bo’lishi mumkin.

Ko’lami va xarakteri qandayligiga qarab ehtimoli bor quyidagi favqulodda vaziyat bo’lishi mumkin:

- to’g’on buzilgandagi toshqin - suvning bir qismi to’g’ondan o’tib ketishi.
- suv bosishi - hududning asta-sekin suv ostida qolishi.
- halokatli suv bosishi - to’g’on buzilib, uni urib ketgan suv hududni shiddat bilan tez qoplab ketishi va toshqin sodir bo’lishi.

Gidrotexnik xavfli inshootda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlarning shikastlovchi omillari va ko’rsatgichlari: to’g’onni urib ketgan to’lqinning balandligi - 2 va 20 m, tezligi 3-100 km/soat; to’g’onni urib ketgan to’lqin cho’qqisi va old tomonining yetib kelish vaqti (to’lqin tezligiga va joyning qancha oraliqda ekaniga qarab); suv bosish zonasining chegaralari (er yuzasi relьefi qandayligiga qarab); suv bosishining maksimal va amaldagi chuqurligi (relьefning qandayligiga, to’g’onni urib ketgan to’lqinning balandligi qandayligiga qarab); suv bosish qancha davom etishi (bir necha soatdan bir necha kecha-kunduzgacha)dan iborat.

Halokatli suv bosishning shikastlovchi omillari va ko’rsatkichlari suv omborining o’lchamlariga, to’g’onning balandligiga, urib ketgan to’lqinning tezligi va balandligiga, yer yuzasi qandayligiga va boshqa sharoitlarga ham bog’liq bo’ladi.

Suv bosish zonasi - hududning gidrotexnika inshootlariga tutash va suv tagida qolishi mumkin bo’lgan qismi.

Favqulodda vaziyatni sodir bo’lish ehtimolini tahminlash va unga baho berish.

Xavfli vaziyat o’chog’i bo’lishi mumkin bo’lgan gidrotexnika inshootlari va ularni buzilishi tufayli vujudga kelishi mumkin bo’lgan suv bosish zonasi hududlari xaritalarga (rejalarga, sxemalarga) tushirilib, bunday ob’ektlarga xos ko’rsatkichlar oldindan aniqlanadi.

Bu hujjatlar shu ob’ekt joylashgan hudud favqulodda vaziyatlar boshqarmalarida va bo’limlarida, shuningdek gidrotexnik xavfli ob’ektni quruvchi

va ulardan foydalanuvchi vazirliklar (yoki idoralarda) va ularning joylardagi bo'linmalarida turadi. SHu sababli oldindan tahminlashda falokat (yoki halokat)ning sodir bo'lish ehtimolligi, ko'lami va xarakteri hisobga olinadi

Ob'ektda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariya va uning ko'lami quyidagi omillarga bog'liq:

-inshootdagi suvning hajmi, to'g'onnning balandligi, qurilma mustahkamligi va h.k;

-ob'ektni buzilish darajasi va falokat ko'lami;

-buzilish natijasida hosil bo'lgan suv to'lqini tavsifiga;

-ob'ekt joylashgan yer yuzasi relьefiga, qurilayotgan inshootlarni holati va miqdoriga, atrofda joylashgan bog'lar, ekinzorlar va h.k.;

-favqulodda vaziyatni qaysi vaqtda bo'lgani, yil fasli, kechasi yoki kunduzgi vaqti, ob-havo sharoiti va h.k.

-muhofaza inshootlari (aylanma kanallar, tanlamalar, ko'tarmalar va h.k) mavjudligiga;

-ob'ektni boshqaruv tarkibini, boshqaruv organlarning, kuch va vositalarni tayyorgarlik darajasi;

-cheklangan xabar berish tizimining mavjudligi, ishlay olishi va samaradorligiga;

-favqulodda vaziyat chegarasida vaqt davomida avariya -qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarning mohirona boshqarilishi, uyushqoqligi va samaradorligi hamda aholining tayyorgarlik darajasiga bog'liq.

Oldindan tahminlashda inshootdagi favqulodda vaziyat tufayli sodir bo'lgan holat asosida inson hayoti xavfsizligiga zarar keltiruvchi holatlarni ham e'tiborga olish kerak bo'ladi. Jumladan, suv va yer yuzasining turli zararli moddalar bilan ifloslanishi mumkinligi, yoki bo'lmasa odamlar va hayvonlarning ommaviy kasallanishi, transport va energomagistral tizimlaridagi avariyalar, ko'chkilar, o'pirilishlar va h.k., imorat va inshootlarning chidamliligining yo'qolishi, atrof-muhitdagi ekologik buzilishlar, shuningdek halokat sodir bo'lgan ob'ekt va joydagi aniq sharoitga bog'liq boshqa salbiy oqibatlar.

Bulardan tashqari oldindan tahminlashda aholi orasidagi halok bo'lganlar, bedarak yo'qolganlar, shikastlanganlar, boshpanasiz qolganlar va h.k., qanchaligini hisoblab, ko'rilishi mumkin bo'lgan moddiy zararga buzilgan, shikastlangan, ishdan chiqqan ob'ekt va inshootlar qanchaligini hisoblab baho beriladi; bundan tashqari, bevosita va bilvosita zararlar (ishlab chiqarishga aynan shu halokat yetkazgan ziyon va shikastlanganlarni ta'minlash harajatlari) hisoblab chiqiladi.

Bevosita ko'riladigan zararlar:

-gidrotexnik inshoot, imoratlar, avtomobil va temir yo'llar, elektr uzatish va aloqa simlari, energotizimlar, sug'orish tizimlari va h.k.buzilishi;

-chorva mollari, qishloq xo'jalik ekinlari hosili, ekinzorlar nobud bo'lishi;

-xom ashyo, yoqilg'i, ovqat mahsulotlari, chorva ozuqalari, sanoat mahsulotlari, o'g'itlarni yo'qotilishi va yaroqsiz holga kelishi;

- xavfsiz joylarga aholini vaqtincha evakuatsiya qilish va moddiy boyliklarni tashish xarajatlari;

- hosildor qatlam yuvilib ketishi va tuproq ustiga balchiq cho'kib qolishidan iborat.

Bilvosita zararlar esa:

- ovqat mahsulotlarini, kiyim-kechak, dori-darmon, qurilish materiallari, texnika, chorva ozuqalarini sotib olish va shikast yetgan joylarga yetkazib berish xarajatlari;
-sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlab chiqarishni kamayishi hamda iqtisodiyotning rivojlanish sur'atini pasayishi;
- mahalliy aholining hayot kechirish sharoitini yomonlashuvi;
- suv bosish ehtimoli bor zonadagi hududdan unumli foydalanishning iloji yo'qligi;
- shuningdek aniq mahalliy sharoitga bog'liq boshqa noqulay omillardan iborat.

Gidrotexnika inshootlarini muhofaza qilish choralari

Gidrotexnika inshootlarini muhofaza qilish favqulodda vaziyatni oldini olishning eng asosiy omillaridan bo'lib, avvalo gidrotexnik inshootni to'g'ri loyixalash va qurish ulardan to'g'ri foydalanish, belgilangan ishlarni va ta'mirlash ishlarini vaqtida bajarish, qirg'oqni mahkamlash va tub mahkamlash ishlarini vaqtida o'tkazish lozim. Suv chiqarishni vaqtga muvofiq qayta taqsimlash yo'li bilan suvning maksimal zaxirasini va maksimal sarflanishini kamaytirish, qo'shimcha suv omborlari yordamida toshqin suvlar oqimini tartibga solib turish kerak.

Bulardan tashqari gidrotexnik inshoot ahvolini doimo kuzatib turish (uskuna-jihozlar va yuksak malakali mutaxassislar yordamida), FVDT tarkibiga kiruvchi funktsional kichik tizimlari va organlarini sohaga aloqali faoliyatini tizimli nazorat qilib turish, gidrotexnik inshoot zonasini chet kishilar kirishidan ishonchli qo'riqlash ishlarini olib borish talab etiladi. Falokatlarga olib keladigan noqulay omillar bo'lishi ehtimolini oldindan aytish tahminlarini tuzish uchun gidrometeorologik sharoitni muntazam kuzatib borish eng muhum masala xisoblanadi.

Aholi va hududlarni muhofaza qilish choralariga quyidagilar kiradi:
-oldindan aytilgan to'g'ri tahminlarning doimo mavjud bo'lishi;.
-yaxshi yo'lga qo'yilgan axborot xizmatining bor bo'lishi;
-doimo va samarali ishlab turadigan xabar berishning cheklangan tizimi bo'lishi;
-gidrotexnik inshoot xodimlarining uyushqoqligi, bilimdonligi, intizomliligi;
-ehtimoli bor halokatli suv bosish zonasida istiqomat qiluvchi aholining favqulodda vaziyatdagi hatti-harakatlarga tayyogarlik ko'rganligi;
-fuqaro muhofazasi rahbarlar tarkibining gidrotexnik inshootda falokatlar va halokatlar oldini olish hamda bunday hodisalar ehtimoli paydo bo'lgandagi va sodir bo'lgandagi faoliyat masalalari yuzasidan tayyorgarlik ko'rganligi (zamonaviy vositalar va usullar yordamida sharoitni bilib va tez oldindan taxminlay olish hamda unga baho bera bilish, asosli qarorlarga kela olish va ularni turmushga tezkorlik bilan tadbiq eta bilish);
-muhofaza tadbirlarini bevosita o'tkazish:
-gidrotexnik inshootda falokat xavfi tug'ilgani haqida aholiga xabar berish;
-suv ostida qolishi mumkin bo'lgan zonalardan aholini, qishloq xo'jalik hayvonlarini, moddiy boyliklarni barvaqt evakuatsiya qilish;
-suv bosish ehtimoli bor zonadagi korxona, tashkilot, muassasalar ishini qisman cheklash yoki to'xtatish hamda moddiy boyliklarni muhofaza qilish:
- darhol xujjatlarni, qimmatbaho va kerakli buyumlarni, 2-3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suv zaxiralarini o'zi bilan olish;
- boshqa narsalarni yo'qolmaydigan qilib saranjomlab qo'yish;

- hamma energiya iste’mol qiladigan narsalarni o’chirib qo’yish;
- chorva mollarini xavfsiz joylarga o’tkazib qo’yish.

To’satdan halokatli suv bosganda:

- urib ketgan to’lqin zarbidan saqlanish uchun shoshilinch choralar ko’riladi (balandlik joyga, pishiq inshoot ustiga chiqiladi, bordiyu to’lqin yetib kelib qolsa - uning ichiga sho’ng’iladi);
- oldindan tayyorlab qo’yilgan qutqaruv vositasini (4-6 ta bir litrli plastmassa idishlar osilgan najot kamarini) taqib olinadi;
- agar odam imorat ichida (cherdakda va boshqa joyda) qolgan bo’lsa, qaerdaligini belgilab, qutqaruvchilar mo’ljal olishi uchun signal (kunduzi umuman bayroq - yaxshisi oq bayroq, kechasi esa fonus) osib qo’yiladi.

Gidrotexnika inshootlarini muhofaza qilish choralari.

O’zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika ignshootlarining xavfsizligi to’g’risida”gi Konunining maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruktsiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Gidrotexnika inshootlarini muhofaza qilish favqulodda vaziyatni oldini olishning eng asosiy omillaridan bo’lib, avvalo

Gidrotexnik inshootni to’g’ri loyixalash va qurish ulardan to’g’ri foydalanish, belgilangan ishlarni va ta’mirlash ishlarini vaqtida bajarish, qirg’oqni mahkamlash va tub mahkamlash ishlarini vaqtida o’tkazish lozim. Suv chiqarishni vaqtga muvofiq qayta taqsimlash yo’li bilan suvning maksimal zaxirasini va maksimal sarflanishini kamaytirish, qo’shimcha suv omborlari yordamida toshqin suvlar oqimini tartibga solib turish kerak.

Bulardan tashqari gidrotexnik inshoot ahvolini doimo kuzatib turish (uskuna-jihozlar va yuksak malakali mutaxassislar yordamida), FVDT tarkibiga kiruvchi funktsional kichik tizimlari va organlarini sohaga aloqali faoliyatini tizimli nazorat qilib turish, gidrotexnik inshoot zonasini chet kishilar kirishidan ishonchli qo’riqlash ishlarini olib borish talab etiladi. Falokatlarga olib keladigan noqulay omillar bo’lishi ehtimolini oldindan aytish tahminlarini tuzish uchun gidrometeorologik sharoitni muntazam kuzatib borish eng muhum masala xisblanadi.

Aholi va hududlarni muhofaza qilish choralariga quyidagilar kiradi:

-oldindan aytilgan to’g’ri tahminlarning doimo mavjud bo’lishi;.

-yaxshi yo’lga qo’yilgan axborot xizmatining bor bo’lishi;

-doimo va samarali ishlab turadigan xabar berishning cheklangan tizimi bo’lishi;

-gidrotexnik inshoot xodimlarining uyushqoqligi, bilimdonligi, intizomliligi;

-ehtimoli bor halokatli suv bosish zonasida istiqomat qiluvchi aholining favqulodda vaziyatdagi hatti-harakatlarga tayyogarlik ko’rganligi;

-fuqaro muhofazasi rahbarlar tarkibining gidrotexnik inshootda falokatlar va halokatlar oldini olish hamda bunday hodisalar ehtimoli

paydo bo’lganda va sodir bo’lgandagi faoliyat masalalari yuzasidan tayyorgarlik ko’rganligi (zamonaviy vositalar va usullar yordamida sharoitni bilib va tez oldindan taxminlay olish hamda unga baho bera bilish, asosli qarorlarga kela olish va ularni turmushga tezkorlik bilan tadbiq eta bilish)

-muhofaza tadbirlarini bevosita o’tkazish:
-gidrotexnik inshootda falokat xavfi tug’ilgani, haqida aholiga xabar berish;
-suv ostida qolishi mumkin bo’lgan hududlardan, aholini, qishloq xo’jalik hayvonlarini, moddiy boyliklarni barvaqt evakuatsiya qilish;
-suv bosish ehtimoli bor zonadagi korxona, tashkilot, muassasalar ishini qisman cheklash yoki to’xtatish hamda moddiy boyliklarni muhofaza qilish:
- darhol xujjatlarni, qimmatbaho va kerakli buyumlarni, 2-3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suv zaxiralarini o’zi bilan olish;
- boshqa narsalarni yo’qolmaydigan qilib saranjomlab qo’yish;
- hamma energiya iste’mol qiladigan narsalarni o’chirib qo’yish;
- uy hayvonlarini xavfsiz joylarga o’tkazib qo’yish.

O’zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 242-sonli qaroriga asosan “Suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnik inshootlardan foydalanish xavfsizligini, ulardan avariyalar va halokatlarning yuzaga kelishi ehtimollarini prognozlash. Suv xo’jaligi ob’ektlarining ish rejimini o’zgartirish yoki keyinchalik foydalanish zaruratini belgilash, suv omborlaridan suvni avariyani oldini olish maqsadida chiqarib yuborish.. Suv omborlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish.

Energetika tizimidagi avariyalar

Energetika tizimidagi sodir bo’ladigan favqulodda vaziyatlarga Gidroelektrostantsiya (GES) larida, issiqlik elektr markaz (TETS) larida, shahar, tuman elektr tarmoq (GRES) larida, elektr tarmoqlarida, issiqlik markazlarida, issiqlik qozonlarida, kompressorlarda, gaz taqsimlash stantsiya (GRS)larida va energetika tizimining boshqa ob’ektlarida sodir buladigan avariya va halokatlar kiradi.

Ko’rinishi:

Ishlab chiqarish va iktisodiyot ob’ektlar turli xildagi ma’suliyatli iste’molchilarida energiya t’minotining biror avariya tufayli ishdan chiqish hodisasi. Energiya ta’minotida bunday avariya holatlari ko’p uchraydi, lekin, kam hollarda nobud bo’lishi kuzatilib, iqtisodiyot ob’ektlari barqarorligiga, insonlarning me’yoriy hayot faoliyatiga ta’sir ko’rsatadi.

Oldini olish bo’yicha chora tadbirlar:

Yordamchi tarmoqlar evaziga energiya ta’minotini barcha ob’ektlarining barqaror faoliyat ko’rsatishini ta’minlash.

Texnik hujjatlarda ko’rsatilgan me’yor talablari bo’yicha rejaviy- profilaktik ko’rik va texnik ta’mirlash ishlarini o’z vaqtida utkazilishi, barcha xavfsizlik choralariga amal qilish, qolaversa barcha xizmat muddati talablariga rioya qilish va x.k.

Muhofaza tadbirlari:

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242- Qaroriga muvofiq Energetika va elektrlashtirish vazirligiga “energetika tizimiga kiruvchi barcha ob’ektlardan avariyasiz foydalanishga oid tadbirlar majmuini tashkil etish va amalga oshirish, hamda Kommunal xizmat

ko’rsatish vazirligi va mahalliy xokimiyat organlari bilan birgalikda iste’molchilarni hamda, birinchi navbatda, favqulodda vaziyatlar zonalaridagi

hayotiy ta’minot ob’ektlarini elektr quvvati bilan uzluksiz ta’minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish” vazifalari yuklatiladi.Bundan tashqari energetika ob’ektlarining texnik holatini nazorat qiluvchi davlat xizmati orqali bu tizimdagi turli avariya holatlarini oldi olinadi.

Maishiy xizmat tarmoqlardagi avariyalar

Gaz tarmoqlari, suv saqlagichlar, suv tarmoqlari, kanalizatsiyalar, bundan tashqari gaz tozalash, biologik tozalash inshootlari va maishiy xizmat tarmoqlariga kiruvchi barcha ob’ektlar kiradi.

Ko’rinishi:

Insonlarning hayot faoliyatiga va sog’lig’iga xavf tug’diradish bilan kechadigan avariyalar. Bundan tashqari atmosferani, yerni ustki qismini, yer osti va yer usti suvlarini zaharlash, aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatish darajasida namoyon bo’ladigan avariya va halokatlar.

Oldini olish bo’yicha chora tadbirlar:

Yordamchi tarmoqlar evaziga muxandislik tarmoqlarining barqarorligini ta’minlash.

Texnik hujjatlarda ko’rsatilgan me’yor talablari bo’yicha rejaviy- profilaktik ko’rik va texnik ta’mirlash ishlarini o’z vaqtida utkazilishi, barcha xavfsizlik choralariga amal qilish, qolaversa barcha xizmat muddati talablariga rioya qilish va x.k.

Muhofaza tadbirlari:

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242-Qaroriga muvofiq Kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi, mahalliy xokimiyat organlari bilan birgalikda iste’molchilarni hamda, birinchi navbatda, favqulodda vaziyat zonalaridagi xayotiy ta’minot ob’ektlariga xizmat qiluvchi muxandislik tarmoqlarini uzluksiz ish faoliyatini ta’minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish” vazifalari yuklatiladi. Bundan tashqari maishiy -texnik xizmatlari, shaharlarni,turar joylarni va xududlarni favqulodda vaziyatdan muxandislik himoya qilish xizmatlari.

Rejaviy - profilaktik ko’rik va ta’mirlash ishlarini o’z vaqtida o’tkazilishi, xizmat muddati qoidalari talablariga amal qilish, boshqarish va aloqa tizimlarining ish sifatini oshirish, bundan tashqari xodimlarning bilimi va tajribasini oshirib borish.

10-ma’ruza. Binolarning to’satdan vayron bo’lishi va sabablari.

O’quv savollari

1. Potentsial xavfli obektlar.
2. Binolarning vayron bo’lish sabablari.

O’zbekiston Respublikasida inson va jamiyatning barcha munosabatlari tartibga solinishi bilan bir qatorda sanoat xavfsizligi ham qabul qilingan shartlar va talablar asosida tartibga solinadi.

Sanoat xavfsizligi shaxs va jamiyat hayotiy muhim manfaatlarining ishlab chiqarish ob’ektlaridagi avariyalar va noxush hodisalardan hamda ularining oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir.

Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligini ta’minlash, avariya va jarohat yetkazilishi bo’yicha ma’lumotlarni tahlil qilish samaradorligini oshirish, avariyalar kelib chiqishi sabablarini belgilab beradigan qonuniyatlar va omillarni tadqiq etish, xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarini hisobga olish va identifikatsiyalash, sanoat xavfsizligi ekspertizasini o’tkazish tizimini shakllantirish va rivojlantirish, sanoat xavfsizligini deklaratsiyalash, «Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to’g’risida»gi Qonunga muvofiq boshqa shaxslarning hayoti, sog’lig’i va mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun xavfli ishlab chiqarish ob’ektlaridan foydalanayotgan tashkilotlarning javobgarligini majburiy sug’urta qilish maqsadida O’zbekiston Respublikasida qabul qilingan va hayotga tadbiq etilgan qonunlar va qonunosti xujjatlar asosida sanoat xavsizligi ta’minlanib va ushbu soha tegishli vazirlik va idoralar tomonidan muvofiqlashtirilib kelinmoqda.

Mazkur ma’ruzada sanoat xavsizligi talablari, xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarini identifikatsiyalash tartibi, printsiplari va shartlari va shuning bilan bir qatorda xavfsizlik chora-tadbirlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta’minlash, xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariyalarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo’yicha tadbirlarning yetarliligi va samaradorligini baholash maqsadida xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarida ishlab chiqiladigan sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish tartibi va qoidalari yoritiladi.

Sanoat xavfsizligi sohasida davlat tomonidan tartibga solish O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq sanoat xavfsizligi sohasida ayrim vakolatlarga ega bo’lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sanoat xavfsizligi sohasida davlat tomonidan tartibga solish:

sanoat xavfsizligi talablarini belgilashni;

sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarida qo’llaniladigan texnika qurilmalarini sertifikatlashtirishni;

faoliyatni ayrim turlarini litsenziyalashni;

sanoat xavfsizligi ekspertizasini;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarini o’z ichiga oladi.

Sanoat xavfsizligi talablari:

Sanoat xavfsizligi talablari qonun hujjatlarida, shuningdek normativ texnik hujjatlarda nazarda tutilgan shartlar, taqiqlar, cheklashlar va boshqa majburiy talablar bo'lib, ularga rioya etilishi sanoat xavfsizligini ta'minlaydi. Sanoat xavfsizligi talablari to'rt turga bo'linadi. Bular**:**

1. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini loyihalash, qurish va foydalanishga qabul qilib olishga oid sanoat xavfsizligi talablari.

2. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanishga oid sanoat xavfsizligi talablari.

3. Xavfli ishlab chiqarish ob'ekti xodimlariga qo'yiladigan sanoat xavfsizligi talablari.

4. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik va uning oqibatlarini tugatish bo'yicha harakatlarga tayyorgarlik ko'rishga oid sanoat xavfsizligi talablari.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini loyihalash, qurish va foydalanishga qabul qilib olishga oid sanoat xavfsizligi talablari:

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatishni amalga oshirish uchun loyiha hujjatlari sanoat xavfsizligi ekspertizasining ijobiy xulosasi bo'lishi zarur.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatish jarayonida loyiha hujjatlaridan chetga chiqishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatishga doir loyiha hujjatlarini o'zgartirish sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o'tkazilishi kerak.

Loyiha hujjatlarini ishlab chiqqan tashkilotlar xavfli ishlab chiqarish ob'ektini qurish, kengaytirish, qayta qurish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiyalash va tugatish jarayonida belgilangan tartibda mualliflik nazoratini amalga oshiradi.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini foydalanishga qabul qilib olish belgilangan tartibda o'tkaziladi. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektini foydalanishga qabul qilib olish jarayonida xavfli ishlab chiqarish ob'ektining loyiha hujjatlariga muvofiqligi, tashkilotning xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanishga hamda xavfli ishlab chiqarish ob'ektida avariyaning kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik va uning oqibatlarini tugatish bo'yicha harakatlarga tayyorligi tekshiriladi.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanishga oid sanoat xavfsizligi talablari:

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektidan foydalanuvchi tashkilot:

sanoat xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlarida, shuningdek normativ texnik hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga rioya etishi;

xavfli ishlab chiqarish ob'ekti hodimlari shtatining belgilangan talablarga muvofiq to'ldirilishini ta'minlashi;

xavfli ishlab chiqarish ob'ektidagi ishga oid malaka talablariga javob beradigan va ko'rsatilgan ishga tibbiy jihatdan loyiq shaxslarni qo'yishi;

xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari xodimlarining tayyorgarlikdan va attestatsiyadan o'tkazilishini ta'minlashi;

ishlab chiqarish jarayoni ustidan nazorat qiluvchi zarur asboblar va tizimlarning belgilangan talablarga muvofiq mavjud bo’lishi hamda ishlashini ta’minlashi;

ushbu Qonunning 15-moddasiga muvofiq sanoat xavfsizligi ekspertizasi o’tkazilishini, shuningdek xavfli ishlab chiqarish ob’ektida qo’llaniladigan inshootlar va texnika qurilmalari diagnostikasi, sinovlari, tekshiruvi o’tkazilishini belgilangan muddatlarda va maxsus vakolatli davlat organi yoki qonun hujjatlariga muvofiq sanoat xavfsizligi sohasida ayrim vakolatlarga ega bo’lgan boshqa davlat organlarining belgilangan tartibda taqdim etiladigan yozma ko’rsatmasiga binoan ta’minlashi;

begona shaxslarning xavfli ishlab chiqarish ob’ektiga ruxsatsiz kirishining oldini olishi;

xavfli moddalarni saqlashga oid sanoat xavfsizligi talablarining bajarilishini ta’minlashi;

sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini belgilangan tartibda ishlab chiqishi va tasdiqlashi;

maxsus vakolatli davlat organi va qonun hujjatlariga muvofiq sanoat xavfsizligi sohasida ayrim vakolatlarga ega bo’lgan boshqa davlat organlarining buyruqlari, qarorlari va yozma ko’rsatmalarini bajarishi;

avariya yoki noxush hodisa yuz bergan, shuningdek sanoat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan boshqa holatlar aniqlangan taqdirda, xavfli ishlab chiqarish ob’ektidan foydalanishni to’xtatib turishi;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirishda ishtirok etishi, avariyaga olib kelgan sabablarini bartaraf etish va ularning oldini olish choralarini ko’rishi;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektida noxush hodisaning yuzaga kelganligi sabablarini tahlil qilishi, mazkur sabablarning bartaraf etilishi va oldini olish choralarini ko’rishi;

maxsus vakolatli davlat organini, qonun hujjatlariga muvofiq sanoat xavfsizligi sohasida ayrim vakolatlarga ega bo’lgan boshqa davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, shuningdek fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari va aholini xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariya to’g’risida o’z vaqtida belgilangan tartibda xabardor qilishi;

avariya yuz bergan taqdirda, xavfli ishlab chiqarish ob’ekti xodimlarining hayoti va sog’lig’ini muhofaza qilish choralarini ko’rishi;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariyalar va noxush hodisalar hisobini olib borishi shart.

Xavfli ishlab chiqarish ob’ekti xodimlariga qo’yiladigan sanoat xavfsizligi talablari:

Xavfli ishlab chiqarish ob’ektining xodimlari:

sanoat xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlarida, shuningdek normativ texnik hujjatlarda ko’rsatilgan talablarga rioya etishlari;

sanoat xavfsizligi sohasidagi tayyorgarlikdan va attestatsiyadan o’tishlari;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariya va noxush hodisa haqida tegishli shaxslarni darhol xabardor qilishlari;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektida avariya va noxush hodisa yuz bergan taqdirda, ishlarni belgilangan tartibda to’xtatib turishlari;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo’l qo’ymaslik va uning oqibatlarining tugatish bo’yicha ishlarni amalga oshirishda belgilangan tartibda ishtirok etishlari shart.

Xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo’l qo’ymaslik va uning oqibatlarini tugatish bo’-yicha harakatlarga tayyorgarlik ko’rishga oid sanoat xavfsizligi talablari:

Xavfli ishlab chiqarish ob’ektidan foydalanuvchi tashkilot:

xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariyaning kengayib ketishiga yo’l qo’ymaslik va uning oqibatlarini tugatish tadbirlarini rejalashtirishi hamda amalga oshirishi;

tegishli professional avariya-qutqaruv xizmatlari bilan xizmat ko’rsatishga doir shartnomalar tuzishi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa o’z avariya-qutqaruv xizmatlarini yoki xodimlari jumlasidan shtatsiz avariya-qutqaruv tuzilmalarni tashkil etishi;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariyalarni kengayib ketishiga yo’l qo’ymaslik va uning oqibatlarini tugatish uchun qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy mablag’lar va moddiy resurslarning zaxirasiga ega bo’lishi;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektida avariya va noxush hodisa yuz bergan taqdirda, xodimlarini bajariladigan harakatlarga o’qitishi;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektida avariya ehtimolini nazarda tutgan holda kuzatish, xabar qilish, aloqa va harakatlarga ko’maklashish tizimlarini tashkil etishi, shuningdek mazkur tizimlarni yaroqli holatda saqlab turishi shart.

Xavfli ishlab chiqarish ob’ektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish tartibi

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrdagi «Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar haqida»gi 271 sonli qarorining 4-ilovasi bilan xavfli ishlab chiqarish ob’ektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish tartibi to’g’risida Nizom tasdiqlangan.

Mazkur Nizom xavfsizlik chora-tadbirlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta’minlash, xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariyalarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo’yicha tadbirlarning yetarliligi va samaradorligini baholash maqsadida xavfli ishlab chiqarish ob’ektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish tartibini belgilaydi.

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish quyidagilarni nazarda tutadi:

avariya xavfini va uning bilan bog’liq xavf-xatarni har tomonlama baholash;

avariyalarning oldini olish, sanoat xavfsizligi talablariga muvofiq xavfli ishlab chiqarish ob’ektining foydalanishga tayyorligini ta’minlash bo’yicha

ko’rilgan chora-tadbirlarning yetarliligini tahlil qilish, shuningdek xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariyalarni lokalizatsiya qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariyalar oqibatlari ko’lamini va sodir bo’lgan taqdirda yetkazilgan zarar miqdorini kamaytirishga yo’naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish.

Deklaratsiya xavfli ishlab chiqarish ob’ekti xavfsizligini uni ishga tushirish, undan foydalanish va uni foydalanishdan chiqarish bosqichlarida tavsiflashi kerak.

Nizomda qo’llanadigan terminlar va tushunchalar:

avariya – inshootlar va (yoki) xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarida qo’llanadigan texnika qurilmalarining buzilishi, nazorat qilib bo’lmaydigan portlash va (yoki) xavfli moddalar ajralib chiqishi;

xavf tahlili – xavflarni aniqlash (identifikatsiyalash) va baholash jarayoni;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi – avariya xavfini har tomonlama baholash natijalari, avavriyalarning oldini olish va sanoat xavfsizligi me’yorlari va qoidalari talablariga muvofiq xavfli ishlab chiqarish ob’ektining foydalanishga tayyorligi tashkil etilishini ta’minlash bo’yicha ko’rilgan chora-tadbirlarning yetarliligi tahlili, shuningdek xavfli ishlab chiqarish ob’ektidagi avariya oqibatlarini lokalizatsiya qilish va tartaraf etish natijalari ko’rsatilgan hujjat;

xavfli modda – o’zining fizik, kimyoviy, biologik yoki toksikologik xossalariga ko’ra odamlar hayoti va salomatligi uchun, shuningdek atrof tabiiy muhit uchun xavf tug’diradigan modda;

xavfli ishlab chiqarish ob’ekti – quyidagi xavfli moddalar:

1) portlash-yong’in xavfi bo’lgan muhitni yuzaga keltirishi mumkin bo’lgan moddalar;

tasdiqlangan standartlarga muvofiq tirik organizmga ta’sir qilish darajasiga ko’ra I, II va III xavflilik darajalariga (o’ta xavfli, yuqori darajada xavfli va o’rtacha darajada xavfli) mansub moddalar;

muayyan turdagi tashqi ta’sir chog’ida issiqlik ajratgan va gazlar hosil qilgan holda o’z-o’zidan juda tez tarqaladigan kimyoviy o’zgaruvchan portlovchi moddalar;

inson sog’lig’i va atrof muhit uchun xavfli kontsentratsiyali moddalar mavjud bo’lgan ishlab chiqarish chiqindilari foydalaniladigan, ishlab chiqariladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saqlanadigan, tashiladigan, yo’q qilinadigan;

2) 0,07 megapaskaldan ortiq bosim ostida yoki ishlatiladigan suyuqlikning normal atmosfera bosimidagi qaynash haroratidan ortiq haroratda ishlaydigan uskunalardan foydalaniladigan;

3) ko’chmas asosga o’rnatilgan yuk ko’tarish mexanizmlari, eskalatorlar, osma yo’llar, funikulyorlardan (tog’ temir yo’llaridan) foydalaniladigan;

4) qora va rangli metallar eritmalari hamda ushbu eritmalar asosida qotishmalar olinadigan;

5) konchilik ishlari, foydali qazilmalarni qazib olish va boyitish ishlari, shuningdek yer osti sharoitida ish olib boriladigan korxonalar yoki ularning tsexlari, uchastkalari, maydonchalari, shuningdek boshqa ishlab chiqarish ob’ektlari;

sanoat xavfsizligi – xavfli ishlab chiqarish ob’ektlaridagi avariyalar va noxush hodisalardan hamda ularning oqibatlaridan shaxs va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari himoyalanganligi holati;

sanoat xavfsizligi deklaratsiyasiga hisob-kitob-tushuntirish xati – avariya xavfining asosli bahosi va avariyalarning oldini olish bo’yicha ko’rilgan chora-tadbirlarning yetarliligini asoslovchi materiallar keltirilgan hujjat;

avariya stsenariysi – aniq xavfli oqibatlarga sabab bo’luvchi avariyalarga olib keladigan, aniq tashkil etiladigan voqea sabab bo’ladigan alohida mantiqan bog’liq voqealarning izchilligi;

sanoat xavfsizligi ekspertizasi – ekspertiza ob’ektining unga qo’yiladigan sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligini baholash;

xavfli ishlab chiqarish ob’ektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi ekspertizasi (keyingi o’rinlarda deklaratsiya ekspertizasi deb ataladi) – natijasi sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi hisoblanadigan sanoat xavfsizligi deklaratsiyasining sanoat xavfsizligi me’yorlari va qoidalariga muvofiqligini baholash;

ekspert tashkiloti – belgilangan tartibga muvofiq ekspertiza o’tkazish huquqi yuzasidan akkreditatsiyaga ega bo’lgan tashkilot.

Xavfsizligi deklaratsiyalanishi kerak bo’lgan xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari:

Qonun hujjatlariga muvofiq xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining birinchi tipiga muvofiq bo’lgan loyihalanayotgan va faoliyat ko’rsatayotgan xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari sanoat xavfsizligini majburiy deklaratsiyalashga tegishli bo’ladi.

Boshqa xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligini deklaratsiyalash ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi.

Majburiy deklaratsiyalanishi kerak bo’lgan xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarini identifikatsiya qilish xavfli ishlab chiqarish ob’ektidan foydalanuvchi tashkilot, shuningdek sanoat xavfsizligi ekspertizasini o’tkazish yuzasidan akkreditatsiyaga ega bo’lgan ekspert tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

Majburiy deklaratsiyalanishi kerak bo’lgan xavfli ishlab chiqarish ob’ekti identifikatsiya qilingan taqdirda tashkilot rahbari ushbu ob’ekt to’g’risidagi ma’lumotlarni favqulodda vaziyatlar bo’yicha tegishli hududiy boshqarmaga va «Sanoatkontexnazorat» davlat inspektsiyasining mintaqaviy organlariga, yuqori tashkilotga, vazirlik yoki idoraga (mavjud bo’lganda) hamda xavfli ishlab chiqarish ob’ekti joylashgan hududdagi mahalliy davlat hokimiyati organiga taqdim etadi. Ma’lumotlar Nizomga ilovada keltirilgan shakl bo’yicha rasmiylashtiriladi.

Favqulodda vaziyatlar bo’yicha hududiy boshqarmalar va «Sanoatkontexnazorat» davlat inspektsiyasining mintaqaviy organlari har yili o’zlarining markaziy apparatlariga, xavfsizligi majburiy deklaratsiyalanadigan xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari ro’yxatiga kiritish uchun umumlashtirilgan axborot taqdim etadilar.

O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va «Sanoatkontexnazorat» davlat inspektsiyasi o’zlarining bo’linmalari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni hisobga olgan holda xavfsizligi majburiy

deklaratsiyalanadigan xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari ro’yxatini shakllantiradilar va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadilar.

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish:

Faoliyat ko’rsatayotgan xavfli ishlab chiqarish ob’ektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi ushbu ob’ektdan foydalanayotgan tashkilot tomonidan mustaqil ravishda yoki xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligini ekspertizadan o’tkazish yuzasidan akkreditatsiyaga ega bo’lgan tashkilot bilan tuzilgan shartnoma asosida ishlab chiqiladi.

Loyihalashtirilayotgan xavfli ishlab chiqarish ob’ektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi xavfli ishlab chiqarish ob’ektini qurish, kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiya qilish va tugatish yuzasidan loyiha hujjatlari tarkibida ishlab chiqiladi.

Tashkilot tarkibida majburiy deklaratsiyalanishi kerak bo’lgan bir nechta xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari mavjud bo’lgan taqdirda xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi yagona deklaratsiyasini ishlab chiqishga va rasmiylashtirishga yo’l qo’yiladi.

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi xavfli ishlab chiqarish ob’ektidan foydalanish bilan bog’liq faoliyat uchun litsenziya olish yuzasidan murojaat qilinganda, sanoat xavfsizligi deklaratsiyasidagi mavjud ma’lumotlar o’zgartirilganda yoki sanoat xavfsizligi talablari o’zgartirilgan taqdirda aniqlashtiriladi yoki yangidan ishlab chiqiladi.

Faoliyat ko’rsatayotgan ob’ekt uchun deklaratsiyani ishlab chiqishda sanoat xavfsizligi talablarini ta’minlash bo’yicha ma’lumotlar tarkibiga ham bajarilgan, ham rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar to’g’risidagi axborot kiritiladi. Deklaratsiyani ishlab chiqishda loyiha hujjatlari tarkibida rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar to’g’risidagi ma’lumotlar taqdim etiladi.

Loyihalashtirilayotgan xavfli ishlab chiqarish ob’ekti uchun sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi loyiha buyurtmachisi tomonidan tasdiqlanadi.

Faoliyat ko’rsatayotgan xavfli ishlab chiqarish ob’ekti deklaratsiyasi ushbu ob’ektdan foydalanayotgan tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini tasdiqlagan shaxs unda ko’rsatilgan axborotning to’liqligi va to’g’riligi uchun javob beradi.

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi belgilangan tartibda sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o’tkazilishi kerak.

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan deklaratsiya va unga ilovalar buyurtmachi tomonidan ekspert tashkilotiga shartnoma asosida taqdim etiladi.

Xavfli ishlab chiqarish ob’ektidan foydalanayotgan tashkilot rahbari:

a) sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini favqulodda vaziyatlar bo’yicha tegishli hududiy boshqarmaga, «Sanoatkontexnazorat» davlat inspektsiyasining mintaqaviy organiga, O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga, «Sanoatkontexnazorat» davlat inspektsiyasiga va deklaratsiya qilinayotgan xavfli ishlab chiqarish ob’ekti joylashgan hududdagi mahalliy davlat hokimiyati organiga taqdim etadi. Deklaratsiya juzlab taxlangan holda va ekspert xulosalari bilan birga taqdim etiladi;

b) rasmiy vakillarning deklaratsiyadan foydalana olishini ta’minlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, «Sanoatkontexnazorat» davlat inspektsiyasi xavfsizlik jihatidan deklaratsiya qilinishi kerak bo’lgan sanoat ob’ektlari to’g’risidagi elektron ma’lumotlar banklarini yuritadilar, O’zbekiston Respublikasi hududida xavfsizlikni deklaratsiyalash tartib-qoidasi bajarilishini tahlil qiladilar.

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini qayta ko’rib chiqish:

sanoat xavfsizligini, avariyalarni lokalizatsiya qilish va avariya oqibatlarini bartaraf etishni ta’minlashga ta’sir ko’rsatadigan sharoitlar o’zgarganda kechi bilan 1 yil muddatda;

sanoat xavfsizligi, avariyalarni lokalizatsiya qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi amalda bo’lgan talablar (qoidalar va me’yorlar) o’zgarganda kechi bilan 1 yil muddatda;

O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, «Sanoatkontexnazorat» davlat inspektsiyasining qo’shma qarori qabul qilinganda ushbu qarorlarda nazarda tutilgan muddatlarda qayta ko’rib chiqilishi kerak.

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi 5 yilda kamida bir marta qayta ko’rib chiqilishi kerak.

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyalanadigan xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari to’g’risida ma’lumotlar

Tashki-lotning to’liq nomi	Tashkilotning to’liq pochta manzili, telefoni, faksi	Yuqori tashkilot (idora), mavjud bo’lsa	Ob’ekt-ning to’liq nomi	Ob’ektning joy-lashgan joyi	«Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari-ning sanoat xavfsizligi to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 4-jadvaliga muvofiq ob’ektning xavflilik belgilari	Xavfsizlik deklaratsiya-langan yil
1	2	3	4	5	6	7

Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi tuzilishiga talablar:

Deklaratsiya quyidagilar tarkibiy elementlarni o’z ichiga oladi:

- titul varaq;
- deklaratsiyani ishlab chiqqan tashkilot to’g’risidagi ma’lumotlar;
- tmundarija;
- 1-bo’lim «Umumiy ma’lumotlar»;
- 2-bo’lim «Xavfsizlik tahlili natijalari»;
- 3-bo’lim «Sanoat xavfsizligi talablarini ta’minlash»;
- 4-bo’lim «Xulosalar»;

- 5-bo’lim «Vaziyat rejasi».

Deklaratsiyaga ilovalar quyidagilardan iborat bo’ladi:

- 1-ilova «Hisob-kitob-tushuntirish xati»;
- 2-ilova «Axborotnoma».

Titul varaq deklaratsiyaning birinchi sahifasi hisoblanadi va hujjatni ishlab chiqish va qidirish uchun zarur bo’lgan axborotlarning manbai bo’lib xizmat qiladi.

Titul varaqda quyidagi ma’lumotlar ko’rsatiladi:

a) deklaratsiya qilinayotgan ob’ektdan foydalanuvchi tashkilotning rahbari yoki loyihaning buyurtmachisi tomonidan deklaratsiyani tasdiqlash grifi;

b) tarkibiga deklaratsiyalanadigan ob’ekt kiradigan tashkilot tomonidan belgilanadigan ro’yxatdan o’tkazish tartib raqami;

v) belgilangan tartibda «Sanoatkontexnazorat» davlat inspektsiyasi tomonidan beriladigan ro’yxatdan o’tkazish tartib raqami;

g) deklaratsiyalanayotgan ob’ektning (bitta ob’ekt deklaratsiyalangan taqdirda) yoki deklaratsiyalanayotgan ob’ektlarning (bir nechta ob’ekt deklaratsiyalangan taqdirda) aniq nomi ko’rsatilgan holda deklaratsiyaning nomi, shuningdek tashkilotning nomi;

d) deklaratsiyalanayotgan ob’ektning xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari davlat reestridagi ro’yxatdan o’tkazish tartib raqami;

e) deklaratsiyalanayotgan ob’ektning joylashgan joyi va deklaratsiya tasdiqlangan yil.

Deklaratsiyani ishlab chiqqan tashkilot to’g’risidagi ma’lumotlar quyidagilardan iborat bo’ladi:

a) deklaratsiyani ishlab chiqqan tashkilotning nomi va unga ilovalar, uning pochta manzili, telefoni, faksi, sanoat xavfsizligini deklaratsiyalash bilan bog’liq faoliyat turini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya va/yoki ruxsatnoma to’g’risidagi ma’lumotlar, ularda faoliyat turining nomi, litsenziyaning ro’yxatdan o’tkazilgan tartib raqami va berilgan sanasi ko’rsatiladi;

b) bajaruvchilarning ro’yxati, unda deklaratsiyani ishlab chiqishda qatnashgan shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi va ish joyi ko’rsatiladi;

Mundarijada deklaratsiyaning barcha bo’limlari nomi, ushbu elementlar boshlanadigan sahifalar ko’rsatiladi:

1-bo’lim «Umumiy ma’lumotlar» quyidagilardan iborat bo’ladi:

a) tashkilotning rekvizitlari (tashkilotning to’liq va qisqartirilgan nomi, yuqori organning, vazirlik yoki idoraning, kompaniya, kontsernning (ular mavjud bo’lsa) nomi, ularda tashkilot rahbarlarining manzili, telefoni, familiyasi va lavozimi, tashkilotning to’liq pochta manzili, telefoni, faksi va teletaypi, tashkilot faoliyatining deklaratsiyalanayotgan ob’ektdan foydalanish bilan bog’liq bo’lgan asosiy yo’nalishlarining qisqacha ro’yxati);

b) deklaratsiyalashning asoslanishi (xavfli ishlab chiqarish ob’ektining deklaratsiyalanayotgan ob’ektlarga tegishliligiga asos bo’lgan xavfli moddalar miqdori to’g’risidagi ma’lumotlar, deklaratsiyani ishlab chiqish to’g’risidagi qaror qabul qilinishiga asos bo’lgan normativ huquqiy hujjatlar ro’yxati);

v) joylashgan joyi to’g’risidagi ma’lumotlar (deklaratsiyalanayotgan ob’ekt joylashadigan joy tavsifi, hududning hajmi va chegaralari, deklaratsiya qilinayotgan ob’ektning sanitariya-himoya va/yoki qo’riqlanadigan zonalari to’g’risidagi ma’lumotlar);

g) xodimlar va aholi to’g’risidagi ma’lumotlar (deklaratsiya qilinayotgan ob’ekt xodimlarining umumiy soni va eng ko’p ishlaydigan smenasining soni, eng yuqori darajadagi gipotetik avariyaning shikastlovchi omillari ta’sir ko’rsatadigan zonalarda bo’lishi mumkin bo’lgan yaqin atrofdagi yirik tashkilotlar va aholi punktlari ro’yxati, unda xodimlar va aholi soni ko’rsatiladi);

d) faqat faoliyat ko’rsatayotgan ob’ektlar uchun ko’rsatiladigan sug’urta ma’lumotlari (sug’urtalovchi tashkilotning nomi va manzili, shuningdek uning sug’urta litsenziyalari to’g’risidagi ma’lumotlar, sug’urta summasi miqdori ko’rsatilgan holda sug’urta shartnomalari ro’yxati).

2-bo’lim «Xavfsizlik tahlili natijalari» quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

a) deklaratsiya qilinayotgan ob’ektni identifikatsiya qilishda hisobga olinadigan xavfli moddalar to’g’risidagi ma’lumotlar (xavfli moddaning nomi, moddaning xavflilik darajasi va odam organizmiga ta’sir ko’rsatish xarakteri);

b) texnologiyalar to’g’risidagi ma’lumotlar (asosiy texnologik potoklar sxemasi, u blok-sxemadan iborat bo’ladi, sxemada xavfli moddalarning nomlari va ularning deklaratsiyalanayotgan ob’ektning texnologik tizimida ko’chish yo’nalishlari ko’rsatiladi, shuningdek xavfli moddalarning taqsimlanishi to’g’risidagi ma’lumotlar, ularda texnik qurilmalarda – apparatlarda (idishlarda), quvurlarda bo’ladigan xavfli moddalarning umumiy miqdori to’g’risidagi ma’lumotlar mavjud bo’ladi, ularning bitta idishdagi yoki eng yuqori sig’imli quvur uchastkasidagi eng yuqori miqdori ko’rsatiladi. Ma’lumotlar deklaratsiyalanadigan ob’ektning barcha tarkiblari uchun xavfli moddaning eng yuqori reglamentli miqdorlari bo’yicha ko’rsatiladi);

v) xavf tahlilining asosiy natijalari (avariyalar kelib chiqishi va rivojlanishi shart-sharoitlari tahlili natijalari, avariyalar xavfini baholash natijalari).

Avariyalarning kelib chiqishi va rivojlanishi shart-sharoitlari tahlili natijalari quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

1) avariyalar omillari va ularning kelib chiqishi va rivojlanishiga ko’maklashadigan asosiy sabablar ro’yxati;

2) eng katta va sodir bo’lishi mumkin bo’lgan avariyalar stsenariylarining qisqacha tavsifi.

Avariyalar xavfini baholash natijalari quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

1) xavfni baholashda qo’llanadigan hisob-kitob modellari va metodlari ro’yxati;

2) avariyada qatnashadigan xavfli moddalar miqdori to’g’risidagi ma’lumotlar;

3) shikastlovchi omillar ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan zonalar soni to’g’risidagi ma’lumotlar;

4) jabrlanishi mumkin bo’lganlar soni to’g’risidagi ma’lumotlar;

5) yetkazilishi mumkin bo’lgan zarar to’g’risidagi ma’lumotlar;

6) xodimlarga, aholiga zarar yetkazilishi mumkin bo’lgan hamda mol-mulkka va atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan ziyon to’g’risidagi ma’lumotlar.

3-bo’lim «Sanoat xavfsizligi talablarini ta’minlash» quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan ob’ektdan foydalanishga sanoat xavfsizligi talablarini ta’minlash to’g’risidagi ma’lumotlar (faoliyat ko’rsatayotgan ob’ektlar uchun «Sanoatkontexnazorat» davlat inspektsiyasi organlari farmoyishlari va ko’rsatmalarining bajarilishi to’g’risidagi ma’lumotlar, deklaratsiyalanayotgan ob’ektlardan foydalanish bilan bog’liq bo’lgan faoliyat turlari uchun mavjud va/yoki zarur litsenziyalar ro’yxati, xodimlarni kasb bo’yicha va avariyaga qarshi harakat qilishga tayyorlash to’g’risidagi ma’lumotlar, ularda sanoat xavfsizligi sohasidagi bilimlarni tekshirishning muntazamligi va xodimni ishga kiritish tartibi ko’rsatiladi; sanoat xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ishlab chiqarishda nazorat qilish tizimi to’g’risidagi ma’lumotlar, avariya holatlarini to’plash va tahlil qilish tizimi to’g’risidagi ma’lumotlar, sanoat xavfsizligining o’tkazilgan ekspertizalari ro’yxati, unda ekspertizani o’tkazgan ekspert tashkilotlarining va ekspertiza ob’ektining nomi ko’rsatiladi; ishlab turgan ob’ektdan foydalanish shart-sharoitlarining me’yor va qoidalar talablariga muvofiqligi to’g’risidagi ma’lumotlar;

b) avariya oqibatlarini lokalizatsiya qilish va bartaraf etish bo’yicha harakatlarga tayyorgarlik yuzasidan sanoat xavfsizligi talablarini ta’minlash to’g’risidagi ma’lumotlar (deklaratsiyalanayotgan ob’ektdagi avariya oqibatlarini lokalizatsiya qilish va bartaraf etish bo’yicha aniq tadbirlar, sanoat xavfsizligini ta’minlash bo’yicha avariyaga qarshi kuchlarning, avariya-qutqaruv xizmatlari va boshqa xizmatlarning tarkibi, deklaratsiyalanayotgan ob’ektdagi avariya oqibatlarini lokalizatsiya qilish va bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar, deklaratsiyalanayotgan ob’ektda avariya vujudga kelgan taqdirda xabar qilish tizimi to’g’risidagi ma’lumotlar, unda xabar qilish sxemalari va avariyalar sodir bo’lgandagi harakatlar tartibi ko’rsatiladi).

4-bo’lim «Xulosalar» quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

a) xavfsizlik darajasining umumlashtirilgan bahosi, unda deklaratsiyalanayotgan ob’ektning eng yuqori xavfli tarkiblari va xavf ko’rsatkichlariga ta’sir ko’rsatadigan eng ahamiyatli omillar ko’rsatiladi;

b) avariya xavfini kamaytirishga yo’naltirilgan rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar ro’yxati.

5-bo’lim «Vaziyat rejasi» nomli 5-bo’lim o’z oqibatlariga ko’ra eng xavfli va deklaratsiyalanayotgan ob’ektdagi avariyalarning eng yuqori darajada bo’lishi mumkin bo’lgan (namunaviy) stsenariylari uchun shikastlanishi mumkin bo’lgan eng ko’p zonalarning grafik tasviridan iborat bo’lishi kerak.

«Vaziyat rejasi»da masshtab hisobida quyidagilar ko’rsatilgan bo’lishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan ob’ektning sanoat maydoni (hududi) va sanitariya-himoya zonasining chegarasi;

b) korxonalar, aholi punktlari, odamlar ko’p to’planadigan joylar;

v) avariyalarning shikastlovchi omillari ta’sir ko’rsatadigan zonalar.

1-ilova. «Hisob-kitob-tushuntirish xati» nomli 1-ilova quyidagi tarkibda bo’ladi:

titul varaq;

bajaruvchilar ro’yxati;

1-bo’lim «Tashkilot to’g’risidagi ma’lumotlar»;

2-bo’lim «Xavfsizlik tahlili»;

3-bo’lim «Xulosalar va takliflar»;

4-bo’lim «Vaziyatlar rejalari»;

«Foydalanilgan manbalar ro’yxati».

Titul varaq deklaratsiyaning birinchi sahifasi hisoblanadi va hujjatni ishlab chiqish va qidirish uchun zarur bo’lgan axborotlarning manbai bo’lib xizmat qiladi.

Titul varaqda quyidagi ma’lumotlar ko’rsatiladi:

a) hisob-kitob-tushuntirish xatini ishlab chiqqan tashkilotning rahbari tomonidan hisob-kitob-tushuntirish xatini tasdiqlash grifi;

b) «Sanoatkontexnazorat» davlat inspektsiyasi tomonidan beriladigan ro’yxatdan o’tkazish tartib raqami (u deklaratsiyaga berilgan ro’yxatdan o’tkazish tartib raqamiga muvofiq bo’lishi kerak);

v) deklaratsiyaga hisob-kitob-tushuntirish xatining nomi, unda deklaratsiyalanayotgan (bitta ob’ekt deklaratsiyalangan taqdirda) yoki deklaratsiya qilinayotgan ob’ektlarning (bir nechta ob’ekt deklaratsiyalangan taqdirda) aniq nomi ko’rsatiladi, shuningdek tarkibiga ushbu ob’ekt kiradigan tashkilotning nomi;

g) deklaratsiyalanayotgan ob’ektning xavfli ishlab chiqarish ob’ektlari davlat reestridagi ro’yxatdan o’tkazish tartib raqami;

d) daftarning tartib raqami (hisob-kitob-tushuntirish xati ikkita va undan ko’p daftardan iborat bo’lgan taqdirda);

e) hisob-kitob-tushuntirish xatini ishlab chiqqan tashkilotning joylashgan joyi va uning tasdiqlangan yili.

Hisob-kitob-tushuntirish xati ikkita yoki undan ko’p bo’lgan taqdirda har qaysi daftar birinchi daftarning sahifasiga va mavjud ma’lumotlarga muvofiq bo’lgan ushbu daftarga tegishli titul varaqqa ega bo’lishi kerak.

Bajaruvchilarning ro’yxati.

Bajaruvchilarning ro’yxatida mas’ul bajaruvchilarning va hisob-kitob-tushuntirish xatini ishlab chiqishda qatnashgan birgalikdagi bajaruvchilarning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi va ish joyi ko’rsatilgan bo’lishi kerak.

Mundarija.

Mundarijada hisob-kitob-tushuntirish xati barcha bo’limlarining nomi, ushbu elementlar boshlanadigan sahifalar ko’rsatiladi.

Hisob-kitob-tushuntirish xati ikkita va undan ko’p daftardan iborat bo’lgan taqdirda ularning har birida o’z mundarijasi bo’lishi kerak. Birinchi daftarning mundarijasida butun hujjatlarning mazmuni keltirilgan bo’lishi kerak, unda sahifalar va daftarlarning tartib raqamlari, keyingi daftarlarda – faqat tegishli daftarning mazmuni ko’rsatiladi.

1-bo’lim «Tashkilotlar to’g’risidagi ma’lumotlar»da quyidagilar bo’lishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan ob’ektning tarkibiy ro’yxati;

b) deklaratsiyalanayotgan ob’ektning topografiyasi va joylashgan joyi to’g’risidagi ma’lumotlar (deklaratsiyalanayotgan ob’ekt joylashgan rayonning

topografiyasi to’g’risidagi ma’lumotlar, deklaratsiyalanayotgan ob’ektning taqiqlangan, qo’riqlanayotgan va sanitariya-himoya zonalarining mavjudligi va chegaralari, deklaratsiyalanayotgan ob’ekt joylashgan rayondagi tabiiy-iqlim sharoitlari, loyihada qurilish maydonining seysmik rayoni qismidagi qidiruvlar bo’yicha hisobotlardan foydalanilishi, gruntlar, tabiiy iqlim va boshqa tashqi ta’sirlar tavsiflari to’g’risidagi ma’lumotlar) loyihalash hujjatlari tarkibida ishlab chiqilayotgan deklaratsiya uchun rasmiylashtiriladi);

v) xodimlar va yaqin atrofda yashaydigan aholi to’g’risidagi ma’lumotlar (deklaratsiyalanayotgan ob’ektning uning ma’muriy birliklari va tarkiblari bo’yicha xodimlarning joylashishi to’g’risidagi ma’lumotlar, ularda xodimlarning o’rtacha soni va eng ko’p ishlaydigan smenalar soni ko’rsatiladi; eng yuqori darajadagi gipotetik avariyaning shikastlovchi omillari ta’siridagi zonalarda bo’lishi mumkin bo’lgan yaqin atrofdagi tashkilotlarning joylashishi to’g’risidagi ma’lumotlar, ularda deklaratsiyalanayotgan ob’ektdan uzoqdalik va xodimlarning soni ko’rsatiladi; eng yuqori darajadagi gipotetik avariyaning shikastlovchi omillari ta’siridagi zonalarda bo’lishi mumkin bo’lgan aholi punktlarining joylashishi to’g’risidagi ma’lumotlar, ularda deklaratsiyalanayotgan ob’ektdan uzoqdalik va xodimlarning soni ko’rsatiladi. Deklaratsiyalanayotgan ob’ektning tarkibiy ro’yxati xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarini identifikatsiya qilish sohasida amaldagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo’lishi kerak).

«Xavfsizlik tahlili» nomli 2-bo’limda quyidagilar bo’lishi kerak:

a) xavfli moddalarning tavsifi (moddalar, formula, tarkibning nomi, umumiy ma’lumotlar (molekulyar og’irlik, qaynash harorati, zichlik), portlash xavfi to’g’risidagi ma’lumotlar, toksik xavflilik to’g’risidagi ma’lumotlar, reaktsiya berish qobiliyati to’g’risidagi ma’lumotlar, moddaning hidi to’g’risidagi ma’lumotlar, korroziya faolligi to’g’risidagi ma’lumotlar, ehtiyot choralari tavsifi, odamlarga ko’rsatadigan ta’siri to’g’risidagi ma’lumotlar, himoya qilish vositalari to’g’risidagi ma’lumotlar, moddani zararsiz holatga o’tkazish usullari to’g’risidagi ma’lumotlar, modda ta’sir ko’rsatgan taqdirda shikastlanganlarga birinchi yordam ko’rsatish choralari to’g’risidagi ma’lumotlar);

b) texnologiyalar va apparatni rasmiylashtirish to’g’risidagi ma’lumotlar (ularda printsipial texnologik sxema, asosiy texnologik asbob-uskunalar va deklaratsiyalanayotgan ob’ektning tarkibi bo’yicha texnologik jarayonning qisqacha tavsifi, xavfli moddalar deklaratsiyalanayotgan ob’ektning tarkibi bo’yicha aylanadigan asosiy texnologik asbob-uskunalarning joylashish rejasi, xavfli moddalar aylanadigan asosiy texnologik asbob-uskunalarning ro’yxati, xavfli moddalarning asbob-uskunalar bo’yicha taqsimlanishi to’g’risidagi ma’lumotlar ko’rsatiladi);

v) xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha texnik yechimlarning tavsifi (asbob-uskunalarning siyraklanishiga yo’l qo’ymaslikka va xavfli moddalarning avariya vaqtida tashqariga chiqishining oldini olishga yo’naltirilgan yechimlarning tavsifi, avariyalar rivojlanishining oldini olishga va xavfli moddalarning tashqariga chiqishini lokalizatsiya qilishga yo’naltirilgan yechimlarning tavsifi, portlash, yong’in xavfsizligini ta’minlashga yo’naltirilgan yechimlarning tavsifi, avtomatik

ravishda tartibga solish, blokirovka qilish, signalizatsiyalar va boshqa xavfsizlikni ta’minlash vositalari tizimlarining tavsifi);

g) xavfning tahlili (ma’lum avariyalar tahlili, avariyalarning kelib chiqishi va rivojlanishi shart-sharoitlarining tahlili, avariyalar xavfini baholash).

Ma’lum avariyalar tahlilida quyidagilar bo’lishi kerak:

1) avariyalar va deklaratsiyalanayotgan ob’ektda mavjud bo’lgan nosozliklar ro’yxati (faqat faoliyat ko’rsatayotgan ob’ektlar uchun rasmiylashtiriladi);

2) boshqa shunga o’xshash ob’ektlarda mavjud bo’lgan avariyalar yoki aylanayotgan xavfli moddalar bilan bog’liq avariyalar ro’yxati;

3) sodir bo’lgan avariyalarning asosiy sabablari tahlili.

Avariyalarning kelib chiqishi va rivojlanishi shart-sharoitlarining tahlili quyidagilardan iborat bo’ladi:

1) avariyalarning kelib chiqishi va rivojlanishiga ko’maklashuvchi bo’lishi mumkin bo’lgan sabablar va omillarni aniqlash;

2) sodir bo’lishi mumkin bo’lgan avariyalarning namunaviy stsenariylarini aniqlash;

3) hisob-kitob qilishning qo’llanadigan fizik-matematik modellari va usullarini asoslash;

4) avariyada qatnashuvchi xavfli moddalar miqdorini baholash;

5) shikastlovchi omillar ta’sirida bo’lishi mumkin bo’lgan zonalar hisob-kitobi;

6) jabrlanganlarning bo’lishi mumkin bo’lgan sonini baholash;

7) bo’lishi mumkin bo’lgan zararni baholash.

Avariyalar xavfini baholash xodimga, aholiga yetkazilgan zararning muqarrarligini hamda mol-mulkka va atrof tabiiy muhitga yetkazilgan ziyonni baholashdan iborat bo’ladi.

3-bo’lim «Xulosalar va takliflar» quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan ob’ektning eng xavfli tarkiblari ro’yxati;

b) xavf ko’rsatkichlariga ta’sir qiluvchi eng ahamiyatli omillar ro’yxati;

v) xavfli ishlab chiqarish ob’ektining xavfsizlik darajasini baholash;

g) avariyalar xavfini kamaytirishga yo’naltirilgan chora-tadbirlarni joriy etish bo’yicha takliflar.

4-bo’lim «Vaziyat rejalari»da deklaratsiyalanayotgan ob’ektning tarkibi bo’yicha avariyaning mumkin bo’lgan va eng yuqori darajadagi muqarrar (namunaviy) stsenariysi zonalarining grafik tasviri, shuningdek joylashish zonalarini hisob-kitob qilish uchun boshlang’ich ma’lumotlar ko’rsatilgan holda ushbu stsenariylarning qisqacha tavsifi bo’lishi kerak:

Vaziyat rejalarida masshtab hisobida quyidagilar ko’rsatilishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan ob’ektning sanoat maydoni (hududi);

b) tashkilotlar, aholi punktlari, odamlar ko’p to’planadigan joylar;

v) avariyalarning shikastlovchi omillari ta’sir ko’rsatadigan zonalar.

«Foydalanilgan manbalar» ro’yxatida quyidagilar bo’lishi kerak:

a) deklaratsiyalanayotgan ob’ektdagi sanoat xavfsizligi talablarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ro’yxati;

b) hisob-kitob-tushuntirish xatini ishlab chiqishda foydalaniladigan tashkilot hujjatlari ro’yxati;

v) adabiyotlar manbalari ro’yxati.

«Axborot varag’i» nomli ilova fuqarolar va jamoat tashkilotlari so’rovlari bo’yicha xavfli ishlab chiqarish ob’ekti to’g’risidagi axborotlarni belgilangan tartibda berish uchun xizmat qiladi.

«Axborot varag’i»da quyidagilar bo’lishi kerak:

a) tarkibiga deklaratsiyalanadigan ob’ekt kiradigan tashkilotning nomi;

b) xabardor qilish va jamoatchilik bilan o’zaro hamkorlik qilish uchun mas’ul shaxs to’g’risidagi ma’lumotlar (lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi, telefoni);

b) xabardor qilish va jamoatchilik bilan o’zaro hamkorlik qilish uchun mas’ul shaxs to’g’risidagi ma’lumotlar (lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi, telefoni);

v) deklaratsiyalanayotgan ob’ektdan foydalanish bilan bog’liq ishlab chiqarish faoliyatining qisqacha tavsifi;

g) deklaratsiyalanayotgan ob’ektda aylanadigan xavfli moddalarning ro’yxati va asosiy tavsiflari;

d) sodir bo’lishi mumkin bo’lgan avariyalar ko’lamlari va oqibatlari hamda xavfsizlik choralari to’g’risidagi qisqacha ma’lumotlar;

e) avariyalar sodir bo’lgan taqdirda aholini xabardor qilish usullari va ularning zarur harakatlari to’g’risidagi ma’lumotlar **11-ma’ruza Radiaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog’liq avariyalar**

O’quv savollari

1. Radiatsion xavfli ob’ektlardagi avariyalar
2. Radioaktiv moddalar va biologik (bakteriologik) vositalar bilan bog’liq

Radiatsiyaviy holatlar va ularning xavfsizligi bo’yicha O’zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustda «Radiatsiyaviy xavfsizlik to’g’risida»gi Qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning maqsadi insonlar hayoti, sog’ligi va mol-mulki, shuningdek. atrof-muhltm ionlashtifuvchi nurlanish, radioaktiv ifloslanishlarning zararli ta’ sirlaridan muhofaza qilishni ta’minlash bilan bog’liq masalalami tartibga solishdan iborat. Qonunda radlatsiyaviy xavfsizlikka doir yangi tahrirdagi tushun-chalar ham kiritilgan, jumladan,

ionlashtiruvchi nurlanish - radioaktiv parchalanishda, yadroviy yemirilishlarda, moddadagi zaryadlangan zarrachalar harakatlanishini sekinlashuvida hosil bo’ladigan hamda muhit bilan o’zaro ta’sir etish chog’ida har xiI qutbli ionlarni hosil qiladigan nurlanish;

ionlashtiruvchi nurlanish manbai - o’zidan ionlashtiruvchi nurla-nish chiqaruvchi qurilma yoki radioaktiv modda;

Kuzatuv hududi - radiatsiyaviy monitoring o’tkaziladlgan sanita-riya-muhofaza hududidan tashqaridagi hudud;

Radiatsiyaviy avariya - uskuna nosozligi, xodimlarning xatti-hara-katlari tabiiy va texnologik xususiyatli FV tufayli kelib chiqqan, fuqa-rolaming belgilangan

me’yordan ko’proq nurlanish olishga yoki atrof-muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib keluvchi yoxud olib kelgan ion-lashtiruvchi nurlanish manbai ustidan boshqaruvning izdan chiqishi;

Radiatsiyaviy xavfsizlik - fuqarolar va atrof-muhitning ionlash-tiruvchi nurlanishning zararli ta’siridan muhofazalanganlik holati;

Yadroviy xavfsizlik - yadroviy material dan xavfsiz foydalanishni ta’minlovchi chora-tadbirlar majmui. Yer usti va yer osti yadro portlashlari natijasida radioaktiv moddalar havo va tuproq mahsulotlari bilan aralashadi, so’ng havo oqirni bo’ylab harakatlanib, sekin-asta yerga tushadi. Bunda ko’zga ko’rinmaydigan radioaktiv zararlanish izi hosil bo’ladi, bu iz qanchalik ko’p bo’lsa, insonlarning yashashlari va ishlashlari uchun shuncha uzoq xavf tug’-diradi. Xuddi shun day holat yadro zaryadi bilan ishlaydigan tarrnoqlarda (AES, gamma nuridan foydalaniladigan ilmiy labarotoriyalarda) avariya natijasida ham kuzatilishi mumkin. lumladan, 1986-yildagi CHemobil AES idagi avariya oqibatida 4-energoblokda.n chiqqan radioaktiv mod-dalar 30 km. Ii masofaga tarqaIib, u yerdagi jamiki obektlami (atrof-159 muhitni, insonlaming yashash-ishlashjoylarini, kiyim-kechaklami, mod-diy resurslami, suvni va boshqalami) shikastlagan.

Dushman tomonidan kimyoviy va biologik qurollar qo’llanilganda yoki KTZM bilan ishlaydigan tarmoqlardagi avariyalarda ham katta hududlar zaharlanadi. Agar shu joylarda zararsizlantirish choralari ko"-rilmasa, bunday hududlarda bemalol yashash yoki ishlash imkoniyati bo’lmaydi. Radiatsiyaviy, kimyoviy va bakteriologik holatlami baholash fuqaro muhofazasi boshlig’ining, shtab va obekt mutaxassislarining majburiy ishidir. Radiatsiyaviy hoi at deganda, joylaming radioaktiv zararlanish darajasi va o’lchami tushunilib, bu aholining yashashiga hamda iqtisodiyot tarmoqlari obektlari ishlashlariga ta’sir etadi. Joylar-ning radioaktiv zararlanish o"lchovi va darajasi ma’lum hududdagi yadro portlashlarining soniga, quvvatiga, turlariga hamda portlash vaqtidagi shamolning tezligiga bog"liqdir.

Portlash quvvati oshishi bilan zararlanish maydonlari harn ko’paysa, u holda radioaktiv bulut izlarida radiatsiya darajasi ham ortib boradi. Uncha katta bo’imagan hududda bir necha yadro quroli portlasa, radioaktivlik darajasi yanada oshadi. Vaqt o’tishi bilan radiatsiya dara-jasi kamayib boradi. SHuning uchun portlashdan keyin qancha ko"p vaqt o"tsa, radiatsiya darajasi shuncha kam bo’ladi.

Radioaktiv bulut izining katta-kichikligiga o"rtacha shamolning tezligi sezilarli ta’sir ko’rsatadi. O"rtacha shamolning tezligi oshishi bilan yadro qurolining portlashidan zararlangan maydonlaming hajrni ham oshadi. Radiatsiya darajasi 0,5 R/s ga teng bo’lgan joylami radioaktiv moddalar bilan zararlangan hudud deb hisoblanadi. Yadro aslahasi portlatilganjoy bilan biror obekt orasidagi masofa, o’shajoyning radiatsiya holatini aniqlashda muhim rol o·ynaydi. Obektlaming va unga yaqin bo’lgan joylaming radiatsiyaviy holati, fuqaro muhofazasining razvedka guruhi va DP-5A (B yoki V) turidagi rentgenometr jihozlari yordamida radiatsiyaviy hamda kimyoviy kuzatish postlari orqali aniqlanadi.

Radiatsiyaviy holatni baholash deganda - joylami radioaktiv zararlanganlik tavsifnomasi va ulaming fuqarolarga, texnika, qurilish va imoratlarga hamda hayvon va o’sirnliklarga ta’siri tushuniladi.

Tavsifnomaga quyidagilar kiradi:

- obekt hududidagi ionlashtiruvchi nurlanishni xavflilik daraj asi,
- radioaktiv modda bilan zararlangan hudud o'lchami;
- fuqarolar va hayvonlaming nurlanish darajasi;
- texnika, tuproq, o'simlik, oziq-ovqat suv, bino va inshootlarning radioaktiv zararlanganlik darajasi;
- fuqarolarga va hayvonlarga ionlashtiruvchi nurlanishning xavflilik darajasi;
- radiatsiya xavfining iqtisodiyot tarmog'iga qanchalik zarar yet-kazganlik darajasi.

Radiatsiya holatining natijalariga qarab zararlangan joylarda aholiga davolash va profilaktik choralarini qo'Hash zarurligi aniqlanadi. Razved-kaning bergan ma'lumotIari asosida radiatsiyaviy holatni aniq\ash va ba-holash mumkin, bunday ma'lumotlarni tuman, shahar viloyat va Res-publika fuqaro muhofazasimng rahbadari, ularning shtablari qabul qila-dilar Radiatsiyaviy holatni baholash bilan bog'liq bo'lgan hisoblarni bajarishda turli formulalar, jadvallar, radiatsiyaviy o'lehov lineykasi va boshqa hisoblash jihozlaridan foydalaniladi. Radiatsiyaviy holatni baholashda yadroviy portlashlar vaqtini, joyini va quvvatmi bihsh kerak bo'ladi. Fuqarolar muhofazasi shtabiga yadroviy portIashni aniqlaydigan postlardan yadroviy portIash ko'r-satkichiarl kelib tushadi. Ob-havoning tekshirish stansiyalaridan kuniga bir necha marta shamolning o'rtacha tezligi va yo'nalishi to'g'risidagi ma'lumotlar uzatilib turadi. Lekin bunday ma'lumotlarni kerakli joylar-ga yetkazish ko'p vaqtni talab qiladi. O'z vaqtida chora-tadbirlami o't-kazish uchun blmday ma'lumotlarni amalda portlashdan keyin, darhol bilish kerak bo'ladi. Hech bo'lmaganda aslaha portIaganini bildiruvchi bitta ko'rsatkichi ma'lum bo'lishi kerak. Mas alan , portlash turini bilish, joylami radioaktiv zararlanlsh nuqtai nazardan tezlikda radiatsiyaviy holatni baholashga imkon beradi SHuning uchun bunday holatlarda ta'kidlangan ko'rsatkichlarni taxminan baholashni bilish zarur. Masalan, oddiy soat yordamida portlash vaqtini va portlash joyigacha bo'igan masofani taxminan aniqlash mumkin. Buning uchun sariq chaqmoq hosil bo'lgandan to tovush to'lqini kuzatuv joyiga yetib kelgunga qadar o'tgan vaqtni soniyada aniqlanishi kerak.

Radioaktiv ifloslangan hududlarda fuqarolarning bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaqti, T (soat, daqiqa)

Дбош Ксус / Дохир	Aslaha portlatılgandan keyingı vaqt, soat						
	0.5	1	2	3	4	5	6
0,2	0,15	0,14	0,13	0,12	0,12	0,12	0,12
0,3	0,22	0,22	0,20	0,19	0,19	0,19	0,19
0,4	0,42	0,31	0,26	0,26	0,25	0,25	0,25
0,5	1,02	0,42	0,35	0,34	0,32	0,32	0,32
0,6	1,26	0,54	0,44	0,41	0,39	0,39	0,38
0,7	2,05	1,08	0,52	0,49	0,47	0,46	0,45
0,8	2,56	1,23	1,02	0,57	0,54	0,53	0,52
0,9	4,09	1,42	1,12	1,05	1,02	1,00	0,59
1,0	5,56	2,03	1,23	1,14	1,10	1,08	1,06
2	chega-ralanma gan	11,52	4,06	3,13	2,46	2,35	2,29
2,5		31,00	6,26	4,28	3,48	3,28	3,16
3,0			9,54	6,09	5,01	4,28	4,10

Radioaktiv va kimyoviy zararlangan joylarda fuqarolarni saqlash. Radioaktiv va kimyoviy zararlangan hududlarda fuqarolar muay-yan tartib va qoidalar asosida himoyalanadilar. Bunda radioaktiv va kim-yoviy zararlangan hududlardagi fuqarolarga alohida-alohida taIablar qo’yiladi:

1. Radioaktiv zararlangan hududda fuqarolarni saqlash.

Radioaktiv zararlangan hududlarda xaJqni saqlashning asosiy qoidalari quyidagllardan iborat:

-radioaktiv zararlanish xususida ogohlantirish,

-himoya inshootIarida saqlash (boshpana, radiatsiyadan saqlovchi boshpana - RSB),

-shaxsiy saqlovchi vositalardan foydalanish;

-radiatsiyadan saqlovchi preparatlardan (SHO-2) foydalanish;

-zararlangan suv va yemishlardan saqlanish;

-zararlangan joylarda fuqarolami saqlash rejmllariga rioya qilish;

-zararlanganjoylardan fuqarolami evakuatsiya qilish;

-zararlangan hududlarga odamlami kiritmaslik;

-fuqarolami sanitar qayta ishlovdan o"tkazish, kiyim-kechak, texnika, inshootlami dezaktivatsiya qilish.

Radioaktiv moddalar bilall zararlangan joylarda odamlami xatti-harakatlari, radiatslyaviy holatdan kelib chiqib aniqlanadi, bunda:

a) muayyan zararlangan joylarda, odamlar, RSB da bir necha soat-dangacha saqlanishlari va so’ngra oddiy inshootlarda bo"hshlari tavsiya etiladi. Ammo korxonalar va yashash maskanlar ishlarini oddiy rejim asosida amalga oshiradilar

b) kuchli zararlangan joylardagi fuqarolar himoya inshootlarda uch kungacha saqlanishlari va keyingi to’rtinchi kunda oddiy inshootlarda bo’lishlari mumkin.

Bunday holatlarda korxona va maskanlar alohida rejimda ishlashlari. ochiq joyda ishlovchilar esa bir necha soatdan, bir necha kungacha ishni to’xtatishlari zarur.

v) xavfli va juda xavfli shikastlanishda fuqarolar hlmoya insho-otlarida uch kundan kam bo"lmasliklari hamda oddiy inshootlarda ham tashqariga chiqmasdan saqlashlari kerak. Bunday korxonalarda hamma oziq-ovqat mahsulotlari gennetik idishlarda saqlanishi (shkaflarda, shi-shali yoki emalli idishlarda, polietilen qopchalarda) hamda ovqat tayyor-lashda faqat zararlanmagan suvlardan foydalanish lozim.

12-Ma’ruza. Gidrotexnik halokatlar va avariyalar

O’quv savollari

3. Gidrotexnika inshootlari va ularda yuzaga keladigan avariyalar.
4. Energetik va kommunal tizimdagi avariyalar.

O’zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 455-sonli qaroriga asosan “ Gidrotexnik xalokatlar va avariyalar texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar turlariga kiradi.

O’zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 427-sonli qaroriga asosan aholini tabiiy hamda texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o’tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

Gidrotexnika inshootlarida sodir bo’ladigan favqulodda vaziyatlarni kelib chiqish sabablari va ularning salbiy oqibatlari

Gidrotexnik (gidrodinamik) falokat (halokat) - bu gidrotexnik inshootni (GTI) yoki uning biror qismini ishdan chiqib buzilishi natijasida boshqarib bo’lmaydigan juda katta suv massasini bostirib kelishi tufayli vujudga keladigan favqulodda vaziyatdir. Suv omborlari, daryolar, kanallardagi gidrotexnik inshootining buzilishi, baland tog’ ko’llarining urib ketishi natijasida suv bosishi gidrotexnik halokatlar va falokatlarni sodir bo’lishiga olib keladi hamda odamlarni qurbon bo’lishiga, sanoat va qishloq xo’jalik ob’ektlarini ishini izdan chiqishiga, suv bosgan hududdagi aholining hayot faoliyatini izdan chiqishiga sabab bo’ladi va shoshilinch ko’chirish (evakuatsiya) tadbirlarini o’tkazishni talab qiladi.

Respublikamizda gidrodinamik xavfli ob’ektlar juda ko’p bo’lib, ular aholi va hudud xavf-xatar manbai hisoblanadi va muayyan sharoitda ularda sodir bo’lgan avariyalar favqulodda vaziyatga olib kelishi mumkin.

Gidrodinamik xavfli ob’ektlar - bu suv oqimi bo’ylab o’zidan oldingi va o’zidan keyingi suv sathlarida farq paydo qilib beradigan inshoot. Bosimga ega bo’lgan gidrotexnika inshootlari (sun’iy va tabiiy to’g’onlar) bunday ob’ektlar qatoriga kiradi.

- Вьеf - bu daryo (kanal, irmoq va h.k.) ning bosim inshooti (to’g’on, shlyuz va h.k.) ga tutashib (tegib) turadigan qismi;
- Yuqorigi bьеf - bu daryo (kanal, irmoq va h.k.) ning oqim bo’ylab bosim inshooti (to’g’on, shlyuz va h.k.) dan oldingi (yuqori) qismi yoki suvning yuqorigi sathi va u egallab turgan maydon;
- Pastki bьеf - bu daryo (kanal, irmoq va h.k.) ning oqim bo’ylab bosim inshooti (to’g’on, shlyuz va h.k.) dan keyingi (quyi) qismi yoki suvning pastki sathi va u egallab turgan maydon.

To’g’onlar sun’iy va tabiiy bo’lishi mumkin. Sun’iy to’g’onlarni odamlar o’z ehtiyojlari uchun barpo etadilar. Bular: GESlar, suv tortgichlar, irrigatsion tizimlar va boshqa ob’ektlarning to’g’onlari. Tabiiy to’g’onlar tabiat hodisalari (ko’chkilar, sellar, qor ko’chkilari, o’pirilishlar, zilzilalar va b.) ning ta’sirida hosil bo’ladi.

Masalan, Tojikiston hududidagi Murg’ob daryosi va Sarez qishlog’i o’rnida sodir bo’lgan kuchli zilzila tufayli o’pirilish natijasida Sarez ko’li paydo bo’lgan.

Gidrotexnika inshootlari:

1. Qaerdaligiga qarab:

- yer usti (daryo, ko’l, kanal va h.k.) inshootlari;
- yer osti (o’tkazgich quvurlar, tunnellar va h.k.) inshootlari.

2. Foydalanish maqsadi va xususiyatiga qarab:

- suv-energetika inshootlari;
- suv ta’minoti inshootlari;
- sug’orish inshootlari;
- oqava chiqindi suvlar chiqarish inshootlari;
- suv-transport inshootlari;
- baliq xo’jaligi inshootlari;
- sport inshootlari;
- bezak inshootlari va h.k.

3. Funktsional vazifasiga qarab:

- GES va boshqa gidrotexnik inshootning suv bo’g’ish inshootlari (to’g’onlar, ko’tarmalar);
- suv o’tkazish inshootlari, kanallar, tunnellar, quvur o’tkazgichlar;
- tarnovlar, suv tashlamalar, osma quvurlar, shlyuzlar va h.k.;
- tashlandiq suv inshootlari (ortiqcha suvni chiqarish uchun): o’zan inshootlari, qirg’oq inshootlari, yuza inshootlar, chuqur inshootlar va h.k.;
- tartiblash (to’g’rilash) inshootlari - suv oqib ketishi sharoitini hamda daryolar o’zani va qirg’oqlarini muhofaza qilish sharoitini yaxshilash uchun: ko’tarmalar, g’ovlar, qirg’oq mahkamlagichlar va h.k.;
- baliq xo’jaligi inshootlari kabi (baliq o’tkazish va baliq boqish uchun) turlarga bo’linadi.

Har bir gidrotexnik inshootda gidrotexnik qulf, ventilь, g’ov, surma to’siq va h.k. singari maxsus uskuna-jihozlar va turli qurilmalar bo’ladi.

Bir qancha vazifalarni bajarishga mo’ljallanib, bir butun qilib birlashtirilgan gidrotexnik inshoot majmui gidrouzellar deb ataladi.

Gidrodinamik falokatlarning sabablari va turlari.

Markaziy Osiyo hududida quyidagi gidrotexnika inshootlari mavjud-Qayroqqum, CHordara, Toxtagul, Andijon, Karkidon, Tolimarjon, Nurek, Ragun va boshqalar. O’zbekiston Respublikasida xozirgi paytda 18,9 mlrd. 700 mln. m^3 suv sig’dira oladigan 53ta suv ombori, daryo suvlarini viloyat va tumanlarga taqsimlab beruvchi 150dan ortiq suv to’g’onlari, 28122 km uzunlikdagi magistral kanallar va boshqa zarur suv inshootlari mavjud. Harbiy holat sharoitida yoki favqulodda vaziyat jarayonida ular ma’lum xavf tug’diradilar. Masalan, CHorvoq suv ombori inqirozga uchrasa Toshkent viloyatini 25 km^2 maydoni suv ostida qoladi, sanoat korxonalari, turar joy binolari, ekin maydonlari zarar ko’radi.

Bir qator gidrotexnika inshootlari katta shaharlar va yirik aholi yashash joylari yaqinida bo’lib, yuqori darajadagi xavfli ob’ektlardir.

Bularning buzilishi juda katta hududlar, jumladan shaharlar va aholi yashash joylarini suv ostida qolishiga olib kelishi, natijada shoshilinch evakuatsiya

tadbirlarini o’tkazishni talab etishi mumkin, bu esa o’sha joylarni juda katta moliyaviy zarar ko’rishlariga sabab bo’ladi.

Gidrotexnika inshootlariga ularni buzilishiga olib keluvchi quyidagi yemiruvchi kuchlar doimo ta’sir ko’rsatib turadi: suv oqimi, tebranish, balchiq-cho’kindilar, o’zgaruvchi harorat, statistik va dinamik kuchlar, metall zanglashi, betonning suyuqlikka qorishib yuvilishi, yerning yuvilib ketishi va h.k. SHu sababli, vaqt o’tgan sari, rejaga ko’ra bajarish lozim bo’lgan ta’mirlash ishlari amalga oshirilmasa inshoot yemirilib, unga yondosh hududni suv bosish ehtimoli orta boradi. Tuzulishiga ko’ra murakkab muhandislik inshooti bo’lgan bunday qurilmalarni loyihalash va qurishda yo’l qo’yilgan xatoliklar xam favqulodda vaziyatni sodir bo’lishiga olib kelishi mumkin. Huddi shundan, ko’p yillar oldin qurilgan bunday qurilmalarda, ularning uzoq muddatdan beri ishlatilib kelinayotgani uchun uskunalarning tabiiy yoyilishi va eskirishi tufayli ham nosozliklar kelib chiqishi mumkin. Favqulodda vaziyatlarning sodir bo’lishiga olib keluvchi sabablariga yana xavfli tabiat hodisalari, ya’ni tabiiy ofatlar (zilzila, ko’chki, kuchli shamol, sel va h.k.) kiradi. Ularning ta’siri natijasida gidrotexnik inshootlar buzilishi, natijada ko’lami turlicha bo’lgan suv toshqinlari sodir bo’lishi mumkin.

Ko’lami va xarakteri qandayligiga qarab ehtimoli bor quyidagi favqulodda vaziyat bo’lishi mumkin:

- to’g’on buzilgandagi toshqin - suvning bir qismi to’g’ondan o’tib ketishi.
- suv bosishi - hududning asta-sekin suv ostida qolishi.
- halokatli suv bosishi - to’g’on buzilib, uni urib ketgan suv hududni shiddat bilan tez qoplab ketishi va toshqin sodir bo’lishi.

Gidrotexnik xavfli inshootda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlarning shikastlovchi omillari va ko’rsatgichlari: to’g’onni urib ketgan to’lqinning balandligi - 2 va 20 m, tezligi 3-100 km/soat; to’g’onni urib ketgan to’lqin cho’qqisi va old tomonining yetib kelish vaqti (to’lqin tezligiga va joyning qancha oraliqda ekaniga qarab); suv bosish zonasining chegaralari (er yuzasi relьefi qandayligiga qarab); suv bosishining maksimal va amaldagi chuqurligi (relьefning qandayligiga, to’g’onni urib ketgan to’lqinning balandligi qandayligiga qarab); suv bosish qancha davom etishi (bir necha soatdan bir necha kecha-kunduzgacha)dan iborat.

Halokatli suv bosishning shikastlovchi omillari va ko’rsatkichlari suv omborining o’lchamlariga, to’g’onning balandligiga, urib ketgan to’lqinning tezligi va balandligiga, yer yuzasi qandayligiga va boshqa sharoitlarga ham bog’liq bo’ladi.

Suv bosish zonasi - hududning gidrotexnika inshootlariga tutash va suv tagida qolishi mumkin bo’lgan qismi.

Favqulodda vaziyatni sodir bo’lish ehtimolini tahminlash va unga baho berish.

Xavfli vaziyat o’chog’i bo’lishi mumkin bo’lgan gidrotexnika inshootlari va ularni buzilishi tufayli vujudga kelishi mumkin bo’lgan suv bosish zonasi hududlari xaritalarga (rejalarga, sxemalarga) tushirilib, bunday ob’ektlarga xos ko’rsatkichlar oldindan aniqlanadi.

Bu hujjatlar shu ob’ekt joylashgan hudud favqulodda vaziyatlar boshqarmalarida va bo’limlarida, shuningdek gidrotexnik xavfli ob’ektni quruvchi

va ulardan foydalanuvchi vazirliklar (yoki idoralarda) va ularning joylardagi bo'linmalarida turadi. SHu sababli oldindan tahminlashda falokat (yoki halokat)ning sodir bo'lish ehtimolligi, ko'lami va xarakteri hisobga olinadi

Ob'ektda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariya va uning ko'lami quyidagi omillarga bog'liq:

-inshootdagi suvning hajmi, to'g'onnning balandligi, qurilma mustahkamligi va h.k;

-ob'ektni buzilish darajasi va falokat ko'lami;

-buzilish natijasida hosil bo'lgan suv to'lqini tavsifiga;

-ob'ekt joylashgan yer yuzasi relьefiga, qurilayotgan inshootlarni holati va miqdoriga, atrofda joylashgan bog'lar, ekinzorlar va h.k.;

-favqulodda vaziyatni qaysi vaqtda bo'lgani, yil fasli, kechasi yoki kunduzgi vaqti, ob-havo sharoiti va h.k.

-muhofaza inshootlari (aylanma kanallar, tanlamalar, ko'tarmalar va h.k) mavjudligiga;

-ob'ektni boshqaruv tarkibini, boshqaruv organlarning, kuch va vositalarni tayyorgarlik darajasi;

-cheklangan xabar berish tizimining mavjudligi, ishlay olishi va samaradorligiga;

-favqulodda vaziyat chegarasida vaqt davomida avariya -qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarning mohirona boshqarilishi, uyushqoqligi va samaradorligi hamda aholining tayyorgarlik darajasiga bog'liq.

Oldindan tahminlashda inshootdagi favqulodda vaziyat tufayli sodir bo'lgan holat asosida inson hayoti xavfsizligiga zarar keltiruvchi holatlarni ham e'tiborga olish kerak bo'ladi. Jumladan, suv va yer yuzasining turli zararli moddalar bilan ifloslanishi mumkinligi, yoki bo'lmasa odamlar va hayvonlarning ommaviy kasallanishi, transport va energomagistral tizimlaridagi avariyalar, ko'chkilar, o'pirilishlar va h.k., imorat va inshootlarning chidamliligining yo'qolishi, atrof-muhitdagi ekologik buzilishlar, shuningdek halokat sodir bo'lgan ob'ekt va joydagi aniq sharoitga bog'liq boshqa salbiy oqibatlar.

Bulardan tashqari oldindan tahminlashda aholi orasidagi halok bo'lganlar, bedarak yo'qolganlar, shikastlanganlar, boshpanasiz qolganlar va h.k., qanchaligini hisoblab, ko'rilishi mumkin bo'lgan moddiy zararga buzilgan, shikastlangan, ishdan chiqqan ob'ekt va inshootlar qanchaligini hisoblab baho beriladi; bundan tashqari, bevosita va bilvosita zararlar (ishlab chiqarishga aynan shu halokat yetkazgan ziyon va shikastlanganlarni ta'minlash harajatlari) hisoblab chiqiladi.

Bevosita ko'riladigan zararlar:

-gidrotexnik inshoot, imoratlar, avtomobil va temir yo'llar, elektr uzatish va aloqa simlari, energotizimlar, sug'orish tizimlari va h.k.buzilishi;

-chorva mollari, qishloq xo'jalik ekinlari hosili, ekinzorlar nobud bo'lishi;

-xom ashyo, yoqilg'i, ovqat mahsulotlari, chorva ozuqalari, sanoat mahsulotlari, o'g'itlarni yo'qotilishi va yaroqsiz holga kelishi;

- xavfsiz joylarga aholini vaqtincha evakuatsiya qilish va moddiy boyliklarni tashish xarajatlari;

- hosildor qatlam yuvilib ketishi va tuproq ustiga balchiq cho'kib qolishidan iborat.

Bilvosita zararlar esa:

- ovqat mahsulotlarini, kiyim-kechak, dori-darmon, qurilish materiallari, texnika, chorva ozuqalarini sotib olish va shikast yetgan joylarga yetkazib berish xarajatlari;
-sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlab chiqarishni kamayishi hamda iqtisodiyotning rivojlanish sur'atini pasayishi;
- mahalliy aholining hayot kechirish sharoitini yomonlashuvi;
- suv bosish ehtimoli bor zonadagi hududdan unumli foydalanishning iloji yo'qligi;
- shuningdek aniq mahalliy sharoitga bog'liq boshqa noqulay omillardan iborat.

Gidrotexnika inshootlarini muhofaza qilish choralari

Gidrotexnika inshootlarini muhofaza qilish favqulodda vaziyatni oldini olishning eng asosiy omillaridan bo'lib, avvalo gidrotexnik inshootni to'g'ri loyixalash va qurish ulardan to'g'ri foydalanish, belgilangan ishlarni va ta'mirlash ishlarini vaqtida bajarish, qirg'oqni mahkamlash va tub mahkamlash ishlarini vaqtida o'tkazish lozim. Suv chiqarishni vaqtga muvofiq qayta taqsimlash yo'li bilan suvning maksimal zaxirasini va maksimal sarflanishini kamaytirish, qo'shimcha suv omborlari yordamida toshqin suvlar oqimini tartibga solib turish kerak.

Bulardan tashqari gidrotexnik inshoot ahvolini doimo kuzatib turish (uskuna-jihozlar va yuksak malakali mutaxassislar yordamida), FVDT tarkibiga kiruvchi funktsional kichik tizimlari va organlarini sohaga aloqali faoliyatini tizimli nazorat qilib turish, gidrotexnik inshoot zonasini chet kishilar kirishidan ishonchli qo'riqlash ishlarini olib borish talab etiladi. Falokatlarga olib keladigan noqulay omillar bo'lishi ehtimolini oldindan aytish tahminlarini tuzish uchun gidrometeorologik sharoitni muntazam kuzatib borish eng muhum masala xisoblanadi.

Aholi va hududlarni muhofaza qilish choralariga quyidagilar kiradi:
-oldindan aytilgan to'g'ri tahminlarning doimo mavjud bo'lishi;.
-yaxshi yo'lga qo'yilgan axborot xizmatining bor bo'lishi;
-doimo va samarali ishlab turadigan xabar berishning cheklangan tizimi bo'lishi;
-gidrotexnik inshoot xodimlarining uyushqoqligi, bilimdonligi, intizomliligi;
-ehtimoli bor halokatli suv bosish zonasida istiqomat qiluvchi aholining favqulodda vaziyatdagi hatti-harakatlarga tayyogarlik ko'rganligi;
-fuqaro muhofazasi rahbarlar tarkibining gidrotexnik inshootda falokatlar va halokatlar oldini olish hamda bunday hodisalar ehtimoli paydo bo'lgandagi va sodir bo'lgandagi faoliyat masalalari yuzasidan tayyorgarlik ko'rganligi (zamonaviy vositalar va usullar yordamida sharoitni bilib va tez oldindan taxminlay olish hamda unga baho bera bilish, asosli qarorlarga kela olish va ularni turmushga tezkorlik bilan tadbiq eta bilish);
-muhofaza tadbirlarini bevosita o'tkazish:
-gidrotexnik inshootda falokat xavfi tug'ilgani haqida aholiga xabar berish;
-suv ostida qolishi mumkin bo'lgan zonalardan aholini, qishloq xo'jalik hayvonlarini, moddiy boyliklarni barvaqt evakuatsiya qilish;
-suv bosish ehtimoli bor zonadagi korxona, tashkilot, muassasalar ishini qisman cheklash yoki to'xtatish hamda moddiy boyliklarni muhofaza qilish:
- darhol xujjatlarni, qimmatbaho va kerakli buyumlarni, 2-3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suv zaxiralarini o'zi bilan olish;
- boshqa narsalarni yo'qolmaydigan qilib saranjomlab qo'yish;

- hamma energiya iste’mol qiladigan narsalarni o’chirib qo’yish;
- chorva mollarini xavfsiz joylarga o’tkazib qo’yish.

To’satdan halokatli suv bosganda:

- urib ketgan to’lqin zarbidan saqlanish uchun shoshilinch choralar ko’riladi (balandlik joyga, pishiq inshoot ustiga chiqiladi, bordiyu to’lqin yetib kelib qolsa - uning ichiga sho’ng’iladi);
- oldindan tayyorlab qo’yilgan qutqaruv vositasini (4-6 ta bir litrli plastmassa idishlar osilgan najot kamarini) taqib olinadi;
- agar odam imorat ichida (cherdakda va boshqa joyda) qolgan bo’lsa, qaerdaligini belgilab, qutqaruvchilar mo’ljal olishi uchun signal (kunduzi umuman bayroq - yaxshisi oq bayroq, kechasi esa fonus) osib qo’yiladi.

Gidrotexnika inshootlarini muhofaza qilish choralari.

O’zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika ignshootlarining xavfsizligi to’g’risida”gi Konunining maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruktsiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Gidrotexnika inshootlarini muhofaza qilish favqulodda vaziyatni oldini olishning eng asosiy omillaridan bo’lib, avvalo

Gidrotexnik inshootni to’g’ri loyixalash va qurish ulardan to’g’ri foydalanish, belgilangan ishlarni va ta’mirlash ishlarini vaqtida bajarish, qirg’oqni mahkamlash va tub mahkamlash ishlarini vaqtida o’tkazish lozim. Suv chiqarishni vaqtga muvofiq qayta taqsimlash yo’li bilan suvning maksimal zaxirasini va maksimal sarflanishini kamaytirish, qo’shimcha suv omborlari yordamida toshqin suvlar oqimini tartibga solib turish kerak.

Bulardan tashqari gidrotexnik inshoot ahvolini doimo kuzatib turish (uskuna-jihozlar va yuksak malakali mutaxassislar yordamida), FVDT tarkibiga kiruvchi funktsional kichik tizimlari va organlarini sohaga aloqali faoliyatini tizimli nazorat qilib turish, gidrotexnik inshoot zonasini chet kishilar kirishidan ishonchli qo’riqlash ishlarini olib borish talab etiladi. Falokatlarga olib keladigan noqulay omillar bo’lishi ehtimolini oldindan aytish tahminlarini tuzish uchun gidrometeorologik sharoitni muntazam kuzatib borish eng muhum masala xisblanadi.

Aholi va hududlarni muhofaza qilish choralariga quyidagilar kiradi:

-oldindan aytilgan to’g’ri tahminlarning doimo mavjud bo’lishi;.
-yaxshi yo’lga qo’yilgan axborot xizmatining bor bo’lishi;
-doimo va samarali ishlab turadigan xabar berishning cheklangan tizimi bo’lishi;
-gidrotexnik inshoot xodimlarining uyushqoqligi, bilimdonligi, intizomliligi;
-ehtimoli bor halokatli suv bosish zonasida istiqomat qiluvchi aholining favqulodda vaziyatdagi hatti-harakatlarga tayyogarlik ko’rganligi;
-fuqaro muhofazasi rahbarlar tarkibining gidrotexnik inshootda falokatlar va halokatlar oldini olish hamda bunday hodisalar ehtimoli

paydo bo’lganda va sodir bo’lgandagi faoliyat masalalari yuzasidan tayyorgarlik ko’rganligi (zamonaviy vositalar va usullar yordamida sharoitni bilib va tez oldindan taxminlay olish hamda unga baho bera bilish, asosli qarorlarga kela olish va ularni turmushga tezkorlik bilan tadbiq eta bilish)

-muhofaza tadbirlarini bevosita o’tkazish:
-gidrotexnik inshootda falokat xavfi tug’ilgani, haqida aholiga xabar berish;
-suv ostida qolishi mumkin bo’lgan hududlardan, aholini, qishloq xo’jalik hayvonlarini, moddiy boyliklarni barvaqt evakuatsiya qilish;
-suv bosish ehtimoli bor zonadagi korxona, tashkilot, muassasalar ishini qisman cheklash yoki to’xtatish hamda moddiy boyliklarni muhofaza qilish:
- darhol xujjatlarni, qimmatbaho va kerakli buyumlarni, 2-3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suv zaxiralarini o’zi bilan olish;
- boshqa narsalarni yo’qolmaydigan qilib saranjomlab qo’yish;
- hamma energiya iste’mol qiladigan narsalarni o’chirib qo’yish;
- uy hayvonlarini xavfsiz joylarga o’tkazib qo’yish.

O’zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 242-sonli qaroriga asosan “Suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnik inshootlardan foydalanish xavfsizligini, ulardan avariyalar va halokatlarning yuzaga kelishi ehtimollarini prognozlash. Suv xo’jaligi ob’ektlarining ish rejimini o’zgartirish yoki keyinchalik foydalanish zaruratini belgilash, suv omborlaridan suvni avariyani oldini olish maqsadida chiqarib yuborish.. Suv omborlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish.

Energetika tizimidagi avariyalar

Energetika tizimidagi sodir bo’ladigan favqulodda vaziyatlarga Gidroelektrostantsiya (GES) larida, issiqlik elektr markaz (TETS) larida, shahar, tuman elektr tarmoq (GRES) larida, elektr tarmoqlarida, issiqlik markazlarida, issiqlik qozonlarida, kompressorlarda, gaz taqsimlash stantsiya (GRS)larida va energetika tizimining boshqa ob’ektlarida sodir buladigan avariya va halokatlar kiradi.

Ko’rinishi:

Ishlab chiqarish va iktisodiyot ob’ektlar turli xildagi ma’suliyatli iste’molchilarida energiya t’minotining biror avariya tufayli ishdan chiqish hodisasi. Energiya ta’minotida bunday avariya holatlari ko’p uchraydi, lekin, kam hollarda nobud bo’lishi kuzatilib, iqtisodiyot ob’ektlari barqarorligiga, insonlarning me’yoriy hayot faoliyatiga ta’sir ko’rsatadi.

Oldini olish bo’yicha chora tadbirlar:

Yordamchi tarmoqlar evaziga energiya ta’minotini barcha ob’ektlarining barqaror faoliyat ko’rsatishini ta’minlash.

Texnik hujjatlarda ko’rsatilgan me’yor talablari bo’yicha rejaviy- profilaktik ko’rik va texnik ta’mirlash ishlarini o’z vaqtida utkazilishi, barcha xavfsizlik choralariga amal qilish, qolaversa barcha xizmat muddati talablariga rioya qilish va x.k.

Muhofaza tadbirlari:

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242- Qaroriga muvofiq Energetika va elektrlashtirish vazirligiga “energetika tizimiga kiruvchi barcha ob’ektlardan avariyasiz foydalanishga oid tadbirlar majmuini tashkil etish va amalga oshirish, hamda Kommunal xizmat

ko’rsatish vazirligi va mahalliy xokimiyat organlari bilan birgalikda iste’molchilarni hamda, birinchi navbatda, favqulodda vaziyatlar zonalaridagi

hayotiy ta’minot ob’ektlarini elektr quvvati bilan uzluksiz ta’minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish” vazifalari yuklatiladi.Bundan tashqari energetika ob’ektlarining texnik holatini nazorat qiluvchi davlat xizmati orqali bu tizimdagi turli avariya holatlarini oldi olinadi.

Maishiy xizmat tarmoqlardagi avariyalar

Gaz tarmoqlari, suv saqlagichlar, suv tarmoqlari, kanalizatsiyalar, bundan tashqari gaz tozalash, biologik tozalash inshootlari va maishiy xizmat tarmoqlariga kiruvchi barcha ob’ektlar kiradi.

Ko’rinishi:

Insonlarning hayot faoliyatiga va sog’lig’iga xavf tug’diradish bilan kechadigan avariyalar. Bundan tashqari atmosferani, yerni ustki qismini, yer osti va yer usti suvlarini zaharlash, aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatish darajasida namoyon bo’ladigan avariya va halokatlar.

Oldini olish bo’yicha chora tadbirlar:

Marg’ilonsoy, Zarafshon, Tuyabo’g’iz, CHimqo"rg’on, Qayroqqum, Tuyamo’yin suv omborlari kiradi.

4. O’rtacha ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari. Bunday suvlar qishloq xo"jaligida foydalanilayotgan sug’oriladigan yerlarda, sanoat oqiziqlari tarkibidagi mineral va organik moddalar bo’ladi. Ya’ni bularda me’yoridan 3-4 barobar ortiq og’ir metallar, neft qoldiqlari va pestisidlar uchraydl. Bular CHirchiq (CHirchiq sanoat kompleksidan quyi), Qo’qonsoy (Qo’qonsoydan quyi), shimoliy Bag’dod kollektori, Siyob kollektori va boshqalar kiradi.

5. Iflos suv havzalari va suv oqimlari. Ular asosan sho’r tuproqli qishloq xo’jalik yerlarida, yuqori minerallashgan suvli yerlarda joylash-gan. Yirik aholi punktlarini quyi qismida joylashgan. Bu toifaga kiruv-chi suvlarga: Amudaryo-Orolbo’yi hududi, Buxoro vohasi, Mirzacho’l massivi va Farg’ona vohasi kiradi. Bu suvlar tarkibida biologik, mineral, organik moddalar, og’ir metallar va neft qoldiqlari me’yoridan 3-5 baro-bar ko"p. Keyingi vaqtlarda og’ir metall konlari (mis, xrom, kaliy va boshqalar) ham ko’plab uchramoqda. Ular Toshkent shahrini quyi qis-mida Qorasuv (o"ng qirg’oq), Ohangaron, CHirchiq daryolari.

6. Juda ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari. Bunday suvlar yirik aholi pWlktlariga, shaharlariga to’g’ri keladi. Uning suvlarida ko’p miqdorda turli zaharli moddalar uchraydi Og’ir metall meyoridan 40-50 barobar ortiq. Bularga CHirchiq (Salordan keyingi qismi), Salor (Toshkent, Yangiyo’ldan so’ng) kiradi. Suv havzalarining ifloslanish darajasini 42 foizini mineral iflosla-nish-har xiI tuz. qUID, gIllar, ishqor, kislota, mineral yog’lar, shlak va boshqalarga to’g’ri kelsa, 58 foizi organik ifloslanishga-kommunal xo’-jaligi, shahar kanalizatsiyasi, hammom, kir yuvadigan joylar, sanitariya-sog’lomlashtirish tashkilotlari, teri, qog’oz-selluloza, pivo ishlab chiqa-rishdan chiqadigan oqovalar, o’simlik moylari, meva va poliz ekinlari qoldiqlari, maishiy chiqindilarga to’g’ri keladi. Ifloslangan suvlardan foydalanish salbiy oqibatlarga olib keladi. Jumladan, kuchli kasalliklarni paydo qiladi va tarqatadi; sanoat ishlab chiqarishlarda texnologik jarayonlarga salbiy ta’sir ko’rsatadi, mahsulot sifatini pasaytiradi, qimmatbaho asbob-uskunalarni ishdan chiqaradi, gidrotexnik, ternir-beton inshootlarini, suv quvurlarini yemiradi va juda katta iqtisodiy va ma’naviy zararlarni keltirib chiqaradi. SHuning uchun hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri iflos-langan suv manbalarini tozalash va zararsizlantirish hamda aholini chu-chuk suv tanqisligini hal qilish hisoblanadi. CHuchuk suv zaxiralari albatta yer ostida muayyan miqdorda joylashgan, ammo hozirgi talablar to’la qondiriladigan bo’linsa, ular uzoq yillarga yetmasligi mumkin. SHuning uchun kela,iakda aholini chuchuk suv bilan ta’minlashning quyidagi qo’shimcha imkoniyatlari mavjudligi ma’lum (2-chizma).

1. Yer osti suvlaridan foydalanish. Ma’lurnki, yer osti suvlarining miqdori 60.000 ming km bo’lib, butun gidrosferaning 4,12 %ini tashkil etadi. Lekin yer osti suvlaridan hozircha foydalanish koeffitsienti juda past, jumladan O’zbeklstonda atigi 6% miqdordagina foydalaniladi.

2. Muzlik suvlaridan foydalanish. Sayyoramiming umumiy suv miqdorining 1,65% ini muzliklardagi suv tashkil qiladi. Muzliklarda 24.000 ning km suv to’plangan bo’lib, butun dunyodagi chuchuk suvning 8,5%ini tashkil etadi. Bu muzliklar asosan Arktikada, Antarktidada va Grenlandiyada joylashgan bo’lib,

ba’zan dengizga uzilib tushib, aysberglarni hosil qiladi. Mana shu aysberglarni qirg’oqqa yaqin kel-tirib, uni eritib, aholini sanoat korxonalarini chuchuk suv bilan ta’rnin-lash ustida ish olib borilmoqda. Masalan, uzunligi 100 km, eni 50 km, qalinligi 0,2 km keladigan aysbergda 1000 km chuchuk suv mavjud. Bu butun O’rta Osiyo daryolarining suvidan 8 marta ko’pdir.

3. Okean va dengiz sho’r suvlaridan foydalanish. Hozir dunyoda 800 dan ortiq sho’r suvlarni chuchuklashtiruvchi texnologiyalar ishlab, kuniga 1,7 mln m3 suv yetkazib bermoqda. SHuning 90% i ichish uchun ishlatilmoqda.

4. Yog’in suvlaridan foydalanish. O’rta Osiyo aholisi cho’l hudud-larida mana shunday suvlardan foydalanganlar.



2-chizma

16-ma’ruza: FVDTning tashkiliy funktsional tuzilmasi

O’quv savollari:

Reja:

1. Fuqaro muhofazasining kuch va vositalari, ularga qo’yiladigan talablar, faoliyat ko’rsatadigan tuzilmalar, ularning huquqlari va bajaradigan vazifalari.
2. FVDTni tashkil etish bo’yicha normativ-huquqiy hujjatlar.

Kalit so’zlar: tuzilmalar**,** kuch va vositalari, tiklov ishlari, tizimlar, davlat tizimi, evakuatsiya, barqarorlik, avariya-qutqaruv, muhofaza

Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasining qo’shinlari O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi kuchlarining asosini tashkil etadi. Fuqarolar muhofazasi tizimlari qutqaruv va boshqa kechiktirib bo’lmaydigan tiklov ishlarini (QBTI) amalga oshirish uchun hududiy-ishlab chiqarish tamoyillariga ko’ra tashkil etiladi.

Fuqaro muhofazasi tizimlari bo’ysunishiga ko’ra - hududiy (viloyatlar, tumanlar va shaharlar miqyosida) hamda obekt (iqtisodiyot obektlaridagi) tizimlariga bo’linadi. Obekt fuqarolar muhofazasining boshlig’i etib o’sha korxonaning yoki tashkilotning boshlig’i tayinlanadi.

Fuqarolar muhofazasi yana belgilangan vazifasiga ko’ra - umummaqsadli hamda xizmatli tizimlarga bo’linadi. Umummaqsadli tizimlar zararlangan o’choqlarda qutqaruv ishlarini olib boradilar. Xizmatli tizimlar esa maxsus tadbirlarni bajaruvchi xizmatlar - qidiruv ishlarini olib borish, tibbiy yordam ko’rsatish, yong’inlarning tarqalishiga yo’l qo’ymaslik va ularni o’chirish, jamoat tartibini saqlash, insonlar salomatligini tiklash, razvedka o’tkazish, avariya va texnikalarni tiklash, himoya inshootlarida xizmat ko’rsatish va boshqa maxsus vazifalarni bajaruvchi tizimlariga bo’linadi.

Ushbu qaror O’zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) ning asosiy vazifalarini, uning tashkil etilishini, tarkibini va faoliyat ko’rsatish tartibini belgilab beradi[2]

FVDT ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Tinchlik va harbiy davrda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida huquqiy va iqtisodiy me’yoriy hujjatlari yagona konsepsiyasini belgilash, ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- Respublika hududidagi mumkin bo’lgan texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlarni ifodalash, bashoratlash, ularning oqibatlarini baholash;
-Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, odamlar xavfsizligini ta’minlashga, xavfli texnologiyalar va boshqa ishlab chiqarishlarning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-texnik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Boshqaruv organlari va tizimlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun mo’ljallangan kuch va vositalarning doimiy tayyorligini ta’minlash;

[2] Nigmatov I., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”. 2011, B. 22.

- Aholini, boshqaruv organlari boshliqlarini, FVDT kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;
- Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish;
- Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, zarar ko'rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga oid tadbirlarni amalga oshirish;
- Favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish sohasida, shu jumladan ularni tugatishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish;
- Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida halqaro hamkorlik qilish;

FVDT hududiy va funksional quyi tizimlardan iborat bo'lib, u respublika, mahalliy va obektlar miqyosi darajasida bo'ladi.

FVDTning hududiy quyi tizimlari o'z ma'muriy hududlari doirasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladi hamda tegishli ravishda tumanlar, shaharlar, qishloqlar va ovullar miqyosida tashkil topadi.

FVDT hududiy quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuch va vositalari tarkibi, faoliyat ko'rsatish tartibi mahalliy geofizik va tabiiy, iqlim sharoitlarini, kuchli xavfli obektlarning mavjudligini hisobga olib belgilanadi hamda FVV bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

FVDT ning funksional quyi tizimlari vazirliklar, davlat qo'mitalari, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar va kompaniyalarda atrof-muhitni, kuchli xavfli obektlar holatini kuzatish va nazorat qilishni amalga oshirish, shuningdek ularga qarashli obektlarda o'zlarining ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda bartaraf etish uchun tashkil etiladi. Jumladan, Respublika darajasida O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi, xavfli obektlar holatini kuzatishni nazorat qilish uchun vazirliklar, idoralar, mahalliy miqyosida hududiy hokimliklar, obektlar miqyosida korxonalarning ma'muriyati mutasaddi hisoblanadi.

FVDT boshqaruv organlarining obektlar darajasidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, obektlar ishining FV chog'ida ishonchliligi va barqarorligini oshirishga doir tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish;
- Boshqaruv organlarining, obektlar kuch va vositalarining FV chog'idagi harakatlarga tayyorligini ta'minlash;
- Avariya-qutqaruv hamda boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarga shu jumladan, obektlar xodimlarini evakuatsiya qilishga rahbarlik qilish;
- Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish;

Har bir obektlarning rahbarlar tarkibi, kuch va vositalari, shuningdek xodimlarini FVlardagi harakatlarga tayyorlashni tashkil etish muhim ahamiytga ega**.** Har bir korxonaning FM boshlig'i, FM ni tashkil etilishini, uning holatini, kuchlarini,

texnikasini doimiy tayyor holatda bo'lishligini nazorat etadi, hamda qutqaruv va qayta tiklash ishlariga boshchilik qiladi. Korxona FM ning boshlig'i shu korxona joylashgan hudud FM ga va shu korxonaning yuqori tashkiloti FM siga bo'ysunadi. Har bir korxonaning FM boshlig'iga o'rinbosar tayinlanadi. Katta korxonalarda bir necha o'rinbosarlar tayinlanadi, jumladan:

a) Ishchi xizmatchilarni joylashtirish (yoki evakuatsiya);

b) Muhandis-texnik ishlari bo'yicha;

v) Moddiy texnika ta'minoti bo'yicha.

FMning ishchi xizmatchilarni joylashtirish bo'yicha o'rinbosari joylashtirish rejalarini tashkil etadi, ularni oilalarini evakuatsiya qilish, jamoat tartibini saqlash ishlariga boshchilik qilish hamda ishchi xizmatchilarni bir joydan ikkinchi joyga tashish ishlarini tashkillashtirish vazifalarini bajaradi.

FM ning muhandis-texnik bo'limi o'rinbosari korxonaning bosh muhandisi hisoblanadi. Uning vazifasi ishlab chiqarishni alohida rejim asosida ishlash rejasini tuzish, tinchlik davrida ishlab chiqarishni muttasil ishlashini ta'minlash, ekstremal holatlarda avariya-texnika va yong'inga qarshi xizmatlarni, qutqarish ishlarini olib boradi, bundan tashqari, tabiiy ofatlar, avariya, halokat bo'lganda qutqarish va avariyani to'sish, hamda qayta tiklash ishlariga boshchilik qiladi.

FMning moddiy texnika ta'minoti bo'yicha o'rinbosari qilib korxonaning ta'minot bo'yicha boshliq o'rinbosari tayinlanadi. Bu mansabdor shaxs, maxsus jihozlarni, texnika, transport va muhofazaga taalluqli jihozlar bilan ta'minlaydi va saqlaydi. SHuningdek, u boshpanalarni qurish va o'z qo'l ostidagi ishchi xizmatchilarni evakuatsiya qilishni ta'minlaydi hamda inshootlarni ta'mirlash ishlarini bajaradi.

Korxonada FM ning shtabi tuziladi. Bu shtabda har hil buyruqlar, bajariladigan chora-tadbirlar va FMning yuqori tashkilot talabnomalari, ish rejalari ishlab chiqiladi, uni bajarilish hisobotlari tuziladi. Korxona shtab boshlig'i etib, shu korxonaning FM boshlig'ining birinchi o'rinbosari tayinlanadi. FMning shtabi ishchi xizmatchilarni va korxona xodimlari oilalarini qirg'in qurollar ta'siridan, dushmanning bevaqt hujumidan o'z vaqtida ogoh qilish ishlarini tashkil etadi.

FM shtabi asosida quyidagi xizmatli tizimlar tashkil etiladi:

a) Aloqa va tashviqot;

b) Meditsina;

v) Radiatsiya va kimyoviy qurollar ta'siriga qarshi;

g) Jamoat tartibini saqlash;

d) Elektr ta'minoti;

e) Avariya-texnikani ta'mirlash;

j) Pana joylarda va qochoqlar maskanida xizmat ko'rsatish;

z) Transportda xizmat ko'rsatish;

i) Moddiy ta'minot va boshqa vazifalar.

Yuqorida ta'kidlangan fuqarolar muhofazasining xizmatli tizimlaridan tashqari texnika va transport vositalariga maxsus qayta ishlov berishda FMning bir qator xizmatli qismlari keng ishlarni tashkil etadi. Jumladan, FM laboratoriyalari radioaktiv va zaxarli moddalarni aniqlash uchun radiometrik va kimyoviy tahlil ishlarini olib boradi. Ular asosan korxona yoki tashkilotlarning laboratoriyalari

tarkibida tashkil etilib, unga mutaxassislar jalb qilinadi va kerakli asbob uskunalar bilan jihozlanadi.

Radioaktiv moddalar va biologik vositalar bilan zaharlangan odamlarni to'liq sanitar qayta ishlovdan o'tkazish uchun yuvinish maskanlari tashkil etiladi. Bu maskanlar asosan hammom va dushxonalar asosida tashkil etilib, ular oldindan tayyorlab qo'yiladi. Bu maskanlarda kiyim-kechaklar, poyafzal va shaxsiy saqlovchi vositalarni dezaktivatsiya qiluvchi maydonchalar tayyorlanib jihozlanadi. Bir yuvinish maskani bir soatda 80 odamni qayta ishlovdan o'tkazishi lozim. Kiyim-kechak, poyafzal shaxsiy saqlovchi vositalarni degazatsiya, dezaktivatsiya va dezinfeksiya qilish uchun kiyim-kechaklarni zararsizlantiruvchi maskanlar tashkil etiladi. Bular asosan hammom va kiyim-kechaklarni yuvuvchi maskanlar tarkibida tashkil etiladi. Bunday maskanlar 1 soat ichida 50-100 kg kiyim-kechaklarni qayta ishlash quvvatiga ega bo'lishi lozim.

Transport vositalarni degazatsiya, dezinfeksiya va dezaktivatsiya qilish uchun esa zararsizlantirish shoxobchalari tashkil etiladi. Bu zararsizlatirish shoxobchalari asosan transportlarni yuvuvchi qismlari tarkibida tashkil etilib, ular 1 soat mobayinida 4-5 ta yuk avtomashinalarini zararsizlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Demak, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda asosiy vazifasi favqulodda vaziyatlar davlat tizimi (FVDT) ning kuch va vositalari o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yildagi 558-sonli qarorining 14 bandida FVDTning favqulodda vaziyatlarni bartaraf etuvchi kuch va vositalari belgilab berilgan.

FVDT kuchlariga quyidagilar kiradi:

1. Fuqarolar muhofazasi qo'shinlari;
2. Hududiy va obektlarning harbiylashmagan umumiy va maxsus maqsadli tizimlari;
3. Mahalliy hokimiyat organlarining (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tumanlar) FVVning qutqaruvchi komandalarining tizimlari;
4. FVVga to'g'ridan-to'g'ri hamda tezkor bo'ysunuvchi Respublika ixtisoslashtirilgan tizimlari;
5. Vazirliklar va idoralarning harbiylashtirilgan hamda professional-ixtisoslashtirilgan avariya-qutqaruv va avariya-tiklash bo'linmalari;
6. Obektlarning ixtisoslashtirilgan tizimlari;
7. «Qizil yarim oy» jamiyatining ko'ngilli otryadlari;
8. «Vatanparvar» mudofaaga ko'maklashuvchi tashkiloti.

Fuqaro muhofazasi kuchlari – Fuqaro muhofazasi qo'shinlari, tuzilmalaridan tarkib topadi. Bunda, fuqaro mudofazasi qo'shinlari O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi kuchlarining asosini tashkil etadi va ular Favqulodda Vaziyatlar vazirligiga bo'ysinadi, hamda o'z tezkor yo'nalishlariga muvofiq harbiy davrda Respublikaning muhim mudofaa va sanoat obektlarida favqulodda vaziyatlarni tugatishga oid ishlarni olib boradilar. Fuqaro muhofazasi qo'shinlarining harbiy davrdagi asosiy vazifalari zararlangan o'choqlari va zaharlanish hududlarida muhandislik, radiatsiyaviy, kimyoviy va boshqa qidiruv ishlarini olib borish;

qutqaruv va tiklov ishlarini amalga oshirish; aholini va iqtisodiyot obektlarini evakuatsiya qilishda ishtirok etish; aholi hayot faoliyatini ta’minlash va boshqa vazifalarni bajarishdan iborat.

Fuqaro muhofazasi qo’shinlarining tinchlik davridagi vazifasi: katta miqyosidagi ishlab chiqarish avariyalari, halokatlari va tabiiy ofatlar chog’ida avariya-qutqaruv hamda shikastlangan hududlar xususiyatlariga ko’ra tiklov ishlarini amalga oshirishdan iborat.

Favqulodda Vaziyatlar vazirligiga to’g’ridan-to’g’ri bo’ysinuvchi Respublika ixtisoslashtirilgan tuzilmalarining vazifalari, favqulodda vaziyatda tezkor faoliyat ko’rsatish, favqulodda vaziyatlarni cheklash va tugatishda samarali harakatlarga tayyor turish, razvedka o’tkazish, vaziyatni baholash va FVVga tezkor ma’lumot berish, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatish, shikastlanganlarning moddiy va ma’naviy boyliklarini qidirish va qutqarishdan iborat. Qamchiq dovonidagi qor ko’chish ofatining (1999 yil 21 noyabr) keltirgan talofatlari hamda mazkur yo’lning xalqaro miqyosidagi o’rnini hisobga olgan holda va xavfsiz harakatni ta’minlash maqsadida hukumatimiz qarori bilan «Qamchiq» qidiruv-qutqaruv otryadi tashkil etildi. Bu otryadning asosiy vazifasi Qamchiq dovonida uzluksiz kuzatuv ishlarini olib borish, favqulodda vaziyat ro’y berishini oldini olish, sodir bo’lganda tezkor harakat qilib xavfsizlikni ta’minlashdan iborat.

Favqulodda Vaziyatlar yazirligiga tezkor bo’ysinuvchi Respublika ixtisoslashtirilgan tuzilmalari, 42219-harbiy qismining mexanizatsiyalashtirilgan batalyoni, Ichki Ishlar vazirligining Respublika yong’inga qarshi harbiylashgan maxsus otryadi, Sog’liqni Saqlash vazirligining Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, “O’zbekiston havo yo’llari” milliy aviakompaniyasining avia otryadi, «Toshshaharyo’lovchitrans» uyushmasining avto sanitariya otryadlari, vazirlik va idoralarning favqulodda vaziyatlarni tugatish bo’yicha tuzilgan boshqa tuzilmalarini o’z ichiga oladi. Bu tuzilmalarning vazifalari tayyorgarlik muddatlari, ularni jalb etish tartibi FVV bilan kelishilgan harakat rejalari asosida olib boriladi.
Vazirlik va idoralarning harbiylashtirilgan va professional avariya-qutqaruv, avariya-tiklash va boshqa ixtisoslashtirilgan bo’linmalari idoraga qarashli obektlarda ishlab chiqarish avariyalari va halokatlari bilan bog’liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, shuningdek epidemiya, epizootiya va epifitotiyalar yuzaga kelganda maxsus vazifalarni xal etish uschun mo’ljallangan.
Hududiy quyi tizimlarda - Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda fuqaro muhofazasi boshliqlari qarorlari bilan geofizik, tabiiy-iqlim va boshqa mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda hududiy avariya-qutqaruv, avariya-tiklash tuzilmalari, tezkor tibbiy yordam markazlari va qutqaruv komandalari tashkil etiladi.

Xuddi shu yo’nalishda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi qaroriga muvofiq tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan Toshkent shahri aholisi xavfsizligini ta’minlash va o’z vaqtida ogohlantirish maqsadida hamda Ichki ishlar Boshqarmasi, tez tibiiy yordam xizmati va shahar avariya xizmatlari (aloqa, suv, issiqlik, gaz, elektr ta’minoti) kuchlarini muvofiqlashtirish maqsadida Toshkent shahar hokimligining favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tarkibida «Qutqaruv xizmati» tuzilgan. Qutqaruv

xizmatining xizmat ko’rsatish telefon raqami «1050» bo’lib, unga quydagi vazifalar yuklatilgan:

- Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlantirish va qutqarish ishlarini olib borish;
- Favqulodda vaziyat xavfi tug’ilganda aholiga zudlik bilan kerakli yordam ko’rsatish, kerak paytda qo’shimcha kuchlarni jalb qilish, birinchi tibbiy yordam ko’rsatish va avariya-qutqarish ishlarini yo’lga qo’yish;
- Qutqaruv xizmatining doimiy tayyorgarligini ta’minlash, kuchlarni doimiy tayyorgarlikda tutish;
- Favqulodda vaziyatlarning oldini olish ishlarini yo’lga qo’yish va bajarish;
- Favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaradigan xavf ma’nbalarini hisobga olish, shahar hududiga zarar yetkazishi mumkin bo’lgan ofatlarning oldini olish;
- Qutqaruv xizmatining malakali mutaxassislarini tayyorlashdan iborat.

Nazorat savollari

1. Fuqaro muhofazasi kuchlari nimalardan tarkib topadi?

2. FVlarni bartaraf etishda asosiy vazifa qanday kuch va vocitalar zimmasiga yuklatilgan?

3. FVDT kuchlariga nimalar kiradi va ular qanday huquqiy-me’yoriy hujjatlarda aks ettirilgan?

4. FVDTning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

5. FVDT boshqaruv organlarining obektlar darajasidagi vazifalari nimalardan iborat?

6. Obekt FM shtati negizida qanday hizmatli tizimlar faoliyat ko’rsatadi?

7. FVVga bo’ysinuvchi qanday Respublika ixtisoslashtirilgan tizimlarni bilasiz?

8. Ba’zi yirik shaharlar miqyosida FVlarda aholi havfsizligini ta’minlash maqsadida qanday alohida xizmatlar tashkil topgan va ular zimmasiga qanday vazifalar yuklatilgan?

9. Fuqarolar muhofazasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

10. Fuqarolar muhofazasi organlarining tashkiliy tuzilishi qanday?

17-ma’ruza. FVDT faoliyat ko’rsatish tartibi

O’quv savollari

1. Hozirgi vaziyatda fuqarolarni fuqaro muhofazasiga o’qitishning dolzarbligi, muhofazalanish qoidalariga o’rgatish
2. Aholini fuqaro muhofazasiga o’qitishni tashkil etish va o’tkazish tadbirlari.
3. FVDT kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarga tayorlash

Kalit so’zlar: kategoriya, maxsus-taktik mashg’ulot, komanda-shtab mashg’ulot, kompleks mashg’ulot, iImitatsiya rejasi.

Ma’lumki, fuqarolar muhofazasining eng muxim vazifalaridan biri, aholini favkulodda vaziyatlardan muhofaza kilishga tayyorlash hisoblanadi. Bu borada O’zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to’g’risida»gi va «Fuqaro muhofazasi to’g’risda»gi qonunlari hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 7 noyabrdagi 427-sonli «O’zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to’g’risida»gi qarori asosida respublikamiz aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash ishlari yo’lga qo’yilgan. Bu qonuniy-huquqiy hujjatlarning alohida bandlarida va vazirlar Mahkamasining 427-sonli qarorda takidlanganidek: «O’zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash (shu jumladan, ta’lim muassasalaridagi fuqarolarni ham) majburiydir». Fuqarolarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash, mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, korxonalarda, muassasalarda (ta’lim muassasalarida) va tashkilotlarda, yashash joylarida, ularning yoshlari va ijtimoiy guruhlarga qarab olib boriladi.

Aholini, FVDT kuch va vositalarini FV ruhida muhofazaga tayyorlash. Fuqarolarning FM bo’yicha o’qitish - aholini dushmanning zamonaviy qurollari ta’siridan, tabiiy ofatlar, avariya va fojia oqibatlaridan himoyalanishga tayyorlashning asosiy tadbirlaridan biri bo’lib hisoblanadi. O’qitish FMning boshlig’i va uning shtablari ko’rsatmasi, shuningdek, fuqaro muhofazasi masalalari bilan shug’ullanuvchi hududiy hamda ishlab chiqarish yo’nalishlari bo’yicha tuzilgan yuqori tashkiloti FMning mas’uliyatli boshliqlari qarori, buyrug’i asosida tashkil etiladi va olib boriladi. Ishchi va xizmatchilarni FMga o’qitish har bir xo’jalik obektining boshlig’i zimmasiga yuklanadi.

FM shtabi o’qitish tadbirlarini tashkil etadi, ta’minlaydi va rahbarlik qiladi, o’z vaqtida o’qishlarni, amaliy mashg’ulotlarni olib borilishini nazorat qiladi.

Obektda bajariladigan vazifalarga qarab FM yo’nalishida fuqarolar quyidagi toifalar bo’yicha o’qitiladi:

- FMning rahbar tarkiblari;
- FM tuzilmalariga kiruvchi fuqarolar;
- FM tuzilmalariga kirmaydigan fuqarolar;

Ishlab chiqarish va obekt FM rejasida ko’rsatilgan tadbirlarni hisobga olgan holda har bir toifa shaxslarini ma’lum dastur asosida o’qitish maqsadga muvofiqdir.

Fuqaro muhofazasiga o'qitishning tamoyil va uslublari. Tabiiy ofatlar, avariya va fojia oqibatlarini tugatish bo'yicha to'plangan tajribalar, fuqarolar muhofazasida olingan nazariy bilimlar, yuqorida ta'kidlangan FVlarda, fuqarolarni ongli ravishda tez, qat'iyan harakat qilishga, xalq xo'jalik tarmoqlarini tezda qayta tiklab, uni ishga tushirib yuborishga va talofot ko'rganlarga o'z vaqtida kerakli yordamlarni ko'rsata olishga o'rgatadi. Albatta, bu vazifalar, tabiiy ofatlar, avariya va talofotlarning tabiati, tavsifi, kelib chiqish sabablari va ularni keltiradigan oqibatlarini chuqur o'rganish natijasidagina amalga oshiriladi. SHu sababdan fuqaro muhofazasi xodimlari oldiga juda katta ma'suliyat (harbiy davrda ham, tinchlik davrida ham) fuqarolarni FVlar ruhida o'qitish vazifasini qo'yadi. Hamma katta yoshdagi odamlar, jumladan, ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar ham fuqarolar muhofazasini o'rganishi kerak. Albatta, bunda, xalqni FMsiga tayyorlashda, tinchlik davrida bo'ladigan FV oqibatlarini tugatish yo'l-yo'riqnomalariga yo'naltirilishi lozim. Ayniqsa, hozirgi davrda Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar sharoitida xalqni FMga tayyorlash yangicha tartibda o'qitishni taqazo etayapdi. CHunki shu bugungi kunga kelib, xalqimizni FMga o'qitishning vazifalari ham, uslublari ham o'zgardi.

Yangi tizimda o'qitishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. O'qitishni tashkil etishning differensatsiya uslubi;
2. Korxona FM boshlig'i o'z qo'l ostidagi xodimlarini o'qitishda FM bo'yicha mustaqil ravishda o'tiladigan dars mavzularini va dars o'tish tartiblarini o'zi belgilashi;
3. O'z korxonasining xususiyatlarini ko'zlagan holda, ishlab chiqarishga mumkin qadar zarar bermaydigan, qisqa vaqtda dars o'tishning shakl va uslublarini tanlashi;
4. O'zi yashayotgan joyning tabiiy, iqlim sharoitini hisobga olib, tabiiy ofat, avariya va fojiyalar yo'nalishida o'qitishni tashkil etishi;
5. FM vazifalarini ishlab chiqarish rejalari bilan birgalikda xal etish va boshqalar.

Xalqni FMga o'qitish - o'quv yurtlarida, ish joylarida va yashash maskanlarida tashkil etiladi. Aholini FMga o'qitish sifati to'g'ri qo'llangan o'qitish shakli va uslublariga bog'liqdir. O'qitish shakllari o'qish jarayonining tashkiliy tomonini ifodalaydi. Masalan, mashg'ulotlarining tuzilishini va uni olib borish joyini, vaqtini, muddatini, mashg'ulot rahbarlari hamda o'qiyotganlarning ish faoliyatini, uning malakasini, mutaxassisligini nazarga olish kerak[3].

O'qitish shakllari quyidagi asosiy guruhlarga: sinf mashg'ulotlari, dala mashg'ulotlari, mashqlar, maxsus-taktik o'qish, komandir va shtab boshliqlarini o'qitish hamda har taraflama (kompleks) o'qishlarga bo'linadi. O'rgatish usulida mashg'ulot rahbari o'rganuvchilarning bilim, malaka va mahoratiga suyanib FM vazifalarini bajarish uchun aqliy va jismoniy shakllantiradi. Aholini FMsi bo'yicha o'qitishda har xil o'quv uslublari qo'llaniladi. CHunonchi:

- o'quv materialini bayon etish (ma'ruza, hikoya, tushuntirish);
- ko'rsatish, namoyish etish, o'rganuvchilarga shaxsan FM bo'linmalarining harakatlarini diafilm va kinofilmlar orqali ko'rsatish;

[3] Nigmatov I., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya". 2011, B. 242.

- mashqlar (aholini qirg’in qurollar hamda radiaktiv, kimyoviy moddalar ta’sirlaridan himoya qilish normativlarini amaliy o’qitish) bajarish;
- amaliy mashg’ulot (maxsus jihozlangan xonalarda, markazlarda shaharchalarda, texnikada, asboblarda) o’tkazish.

SHuni nazarda tutish kerakki, o’qitishning forma va uslublari bir-biridan ajralmagan holda o’zaro dialektik uzilmas aloqada bo’lishi talab etiladi. Aholini FM bo’yicha o’qitishda eng samara beradigan uslublardan biri - bu amaliy mashg’ulotdir. U aholi tomonidan u yoki bu usullarni bajarishda ko’nikmalar hosil qilish va malakasini oshirish uchun mo’ljallangan himoya inshootlari va yakka tartibda saqlovchi vositalardan amaliy foydalanish, radiatsiyaviy va kimyoviy razvedka asboblari bilan ishlash, nurlanish va radiaktiv zararlanishni nazorat qilish hamda tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariyalari, fojiya oqibatlarini tugatish, aholini zamonaviy qirg’in qurollaridan himoya qilishda ularni amaliy ishlarga o’rgatadigan me’yorlarni ishlab chiqishdir. Mashg’ulotlar paytida asosiy diqqat e’tibor ma’naviy-ijtimoiy va psixologik tayyorlashga, aholida FM chora-tadbirlari samarasini va unga ishonch hosil qilish kerakligini, ta’lim-tarbiya, intizom, matonat va o’z burchini eng murakkab va dahshatli sharoitda ham bajarishga safarbar etishga qaratilgan bo’lishi kerak.

Respublikamiz aholisini FV lardan muhofaza qilishga tayyorlash va qayta tayyorlash 3 guruhga bo’lingan holda amalga oshiriladi:

a) ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish soxalarida band bo’lgan aholi, idoraviy bo’ysinishdan, tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’iy nazar oliy va o’rta maxsus kasb-xunar ta’limi muassasalarining talaba o’quvchilari;

b) ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalarida band bo’lmagan aholi (nogironlar, uy bekalari, nafaqaxo’rlar);

v) Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, shaxarlar va tumanlar davlat hokimiyati va boshqaruvchi organlari, vazirliklar, idoralar, mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, birlashmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari, hamda FVdan muhofaza qilish mutaxassislari.

Ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalarida band bo’lgan aholini tayyorlash ish joylarida tavsiya etilgan dasturlar asosida amalga oshiriladi. Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’quvchilarni «Fuqaro muhofazasi»ga tayyorlash «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi», «Ta’lim to’g’risida»gi (23 avgust 1997 yil) qonuniga muvofiq ta’lim muassasalarida olib boriladi. Oliy o’quv yurtlari talabalariga «Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar» fani asosida 70 soat hajmida darslar olib borish ko’zda tutilgan. Ta’lim berish jarayonida favqulodda vaziyatlarni tavsifi, hamda aholini va hududlarni texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish usullarini o’rgatishga ahamiyat beriladi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohasida band bo’lmagan aholiga ta’lim berishda ko’proq suhbatlar o’tkazish, o’quv filmlari ko’rsatish, mustaqil ravishda qo’llanma va eslatmalarni o’rganish, radioeshittirish va teleko’rsatuvlar yordamida olib boriladi. Bu toifadagi aholini tayyorlashda asosiy e’tibor ularni ma’naviy-ruhiy tayyorlashga, favqulodda vaziyatlarni turlari haqida ma’lumot berishga, favqulodda vaziyatlar sodir bo’lganda qanday xatti-harakatlar qilishga, shaxsiy va jamoa himoya vositalaridan foydalanishga qaratiladi. Bu toifadagi aholini tayyorlash

o’quv-maslahat punktlarida amalga oshiriladi. Bunday o’quv punktlari fuqaro muhofazasiga taalluqli ko’rgazmali qurollar: televizor, vidomagnitofon, kinoproektor va boshqa jihozlar bilan jihozlanishi lozim. Bulardan tashqari, o’quv xonalari o’quv ko’rgazma vositalari bilan jihozlansa maqsadga muvofiq bo’lardi. Jumladan:

1. Fuqaro muhofazasiga doir O’zbekiston Respublikasi qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Fuqaro muhofazasi boshlig’ining buyruqlari va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar;
2. Favqulodda vaziyatlarning turlari va ulardan muhofazalanish qoidalari;
3. Favqulodda vaziyat xavfi tug’ilganda aholini ogohlantirish tartib qoidalari;
4. Favqulodda vaziyat ro’y berganda aholini evakuatsiya qilish tartiblari;
5. Birinchi tibbiy yordam ko’rsatish usullari va shaxsiy saqlovchi vositalar na’munalari;

Uchinchi toifa fuqarolarini tayyorlash (obekt rahbarlari va mutaxassislarini) Favqulodda vaziyatlar vazirligining «Fuqaro muhofazasi» institutida olib boriladi. Rahbarlarga ta’lim berishda aholini va hududlarni Favqulodda vaziyatlarni muhofaza qilishga tayyorlash, avariya, halokat, tabiiy ofatlar sodir bo’lganda ularning oqibatlarini bartaraf etish, fuqaro muhofazasi kuch va vositalarini tashkil etishning asosiy qoidalarini o’rgatishga qaratiladi.

Fuqarolarni FVlardan muhofaza qilish sohasi bo’yicha tayyorlashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Aholining barcha qatlamlarini FVdan muhofaza qilish qoidalarining asosiy usullarini, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko’rsatish usullarini, hamda himoya inshootlaridan va yakka tartibda shaxsiy saqlovchi vositalaridan foydalanish qoidalarini o’rganishi;
2. Boshqaruvning barcha pog’onadagi rahbarlarini, aholini FVlardan muhofaza qilish bo’yicha harakat qilishga tayyorlash va qayta tayyorlash;
3. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislar qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini o’tkazishi. QBTI uchun FM kuch va vositalarini tayyorlash, ularning boshqarish ko’nikmalarini hosil qilish. Ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalarida band bo’lgan aholini tayyorlash, ish joylarida mashg’ulotlar o’tkazish va tavsiya qilinadigan dasturlarga muvofiq FVda harakat qilishni mustaqil ravishda o’rganish, keyinchalik mustahkamlash yo’li bilan amalga oshiriladi.

Davlat hokimiyat i va boshqaruv organlari, vazirliklar, idoralar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari va mutaxassislar O’zbekiston Respublikasi FVV Fuqaro muhofazasi institutida 40 va 80 soatli mashg’ulotlarni o’tadilar. SHuningdek, o’quvlar harbiylashtirilmagan qo’shilmalarning rahbar boshliqlari tarkibi harbiylashtirilgan avariya-qutqaruv va doimiy tayyor maxsus qo’shilmalar tarkibidagi korxona, muassasa va tashkilotlar xodimlari FVlar bo’yicha rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlarida, shu bilan birga o’quv mashqlari, mashg’ulotlar o’tkaziladigan maskanlarda olib boriladi.

FMning amaliy mashg’ulotlarini zamon talablariga mos holda o’tkazish, fuqarolarni dushman tomonidan qo’llaniladigan zamonaviy qurol vositalaridan, shuningdek hududimizda kuzatiladigan tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariyalari va

fojiyalar oqibatlaridan muhofaza qilish, odamlarda ma’naviy-ijtimoiy va psixologik sifatlarni tarbiyalash, obektlarni uzluksiz faoliyat ko’rsatishini ta’minlash, qutqaruv va tiklov ishlarini amalga oshirish bo’yicha bilimlarini, qobiliyatlarini oshirish imkonini beradi.

FVDTda FMning quyidagi amaliy mashg’ulotlari tashkil etiladi va o’tkaziladi:

1. SHaxsiy tarkib uchun maxsus-taktik;
2. Rahbar tarkib uchun shtab-komanda;
3. O’qitilayotgan hamma toifadagilar uchun, kompleks mashg’ulotlar.

Maxsus-taktik amaliy mashg’ulotlar tuzilmalarning oldiga qo’yilgan vazifalarni bajarishga o’rgatishdan iborat. Ya’ni bunday o’quv mashqlari fuqaro muhofazasining harbiylashgan va maxsus bo’limlari, hamda avariya-qutqaruv tuzilmalarining amaliy ishlarni bajarishga o’rgatish, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgandir. Bunday o’quv mashqning maqsadi: tizim boshliqlar tarkibini avariya-qutqaruv va boshqa tiklov ishlarini va aholini muhofaza qilishni tashkil etish, tizimlarni hamda avariya-qutqaruv bo’linmalarini aholini muhofaza etish tadbirlarini mustaqil ravishda bajarish, hamda boshqa tizimlar bilan hamkorlikda harakat qilishga tayyolash. Tizimlarning favqulodda vaziyatlar o’chog’ida harakat qilish tayyorgarligini tekshirish hamda fuqarolarning ruhiy fazilatlarini shakllantirishdan iborat. Maxsus-taktik amaliy mashg’ulotni o’tkazishda mashg’ulotni tayyorlash va o’tkazish haqida buyruq, mashg’ulotga tayyorgarlikning rejasi, hamda o’quv mashqni o’tkazish rejalari ishlab chiqiladi. O’quv mashqlari umummaqsadli tuzilmalar bilan xizmatli tuzilmalar birgalikda o’tkaziladi. Jumladan, qutqaruv guruhlari bilan sanitar drujinalar, razvedka, aloqa, jamoat tartibini saqlash, himoya inshootlarida xizmat ko’rsatish guruhlari, yong’inga qarshi kurash guruhlari ishtirok etadilar. Bunda ishtirok etadigan tuzilmalarning soni, o’quv mashqini mavzusiga maqsadlariga, xarakteriga, avariya-qutqaruv ishlarining ko’lamiga, favqulodda vaziyat ko’lamiga va boshqa qutqaruv-tiklov ishlarining hajmiga bog’liq bo’ladi.

Komanda-shtab o’quv mashqlarini yuqori saviyada olib borilishi uchun, mashq mavzusi, uning maqsadi, mashq savollarini tayyorlashda me’yoriy-huquqiy hujjatlar, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O’zbekiston Respublikasi fuqarolar boshlig’ining buyruqlari, hamda Vazirlik hay’ati yig’ilishining qarorlari asos qilib olinishi zarur hisoblanadi. O’quv mashqini olib borish uchun, mashqni o’tkazish rejasi, mashqga rahbarlik qilish tartibi, bajariladigan tadbirlar ro’yxati va mazmuni, moddiy texnik ta’minot rejasi va boshqa hujjatlar tayyorlanadi. Komanda-shtab mashg’ulotining maqsadlari har xil bo’lishi mumkin. Bulardan asosiylari: rahbarlarni va komanda boshliqlarining obekt FM tadbirlarini bajarishda nazariy bilimini va amaliy mahoratini oshirish, xodimlar, tuzilmalar va qo’shinlar bilan o’zaro harakat qilishini ta’minlashdan iborat.

Kompleks (har taraflama) mashg’ulot - obektni tayyorlashning muhim shakllaridan bo’lib, u FM bo’yicha o’rnatilgan aylanmani amalga oshirish bilan tugaydi. Kompleks mashg’ulotning mohiyati shundan iboratki, uning hamma qatnashchilari bir vaqtda yagona taktik sharoitda, moddiy ishlab chiqarish bazasida harakat qilib, obekt rejasida ko’zda tutilgan ishlab chiqarish faoliyatini to’xtatmasdan amalga oshiradi. Odatda mashg’ulotda: obekt FM rejasining realligi;

FM tadbirlarini amalga oshirishga obektning tayyorgarlik darajasi va dushman tomonidan qo'llanilgan zamonaviy qurollar asoratlarini, shuningdek, tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariya va halokatlarning oqibatlarini tugatish bo'yicha tadbirlar o'tkazilishiga e'tibor beriladi; obektning favquloddagi vaziyatlar paytida uzluksiz ishlash yo'li va usullari tekshirib ko'riladi.

Kompleks mashg'ulotning maqsadlari quyidagicha bo'lishi mumkin: obektni har qanday FVlarda xar tamonlama to'xtovsiz ishlashga tayyorlash, tuzilmalar tuzish, boshqarish, hamma soha fuqarolarini tayyorlash, raxbar va komanda-boshliq tarkibda FM tadbirlarini o'tkazishda aniq va mustaqil ko'nikmalarni ishlab chiqish, fuqarolarni turli xil ta'sirlardan himoya qilish usullariga o'rgatish, FV lar oqibatlarini tugatish bo'yicha ishlarni olib borishga tayyorlash, obekt FM rejasini realligini tekshirish va hozirgi talabga mos holga keltirish, FM masalalarini bajarishga obektning tayyorgarlik darajasini aniqlash, obekt shaxsiy tarkibida ma'naviy-ijtimoiy va psixologik xislatni tarbiyalash talab etiladi. Kompleks mashg'ulotlar 3 ta asosiy ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak;

1. FM masalalarini to'liq, har tomonlama o'rganish, ya'ni ogohlantirish belgisidan (ishorasidan) tortib, to amaliy mashg'ulotni tugatishgacha bo'lgan masalalar;
2. Kompleks mashg'ulotda, obektda faoliyat ko'rsatuvchi jami fuqarolar tayyorlanadi;
3. Kompleks mashg'ulotda, muhofazaga tayyorlashning jami shakl va uslublari qo'llaniladi.

300 kishidan ortiq fuqarolari bo'lgan korxona, tashkilotlarda, hamda 600 dan ortiq kasallar joyi bo'lgan tibbiy tashkilotlarda 3 yilda bir marta (2 sutkagacha), boshqa tashkilotlarda 3 yilda bir marta obekt trenirovkalari (6 soatgacha) o'tkaziladi. Umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari talaba va o'quvchilari bilan har taraflama mashg'ulotlar har yili o'tkaziladi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish soxalarida band bo'lmagan aholini tayyorlash FVlardan muhofazalash masalalari bo'yicha suhbatlar, ma'ruzalar o'tkazish, o'quv filmlarni ko'rsatish, yashash joylarida o'quv mashqlari va mashg'ulotlarga jalb etish, shuningdek qo'llanma va eslatmalarni mustaqil o'rganish, radio eshitirishlarni tinglash, teledasturlarni, ko'rgazmali qurollarni ko'rsatish va boshqa omillar qo'llaniladi.

Kompleks mashg'ulotni muvaffaqiyat-li o'tkazish, ko'p jihatdan unga qanchalik tayyorgarlik ko'rilganligiga bog'liq. Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish obekt FM rejasini hisobga olgan holda uni tashkiliy shtatlar tuzilishi, material ishlab chiqarish xususiyati, hududiy joylashganligi, FM holati va boshqa faktlarga amal qilgan holda olib boriladi. Mashg'ulotni tayyorlash, tashkil etish va uni o'tkazishga mashg'ulot rahbari shaxsan javob beradi. Mashg'ulotga oldindan va har taraflama tayyorlanish lozim. Mashg'ulot rahbari mashg'ulotning mavzusini, o'quv maqsadini, o'quv savollari va bosqichlarini, komanda-boshliq tarkiblarining sonlarini, tuzilmalar, jami mashg'ulotga jalb etilganlarning soni, mashg'ulot rejasini asosiy holatlarini ishlab chiqish, material, texnik jihozlar bilan ta'minlanganliklarini aniqlashlari lozim.

FVDTning har bir darajasi quyidagilarga ega bo'ladi:

FVDT rahbar organlari;

FVDT kundalik boshqaruv organlari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari;

xabar berish, aloqa tizimlari, boshqaruv va axborot bilan ta’minlashning avtomatlashtirilgan tizimlari.

FVDT rahbar organlari — bu vakolatiga aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo’yicha quyidagi masalalarni hal etish kiradigan davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar va ob’ektlardir:

respublika darajasida — FVV markaziy apparati, davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari hamda atrof tabiiy muhit va yuqori darajada xavfli ob’ektlarning holatini kuzatish va nazorat qilish uchun mas’ul bo’lgan, shuningdek tarkibida kimyoviy, portlovchi, yong’in chiqishi mumkin bo’lgan va boshqa xavfli ob’ektlar mavjud bo’lgan tashkilotlar;

mahalliy darajada — mahalliy davlat hokimiyati organlari;

ob’ektlar darajasida — tashkilotlar va ob’ektlar ma’muriyati.

FVDT, uning quyi tizimlari va bo’g’inlarining faoliyatini tashkil etish, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo’yicha ularga yuklangan vazifalarni bajarishga tayyorligi uchun to’liq javobgarlik tegishli rahbar organlarga yuklanadi.

Quyidagilar FVDT faoliyat ko’rsatishi chog’ida amalga oshiriladigan asosiy tadbirlar hisoblanadi:

a) kundalik faoliyat rejimida:

atrof tabiiy muhitning holatini, yuqori darajada xavfli ob’ektlar va ularga yondosh hududlardagi vaziyatni kuzatish va nazorat qilishni amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi xavfsizligi va muhofazasini ta’minlash, yetkazilishi mumkin bo’lgan zarar va ziyonni qisqartirish, shuningdek favqulodda vaziyatlar sharoitida turar joy binolari, sanoat ob’ektlari, hayot ta’minoti tizimlari va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko’rsatishining barqarorligini oshirish bo’yicha maqsadli va ilmiy-texnik dasturlar hamda chora-tadbirlarni rejalashtirish va bajarish;

favqulodda vaziyatlar bo’yicha boshqaruv organlari va FVDT kuchlarini favqulodda vaziyatlar chog’idagi harakatlarga tayyorlashni takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlar chog’ida muhofaza qilish usullari va harakat qilishga o’rgatishni tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish va to’ldirish;

sug’urtaning maqsadli turlarini amalga oshirish;

b) yuqori tayyorgarlik rejimida:

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi xavfi to’g’risida davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarga xabar berish hamda aholini xabardor qilish;

FVDT tegishli quyi tizimlari va bo’g’inlari faoliyatiga bevosita rahbarlik qilishni davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarning o’z zimmasiga olishi, zarurat bo’lganda vaziyatning yomonlashishi sabablarini aniqlash uchun ofat yuz berishi mumkin bo’lgan mintaqalarda tezkor guruhlarni tashkil etish, vaziyatni normallashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqish;

doimiy joylashish punktlarida FVDT rahbarlari tarkibining kecha-kunduz navbatchiligini joriy etish;

favqulodda vaziyatlar bo’yicha hududiy boshqarmalar (bo’limlar)ning tezkor guruhlari hamda davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, ob’ektlar va boshqa tashkilotlarning navbatchilik-dispetcherlik xizmatlari navbatchiligini tashkil etish;

atrof tabiiy muhitning holati, yuqori darajada xavfli ob’ektlar va ularga yondosh hududlardagi vaziyatni kuzatish va nazorat qilishni kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi ehtimolini, ularning ko’lamlari va oqibatlarini prognozlashtirish;

favqulodda vaziyatlar sharoitlarida aholi va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, shuningdek turar joy binolari, hayot ta’minoti tizimlari, ob’ektlar va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror faoliyat ko’rsatishini ta’minlash chora-tadbirlarini ko’rish;

kuchlar va vositalarni tayyor holatga keltirish, ularning harakat rejalarini aniqlashtirish hamda zarur bo’lganda favqulodda vaziyatlar taxmin qilinayotgan hududga siljitish;

v) favqulodda rejimda:

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to’g’risida davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlariga xabar berish va aholini xabardor qilish;

tezkor guruhlarni favqulodda vaziyatlar hududiga siljitish;

aholini muhofaza qilishni tashkil etish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni tashkil qilish;

favqulodda vaziyatlar zonalari chegaralarini belgilash;

iqtisodiyot ob’ektlarining barqaror faoliyat ko’rsatishini ta’minlash, zarar ko’rgan aholining hayot sharoitlarini ta’minlash ishlarini tashkil etish;

favqulodda vaziyatlar hududlaridagi atrof tabiiy muhitning holati, avariya ob’ektlari va ularga yondosh hududlardagi vaziyat bo’yicha monitoring olib borish.

18-ma’ruza. Fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtirish

O’quv savollari

1. **Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyati**
2. **FVVning FVDTda vakolati**

Fuqaro muhofazasi maxsus tadbirlarining bajarilishini ta’minlash hamda ushbu maqsadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun respublika, viloyat, tuman, shahar, shuningdek, ob’ekt miq-yosidagi fuqaro muhofazasi xizmatlari tashkil etiladi. Fuqaro muhofazasi xizmatlarining turlari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari fuqaro muhofazasi qo’shinlari,tizimlaridan tarkib topadi. Fuqaro muhofazasi kuchlari va vo-sitalarining tarkibi, ularning tarkibiy tuzilishi, shuningdek, muhofaza turlari faoliyatining boshqa jihatlari O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig`i tomonidan belgilab qo’yiladi.

Fuqaro muhofazasi vazifadarini hal etishda FV kuchlaridan tashqari O’zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining qutqaruv tizimlari, qismlari ham jalb etilishi mumkin. Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasining qo’shinlari O’zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi kuchlarining asosini tashkil etadi.

Fuqaro muhofazasi qushinlarining harbiy davrdagi asosiy vazifalari quyidagalardan iborat:

- Boshqaruv organlari va tizimlarining favqulodtsa vaziyatlarniig oldini olish va ularni bartaraf etish uchun mo’ljallagan kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta’minlash;
- Aholini, boshqaruv organlari boshliqlarini. FVDT kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;
- Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish;
- Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish;
- Favqulodda vaziyatlardan zarar ko’rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga oid tadbirlarni amalga oshirish;
- Favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish sohasida, shu jumladan, ularni tugatishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish;

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish.

FVDT hududiy va funktsional quyi tizimlardan iborat bo’lib, u respublika, mahalliy va ob’ektlar miqyosi darajasida bo’ladi.

FVDTning hududiy quyi tizimlari o’z ma’muriy hududlari doirasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxrida tuziladi hamda tegishli ravishda tumanlar, shaharlar, qishloqpar va ovullar miqyosida tashkil topadi.

FVDT hududiy quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuch va vositalari tarkibi, faoliyat ko’rsatish tartibi mahalliy geofizik va tabiiy, iqlim sharoitlarini, kuchli xavfli ob’ektlarning mavjudligini hisobga olib belgilanadi hamda FVV bilan kelishilgan holda qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, vshyuyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

FVDTning funktsional quyi tizimlari vazirliklar, davlat qo’mitalari,

korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalar va kompaniyalarda atrof muhitni, kuchli xavfli ob'ektlar xrlatini kuzatish va nazorat qilishni amalga oshirish, shuningdek, ularga qarashli ob'ektlarda o'zlarining ishlab chiqarish faoliyati bilan borliqfavqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda bartaraf etish uchun tashkil etiladi.

FVDT rahbar organlariga aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalarini hal etish vakolati ga davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat organlari va ob'ektlar mas'uldir, jumladan, respublika darajasida O'zbekiston Res-publikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi, xavfli ob'ektlar holatini kuzatishni nazorat qilish uchun vazirliklar, idoralar, mahalliy miqyosda hududiy hokimliklar, ob'ektlar miqyosida korxonalarning ma'muriyati mutasaddi hisoblanadi.

Respublika darajaststsagi FVDT boshqaruv organlarinnng aso-siy vazifasi quytsdagilardan iborat:

Tabiiy favqulodda vaziyatlar oqibatlarini imkoni boricha pasaytiruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshi-rishga rahbarlik qilish, FV sharoitida xalq xo'jalik tarmoqlarining barqaror faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash;

- Aholi va hududlarni FVlardan muhofaza qilish sohasida Respublika maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqishda qatnashish;
- Respublika markazlashtirilgan xabar berish tizimini yaratish va uni doimiy tayyor holda saklash;
- Atrof-muhit hamda kuchli xavfli ob'ektdarning holatini kuzatish va nazorat qilish tizimini tashkil etish, FVlarni bashoratlash;
- Boshqaruv organlari, FVDT kuchlari va vositalarining FVlarda harakat qilishga tayergarligani ta'minlash;
- Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni, shu jumladan, evakuatsiya ishlarini o'tkazishga oid tadbirlarning bajarilishini ta'minlash, zarar ko'rgan aholi uchun hayot sharoitini yaratish;
- Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun Respublika moliyaviy va moddiy resurslar zaxirasini yaratish;
- FVlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga oid tadbirlarni amalga oshirishda qatnashish;

Favqulodda vaziyatlarda idoraga qarashli ob'ektlarning rahbarlari tarkibi, kuch va vositalarini, shuningdek, xodimlarini tayyorlashni muvofiklashtirish va boshqa omillarni bajarish.

FVDT boshqaruv organlarining ob'ektlar darajasidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- Favqulodda vaziyatlarning oddini olish va ularni bartaraf etish, ob'ektlar ishining FV chog`ida ishonchliligi va barqarorligini oshirishga doir tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish;
- Boshqaruv organlarining, ob'ektlar kuch va vositalarining FV chog`idagi harakatlarga tayerligini ta'minlash;
- Avariya-qutqaruv hamda boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarga shu jumladan, ob'ektlar xodimlarini evakuatsiya qidishga rahbarlik qilish;
- Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish;

Ob’ektlarning rahbarlar tarkibi, kuch va vositalari, shuningdek, xodimlarini FVlardagi harakatlarga tayyorlashnitashkil etish.

Har bir korxonaning FM boshlig`i FMni tashkil etilishini, uning holatini, kuchlarini, texnikasini doimiy tayyor holatda bo’lishligini nazorat etadi, hamda qutqaruv va qayta tiklash ishlariga boshchilik qiladi. Korxona FMning boshlig`i shu kor-xona joylashgan rayon FMga va shu korxonaning yuqori tashki-loti FMsiga bo’ysunadi.

Qutqaruv otryadlarining tashkiliy tuzilishi quyidagicha bo’lishi mumkin:

Har bir korxonaning FM boshlig`iga o’rinbosar tayinlanadi (2-chizma). Katta korxonalarda bir necha o’rinbosarlar tayinlanadi, jumladan:

a) Ishchi-xizmatchilarni joylashtirish (yoki evakuatsiya bo’yicha);
b) Muhandis-texnik ishlari bo’yicha;
v) Moddiy-texnika ta’minoti bo’yicha.

FMning ishchi-xizmatchilarni joylashtirish bo’yicha o’rinbosari joylashtirish rejalarini tashkil etadi, ularning oilalarini evakuatsiya etish, jamoat tartibini saqlash ishlariga boshchilik kdlish hamda ishchi xizmatchilarni bir joydan ikkinchi joyga tashish ishlarini tashkillashgirish vazifalarini bajaradi.

FMning muhandis-texnik bo’limi o’rinbosari korxonaning bosh muxandisi hisoblanadi.Buning vazifasi ishlab chiqarishni alohida rejim asosida ishlash rejasini tuzish, tinchlik davrida ishlab chiqarishni muttasil ishlashini ta’minlash, ekstremal holatlarda avariya-texnika va yong`inga qarshi xizmatlarni, qutqarish ishlarini olib boradi.

Bundan tashqari, tabiiy ofatlar, avariya, halokat bo’lganda qutqarish va avariyani to’sish hamda qayta tiklash ishlariga boshchilik qiladi.

FMning moddiy-texnika ta’minoti bo’yicha o’rinbosari qilib korxona-ning ta’minot bo’yicha boshliq o’rinbosari tayinlanadi. Bu mansabdor shaxs maxsus jihozlarni, texnika, transport va muhofazaga taalluqpi jihozlar bilan ta’minlaydi va saqlaydi. Yana u boshpanadarni qurish va o’z qo’l ostidagi ishchi-xizmatchilarni evakuatsiya qilishni ta’minlaydi hamda inshootlarni ta’mirlash ishlarini bajaradi.

Korxonada FMning shtabi tuziladi. Bu shtabda har xil buyruqlar, bajariladigan chora-tadbirlar va FMning yuqori tashki-lottalabnomalari, ish rejalari ishlab chiqiladi, uning bajarilish hisobotlari tuziladi.Korxona shtab boshlig`i etib, shu korxonaning FM boshlirining birinchi o’rinbosari tayinlanadi. FMning shtabi zimmasida ishchi-xizmatchilarni va korxona xodimlari oilalarini qirg`in qurollar ta’siridan, dushmanning bevaqg hujumidan o’z vaktida ogoh qilish vazifasi turadi. FM shtabi asosida quyidagi xizmatli tizimlar tashkil etiladi:

- Aloqa va tashviqot;
- Meditsina;
- Radiatsiya va kimyoviy qurollar ta’siriga qarshi;
- Jamoat tartibini saqlash;
- Elektr ta’minoti;
- Avariya-texnikani ta’mirlash;
- Panada va qochoqpar maskanida xizmat ko’rsatish;
- Transportda xizmat ko’rsatish;
- Moddiy ta’minot va boshqa vazifalar.

Bularga maxsus topshiriqlarni bajarish vazifalari topshiriladi. Yuqoridagi har bir xizmatga FM boshlig`i tomonidan rahbar etib, bo'lim, sex, smena boshliqlari tayinlanadi. Yuqorida ta'kidlangan fuqarolar muhofazasining xizmatli tizimlaridan tashqari texnika va transport vositalariga maxsus qayta ishlov berishda FMning bir qator xizmatli qismlari keng ishlarni tashkil etadi. Jumladan, FM laboratoriyalari radioaktiv va zaharli modtsalarni aniqlash uchun radiometrik va kimyoviy taxlil ishlarini olib boradi.Ular asosan korxona yoki tashkilotlarning laboratoriyalari tarkibida tashkil etilib, unga mutaxassislar jalb qilinadi va kerakli asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

Radioaktiv moddalar va biologik vositalar bilan zaharlangan odamdarni to'liq sanitar qayta ishlovdan o'tkazish uchun yuvinish maskanlari tashkil etiladi. Bu maskandar asosan hammom va dushxonalar asosida tashkil etilib, ular oldindan tayyorlab qo'yiladi.Bu maskanlarda kiyim-kechaklar, poyafzal va shaxsiy saqlovchi vositalarni dezakgivatsiya qiluvchi maydonchalar tayyorlanib jihozlanadi. Bir yuvinish maskani bir soatda 80 odamni sanitar-qayta ishlovdan o'tkazadi.

Kiyim-kechak, poyafzal shaxsiy saqlovchi vositalarni degazatsiya, dezaktivatsiya va dezinfektsiya qilish uchun kiyim-kechaklarni zararsizlantiruvchi maskanlar tashkil etiladi. Bular asosan xammom va kiyim-kechaklarni yuvuvchi maskanlar tarkibida tashkil etiladi. Bunday maskanlar 1 soat ichida 50-100 kg kiyim-kechaklarni qayta ishlash quvvatiga ega.

Transport vositalarni degazatsiya, dezinfektsiya va dezaktivatsiya qilish uchun esa zararsizlantirish shahobchalari tashkil etiladi. Bu zarlrsizlantirish shahobchalari asosan transportlarni yuvuvchi qismlari tarkibida tashkil etilib, ular 1 soat mobaynida 4-5 ta yuk avtomashinalarini zararsizlantirish imkoniyatiga ega.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarida fuqarolar muhofazasining tashkiliy tuzilishi

1. Fuqarolar muhofazasi qo'shinlari;
2. Hududiy va ob'ektlarningharbiylashmagan umumiy maxsus maqsadli tizimlari;
3. Mahalliy hokimiyat organlarining (viloyat, shahar va tumanlar) FVV qutqaruvchi komandalarining tizimlari;
4. FVVga to'g`ridan-to'g`ri hamda tezkor bo'ysunuvchi Respublika ixtisoslashtirilgan tizimlari;
5. Vazirliklar va idoralarning harbiylashtirilgan hamda professional ixtisoslashtirilgan avariya-qutqaruv va avariya-tiklash bo'linmalari;
6. Ob'ektlarning ixtisoslashtirilgan tizimlari;
7. «Qizil yarim oy» hamda «qizil hoj» jamiyati ko'ngilli otryadlari;
8. «Vatanparvar» mudofaaga kumakpashuvchi tashkiloti.

Bularning tarkibida Respublikamiz bo'yicha «Najodkor», (RQQM) — Respublika qidiruv-qutqaruv markazi hamda(SQXT) — Suvdan qutqarish xizmati tizimlari tuzilgan bo'lib, Respublikamiz miqyosida bo'ladigan xar qanday FVda fuqarolarni qutqarish vazifalarini bajaradilar.

FVDTning mablagi quydagilardan tarkib topgan:

- Davlat byudjetlari hisobidan.
- Mahalliy byudjet hisobidan.
- Vazirlik va uning bo’g`inlari hisobidan.
- Muassasa va tashkilotlarning shaxsiy mablag`lari xisobidan.

«Qizil hoj» va «Qizil yarim oy» jamiyatining birlamchi zaxiralari hisobidan va boshqalardan.

O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi

FVDT faoliyatini boshqarish va davlat nazoratini amalga oshirish.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni tugatish tadbirlarini amalga oshirish uchun moddiy resurslarning idoraviy zaxirasini jamlash yuzasidan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar tayyorlash.

Aholini birinchi navbatda zarur tovarlar bilan ta’minlash va favqulodda vaziyatlarni tugatish uchun jalb etiladigan maxsus tuzilmalarni jihozlash uchun moddiy boyliklarning idoraviy zaxirasini yaratish va jamlash.

ADABIYoTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi "Fuqaro muhofazasi to’g`risida’gi qonuni 26-may 2000-yil.
2. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. Toshkent, "Universitet" 2001-yil.
3. M.Tojiev, I. Ne’matov, M.Ilxomov, "Favqulodda vaziyatlar va fuqarolar muhofazasi" Toshkent, 2002-yil.
4. Q. Nurxo’jaev, M.Yu.Yunusov, I.X. Xabibullaev. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. Toshkent "Universitet " 2001-yil.
5. I. I. Mamatov. Xarbiy toksikologiya va tibbiy muhofaza.

19-ma’ruza. Favqulodda vaziyatlar monitoringi

O’quv savollar

1. Tabiiy xussiyatli favqulodda vaziyatlar tasnifi.
2. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tasnifi.
3. Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar tasnifi.

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil ko’rinishidagi falokatlar kirib, ular O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi “Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar tasnifi to’g’risida” gi 455-son qarorida ko’rsatib o’tilgan[4].

Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar

Sodir bo’ladigan xar qanaqa tusdagi tabiiy ofatlar mamlakatning iqtisodiyotini izdan chiqishiga, ko’plab insonlarning o’limiga yoki xayot faoliyatining buzilishiga, tabiatning zararlanishiga va boshqa salbiy oqibatjarga olib keladi. Butun jahon “Qizil Xoj” hamjamiyati tashkilotining ma`lumotlariga qaraganda tabiiy ofatlardan ko’rilayotgan moddiy va ma`naviy zarar miqyosi butun dunyoda yuqori tezlikda ortib bormoqda. Ayniqsa, o’tgan XX asrda tabiiy ofatlardan 11 mln. dan ortiq insonlarning o’limi va juda katta miqyosda moddiy zararlar ko’rilgan.

SHunga o’xshash xolat XXI asrning o’tgan 8 yili davomida xam kuzatildi. Jumladan, 2004 yil Xind okeanidagi “ Sunami ” dan - 300 ming; 2005 yil AQSHdagi “ Katrina ” to’fonidan - 200 ming; 2005 yil Kashmirdagi (Pokiston) yer silkinishidan - 78 ming; 2008 yil “Myanma” to’fonidan 130 ming; 2008 yil Xitoydagi “Sechuan” yer silkinishidan 62 mingdan ortiq odamlarning o’limi yuz berdi.

Tabiiy ofat - bu tabiatda yuz beradigan favquloddagi o’zgarish bo’lib, u birdan, tezlikda insonlarning mo’tadil yashash, ishlash sharoitlarini buzilishi, odamlarning o’limi hamda qishloq xo’jalik hayvonlarining, moddiy boyliklarning buzilishi va yo’q bo’lib ketishi bilan tugaydigan hodisalardir.

Tabiiy ofatlarning turlari xilma-xil: yer silkinishi, suv toshqini, kuchli shamol, yong’in, qurg’oqchilik, yer surilishi va boshqalar. Bu xildagi tabiiy ofatlar bir-biriga bog’liq holda hamda bog’liq bo’lmagan holda, alohida yuzaga kelishi mumkin. Ya’ni bir tabiiy ofat boshqa ofat oqibatida yuzaga kelishidir. Masalan, o’rmonda yong’inlarning kelib chiqishi, tog’li joylardagi ishlab chiqarish portlashlari, karerlarni ishga solishda, platinalar qurishda yerning surilishiga, qorlarning ko’chishi va boshqa ofatlarning kelib chiqishiga sabab bo’ladi.

Hech narsaga bog’liq bo’lmagan tabiiy ofatlar juda katta miqyosda va turli vaqtlargacha bir necha soniya, daqiqadan (er surilishi, yer silkinishi, qor ko’chishi) bir necha soatlargacha (kuchli qor va yomg’ir yog’ishi), hatto kun va oygacha (suv toshqini va yong’in bo’lishi) cho’zilishi mumkin. Lekin bu xildagi tabiiy ofatlar hamma joylarda ham yuzaga kelavermaydi. Jumladan, yer silkinishi, yer surilishi ofatlari ko’proq tog’li hududlarda kuzatiladiki, buni oqibatida nafaqat insonlar, balki iqtisodiyot tarmoqlari, hatto atrof-muhit qattiq shikastlanadi.

---

[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi “Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar tasnifi to’g’risida” gi 455-son qarori

Yana kuchli yog’ingarchilik, qor yog’ishi natijasida suv toshqini kuzatiladiki, oqibatda, fuqarolarning yashash joylari, sanoat korxonalari, temir va magistral yo’llar, gidrotexnik inshootlar izdan chiqadi. Xuddi shunga o’xshash ta’sirlar yer surilishi, qor ko’chishi, qurg’oqchilik, kuchli shamollar ta’sirida ham kuzatilib, oxir oqibatda insonlar katta, ham ma’naviy, ham moddiy zarar ko’radilar. Ammo, barcha tabiiy ofatning turlari hamma joyda ham kuzatilavermaydi. Tabiiy ofatning har qaysi shakllari o’zlarining fizik ma’nosiga, kelib chiqish sabablariga, tavsifiga, kuchiga va tashqi atrofga ta’sir ko’rsatish xususiyatlariga ega.

Bu tabiiy ofatlar bir-biridan farq qilishidan qat’iy nazar, ular bir umumiy xususiyatga ega. Ya’ni ularning ta’siri juda keng miqyosda bo’lib, o’zini o’rab turgan atrof-muhitga juda katta ta’sir kuchini ko’rsatadi hamda insonlar ruhiyatiga jiddiy zarba beradi. SHuning uchun, bu tabiiy ofatlarni o’z vaqtida bilib, uning tavsiflari va sabablari aniq o’rganilsa, ularni oldini olish yoki zarar keltirish xususiyatlari bir muncha kamaytirilgan bo’ladi. SHu tariqa tabiiy ofatlardan keyingi qilinadigan xatti-harakatlarni va ofat oqibatlarini tezroq hal qilish imkoniyatlariga ega bo’linadi. Tabiiy ofatlarga qarshi kurash choralaridan biri bu xalqni o’z vaqtida voqif etish hisoblanadi. Bu esa tabiiy ofatdan keladigan zararlarni bir muncha kamaytirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Yana tabiiy ofatlar yuz berganda xalqqa ma’naviy yordam berish chora-tadbirlari va qilinadigan birlamchi ishlarni to’g’ri tashkil etish shakllari eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu ishlarning bosh-qoshida fuqarolar muhofazasi organlari turib, ular ofat yuz bergan joyda (urush davrimi, tinchlik davrimi baribir), xalqni bu ofatlardan muhofaza etish va falokat yuz bergan joydan hammani bexatar joyga ko’chirish omillarini amalga oshiradi. Qaysi yerda yuqori intizom, aniq belgilangan chora-tadbirlar bo’lsa, o’sha yerda har qanday ekstremal sharoitlarda harakat qilish ishlari va ularning natijalari yuqori bo’ladi (ma’naviy talofot va moddiy yo’qotish).

Suv toshqini va uning talofatlari .

Keyingi vaqtlarda respublikamiz hududining ko’pchilik qismida gidrometerologik holatning keskin o’zgarishi tufayli, aholining hayot faoliyatini, tabiatini, moddiy resurslar sifatini izdan chiqaruvchi favqulodda vaziyatlar (sellar, suv toshqinlari, qor ko’chkilari, kuchli shamollar, qurg’oqchilik va h.k.) kuzatilmoqda.

Bunday holatlarning yuzaga kelishiga biologik va meterologik o’zgarishlarni hisobga olmaslik, yangi yerlarni o’zlashtirishda qo’yilgan xatoliklar, sug’orish tizmida zamonaviy texnologik usullarni joriy etilmaganligi sabab bo’lmoqda.

1998 yilda Favqulodda vaziyatlar vazirligi ma’lumotiga ko’ra respublikamiz hududida 600 ga yaqin ko’chki, sel va suv toshqinlari bo’lgan bo’lsa, ularning zararli oqibatlari natijasida 16 ming aholi jabrlanib, ko’rilgan moddiy zarar esa 100 mln. so’mdan ortiqni tashkil etgan. Mutaxassislar xulosasiga ko’ra respublikamiz hududida 238 ta xavfli ko’llar, 46 ming kv. km hududlar suv va sel toshqinlari ro’y beradigan xavfli joylar, 1000 ga yaqin xavf sodir bo’lishiga olib keluvchi daryo va soylar mavjudligi aniqlangan.

Suv toshqini ham tabiiy ofatlar ichida eng xavflisi hisoblanadi. Suv toshqini deb daryo, ko’l, hovuzlardagi suv sathining keskin ko’tarilishi natijasida ma’lum maydonlardagi yerlarni suv tagida qolishiga aytiladi.

Suv toshqiniga turli omillar sababchi bo’ladi:

- Kuchli yomg’ir yog’ish oqibatida (jala, sel quyishi);
- Qorlarni surunkali erishi natijasida;
- Kuchli shamol esishi natijasida;
- Oqar daryolardagi muzliklarni yig’ilib, sun’iy to’g’on hosil qilishi;
- Tog’ jinslarining nurashi, surilishi yoki boshqa sabablar bilan suv saqlash omborlarining buzilishi oqibatida.

Kuchli yomg’ir yog’ishi natijasida suvlarning sathi keskin ko’tarilib, daryo, ko’llarga sig’maydi va natijada ekin maydonlarni, turar-joylarni, yo’llarni suv bosadi va ularni izdan chiqaradi. Bulardan tashqari, elektr energiya, aloqa uzatgichlar, meliorativ tizimlar ishdan chiqadi, chorva mollari, qishloq xo’jalik ekinlari yo’q bo’lib ketadi, xom ashyolar, yoqilg’i, oziq-ovqatlar, mineral o’g’itlar va boshqalar yaroqsiz holga keladi yoki yo’q bo’lib ketadi. SHular natijasida juda katta moddiy zarar ko’rilib, insonlar o’limi bo’lishi mumkin.

Suv toshqini ofati turli joylarida, jumladan, O’zbekistonda ham tez-tez bo’lib turadi. Masalan, 1991-95 yillarda ko’pgina viloyatlarida Xorazm, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo va boshqa joylarda juda katta ekin maydonlari suv ostida qolib, oqibatda katta miqdorda moddiy zarar ko’rildi. Jumladan, 750 ming ga. paxta, 28 ming ga. poliz, 20 ming gektar mevazorlar, shuningdek 21 ming turar joy binolari, 100 dan ortiq bolalar bog`chalari va maktablar, 250 km avtomobil yo`llari, 113 ta ko’priklar va 200 km dan ortiq sug`orish inshoatlari yaroqsiz xolatga keldi.

2009 yil oktyabr oyida Fillipinda yomg`irning surunkali yog`ishi kuchli suv toshqinlarini yuzaga keltirib xududlarni, yashash va ish joylarini, ko’priklarni va yo`llarni vayronaga aylantirdi. Bu xam yetmaganday namgarchilikning xaddan tashqari yuqori bo’lishi oqibatida tog` oldi joylarida ko’chkilar yuz berdi. Bu ofatdan 2,5 mln odamlar zarar ko’rib, xavfli xududlardan 30 ming axoli xavfsiz xududlarga evakuatsiya qilindi va ko’rilgan moddiy zarar miqyosi bir necha 10 mln AQSH dollirini tashkil qildi. SHuningdek 2009 yilda Turkiyaning 15 mln aholisi bo’lgan Istambul shaxrida tinimsiz yoqqan yomg`ir, 2m balandlikdagi suv toshqinini yuzaga keltirib, minglab uylarni, yo`llarni vayronaga aylantirdi.

Daryolardagi suvning oqimiga teskari yo’nalishda esadigan kuchli shamol ham uni sathini ko’tarib yuboradi va natijada suv toshqini yuz beradi. Bu xildagi toshqin Sankt-Peterburgdagi Neva daryosida kuzatilgan. 1997 yil noyabrda Vetnamda ham juda kuchli shamol oqibatida suv toshqini bo’lib, katta miqyosdagi uy joylar, moddiy resurslar suv tagida qolib, ko’plab odamlar halok bo’lishgan.

Oqar daryolarda suvlarning sathida muzliklar hosil bo’lishi va bu muzliklar yig’ilib suvning oqimiga qarshi to’siqlar (to’g’on) hosil qilishi natijasida ham suv toshqini ro’y beradi. Bu xildagi toshqin 1992 yilda Qoraqalpog’iston Respublikasida Amudaryo oqib o’tadigan uchta hududda kuzatilgan. Bu ofatning oldini olish uchun hamma choralar bajarila bordi va oxir-oqibatda harbiy samolyotlar yordamida to’siq bo’lib turgan muz to’g’onlari portlatish yo’li bilan yo’q qilindi. Bu ofat natijasida Bo’zatov tumanining ko’pgina yerlari vayronaga aylanib, elektr tokini o’tkazuvchi manbalar, texnikalar ishdan chiqdi. Aspantoy, Porlitov, Qiziljar va Aliovul

punktlariga olib boruvchi yo'llarni suv bosishi oqibatida aloqadan uzilib qoldi. Ofat oqibatlarini bartaraf qilishda 3200 dan ortiq aholi, 3026 bosh qora mollar xavfsiz joylarga ko'chirildi va Porlitov, Qiziljar va Aliovullarga boradigan 26 km yo'llar ta'minlandi. Bu ofatdan ko'rilgan moddiy zarar yuz million so'mni tashkil qilgan. Bunday holatlardagi suv toshqinlari dunyo miqyosida juda tez-tez bo'lib turadi.

Suv toshqini kanallar va suv saqlaydigan omborlarning turli sabablarga ko'ra ishdan chiqishi oqibatida ham kuzatilishi mumkin. Umuman kanallar, suv omborxonalari - suv energiyasi, suv yo'llari hamda suvning o'zidan foydalanish maqsadida quriladi. Hozirgi kunda MDH davlatlarida suv sig'imi 1 mln. m^3 dan ortiq bo'lgan suv omborlari 1 mingga yaqin bo'lib, ularning suv sathi 116000 km^2 ga teng. Xuddi shunga o'xshash O'zbekistonda ham 54 ta suv saqlaydigan omborxonalar qurilgan, ulardan 10 tasi qo'shni Respublikalari chegarasida joylashgan. Jumladan, Qayroqqum, Rog'un, (Tojikiston), Tuyamo'yin (Turkmaniston), Taxtagul (Qirg'iziston), CHordarya (Qozoqiston) va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Respublikamizga tegishli bo'lgan suv omborxonalarida 55,5 mlrd. m^3 dan ortiq suv saqlanib, ular orqali asosan qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlab, katta iqtisodiy samara olinadi. Lekin shu bilan birga bunday gidrotexnik inshootlar biror sabablarga ko'ra buzilsa, saqlanayotgan suvning ta'siri insonlarga, uy hayvonlariga, atrof-muhitga juda katta jiddiy zarar keltiradi. SHunga o'xshash katta hajmdagi suv Tuyamo'yin suv omborida 5 km^3dan ortiq, Qayroqqum suv omborida esa 4 km^3dan ortiq suv saqlanib, mabodo biror sababga ko'ra ombor qismlari talofot ko'rsa, Jizzax, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarini suv bosadi. Agar Taxtagul suv ombori talofot ko'rsa (unda 19 km^3 suv saqlanadi) butun Farg'ona vodiysi viloyatlarini suv bosishi ehtimoli bor. Boshqa suv saqlash omborxonalari uchun ham shunga o'xshash fikrlarni aytish mumkin. SHuning uchun suv saqlaydigan omborxonalarni har xil falokatlardan asrash uchun hamma turdagi omillar, ehtiyot choralari ko'rib qo'yilgan bo'lishi zarur. Jumladan, birlamchi va ikkilamchi saqlovchi platina qurish, har bir platinalar temir betonli qorishmalardan tayyorlanishi va boshqa saqlovchi omillar belgilanishi zarur. Afsuski, bunday chora-tadbirlar to'liq, mukammal tarzda belgilanishiga har doim ham jiddiy e`tibor berilmaydi. Hozirda, Tojikiston xududida bahaybat Rog'un GES qurilishini davom ettirish to'g'risidagi 2009 yilda qabul qilingan hukumat qarori Markaziy Osiyo davlatlarini tashvishga solmoqda. Ma`lumki, ushbu GES qurilishi XX asrning 80-yillarida boshlanib, keyinchalik muayyan sabablarga ko'ra to'xtab qolgan edi. CHunki o'sha davrda ushbu gidroinshoot loyihasi to'laqonli ekspertizadan o'tkazilmagan bo'lgan, oradan shuncha vaqt o'tgandan so'ng, zamonaviy loyiha va konstruktorlik andozalari talablariga mos bo'lmagan eski loyiha asosida ish boshlangani, albatta tashvishli holat. Zero, ushbu GES qurilishi uchun tanlangan xudud 9-10 ballik seysmik aktivlikka egaligi va tektonik yoriq chiziqda joylashganligi nazarda tutilsa, baladligi 350 m dan iborat to'g'onda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan texnogen buzilish qanday halokatli oqibatlarga olib kelishini tasavvur qilish qiyin emas. Undan tashqari, ushbu gidroinshoot qurilishi natijasida butun Markaziy Osiyo mintaqasi xududlarida katta ekologik o'zgarishlar ro'y berishi hamda suv taqsimotidagi buzilishlar ko'lami ortishi, tabiiy. 2010 yil BMT

Sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag`ishlangan yalpi majlisida Mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek: "Ko'plab xalqaro ekologiya tashkilotlari va nufuzli ekspertlar tavsiya qilayotganidek, ushbu daryolardan shu miqdordagi energetika quvvatlarini olish uchun nisbatan xavfsiz, ammo ancha tejamkor GES lar qurilishiga o'tish oqilona yo`l bo'lur edi".

Suv toshqini xavfida quyidagi vazifalar bajarilishi talab etiladi: suv toshqini xavfi haqida aholini ogoh etish; razvedka va kuzatuv ishlarini olib borish; FVDT kuch va vositalarini jalb etish; qutqaruv va tiklov ishlarini olib borish; kerak bo'lganda aholini va moddiy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish; suv toshqini bo'lgan xudulardagi korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonini qisman yoki butunlay to'xtatish; suv bosgan hududlarda qutqaruv tizimlari va boshqa tizimlar kerakli texnika va suzuvchi vositalar yordamida odamlarni qutqarish va evakuatsiya qilish ishlarini olib boradi. Qutqaruv ishlarida ishtirok etuvchilar odamlarni suvdan qutqarish bo'yicha tajribaga, hamda qutqarilganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tajribalariga ega bo'lishi lozim.

Kuchli shamol, qurg'oqchilik va uning oqibatlari. Kuchli shamol, qurg'oqchilik ofatlari ham gidrometerologik favqulodda vaziyatlar turiga kirib, ularning tabiat va jamiyatga salbiy ta'sirlari ortib bormoqda. Jumladan, 1970 yil 13 noyabrda Pokistonning sharqiy hududlarida bo'lgan kuchli shamol oqibatida 10 ml. aholi talofot ko'rdi. SHundan 500 ming kishi halok bo'ldi va bedarak yo'qoldi. SHunga o'xshash salbi oqibatlar 2002 yilda Rossiyada, 2003, 2004 yilda AQSHning bir qancha hududlarida kuzatilgan kuchli dovullar oqibatida ham ro'y bergan.

Kuchli shamol va insonlar hayotiga va iqtisodiyot tarmog'iga jiddiy zarar yetkazadigan ofatdir. Bu ofat uzoq davom etuvchi va buzish kuchiga ega. Bu ofatning tezligi 30-90 m/s ga yetadi. O'rta Osiyo mintaqalarida shamolning kuchi 40-60 m/s ga, O'zbekistonning Xovos, Bekobod tumanlarida esa 50-60 m/s tashkil etadi. Kuchli shamolni paydo bo'lishi, ya'ni atmosferada muvozanatning buzilishi natijasida havo oqimi juda katta tezlikda harakatlanib, ba'zi joylarda, u aylanma (voronka) harakatga kelib qoladi. Bunday ofat oqibatida odamlarning halok bo'lishi, inshootlarning buzilishi, ekinzorlarning payhon etilishi, elektr, aloqa tarmoqlarining izdan chiqishi va boshqa oqibatlarga olib keladi. SHuningdek, kuchli shamol esganda odamlar, uy hayvonlari yuradigan yo'llardan adashadilar, simyog'ochlar, daraxtlar ag'anaydi, uylarning tomlari buzilishi natijasida odamlar turli darajada jarohat oladilar. Masalan, 1997 yilda 2maydan 3mayga o'tar kechasi Qashqadaryo viloyatida kuchli shamol ta'sirida 156838 ga qisloq xo'jalik ekinzorlari, 12 km elektr tarmoqlarining shikastlanishiga, 250 turar joy uylarini, 79.5 km avtomobil yo`llarini suv bosishiga, 393 bosh yirik shoxli qoramolar, 7254 bosh qo'y, echkilar, 26 bosh ot va 13 ming 280 ta xonaki parrandalarning o'limiga olib kelganligi ma'lum.

Bu ofatdan saqlanishning yana bir omili - ofat haqida odamlarni o'z vaqtida ogoh qilishdir. Albatta, hozirgi paytda ob-havoni bir necha kun oldindan ayta oladigan zamonaviy uslublar yaratilganki, bularning bergan ma'lumotlari asosida nafaqat odamlarni, balki uy hayvonlarini, moddiy boyliklarni falokatdan asrash, buzilishini yoki yaroqsiz holga kelishini oldini olish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kuchli shamol ofati yuz berganda fuqaro muhofazasi tizimlari davlat organlari xodimlari boshchiligida qutqaruv va buzilgan

joylarda tiklash ishlarini bajaradi, jabr ko'rganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatadi.

Qurg'oqchilik ofati ham O'zbekistonga xos bo'lib, ilgari bunga deyarli e'tibor berilmagan. Lekin keyingi yillarda ekologiyaning haddan tashqari buzilishi, suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish va boshqa sabablar oqibatida bizning mintaqada ham bunday ofat aynan hozirgi paytda kuzatilmoqda.

Qurg'oqchilikda odamlarni o'limi, daraxtlar, ekinzorlarning qurishi, kuchli yong'inlarning chiqishi va turli xil kasalliklarning tarqalishiga imkoniyat yaratiladi. Takidlash joizki, O'zbekistonda qurg'oqchilik muammosi Orol dengizi bilan bog'liqdir.

Respublikamiz Prizidenti Islom Karimov «O'zbekiston XX asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida ta'kidlaganidek: «Yaqin-yaqinlargacha cho'lu-sahrolardan tortib olingan va sug'orilgan yangi yerlar haqida dabdaba bilan so'zlanardi. Ayni chog'da ana shu suv Orolda tortib olinganligi, «jonsizlantirib qo'yilganligi» xayolga kelmasdi, endilikda Orolbo'yi ekologik kulfat hududiga aylandi». Ma'lumki, Orol dengizi suvi yildan yilga kamayib, qurib bormoqda. Buning oqibatida dengizga yaqin bo'lgan joylarda dov-daraxtlar, ekinzorlar qurib, turli xil kasalliklar ko'payib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, Amudaryo suvining bor-yo'g'i 10 foiz miqdori Orol dengiziga quyilmoqda. Ammo hozirgi vaziyatda dengizga quyilayotgan suv hajmidan ko'ra atmosferaga bug'lanayotgan suv miqdori bir necha barobar ko'pdir. SHu sababdan, Orol dengizi suvining balandligi ancha pastga tushib ketgan. Endi Orolni ilgarigi holatiga qaytarish uchun unga taxminan 50 km^3 suv quyish kerak, bu degan so'z butun boshli Sirdaryo suvini to'liq quyish bilan barobardir.

<u>Qor ko'chkisining sabablari va oqibatlari</u>. Tog'larning tik yon-bag'irlaridan qor massasining pastlik tomon ag'darilib yoki sirpanib tushishiga tog' ko'chkisi deyiladi. Baland tog'larning ustiga ko'p qor yog'ib, uning qalinligi ortadi va o'z og'irlik kuchi ta'sirida zichlashib, qayta kristallanib, yonbag'irlikka pastlikka qarab osilib turadi va natijada uning qalinligi oshgan sari turg'unligi susayib boradi. Kuchli shamol ta'sirida mana shunday qor massasi harakatga kelib pastlik tomon siljiy boshlaydi yoki ag'darilib tushadi. Qor ko'chkisida suriluvchi massaning hajmi bir necha ming m^3 dan million m^3 gacha tashkil yetadi. Qor ko'chkilari quruq yoki ho'l bo'lishi mumkin. Agar qorning ustki qismi biroz muzlagan bo'lib, uning ustiga qalin qor yog'ib pastga qarab siljisa, quruq ko'chki hosil bo'ladi. Agar qor erigan suvga shimilib, uning tagi ho'llanishi natijasida pastga ag'darilishi ho'l ko'chki hosil bo'ladi. Ho'l ko'chkilar 20-50 km/soat tezlikda, quruq ko'chkilar esa 100 km/soat, ba'zan 300-400 km/soat tezlikda siljiydi. Qor ko'chkilari pastga qarab harakat qilganda, yon-atrofdagi qor massalarini hamda tog' jinslarini o'zi bilan surib ketadi. Mana shuning natijasida qor massasi kattalashib, hajmi bir necha mln. m^3 ga, tezligi esa soatiga 250-350 km ga yetib, o'z yo'lidagi o'rmonlarni sindirib ketadi, imorat va inshootlarni vayron qiladi, oqibatda juda katta moddiy zararni keltirib, insonlar o'limiga sabab bo'lishi mumkin.

Katta hajmli qor ko'chkilari asosan $25\text{-}60^0$ li qiyalikda kuzatiladi. Sirti tekis, o't bilan qoplangan qiyaliklar qor ko'chkisi xavfli bo'ladigan joylar hisoblanib, butali, toshli joylar qor ko'chkisiga to'sqinlik qiladi. SHuning uchun o'rmonzorlarda

qor ko’chkisi juda kam kuzatiladi. Masalan, 1990 yilning 13 iyulida Pomir tog’ining eng yuqori cho’qqisida yer silkinishi oqibatida katta hajmdagi qor massasi ko’chib, pastlikka 5300 m balandlikda joylashgan alpinistlar lageriga qulab tushgan va oqibatda 40 nafar odam qor ostida qolgan. 1999 yil 21 noyabrda ko’p miqdorda qor yog’ishi natijasida «Qamchiq» dovonining 157-167 km larida sodir bo’lgan. Bu ofat oqibatida 29 odam halok bo’ldi, 19 kishi turli jarohatlar olgan va 73 kishi sovuqda uzoq muddat qolib ketgan. Favqulodda vaziyatlar vazirining buyrug’iga ko’ra tezkor guruhlar hodisa yuz bergan joyga yetib kelib, tegishli chora-tadbirlar ko’rilgan. Ko’rilgan tadbirlar oqibatida 34 ta turli rusumdagi avtomobillar qor uyumi ostida qolganligi, 6 ta mashinani qor chuqurlik tomon surib tushirganligi aniqlanib zudlik bilan ular qutqarilgan. Ofat yuz bergan joyga Toshkent, Farg’ona, Andijon, Namangan viloyatlari avariya qutqaruv bo’limlari, «Najotkor» Respublika qidiruv-qutqaruv markazi, CHirchiq shahri «Haloskor» maxsus harbiylashtirilgan qidiruv qutqaruv qismi o’z texnik vositalari bilan jalb qilinganlar. Ular yo’llarni qor uyumlaridan tozalab, odamlarni xavfsiz joylarga olib chiqilib, jabr ko’rganlarga birinchi tibbiy yordam va boshqa ko’maklarni ko’rsatganlar. Umuman, bu ofat oqibatida 400 ta transpor vositasi va 1200 dan ziyod yo’lovchi qutqarib qolingan.

Hozirgi vaqtda tog’li hududlarda maqsadli qurilishlar (suv omborlari, geslar, dam olish uylari, davolanish maskanlari) qurilishi munosabati bilan qor ko’chkilari bo’lishi mumkin bo’lgan hududlar aniqlanib, o’rganilib tegishli tadbirlar qilingan. Qor ko’chkilarini oldini olish uchun muhandislik choralarini ko’rish (tog’ yon-bag’irlari tekislanib, supalar tashkil etish, daraxtzorlar barpo etish, harakatga keluvchi qor uyumlarini yo’qotish, to’siqlar o’rnatish va boshqa himoyalanuvchi vositalar qurish) talab etiladi.

Sel, uning xususiyatlari va talafotlari. Tog’ hududlarida kuchli yomg’irlarning yog’ishi, muzlik va qorlarning tez erishi natijasida hosil bo’lgan daryo toshqinlarini, tog’ yon bag’rilarida nuragan tog’ jinsi bo’laklarini suv oqimi bilan tekislikka tomon oqizib tushirilishi sel hodisasi deb yuritiladi. Sel oqimi massasining taxminan 50-60 foizi turli kattalikdagi tog’ jinsi bo’laklaridan, o’simlik va daraxt bo’laklaridan iborat bo’ladi. Sel oqimining davomiyligi ko’pincha, 0,5-2 soatdan 12 soatgacha, tezligi 5-8 m/s dan 12 m/s gacha etishi mumkin, sel massasining zichligi esa 1,2-1,9 t/m^3 ni tashkil etadi.

Sel oqimlarining tezligini 3 guruhga bo’lish mumkin: juda tez (100 ming m^3 dan ko’p sel massasining harakati, 6-10 yilda bir marta), o’rtacha (10 dan 100 ming m^3, 2-3 yilda bir marta) va kuchsiz (10 ming m^3 dan kam). Bunday fizik ko’rsatkichlarga ega oqim juda katta kuch bo’lib, iqtisodiyot tarmoqlariga sezirarli zarar keltiradi, oqim yo’lida uchragan suv inshootlarini, yo’llarni, qishloq va shaharlarni, bog’larni, ko’priklarni vayron qilib ketadi, ulkan maydonlarni loy, qum, tosh qatlamlari bilan ko’mib tashlaydi.

Sel - arabcha so’z bo’lib, tog’lik hududlardagi suv toshqini ma’nosini anglatadi.

Sel oqimlari o’zi bilan olib keladigan qattiq zarrachalarning o’lchamiga qarab uch guruhga bo’linadi:

- suv-toshli sellar;
- loyqa sellar;

- aralash sellar.

Er yuzasida yuz bergan ofatli sellarga misol qilib, 1934 yilining yangi yil kechasi AQSHning Los-Anjeles shahri atrofida kuzatilgan sel oqimini ko'rsatish mumkin. SHu kuni shaharga yaqin Kordelera tog'ida kuchli yomg'ir yog'ib, uning miqdori 538 mm.ni tashkil etgan. Yomg'ir tinishidan sal oldinroq tog'dan katta tezlikda suv toshqini pastga harakat qilgan. Bu suv toshqini 100 m masofagacha yoyilib unga yaqin bo'lgan ikki shahar - Lya Kreket va Montero shaharlariga katta talofat yetkazgan. Suv oqimi to'lqinining balandligi 6 m.gacha yetgach, o'z yo'lida 500 ta ko'prikni, bir qancha imoratlar va inshootlarni vayron qilgan, qanchadan-qancha odamlarni boshpanasiz qoldirgan.

Markaziy Osiyoda eng kuchli sel oqimlari Qozog'iston Respublikasining Olma-Ota shahridan o'tuvchi, shahar nomi bilan ataluvchi daryo vodiysida kuzatilgan. Masalan, 1921 yil 8 iyun kuni kechqurun yuz bergan sel oqimi natijasida shaharga olib kelingan tog' jinslari 100 mingta vagonga jo bo'lgan. Bu ofat natijasida 400 dan ortiq kishi halok bo'ldi. Sel oqimining vujudga kelishiga tog'lik hududlardagi qorlar va muzliklarning erishi, kuchli yomg'ir yog'ganligi sabab bo'lgan.

Olma-Ota shahri va uning atrofida juda ko'p talofotli sel oqimlari kuzatilgan. Ulardan yana biri Medeo sel to'g'oni qurilgandan keyin, 1973 yil 15 iyul kuni ro'y bergan. SHu kuni kuchli yomg'ir ta'sirida baland tog'likdagi tabiiy ko'l to'g'onlarining buzilishi natijasida kuchli sel oqimi hosil bo'lgan. Bu oqim taxminan 2 soat davom etib, uning sarfi 2000-3000 m^3/s ga etgan va Medeo to'g'oniga 400 000000 m^3 sel massasi olib kelib tashlangan. Ertasi kuni sel qayta takrorlanganda Medeo seli to'g'ondan oshib ketishiga atigi 6 m masofa qolgandi. Agar sel to'g'ondan oshib harakatlansa, Olma-Ota shahriga juda katta xavf tug'dirishi mumkin edi. SHuning uchun buni oldini olish maqsadida to'g'ondagi suv asta sekin chiqarib yuborilib, to'g'onning balandligi 150 m gacha ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Qashqadaryo, Surxandaryo va Farg`ona viloyatlarining tog`lik xududlari sel ofati bo'ladigan zonalar hisoblanadi. Oxirgi 100 yil ichida O'zbekiston Respublikasi hududida 2500 dan ortiq sel oqimlari kuzatilgan. Bulardan 1400 dan ortig'i loyqa, 350 dan ortig'i suv-toshlik, 650 dan ortig'i aralash sellardir. Respublikamizning Farg'ona vodiysida, Toshkent oldi hududlarida sel oqimlari tez-tez kuzatilib turiladi. Sel oqimlari Respublikamiz hududida bahor mavsumida va yozning birinchi oyida yuz beradi. Bunga sabab hududimiz joylashgan mintaqaning tabiiy sharoiti bo'lib, bahor oylaridagi kuchli jala, yomg'irlar, haroratning issiq kelishi, tog'larda muzlik va qorlarning tez erishi, daryo o'zani qiyaligining $3\text{-}5^0$ dan kattaligi, suv yig'ish maydonida zarrachalari bog'lanmagan bo'shoq tog' jinslarining mavjudligi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi. Masalan, 1998 yil yozda havoning birdan issib ketishi natijasida Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyati tog'laridagi qorlarni erishi tezlashib, buning oqibatida 1998 yilning 7 iyulidan 8 iyulga o'tar kechasi katta suv oqimi paydo bo'lgan. Bu oqim SHohimardon soyga qo'shilib, uning suv sig'imini 200 m^3/s ga ko'paytirib yuborgan va kuchli oqim natijasida 52 ta xo'jalik, 36 ta dam olish maskanlari zarar ko'rgan. 8-9 iyul kunlari odamlarni SHoximardon qishlog'idan ko'chirish ishlari boshlangan. Bu ofat oqibatida 104 ta odam jasadlari, 68 ta har-xil

hayvonlarning tanalari topilgan. Kuchli sel oqimi natijasida 15 km gaz o'tkazish, 14 km avto yo'l, 4 ta yirik avtomobil ko'prigi, 3 km suv o'tkazish tizimlari, 3 km elektr uzatish tarmoqlari yaroqsiz holatga kelgan, 200 dan ortiq savdo shaxobchalari butunlay vayron bo'lgan. Bu tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishga 2000 ga yaqin fuqarolar, 438 ta texnikalar jalb qilingan.

2002 yilning iyul oyida xuddi shu yerda Vodil qishlog'ida sel ofati ro'y berdi. Ofat o'chog'i Qirg'izistoning Qadamjoy tumanidan boshlangan kuchli jala yomg'iri oqibatida SHohimardonsoy daryosidagi suv sathi keskin ko'tarilib, Vodil qishlog'iga katta sel oqimi yopirilib keldi. Bu ofat Vodio qishlog'i hududlaridagi uylarga, yo'llarga, ekinzorlarga, kommunikatsiya tizimlariga katta zarar yetkazgan.

Sel oqimlarining oldini olish, ularga qarshi kurashish, sel bo'lishi mumkin bo'lgan maydonlarni aniqlash, ularni vujudga kelish sabablarini chuqur o'rganish, atrof-muhitni muhofaza qilishning asosini tashkil etib katta xalq xo'jalik ahamiyatiga ega. SHuning uchun sel hodisasini bartaraf qilish maqsadida olib boriladigan ishlar ilmiy, amaliy xulosalarga, chora-tadbirlarga asoslangan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Bular quyidagilardan iborat:

5. Sel bo'lishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarida doimiy kuzatish ishlarini olib borish. Bunda suv yig'ish maydonida bo'shoq tog' jinslari yig'ilishining oldini olish, oqar suvlar oqimiga to'sqinlik qiluvchi tabiiy va sun'iy to'siqlardan tozalash ishlari;
6. Sel oqimi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarini muhofaza qilish, ya'ni bu maydonlarda o'simlik dunyosini saqlash, daraxtlar va butalarni kesish, maydonlarda shudgorlash va sug'orish ishlarini olib borishni chegaralash;
7. O'rmon xo'jaliklarini rivojlantirish, ya'ni tog' yon-bag'rilarida butalar va daraxtlarning ekilishini yo'lga qo'yish talab etiladi, chunki bu o'simliklar tog' jinslari qatlamlarini mustahkam ushlab turadi, qor erishini sekinlashtiradi, yer yuzasini yuvilishdan saqlaydi;
8. Tog'li hududlardagi daryolarning o'zanida suv oqimini boshqaruvchi inshootlar qurish, tabiiy, sun'iy to'g'onlarni tartibga solish, temir yo'l, avtomobil yo'llari ostiga sel o'tkazuvchi katta diametrli quvurlar yotqizish ishlarini tashkil etish.

Sel oqimiga qarshi kurashish uslubini tanlash maqsadida maxsus muhandis-geologik qidiruv ishlari olib boriladi. Olingan natijalardan (har tomonlama tahlil qilish asosida) o'rganilayotgan hudud uchun xarita tuziladi.

Bu xaritada:

- sel kuzatiladigan;
- sel kuzatilishi mumkin bo'lgan;
- sel kuzatilmaydigan maydonlar ajratiladi.

Sel kuzatiladigan va kuzatilishi mumkin bo'lgan joylarning iqlim sharoitiga, geologik o'zgarishlarga, vujudga kelishi mumkin bo'lgan sel oqimi kuchiga qarab kurashish usullari tanlanadi, tadbir choralari belgilanadi. Tog'lik hududlarda shaxsiy imoratlarni qurish ishlari sel xavfi xaritasi bilan tanishgan holda, maxsus tashkilotlar ruxsati asosida olib borilishi kerak.

Xulosa qilib ta’kidlash mumkinki, yuqorida aytilgan hamma ofat turlari O’zbekistonga xos xarakterlidir. SHuning uchun shu o’lkada yashovchi har bir fuqaro yuqoridagi aytilgan tabiiy ofatlardan qo’rqmasdan, esankiramasdan, yuqori tashkilotlar, fuqarolar muhofazasi organlari tomonidan beriladigan har bir ko’rsatma, yo’riqnomalarga qat’iyan rioya etib, harakat qilish zarur. Bunda hech qanday o’zboshimchalik, odamlarni bezovtalantirish, xavfsirash, faqat o’z manfaatini ko’zlaydigan harakatlarni qilish ta’qiqlanadi. Qaerda yuqori intizom, chuqur ishlangan omillar bo’lsagina, o’sha yerda ofat oqibatlari tugatilib, hayot tezda o’z iziga tushib ketadi.

Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar

Texnogen tusdagidagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil turdagi vaziyatlar kiradi[1]:

1) Transportlardagi avariyalar va halokatlar - ekipaj a’zolari va yo’lovchilarning o’limiga, havo kemalarining to’liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan avia halokatlar;

Yong’inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibining buzilishiga sabab bo’lgan va temir yo’l xodimlarining halokat hududidagi temir yo’l platformalarida, vokzal binolarida va shahar imoratlarida bo’lgan odamlar o’limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta’sir ko’rsatuvchi zaharli modda (KTZM)lar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan temir yo’l transportidagi halokat va falokatlar;

Portlashlarga, yong’inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTZM larning zararli xossalari namoyon bo’lishiga va odamlar o’limi (jarohatlanishi, zaharlanishi)ga sabab bo’ladigan avtomobil transportining halokati va avariyalari, shu jumladan, yo’l-transport hodisalari;

Odamlarning o’limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poezdlari parchalanishiga olib kelgan metropoliten bekatlaridagi va tunellaridagi halokatlar, avariyalar, yong’inlar[5];

Gaz, neft mahsulotlarining otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab bo’ladigan magistral quvurlardagi avariyalar.

2) Kimyoviy xavfli obektlardagi avariyalar. Tevarak-atrof tabiiy muhitga ta’sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) odamlar, hayvonlar va o’simliklarning ko’plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo’lgan kimyoviy xavfli obektlardagi avariyalar, yong’in va portlashlar.

3) Yong’in-portlash xavfi mavjud bo’lgan obektlardagi avariyalar. Texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong’in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan obektlardagi odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishlariga va o’limiga, asosiy ishlab chiqarish zaxiralarining nobud bo’lishiga, favqulodda vaziyatlar hududlarida ishlab chiqarish maromining va odamlar xayot faolitining buzilishiga olib keladigan yong’inlar va portlashlar;

---

[5] Nigmatov I., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”. 2011, B. 94.

Odamlarning shikastlanishiga, zaharlanishiga va o'limiga olib keladigan hamda qidiruv-qutqarish ishlarini o'tkazishni, nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va vositalarini qo'llanishni talab qiluvchi ko'mir shaxtalaridagi va kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog'liq avariyalar, yong'inlar va jinslar qo'porilishi .

4) Energetika va kommunal tizimlardagi avariyalar. Sanoat va qishloq xo'jaligi mas'ul iste'molchilarining avariya tufayli energiya ta'minotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan GES, IES lardagi, tuman issiqlik markazlaridagi elektr tarmoqlaridagi bug'qozon qurilmalaridagi, kompressor, gaz taqsimlash shaxobchalaridagi va boshqa energiya ta'minoti obektlaridagi avariyalar, yong'inlar, aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatliliga xavf tug'ilishiga olib keladigan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal obektlardagi avariyalar;

Atmosfera, tuproq, yer osti va yer usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug'diruvchi darajada konsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo'ladigan gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariyalar.

5) Bino va inshootlarning birdan qulab tushishi bilan bog'liq avariyalar. Odamlar o'limi bilan bog'liq bo'lgan va zudlik bilan avariya qutqaruv ishlari o'tkazilishini hamda zarar ko'rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yo'nalishdagi obektlar, shuningdek, uy-joy sektori binolari konstruksiyalarining to'satdan buzilishi, yong'inlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.

6) Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariyalar. Sanitariya-himoya hududi tashqarisiga chiqarib tashlanishi natijasida paydo bo'lgan yuqori darajadagi radiaktivlik odamlarning yo'l qo'yiladigan ko'p miqdorda nurlanishini keltirib chiqargan texnologik jarayonda radiaktiv moddalardan foydaladigan obektlardagi avariyalar; radioaktiv materiallarni tashish vaqtidagi avariyalar; Radioizotop buyumlarning yo'qotilishi; biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarda biologik vositalarning atrof-muhitga chiqib ketishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq vaziyatlar.

7) Gidrotexnik inshootlardagi halokatlar va avariyalar.

Suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog'lardagi ko'llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan hududlarda odamlar o'limiga, sanoat va qishloq xo'jaligi obektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan va shoshilinch ko'chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari.

Gidrotexnik inshootlardagi avariyalar :

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda 53 ta suv ombori, daryo suvlarini iste'molchilarga taqsimlab beruvchi 150 dan ortiq suv to'g'onlari, 28122 km uzunlikdagi magistral kanallar va boshqa suv inshootlari mavjud. Bunday inshootlar har qanday favqulodda vaziyatlar yuz berganda (harbiy holatda ham,

tinchlik davrida ham) katta xavf tug'diradi. Gidrotexnik inshootlarning ayrimlari katta shaharlar va yirik aholi yashash joylari yaqinida joylashgan bo'lib, yuqori darajadagi xavfli obektlar hisoblanadi.

Gidrotexnik inshootlari ko'rsatkichlariga ko'ra har xil bo'ladi:

1) joylashgan o'rniga ko'ra:

a) yer usti inshootlari (daryo, ko'l, kanal va h.k);

b) yer osti inshootlari (o'tkazuvchi quvurlar, tunellar va h.k).

2) foydalanish maqsadiga ko'ra:

a) suv-energetika inshootlari;

b) suv ta'minoti inshootlari;

v) sug'orish inshootlari;

g) chiqindi suvlarni chiqarish inshootlari;

d) baliqchilik xo'jaligi inshootlari;

e) suv-sport inshootlari va h.k.

3) vazifasiga qarab:

a) GES lar va boshqa suv inshootlari (to'g'onlar va boshqalar);

b) suv o'tkazish inshootlari (kanallar, tunellar, quvur o'tkazgichlar);

v) tarnovlar, osma quvurlar va h.k.;

g) tashlandiq suv inshootlari (ortiqcha suvni chiqarish uchun);

d) suv oqimini tartiblash inshootlari (suv oqimini to'g'irlovchi, daryo va qirg'oq o'zanlarini yaxshilovchi va boshqalar);

e) baliq xo'jaligi inshootlari (baliq boqish uchun).

Gidrotexnik inshootlarning buzilishi juda katta hududlarni, jumladan: shaharlar va aholi yashash joylarni, sanoat tarmoqlarini va moddiy resurslarni suv ostida qolishiga olib kelishi mumkin, oqibatda juda katta ham ma'naviy, ham moddiy zararlarga sabab bo'ladi. Jumladan, avtomobil va temir yo'llar, elektr va aloqa uzatish simlarining zararlanishi, chorva mollari, qishloq xo'jalik ekinlari hosili, ekinzorlar va boshqalarning nobud bo'lishi, xom-ashyo, yoqilg'i, oziq-oqat mahsulotlari, o'g'itlar va boshqa resurslarni yaroqsiz holga kelishi; aholini xavfsiz joylarga vaqtincha evakuatsiya qilish xarajatlari; yerlar hosildor qatlamining yuvilib ketishi; suv bosgan hududlarda oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa kerakli mahsulotlarni olib kelish xarajatlari va boshqa salbiy talofatlarga olib keladi.

Gidrotexnik inshootlari quyidagi ta'sirlar natijasida buziladi:

1) tabiiy ofatlar oqibatida (zilzila, ko'chki, jala yomg'irlar yuvib ketish va boshqalar);

2) uskunalarning tabiiy yemirilishi va eskirishi;

3) inshootni loyihalash va qurishdagi xatoliklar;

4) suvlarni ishlatish qoidalarini buzilishi;

5) portlatishlar oqibatida (harbiy harakatlar, terrorchilik va boshqalar).

Gidrotexnik inshootlarining buzilishi muayyan oqibatlarga olib keladi, jumladan: Gidrotexnik inshooti o'z vazifasini bajarmay qo'yishi; suv to'lqinini insonlarga zarar yetkazishi va turli boshqa inshootlarni buzilishi; hududlarni suv bosib, mol-mulkka, yerlarga, moddiy resurslarga va boshqa obektlarga jiddiy moddiy zarar keltirishi va h.k. SHuning uchun bunday inshootlardan foydalanuvchi

tashkilotlar zimmasiga ularning xavfsizligini ta’minlash maqsadida “Fuqaro muhofazasi to’g’risida”gi qonunining 8,9-moddalarida ko’rsatib o’tilgan majburiyatlar yuklangan. Unga ko’ra bunday xavfli obektlarni loyihalash, qurish va ishlatish davomida xavfsizligini pasayish sabablarini tahlil etish, sodir bo’lishi mumkin bo’lgan avariyani oldini olish bo’yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va bajarish, shuningdek bunday masalalar bo’yicha favqulodda vaziyatlar tizimlari bilan hamkorlik qilish ta’kidlab o’tilgan. SHu o’rinda 2009 yil 17 avgustda Rossiyaning “Sayan- SHushensk” GESida bo’lgan avariya to’g`risidagi ma`lumotni ta’kidlab o’tish joiz. Ushbu gidroinshoot juda bahaybat qurilgan bo’lib uning uzunligi 1 km dan uzun, balandligi 250 m, gidrostatik vazni 22 mln tonnani tashkil etadi. GES ning avariyaga uchrashishining sababi, 1985 yilda gidroinshoatning eng baland ustuni darz ketib, Yenesey daryosining bu qirg`og`idan u qirg`og`igacha bo’lgan butun to’g`on tanasida yoriq p`aydo bo’lgan. Yoriqdan har soniyada 550 litr suv oqib o’ta boshlagan va natijada to’g`on betoninig yemirilishi boshlangan. Yemirilish jarayoni 8 yil mobaynida davom etgan va 1996 yildagina Fransuz mutaxassislari tomonidan yoriq polimer materiallari bilan yaxlitligi tiklangan. SHu davr mobaynida (8 yil) inshoatning ba`zi bir seksiyalari 97 mm dan - 107 mm gacha joyidan siljigan. Ammo, “Gidrotexnik inshootlar xavfsizligi” to’g`risidagi qonunga binoan, 108 mm ga siljish xavfsizlik nuqtai nazaridan “taxlikali” holat xisoblanadi. SHunday ayanchli holatga qaramasdan, gidroinshoatdan foydalanib kelishligi oqibatida to’g`onning ikkinchi agregat qisimlari sochilib qulab tushgan va yong`in paydo bo’lgan. Bu avariyaning talofati natijasida 100 dan ziyod fuqarolarning qurbon bo’lganligi va katta moddiy zarar ko’ringanligi ma’lum.

Gidrotexnik inshootlarda avariya bo’lmasligi uchun muhofaza qilinish chora-tadbirlarini amalga oshirish zarur, jumladan:

1) Gidrotexnik inshootlarini loyihalash va qurilishda xatoliklarga yo’l qo’ymaslik;
2) Gidrotexnik inshootlaridan to’g’ri foydalanish;
3) Gidrotexnik inshootlaridagi belgilangan tadbirlarni va ta’mirlash ishlarini o’z vaqtida bajarish;
4) Qirg’oq va inshoot tubini mustahkamlash ishlarini o’tkazish;
5) Suv chiqarishda va g’amlashda qonun qoidalarga rioya etish (vaqtga mos ravishda taqsimlanishi);
6) Qo’shimcha suv omborlari yordamida toshqin suvlar oqimini tartibga solib turish:
7) Gidrotexnik inshootlaridagi vaziyatni doimo kuzatib turish;
8) Gidrotexnik inshootlari hududini begona kishilar kirishidan ishonchli qo’riqlash;
9) Falokatlarga olib keladigan noqulay omillar bo’lish ehtimolini oldindan aytish taxminlarini tuzish uchun gidrotexnika sharoitni muntazam kuzatib borish.

Evropa davlatlarning har birida alohida ajratilgan dengiz xavfsizligi bilan shug’ullanadigan organlar bor, asosan Sohil Qo’riqchilari. Ularning tashkiliy tuzilishi quyida berilgan ma’lumotlarda ifodalangan[6].

[6] [2]Christe Pursiainen (ed.) assisted by Per Francke. Early Warning and Civil Protection. NORDREGIO 2008 (ing.tilidan tarj. 142 b.)

Ular odatda mahalliy bo’limlar bilan milliy hokimiyatlardir. Italiyaning Sohil Qo’riqchilari 3ta bosqichga bo’lingan. 1-bosqich, quyi bosqich bo’lib Sohil Qo’riqchilari Birlashmasi (SQB) deb ataladi, ular 30 mil radiusdagi hududni nazorat qiladilar; 2-bosqich o’rta daraja Dengiz Direktorati, ular o’z hududidagi SQBlar faoliyatini nazorat qiladi va eng yuqori bosqich Rim Markaziy Sohil Qo’riqchilari Direktorati.

Bundan tashqari yana ko’plab bo’linmalar jalb etilgan. Masalan Italyiada noqonuniy immigratsiyalarni (1990-yillarda Albaniya takrorlanib turgan holatlar) oldini oladigan dengiz patrullari Italian Guardia di Finanzaning rasmiy bo’linmasi hisoblanadi. Lekin mahalliy aholi uchun migrantlar xavfli bo’lishi ehtimoli borligi uchun avval Qidiruv va Qutqaruv(QVQ) organi tomonidan shaharga keluvchilar qabul qilinadi va Sohil Qo’riqchilari Bo’linmasi ularni nazorat qiladi. Bundan tashqari, qayiqlarda keluvchi noqonuniy immigrantlarni aniqlash faqatgina Kema Transport Hizmati tizimi orqali emas, Italiya markaziy razvedka tehnologik aslahalari tomonidan ham amalgam oshiriladi. Bular Home Affairs muvofiqlashtiradi.

Italiya Sohil Qo’riqchilarining muhim hamkorlaridan biri Fuqaro muhofazasi tashkiloti hisoblanadi. QVQ hizmatining faoliyatida ayniqsa cho’kkan odamlarni qidirishda Fuqaro muhofazasi organi o’z vertolyotlarini taklif qiladi. Vertalyotlar yuqoridan dengiz sathini qo’riqchi kemalarga nisbatan kengroq qamrab oladilar va dengizdagi tanani yaxshiroq ko’rish mumkin shuingdek bu vertalyotlarda infra nurlar bilan aniqlash sistemasi bo’lib bu vaziyatga oydinlik kiritishga yordam beradi.

Ba’zi joylarga Fuqaro muhofazasi tomonidan meteorologik monitoringi joylashtirilgan, ularning tizimi suv toshqinini aniqlashga qaratilgan. Bundan tashqari fuqaro muhofazasi bo’limining ifloslanishni aniqlaydigan suniy yo’ldosh tizimi ham rivojlangan.

Hududiy fuqaro muhofazasi bo’limlari dengizdagi turli nuqtalarga maxsus sensorlar o’rnatgan va ular kemalarning harakatini qadamma qadam kuzatadi, ulardan to’kilgan zararli moddalarni aniqlaydi. Venetsiyada Fuqaro muhofazasi bo’limlarini dengiz xavfsizligidagi rolini oshiriladi chunki Italiya qonunlarida dengiz atrof muhiti va xavfsizligi Sohil Qo’riqchilariga to’la yuklatilmagan.

Quyidagi jadval ma’lumotlarida ushbu tuzilmalrning faoliyatlari aks ettirilgan :

Italiya sohil qo’riqchilari :

Faoliyati

- Dengizdagi qutqaruv va qidiruv (QVQ)
- Navigatsiya xavfsizligi
- Dengiz ekologiyasi himoyasi
- Dengizdagi baliq ovlash nazorati
- Davlat mamuriyatining uncha muhim bo’lmagan funksiyalari, savdo va baliq ovlash kemalarini ro’yhatga olish, dengizda sodir etilgan jinoyatlarga jarima solish

- Dengiz Politsiyasi

Tashkilotlar

- 14 Dengiz Hududidagi Operatsiyalar Nazoratiga boshchilik qiluvchi Dengiz Boshqarmasi
- 52 Capitanerie di Porto – 45 dengiz tuman offislari – 136 mahalliy dengiz offislari – 45 sohil delegatsiyasi
- Capitanerie di Portoning dengiz-atrof muhit diviziyasi (Atrof muhitni muhofaza qilish Vazirligi)
- Bosh ovchilik boshqarmasi (qishloq xo'jalik Vazirligi)
- 3 suvosti opertorlar guruhi – 3 havo nazorati seksiyasi – 1 vertolyotchilar seksiyasi

Texnik aslahalar

- Bari COSPAS/SARSAT sputnik stansiyasi (Fuqaro Muhofazasi Bo'limi tomonidan ixtisoslashtirilgan)
- VS xizmati – AIS ma'lumotlar bazasi – 300 dengiz vositalari (patrol kemalari, qo'riqlovchi kemalar)
- 9ta vertolyot va 7ta samolyot

Hududiy fuqaro muhofazasi bo'limlari dengizdagi turli nuqtalarga maxsus sensorlar o'rnatgan va ular kemalarning harakatini qadamma qadam kuzatadi, ulardan to'kilgan zararli moddalarni aniqlaydi. Venetsiyada Fuqaro muhofazasi bo'limlarini dengiz xavfsizligidagi rolini oshiriladi chunki Italiya qonunlarida dengiz atrof muhiti va xavfsizligi Sohil Qo'riqchilariga to'la yuklatilmagan.

Dengizning qum va kichik qoyalar bilan chegaralangan hududi ichki hudud hisoblanadi va ijtimoiy guruhlar unga mas'uldirlar. Bu shuni anglatadiki bu hududda yong'in holatlarida yoki kemalar botib qolganda ularni bartaraf etadilar. Bunda mahalliy bo'limlar fuqaro muhofaza bo'limlariga tayanadilar. Agar ofatlar kattaroq bo'lsa yuqori darajali Fuqaro muhofazasi bo'limlari qarshilik ko'rsatadilar, Sohil Qo'riqchilari kemalari qumli va suv osti qoyalari ko'p hududga kirib kelishi qiyin.

Sloveniyaning dengiz xavfsizligi tashkiloti ohirgi yillarda qayta isloh qilindi. Sloveniyada Sohil Qo'riqchilari harbiy bo'linma emas, Ljubljanada dengiz politsiasi vazifasini o'tovchi qo'mita Sloveniya Dengiz Ma'muriyati bor. Qo'mitalar dengiz flotiga tegishli bo'lishi kerakmi yo'qmi mavzusidagi muzokaralardan so'ng, qo'mitalar milliy parlament tasarrufiga o'tkazildi. Ularning tashkil etilganiga atigi ikki yil bo'ldi.

Croatida Dengiz Qidiruvi Kordinatsion Markazi muhim xavfsizlik tashkiloti hisoblanadi. Mamlakat hududida ikki turdagi tizim mavjud bo'lib, birinchisi dengizdagi Qutqaruv Va Qidiruv bilan shug'ullanuvchi Sohil Qo'riqchilari, ikkinchisi kontrabanda bilan kurashuvchi va antiterrorizm organi bo'lgan Dengiz Floti.

Favqulodda vaziyatlar va ogohlantirish tashkiliy tuzilmalari signalizatsiya tizimiga o'xshaydi. Lekin u hudud bo'yicha hatto mamlakat

bo’yicha ham birlashtirilmagan. Yevropa favqulodda vaziyatlar qo’ng’irog’i dengiz xavfsizligi uchun amal qilmaydi. Italiyada agar kemalarda yong’in bo’lsa qo’ng’iroq uchun maxsus raqam bu 115. Xorvatiyada qidiruv va qutqaruv hizmati 9155 bepul raqamiga qo’ng’iroq orqalichaqiriladi. Bu esa ba’zan adashmovchiliklarni keltirib chiqaradi, odamlar Sohil Qo’riqchilariga deb fuqaro muhofazasining 112 raqamiga qo’ng’iroq qilib yuborishadi.

CHuqur olib borilgan analizlar shuni ko’rsatadiki, ohirgi vaqtlarda Adriatika dengizida inson hayotiga zarar etkazadigan voqealar bo’lmagan. 1994-yilda Boltiq dengizida MV estoniya kemasida 852 kishi halokat tufayli vafot etgan edi, bu kabi hodisalar Adriatikada kuzatilmagan. Bahsiz hodisalar tabiiy muhitga zarar etkazishi xavfsizlik masalalaridan biridir. 5-rasmda Rempek institute tomonidan o’rganilgan, yirik zararli moddalarning asoratlari tasvirlangan. 4-jadva unga tegishli tushuntirishlarni o’z ichiga olgadi.

SHunday qilib, shimoliy Adriatikada ham ko’ngilsiz holatlar va inson o’limi bilan bog’liq favqulodda holatlar kuzatilmagan. Eng oxirgi voqea 1997-yilda Adriatika va Ionian dengizlarini birlashtiruvchi Otronto kanalida yuz bergan. Albaniyalik noqonuniy immigrantlarning juda nobop kemasi cho’kib ketgan. Jabrdiydalarning soni aniqlanmagan. Kema esa haligacha Mediterraneanning tubida.

Bo’ronlar natijasida baliqchilarning o’lishi juda kichik holat, lekin oxirgi o’n yillik ichida baliqchilarning otib tashlanishi yoki o’ldirilishi bu Italiya baliq ovchilari uchun juda yomon hodisa edi. Oxirgi yillarda Yugaslaviya Sohil Qo’riqchilari baliq uchun chegarani buzib o’tganlarni otib tashlagan. Bu Italyanlarning hotirasida hali ham saqlanib qolgan. Bunday holatlar tabiiy ravishda chegara hamkorligining roli va xavfsizlik modellarini rivojlantirishni ko’rsatadi. Bu erda MV estoniya kemasi yo’lovchilarining tragediyasi bilan solishtiradigan yoki 2002 yil shimoliy g’arbiy Ispaniya sohillarida g’arq bo’lgan MV Prestige neft tankeri kabi falokatlar bilan solishtiriladigan hodisalar ro’y bermagan. Lekin 1998-yil Bombey(Hindiston)dan kelayotgan neft mahsulotlari yuklangan tanker(suyuqlik tashuvchi kema) yona boshlagan. O’t o’chirish guruhi kun bo’yi o’chirishga harakat qilishgan.

Barcha positive holatlar inson harakati tufayli emas balki tabiatning iltifot etgan sharoitlar (sayoz suv, to’fonlarning yo’qligi va boshqalar) sabab Adriatika dengizi boshqa dengizlarga qaraganda sayyohlar bilan gavjum.

Gidrotexnik inshootlaridagi avariyalarda fuqarolarning xatti-harakatlari :

Gidrotexnik inshootlaridagi avariyada fuqarolar quyidagi qoidalarni bajarishlari lozim:

1) Suv ostida qoladigan hududdagi fuqarolarni, suv bosishi mumkin bo’lgan hududlarni va suv bosish vaqtini, shuningdek, shikastlovchi omillarini (suv urib ketadigan to’lqin balandligi va tezligini va boshqalarni) yaxshi bilishlari kerak;

2) Aholining hammasi suv bosish xavfi tug’ilgandagi va suv bosgandagi xatti-harakatlarga tayyorlangan bo’lishlari kerak;

3) Aholining hammasi suv bosish ehtimoli borligi, suv bosish vaqti, uning chegaralari haqidagi va evakuatsiya tartibi haqidagi tavsiyalarni vaqtida olishi kerak;

4) Xavf haqidagi xabar (ogohlantirish) olinganda quyidagi ishlar qilinishi kerak:

- darhol hujjatlarni, qimmatbaho va kerakli buyumlarni, 2-3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suvini o'zi bilan olish;
- uylarni ehtiyot holatda (gaz, suv, elektr ta'minotini o'chirishi) qoldirishi kerak;
- chorva mollarini xavfsiz joylarga o'tkazib qo'yish;

5) Agar to'satdan halokatli suv bossa:
- suvning to'lqin zarbidan saqlanish uchun mustahkam qurilgan inshootlarning yuqori qismlariga chiqiladi;
- oldindan tayyorlangan qutqaruv vositasini (4-6 ta bir litrli plastmassa idishlari osilgan najot kamarini) taqib olinadi;
- agar odam imorat ichida (yuqori qismlarida) qolgan bo'lsa, qaerdaligini belgilab, qutqaruvchilar yordamga kelishi uchun oq bayroq belgilari osib qo'yiladi.

Yong'in xavfi bo'lgan obektlardagi avariyalar :

Yong'in - bu nazorat qilib bo'lmaydigan hodisa bo'lib, bebaho moddiy va madaniy boyliklarni bir daqiqada yo'q qiluvchi, atrof-muhitni izdan chiqaruvchi ofat, ayniqsa u fuqarolarning joniga kulfat keltiruvchi favquloddagi vaziyatdir.

Yong'inning kelib chiqishi uch omilning bir vaqtda, bir joyda duch kelishining oqibatidir, ya'ni:
- yonuvchan moddani (neft, qog'oz, yog'och va boshqalar);
- havo harorati (issiqlik);
- uchqun-alanga (gugurt, uchqun, elektr simining qisqa tutashuvi).

Xalq xo'jaligida yong'in chiqishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

a) chekish paytida yong'ingarchilikka ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish, yonuvchan moddalarni yoqish, gugurt bilan yoritish va boshqalar. Bunday yong'in umumiy yong'inning 26 foizini tashkil qiladi;

b) bolalarning o't bilan o'ynashi - 14 %;

v) elektr jihozlarini boshqarish qoidalarini buzish natijasida - 13,5 %;

g) pechka va tutun quvurlarining noto'g'ri o'rnatilishi oqibatida - 8,5 %;

d) isitkich jihozlaridan noto'g'ri foydalanishda - 8,3 %;

e) elektr moslamalarini montaj qilish qoidalarining buzilishi - 5 %;

y) payvandlash ishlarini bajarishda yong'in xavfsizlik qoidalarining buzilishi-2,3 %;

j) texnologik jihozlarni boshqarish qoidalarining buzilishi - 1,2 % ni tashkil etadi.

Demak, yong'inning birlamchi sabablari kichik yong'in manbalari turtkilari bo'lishi mumkin - bular sigaret qoldiqlari, uchqunlar va o'chirilmagan gugurt qoldiqlari; yuqori haroratli issiqlik manbalari - alanga, pechka va tutun chiqadigan quvurlarning qizigan konstruksiyalari va boshqalar bo'lishi mumkin.Yong'in natijasida quyidagi xavfli omillar paydo bo'ladi: ochiq alanga va uchqunlar; havo va predmetlardagi yuqori harorat; yong'indan paydo bo'lgan o'tkir zararli mahsulotlar; tutun; kislorod miqdorining pasayishi, bino va inshootlarning yemirilishi va buzilishi; portlashlar sodir bo'lishi; yong'in bo'lgan joylarda turli kimyoviy va zaharli moddalarning atrof-muhitga tarqalishi, yong'inni suv bilan o'chirilganda turli kimyoviy moddalar qorishmasi natijasida portlashlar yuz berishi va boshqalar.

Ma'lumotlarga ko'ra, yong'indan nobud bo'lganlarning 60 - 80 %i nafas olish yo'llarining zaharlanishi yoki toza havoning yetishmasligi oqibatida halok bo'lar ekan.

Yonishda yonuvchi mahsulotlar bilan oksidlovchilar orasida o’zaro ta’sir natijasida bo’ladigan murakkab fizikaviy-kimyoviy jarayondir, bunda issiqlik, zaxarli gazlar va yorug’lik nurlarining ajralishi kuzatiladi. Demak, yonish jarayonining paydo bo’lishi uchun yonuvchi material, yondiruvchi manba va oksidlovchilar bo’lishi zarurdir.

Ishlab chiqarishdagi avariyalar:

Avariya deganda bajariladigan ishni birdan to’xtab qolishi yoki sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning izdan chiqishi, transportlarda va boshqa obektlarda moddiy boyliklarning buzilishi, yo’q bo’lishi tushuniladi.

Avariyalarning kelib chiqishiga quyidagi omillar sababchi bo’lishi mumkin:

- tabiiy ofat tufayli;
- inshootlarni loyihalashda yoki uni qurishda qo’yiladigan xatoliklar tufayli;
- ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi natijasida;
- transport, mexanizm, jihozlardan noto’g’ri foydalanganda;
- agressiv moddalarni (portlovchi, tez alangalanuvchi zaharli moddalarni) noto’g’ri saqlanishi va uni ishlatilish qoidalarining buzilishi oqibatida;
- texnika xavfsizlik qoidalarining buzilishi va boshqalar.

Mana shunday xatoliklar tufayli ishlab chiqarishlarda katta avariyalar sodir bo’ladiki, oqibatda ko’pdan-ko’p insonlar jabrlanadi va moddiy boyliklar yo’q bo’lib ketadi. Ko’pincha kimyo, neftni qayta ishlovchi sanoat, qog’oz ishlab chiqarish sanoati, go’sht-sut, oziq-ovqat, metallurgiya, konchilik va boshqa sanoat korxonalarida avariyalar tez-tez uchraydi. Ayniqsa, KTZM ta’sirida bo’ladigan avariyalar: kimyo, neftni qayta ishlovchi, qog’oz-sellyuloza go’sht-sut, oziq-ovqat sanoati, suv tozalash inshootlarida hamda temir yo’llarda KTZMni tashishda ko’p uchraydi. Masalan, 1990 yilda Qoraqalpog’iston Respublikasining «Yoshlik» stansiyasidan o’tib borayotgan kuchli ta’sir etuvchi zaharli modda (95 tonna) yuklangan sisterna nazorat qilinmasligi oqibatida yo’l-yo’lakay tomchilab borgan. Bu holatni o’z vaqtida sezgan yoshlik stansiyasi xodimlari darhol tegishli choralarni ko’rib, baxtsizlikni oldi olingan. Agarda sisternadagi suyuqlik shu yerga to’liq oqib ketganda nafaqat stansiyadagi va uning atrofidagi aholini, balki 13 km olisda yashovsi aholini ham zaharlagan bo’lardi. SHunga o’xshash ko’plab misollarni keltirish mumkin. Inson uchun xavfli bo’lgan zaharli moddalar bilan ishlaydigan korxonalarning ham soni O’zbekistonda yildan-yilga ko’payib bormoqda. Bular «O’zbekkimyosanoat» uyushmasiga qarashli korxonalar bo’lib, ular Toshkent, Samarqand, Farg’ona, Olmaliq, CHirchiq, Navoiy, Angren va boshqa shaharlarda (SO_2, NH_3, Cl_2, HNO_3, H_2SO_4, CH_3COOH va boshqa zaharli moddalar) joylashgan. Bu korxonadan tashqari kimyoviy, zaharli moddalar bilan ishlaydigan boshqa korxonalar ham mavjud. Hozirgi kunda Respublikadagi kopgina ishlab chiqarish korxonalarida inson uchun zaharli moddalar ishlatiladi. Mabodo muayyan sabablarga ko’ra, bunday korxonalarda avariya sodir bo’lib, kimyoviy moddalar tashqariga chiqib ketsa, xududning zaxarlanish chuqurligi 45-50 km ni (450 km^2 dan ortiq maydonni) tashkil etishi mumkin. SHuning uchun Respublikamiz aholisi, ishlab chiqarish korxonalarining ishchi-xizmatchilari favqulodda yuz beradigan vaziyatlarda to’g’ri ish tutishlari, fuqarolar muhofazasi tomonidan beriladigan har

bir yo’riqnoma, vazifalarni to’g’ri bajarishlari va saqlanish qoidalariga rioya etishlari zarur. Buning uchun har bir korxonada, ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalaridagi fuqarolar muhofazasi xodimlari avariya va halokatlarni, uning oqibatlarini yo’qotish chora-tadbirlarini hamda ofat ro’y bergan joyda jabrlanganlarga yordam ko’rsatish qoidalarini tushuntirishlari lozim.

Bu borada ayniqsa metallurgiya, kimyo, biotexnologiya, rezina-texnika, neftni qayta ishlovchi va boshqa sanoat tarmoqlarining salbiy ta’siri juda kattadir. Respublikamizdagi sanoati rivojlangan ayrim shaharlarda, jumladan, Samarqand, Farg’ona, Andijon, Qo’qon, Angren, Olmaliq, CHirchiq, Navoiy va boshqa shaharlarda havoning ifloslanish darajasi me’yoridan 1,5-2, hatto ayrim joylarda 3-6 marta ortiq. Markaziy Osiyoda havoni eng ko’p ifloslantiruvchi Tojikistonning Tursunzoda shahridagi aluminiy zavodi 1987 yilda havoga belgilangan miqdordan deyarli ikki barobar ortiq zaharli modda chiqarib kelgan. SHamolning yo’nalishiga ko’ra, ftor birikmasining 80 foizi Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Oltinsoy tumanlariga tushadi.

Avariya va falokatlar turli xil sharoitlarda, masalan, temir yo’l, avtomobil, suv yo’li, aviatsiya transportlarida sodir bo’lishi mumkin. Avtomobil transportida bo’ladigan avariyalar ham katta fojiali hodisalarni keltirib chiqaradi. Bunday ofatlar yuz berishining bir qancha sabablari bor:

- Yo’l qoidalarining buzilishi;
- Avtomobilni texnik nosozligi;
- Tezlikning haddan tashqari yuqori bo’lishi;
- Avtomobil haydovchining etarli malakaga ega bo’lmasligi.

Aviatsiyada avariya - aviatexnikani biror elementlarning ishlamay qolishi, bevaqt ob-havoni o’zgarishi, uchish-qo’nish qoidalarini noto’g’ri bajarilishi oqibatida sodir etiladi.

Ba’zan katta avariyalar ikkita aviatexnikaning bir-biri bilan to’qnashishi yoki yerga, qushlarga urilishi oqibatida ham sodir bo’ladi. Aviatsiyada avariyalar ko’pchilik hollarda fojialar bilan yakunlanadi.

Aviatsiyadagi avariyalarda qutqarish va tuzatish ishlarini 2 guruhga bo’lish mumkin:

1) boshqarayotgan ekipaj xodimlari tomonidan kamchilikni tugatish ishlari;

2) yerdagi xizmatchilarning olib boradigan ishlari.

Bu xildagi avariyalar yer yuzida tez-tez uchrab turadi. Jumladan, O’zbekiston aviatsiyasida ham bunday hodisa ro’y bergan va mudhish halokat bilan yakunlangan holatlar mavjud. Masalan, 1979 yil avgust oyida «Paxtakor» futbol jamoasi a’zolari tushgan samolyot Minskka ketayotganda osmonda boshqa samolyot bilan to’qnashib, fojia bilan yakunlangan edi. Buni albatta, Respublikada yashovchi har bir fuqaro yaxshi biladi. 1999 yilda Toshkent-To’rtko’l yo’nalishidagi YaK-40 samalyotining To’rtko’l aerodromiga qo’nish paytida samolyot shassisining ishlamay qolishi oqibatida favqulodda vaziyat yuzaga kelib, 2 kishi qurbon bo’lgan va 8 kishi turli darajadagi tan jarohatini olgan.

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar

Atmosfera - Yerning gazsimon qobig’i bo’lib, hayot uchun zarur bo’lgan birlikdir. Atmosfera yer po’stiga fizikaviy, kimyoviy, biologik ta’sir etadi va yer yuzasida issiqlik va namlikni tartibga solib turadi. Atmosfera yerning himoya

qobig’idir, chunki u tirik organizmlarni turli ultrabinafsha nurlar va kosmosdan keladigan meteoritlarning zararli ta’sirlaridan (shu jumladan quyosh radiatsiyasidan ham) himoya qiladi. Agar atmosfera bo’lmaganda edi, Yer yuzasida ham Oydagi kabi hayot bo’lmas edi. CHunki, yer yuzasi kunduzi 100 gradus qizib, kechasi esa -100 gradus sovugan bo’lardi.

Atmosfera havosi har doim aralashib turishi uchun, uning kimyoviy tarkibi sayyoramizning hamma joyida asosan bir xildir. Atmosfera havosining tarkibi asosan: azot (78%); kislorod (21%) dan va qolgan 1% esa boshqa gazlardan; argon (0,93%); karbonat angidrid (0,03%) vodorod, geliy, kripton, ksenon va boshqa gazlardan tashkil topgan.

Aynan havo tarkibini biri ko’payib, ikkinchisi kamayib ketishi tirik mavjudod hayotini muvozanatdan chiqarib yuboradi va halokatga olib kelishi mumkin.

Atmosfera gazsimon moddalardan tashqari shakli, kattaligi, kimyoviy tarkibi va fizik xossalariga ko’ra bir-biridan farq qiluvchi mayda zarrachalar - tutun, chang, to’zon va boshqalar mavjud. Atmosfera havosining ifloslanishi oqibatida nafaqat inson hayotini, balki tevarak atrofdagi muhitni ham xavf ostiga qo’yadi. Ilgarilari atmosfera havosi sanoat obektlari ustidagina ifloslangan bo’lsa, hozirda esa sanoat, transport, energetika va boshqa obektlardan chiqqan chiqindilar katta-katta hududlarga tarqalib, havoning keng miqyosda ifloslanishiga sabab bo’lmoqda.

Atmosfera havosi 2 xil yo’nalishda ifloslanishi mumkin .

1.Tabiiy ifloslanish. Bunda kosmik changlar vulqonlarning otilishidan vujudga keladigan moddalar, tog’ jinslari va tuproqning qulashidan vujudga keladigan moddalar; o’simlik va hayvonlarning qoldiqlari; o’rmon va dashtlardagi yong’indan (tabiiy va sun’iy yong’in oqibatidan); dengiz suvlarining qurishidan havoga chiqqan tuz zarrachalari (qurg’oqchilik ofati oqibatida) oqibatida ifloslanish bo’ladi. Agar bunda yuqoridagi moddalar me’yoridan ortiq bo’lsa, katta halokatlarga olib kelishi mumkin. Ammo atmosfera tarkibidagi tabiiy changlar yer yuzasida bo’ladigan jarayonlar uchun katta ahamiyatga ega. CHunki changlar suv bug’lari uchun kondensatsiya yadrosi hisoblanib, yog’ingarchilikni vujudga keltiradi, quyoshdan kelayotgan radiatsiyani yutib, organizmni ortiqcha nurlanishidan saqlaydi. Bundan ko’rinadiki, havodagi tabiiy changlar ma’lum darajada atmosfera tarkibining zaruriy elementi hisoblanadi va ular hodisa va jarayonlarning borishini tartibga solib turadi.

Bunda kosmik changlar vulqonlarning otilishidan vujudga keladigan moddalar, tog’ jinslari va tuproqning qulashidan vujudga keladigan moddalar; o’simlik va hayvonlarning qoldiqlari; o’rmon va dashtlardagi yong’indan (tabiiy va sun’iy

Yana o’simlik dunyosining yonishi, jumladan dov-daraxtlar barglarining yonishi oqibatida atmosfera havosiga juda zararli moddalar (konserogen moddalar) tarqalib, tirik mavjudotlarning hayot faoliyatiga xavf soladi.

2. Sun’iy ifloslanish.

Sun’iy ifloslanish 3 xil ko’rinishda kuzatiladi.

a) Sanoat tarmoqlari, transport va turar joylarni isitishda foydalaniladigan

yoqilg’ilar orqali ifloslanish.

Keyingi paytlarda atmosferaning sun’iy ifloslanishida avtomobil transporti birinchi o’rinni (40%) egallaydi, energetika sanoati (20%), sanoat ishlab chiqarish (14%) va maishiy-kommunal, qishloq xo’jaligida (26%) ni tashkil qiladi

Ma’lumotlarga ko’ra yer yuzida bir yilda havoga chiqarilgan oltingugurt gazi, is gazi, kul va karbonat angidridining miqdori taxminan 500 mln tonnaga yetmoqda.

BMT ma’lumotlariga ko’ra, insoniyat paydo bo’lganidan to shu vaqtgacha 80-85 mlrd tonna turli yoqilg’ilar yoqilgan, shuning yarmi keyingi 25 yilga to’g’ri keladi. Faqat ko’mirning o’zi yiliga 2 mlrd tonna yoqiladi. Yoqilg’ilarning yoqishga yiliga 10-15 mlrd tonna kislorod sarflanadi. Metall oksidlanishi uchun yiliga 100 mln tonna kislorod sarflanadi.

YuNESKOning ma’lumoticha, turli mamlakatlarda ishlab turgan 260 mln.dan ortiq avtomashinalar yiliga 80 mln kishi iste’mol qiladigan kislorodni sarflaydi, yoki 1000 km yurgan yengil avtomobil bir kishining bir yillik kislorodini yutadi.

1-chizma



Yoqilg’ilar yonganda atmosferaga zararli moddalar chiqib, uni ifloslantiradi. Jumladan 1 tonna benzin yonganda 60 kg is gazi havoga ko’tarilib aralashadi. Neft yonganda sulfat angidrid, ko’mir yonganda karbonat angidrid bilan kul havoni

buzadi.

b) Sanoat chiqindilari orqali havoni ifloslanishi kimyo, neftni qayta ishlash, sement ishlab chiqarish, radiaktiv moddalar ishlatiladigan tarmoqlarda, hamda yadroviy, neytronli aslahalarni qo'llanishi oqibatida, KTZM lar, radiaktiv changlar, sement changlari atmosfera havosini ifloslantiradi.

v) Sanoat chiqindilari va maishiy-xo'jalik chiqindilarini yoqish orqali ifloslanishi.

Havo tarkibidagi karbonat angidridi, is gazi, azot, oltin gugurt oksidlari, xlor, fosfor, fenol, ftor va boshqalarni ko'p miqdorda bo'lishi inson salomatligiga ta'sir qiladi, natijada astma, rak, sil kasalliklari kelib chiqadi.

Ayniqsa atmosfera havosi tarkibida karbonat angidridning miqdori ortishi natijasida quyoshdan keladigan qisqa to'lqinli nurlarni yer yuziga o'tishiga to'sqinlik qiladi, natijada sayyoramiz yuzasidagi havoning o'rtacha harorati ortib boradi.

Agar atmosfera havosining ifloslanishi oldi olinmasa, olimlarning bergan ma'lumotiga ko'ra 2050 yilda sayyoramiz harorati 1,5-4,5^{0}C gacha isishi mumkin. Bu esa muzliklarni erishiga sabab bo'lib quriqlikning ma'lum qismini suv bosib, favqulodda vaziyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Atmosfera havosini ifloslanishi nafaqat insoniyatga balki suv basseynlariga, o'simliklarga hayvonot dunyosiga ham katta salbiy zarar ko'rsatadi.

Atmosfera havosini ifloslanishining iqtisodiy zararlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1) atmosferaning ifloslanishi tufayli materiallarning yemirilishi va korroziyaga uchrashi (bino, inshootlar, metallar yemiriladi, kiyim-kechak, gazmollarning bo'yoqlari buziladi, tarixiy yodgorliklar qulaydi);

2) atmosferaning ifloslanishi korxona asbob-uskunalarining foydalanish muddatini o'rta hisobda 1,5 barobarga kamaytiradi;

3) atmosferani ifloslanishi oqibatida insonlar juda ko'p og'ir kasalliklarga uchramoqda;

4) havoni ifloslanishidan qishloq xo'jalik ekinlari ham zarar ko'rmoqda;

5) havoning ifloslanishidan (achchiq tutunlar) avtomobillarning yurishi, samolyotlarning uchishi qiyinlashib juda ko'p avariyalar bo'ladi.

6) atmosferaning ifloslanishidan yarim o'tkazgichlar, aniq jihozlar, asboblar, vaksina va antibiotiklar ishlab chiqarishni qiyinlashtirib yubormoqda;

7) sanoat tarmoqlaridan atmosferaga qimmatbaho xom ashyolar (sement changlari, rux, qo'rg'oshin, qalay, ftor va boshqalar) atmosferaga chiqarib yuborilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni Muhofaza qilish davlat Qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra Respublika havosiga qo'shilayotgan turli iflos moddalarning ko'p qismi quyidagi korxonalar zimmasiga tushmoqda: "O'zneftgaz", O'zenergetika vazirligi, Olmaliq tog' kon metallurgiya kombinati, Kommunal xizmat vazirligi, O'zkimyosanoat Assotsiatsiyasi va Qizilqum oltin konserni. SHaharlar bo'yicha havoni eng ko'p ifloslovchi shaharlarga: Angren, Olmaliq, Qarshi, Farg'ona, Navoiy, CHirchiqlar kiradi.

Atmosfera havosini ifloslanishidan muhofaza qilish. Ma'lumki, atmosfera

o’z-o’zini tabiiy tozalash jarayoniga ega. Ulardagi yog’ingarchiliklar iflos moddalarni, havoni yuvadi, shamollar havodagi ifloslovchi moddalarni uchirib, bir joyda to’planishiga yo’l qo’ymaydi, tuproqqa yoki suv yuzasiga tushgan iflos moddalar reaksiyaga kirishib oqibatda neytrallashib qoladi. Lekin sanoat, transport rivojlanishi, qishloq xo’jaligi mashinalashgan va kimyolashtirilgan hozirgi sharoitda havoning sun’iy ifloslanishi ortib bormoqda. SHuning uchun atmosferaning sun’iy ifloslanishidan tozalash yo’llarini joriy etish, uning oldini olish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Havo atmosferasining ifloslanishiga qarshi chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

1)Tutun chiquvchi quvurlarni balandroq qurish; buning natijasida iflos chang va gazlar keng maydonga yoyilib, uning konsentratsiyasi kamayadi.

Masalan: balandligi 100 m bo’lgan quvurdan chiqayotgan chang va gazlar radiusi 20 km bo’lgan mintaqaga tarqalsa, balandligi 250 m bo’lgan quvurdan chiqqan chang, gazlar radiusi 75 km mintaqaga tarqaladi.

2) Pechlarda ko’mir, torf, qoramoy yoqishning o’rniga, elektr energiyadan, gazlardan foydalanilsa - atmosferaga chang, qurum, tutun va zaharli gazlar kam chiqariladi. Olimlarning ma’lumotiga ko’ra, ko’mir bilan ishlovchi korxonalar gazga o’tkazilsa, havoga chiqariladigan oltingugurt gazi miqdori 10.000 marta, uglerod oksidi miqdori 2000 marta, azot oksidlari miqdori 5 marta kamayadi.

3) Sanoat korxonalarida zararli moddalarni tozalovchi uskunalar qurish.

4) Sanoat korxonalarida chiqitsiz texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Kabelni sintetik qoplama bilan o’raydigan yangi texnologiyaga o’tilishi, atmosferaga qo’rg’oshinni chiqishi yo’qotildi.

5) Sanoatda yer osti termal suvlardan (issiq suv-90^{o}C li) foydalanish orqali ifloslanishni kamaytirish mumkin.

6) Avtotransportlardan chiqadigan gazlarni, dudlarini kamaytirish orqali (benzin o’rniga, propan yoqilg’isini qo’llash orqali) havoni ifloslanishini kamaytirish mumkin.

7) SHahar va qishloqlarda yashil o’simliklarni ko’paytirish orqali havoni ifloslanishidan saqlash mumkin.

Masalan: darahtlar, butalar va o’tlar changining 80 foizini SO_3 gazini 60 foizini ushlab qoladi.

O’zbekiston havosini ifloslanishini kuzatishga O’zbekiston Gidro metereologiya boshqarmasi rahbarlik qiladi va uning tarkibiga quyidagilar kiradi: O’zbekiston Respublikasi atrof-muhitni ifloslanishini kuzatish markazi, Farg’ona va Navoiy shaharlaridagi kompleks laboratoriya, atmosfera havosini ifloslanishini kuzatuvchi 7 ta laboratoriya (Olmaliq, Andijon, Samarqand, Angren, Bekobod), havo ifloslanishini kuzatuvchi 4 ta guruh (Buxoro, Guliston, Nukus va Namangan shaharlarida), atrof-muhitni ifloslanishini kuzatuvchi Sariosiyo idoralararo laboratoriyasi va ikki monitoring (CHotqol qo’riqxonasi, Abramov muzligi) stansiyalari kiradi.

Suv resurslarini muhofaza qilish .

Er yuzasidagi barcha suvlar gidrosferani tashkil qiladi. Okean va dengizlarning umumiy maydoni quruqlik yuzasiga qaraganda 2,5 barobar ko’pdir.

Gidrosferaning 93,96 %i okean suviga, 4,39%i quruqlikdagi daryo, ko'l va yer osti suvlari, 1,65%i qutb va tog'lardagi muzliklarga to'g'ri keladi.

Suv kuchli erituvchi va qudratli kuchga ham ega. U qattiq tog' jinslarini (turli xil minerallar, granit va bazaltlar) ham emiradi.

Organik dunyo va insoniyat jamiyatini suvsiz tasavvur qilish qiyin. Suv organizmlardagi biofizik va biokimyoviy jarayonlarda hamda ularni yashash muhiti sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Suvsiz hayot yo'q. CHunki o'simlik tanalarining 80-85 foizi, hayvon organizmlarining 60-75 foizi, meduza tanasining 99,7 foizi suvdan iborat. yangi tug'ilgan chaqaloq tanasining 70 foizini, katta yoshdagi kishi organizmining 65 foizini suv tashkil etadi. Suv inson tanasining hamma a'zosida uchraydi, hatto suyakning 25 foizini ham suv tashkil etadi, hatto inson iste'mol qiladigan sabzavot tarkibida 78-80 foiz, sutda 89 foiz, go'shtda 50 foiz suv bor.

Inson o'z tanasidagi namlikni bir xil bo'lishiga harakat qiladi, chunki kishi tanasidan 12 foiz namlik yo'qolsa odam halok bo'ladi. Inson suvsiz bir necha kungina yashashi mumkin, uning suvga bo'lgan bir kunlik fiziologik talabi 2,5 litrga teng.

Suv nafaqat jonli tabiatni rivojlanishi, yashashi uchun kerak, balki insonlarni maishiy ehtiyojlarini, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun ham eng kerak moddiy resurslardan hisoblanadi.

Ammo har qanday suvlarni ham ehtiyojimizni, ishlab chiqarish tarmoqlarini ehtiyojini qondirish uchun ishlatish mumkin emas. CHunki suv resurslarimiz kundan kunga turli xil sabablarga ko'ra ifloslanib bormoqda. Suv resurslarini ifloslanishi deganda har xil organik, noorganik, mexanik, bakteriologik va boshqa moddalar to'planishi oqibatida, uning fizik xususiyatlari (rangi, tiniqligi, hidi, mazasi) va kimyoviy tarkibining (organik va mineral qo'shimchalar miqdorining ortishi, zaharli moddalarni paydo bo'lishi) o'zgarishi, uning tarkibida kislorodning kamayib ketishi, bakteriyalarni ko'payishi va kuchli yuqumli kasallik tarqatuvchi bakteriyalarning paydo bo'lishi tushuniladi.

Suvning ifldoslanishi tabiiy va sun'iy sabablarga asoslangan bo'ladi (4-chizma). Suvning ifloslovchi manbaalar orasida eng muhim o'rinni sanoat ishlab chiqarishidan paydo bo'lgan va maishiy kommunal xo'jalikdan chiqqan oqova suvlar egallaydi. Bunday oqova suvlarga: yuvuvchi sintetik moddalari bo'lgan oqovalar; foydali qazilma boyliklarni qazib olishida ishlatilgan oqovalar; neft konlaridan chiqqan iflos suvlar; yog'och tayyorlash, uni qayta ishlash va oqizishda hosil bo'ladigan chiqindili oqava suvlar; chorvachilik fermalaridan oqib chiqadigan suvlar; texnik ekinlarni (zig'ir, paxta, kanop va boshqa) birlamchi ishlov berishda chiqadigan chiqindili suvlar, tashlandiq va zovur suvlari; har xil mineral va organik o'g'itlar hamda zararkunandalarga sepilgan zaharli kimyoviy birikmalar ishlatilgan dalalardan oqib chiqadigan suvlar; aholi yashash joylaridan oqib keladigan yog'in suvlari; elektr stansiyalardan chiqqan issiq suvlar; radiaktiv ifloslangan va boshqa suvlar kiradi.

Sanoat chiqindi suvlarida tirik organizmlar uchun xavfli bo'lgan har xil mineral va organik kislotalar, fenollar, vodorod sulfid, ammiak, mis, rux, simob, mishyak, xrom, nikel va boshqa zaharli moddalar, yog', neft mahsulotlari va har xil

biogen moddalar bo’lib, ular sanoat korxonalarida ishlatilgan oqava suvlar bilan birga daryo, ko’l va suv omborlariga borib quyiladi.

Ayniqsa selluloza-qog’oz sanoati obektlaridan chiqadigan oqova suvlar tarkibida organik moddalar bo’lib, oksidlanish jarayonida kislorodni yutib, suvni ifloslab unga yoqimsiz hid va ta’m beradi, suvning rangini o’zgartirib yuboradi, suvning tagida, qirg’oqlarida chirib, zamburug’larning vujudga kelishiga olib keladi. Suv havzalarining radiaktiv ifloslanishi organik hayot uchun, ayniqsa insonning sog’lig’i uchun eng zararlidir. Radiaktiv ifloslanishning asosiy manbalari: termoyadro qurollarini suv ostida sinash; uran rudalarini qazib olish va tozalash; atom elektr stansiyalari, radiaktiv chiqindilarni saqlash; uran ruda konlarida va ishlab chiqarishda avariyaning ro’y berishi; radiaktiv chiqindilarning va radiaktiv moddalarning idishlarini yuvish va boshqalardan chiqqan chiqindilar hisoblanadi. Radiaktiv eritmalar juda ham kuchli bo’lib, bir choy qoshiqdagi radiaktiv eritmani zararsizlantirib suvga tashlash uchun unga 9,45 mln.l suv aralashtirish kerak bo’ladi. Buning ustiga radiaktiv moddalar uzoq vaqt o’z xususiyatini o’zgartirmaydi. Yer osti suvlariga o’tgan radiaktiv moddalar 1000 yilgacha saqlanib, so’ngra zararsizlanishi mumkin. SHu sababli suv havzalariga tushgan radiaktiv moddalar suv o’simliklari va hayvonlari organizmiga o’tib uzoq vaqt saqlanib qoladi, hamda og’ir salbiy oqibatlarni vujudga keltiradi.

Organik ifloslangan oqar suvlar tarkibida azot bakteriyalar, jumladan tif, sil, ichburug’i kabi kasallik tarqatuvchi bakteriyalar, achitqi va mog’or zamburug’lari va boshqalar bo’ladi. SHu sababli suv havzalari tarkibida organik moddalar ko’payib ketsa, u ifloslanadi, suvning chirigan mahsulotlar bilan zaharlanishiga, har xil yuqumli kasalliklar tarqatuvchi bakteriyalarning ko’payib ketishiga qulay imkoniyat yaratadi.

O’zbekiston suvlari va suv havzalari ifloslanishiga qarab 6 tipga bo’linadi:

1. Toza suv havzalari va suv oqimlari. Ular asosan tog’liq hududlarda joylashgan bo’lib suvda mineral zarrachalari kam hamda biogen elementlar va organik qo’shilmalar kam uchraydi. Bularga Pskom, Oqbuloq, Qizilsoy, Oqsu, Toshkeskin va boshqalar kiradi.

2. Tog’ oldidagi kam ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari. Bular: Oqtoshsoy, Ugam, Ohangaron, Qovasoy, Qashqadaryo, Omonqo’tan, CHorvoq va Xisor suv omborlari kiradi.

3. O’rtacha ifloslangan tog’ oldi va tekislikdagi suv oqimlari va suv havzalari. Ular ko’pgina aholi zich joylashgan yerlarda mavjud. Biogen, mineral va organik moddalar meyoridan 2-3 barobar ortiq. Bularda yana og’ir metall ionlari va neft mahsulotlari meyoridan ortiq bo’ladi. Bular: CHirchiq, Ohangaron (o’rta oqim), Salorning yuqori qismi, Qorasuv kanali, Norin, Qoradaryo, Isfaransoy, Marg’ilonsoy, Zarafshon, Tuyabo’g’iz, CHimqo’rg’on, Qayroqqum, Tuyamo’yin suv omborlari kiradi.

4. O’rtacha ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari. Bunday suvlar qishloq xo’jaligida foydalanilayotgan sug’oriladigan yerlarda, sanoat oqiziqlari tarkibidagi mineral va organik moddalar bo’ladi. Ya’ni bularda me’yoridan 3-4 barobar ortiq og’ir metallar, neft qoldiqlari va pestitsidlar uchraydi. Bular CHirchiq (CHirchiq sanoat kompleksidan quyi), Qo’qonsoy (Qo’qonsoydan quyi), shimoliy Bag’dod

kollektori, Siyob kollektori va boshqalar kiradi.

5. Iflos suv havzalari va suv oqimlari. Ular asosan sho'r tuproqli qishloq xo'jalik yerlarida, yuqori minerallashgan suvli yerlarda joylashgan. Yirik aholi punktlarini quyi qismida joylashgan. Bu kategoriyaga kiruvchi suvlarga: Amudaryo-Orolbo'yi hududi, Buxoro vohasi, Mirzacho'l massivi va Farg'ona vohasi kiradi. Bu suvlar tarkibida biologik, mineral, organik moddalar, og'ir metallar va neft qoldiqlari me'yoridan 3-5 barobar ko'p. Keyingi vaqtlarda og'ir metall konlari (mis, xrom, kaliy va boshqalar) ham ko'plab uchramoqda. Ular Toshkent shahrini quyi qismida Qorasu (o'ng qirg'oq), Ohangaron, CHirchiq daryolari.

6. Juda ifloslangan suv oqimlari va suv havzalari. Bunday suvlar yirik aholi punktlariga, shaharlariga to'g'ri keladi. Uning suvlarida ko'p miqdorda turli zaharli moddalar uchraydi. Og'ir metall meyoridan 40-50 barobar ortiq. Bularga CHirchiq (Salordan keyingi qismi), Salor (Toshkent, Yangi yo'ldan so'ng) kiradi.

Respublikamizda eng ifloslangan suvlar Toshkent shahriga va Toshkent viloyatlariga mansubdir.

Suv havzalarining ifloslanish darajasini 42 foizini mineral ifloslanish-har xil tuz, qum, gillar, ishqor, kislota, mineral yog'lar, shlak va boshqalarga to'g'ri kelsa, 58 foizi organik ifloslanishga-kommunal xo'jaligi, shahar kanalizatsiyasi, hammom, kir yuvadigan joylar, sanitariya-sog'lomlashtirish tashkilotlari, teri, qog'oz-selluloza, pivo ishlab chiqarishdan chiqadigan oqovalar, o'simlik moylari, meva va poliz ekinlari qoldiqlari, maishiy chiqindilarga to'g'ri keladi.

Demak, ifloslangan suvlardan foydalanish salbiy oqibatlarga olib keladi. Jumladan kuchli kasalliklarni paydo qiladi va tarqatadi; sanoat ishlab chiqarishlarda texnologik jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, mahsulot sifatini pasaytiradi, qimmatbaho asbob-uskunalarni ishdan chiqaradi, gidrotexnik, temir-beton inshootlarini, suv quvurlarini yemiradi va juda katta iqtisodiy va ma'naviy zararlarni keltirib chiqaradi. SHuning uchun hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri ifloslangan suv manbalarini tozalash va zararsizlantirish hamda aholini chuchuk suv tanqisligini hal qilish hisoblanadi. CHuchuk suv zaxiralari albatta yer ostida muayyan miqdorda joylashgan, ammo hozirgi talablar to'la qondiriladigan bo'linsa, ular uzoq yillarga yetmasligi mumkin.

SHuning uchun kelajakda aholini chuchuk suv bilan ta'minlashning quyidagi qo'shimcha imkoniyatlari mavjud:

Er osti suvlaridan foydalanish. Ma'lumki, yer osti suvlarining miqdori 60.000 ming km bo'lib, butun gidrosferaning 4,12%ini tashkil etadi. Lekin yer osti suvlaridan hozircha foydalanish koeffitsienti juda past, jumladan O'zbekistonda atigi 6% miqdordagina foydalaniladi.

2. Muzlik suvlaridan foydalanish. Sayyoramizning umumiy suv miqdorining 1,65%ini muzliklardagi suv tashkil qiladi. Muzliklardi 24.000 ming km^3 suv to'plangan bo'lib, butun dunyodagi chuchuk suvning 8,5%ini tashkil etadi. Bu muzliklar asosan Arktikada, Antarktidada va Grenlandiyada joylashgan bo'lib, ba'zan dengizga uzilib tushib, aysberglarni hosil qiladi. Mana shu aysberglarni qirg'oqqa yaqin keltirib, uni eritib, aholini sanoat korxonalarini chuchuk suv bilan ta'minlash ustida ish olib borilmoqda. Masalan, uzunligi 100 km, eni 50 km, qalinligi 0,2 km keladigan aysbergda 1000 km^3 chuchuk suv mavjud. Bu butun

O’rta-Osiyo daryolarining suvidan 8 marta ko’pdir.

3. Okean va dengiz sho’r suvlaridan foydalanish. Hozir dunyoda 800 dan ortiq sho’r suvlarni chuchuklashtiruvchi texnologiyalar ishlab, kuniga 1,7 mln m^3 suv yetkazib bermoqda. SHuning 90%i ichish uchun ishlatilmoqda.

Quruqlikda favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari. Quruqlikda favqulodda vaziyatlar tuproqning ostki va ustki qismlarini tarkibi, holati o’zgarishi natijasida kuzatiladi. Bu o’zgarish tabiiy yoki sun’iy sabablar natijasida bo’ladi.

Tabiiy sabablar bilan inson faoliyatiga bog’liq bo’lmagan holda tuproqning hayotini yomonlashishi tushunilib, bularga eroziyalar kiradi. Eroziya deb yerning ustki hosildor qismini suv va shamol ta’sirida yuvib yoki uchirib ketishiga aytiladi. Eroziya dehqonchilik uchun katta zarar keltiruvchi ofat hisoblanib, «kemirish» yoki «emirish» degan ma’noni anglatadi.

Suv va shamol eroziyasi natijasida AQSH, Xitoy, Kavkaz, O’rta Osiyo va boshqa hududlarda millionlab gektar yerlar ishdan chiqdi hamda unumsiz yerga aylandi.

Ma’lumotlarga qaraganda dunyo bo’yicha eroziya natijasida yiliga 100 mlrd dollar zarar ko’rilmoqda.

Suv eroziyasining xavfli turi bu sel hodisasidir. Sel - tabiiy ofatlar qatoriga kirib, uning xususiyati va oqibatlari xususida III bobda mufassal yozilgan.

SHamol eroziyasi tufayli tuproq tarkibi buzilib, ba’zi yerlada o’pirilishlar kuzatiladi, tuproqni ifloslanishi tufayli esa uning kimyoviy va biologik xususiyati o’zgaradi, jumladan modda almashinuvida buzilish yuz beradi, har xil kasalliklar tarqatuvchi mikroorganizmlar tez ko’payadi.

Demak, eroziya nafaqat tuproq strukturasini buzadi, balki atrof-muhitni ham izdan chiqaradi, inshootlarga, magistral yo’llarga, moddiy resurslarga katta zarar keltiradi va insonlarning o’limiga sabab bo’ladi.

Eroziyaga qarshi kurashish tadbirlari quyidagi guruhlarga bo’linadi: agrotexnik, o’rmon melioratsiyasi va gidrotexnik.

Agrotexnik chora-tadbirlarda almashlab ekishni oshirish, ko’proq o’tli o’simliklarni ekish orqali tuproq zichligini oshirishga erishiladi.

O’rmon melioratsiyasi natijasida o’simliksiz qolgan tog’ yon bag’irlarini, tekis-qumli yaylovlarni turli buta, daraxtlar bilan qoplash kiradi.

Gidrotexnik chora-tadbirlar majmuasiga tog’ yon bag’irlarni yuvish va o’yilishdan saqlash uchun gidrotexnik qurilmalar qurish (to’g’onlar, terrasalar), tog’li hududlarda sel oqimini to’suvchi va to’xtatuvchi devorlar, tosh-shag’al-tuproq-yog’ochlardan foydalangan holda qurilmalarni qurish kiradi.

Tuproqni sun’iy omillar ta’sirida ifloslanishi: sanoat va shahar chiqindi axlatlarini (gaz, neft, elektr kabellar ishlab chiqarishida, mineral o’g’itlar va zaharli kimyoviy vositalarni qo’llashda, radiaktiv chiqindi moddalarni yerga tashlanishi, transport vositalaridan chiqadigan zaharli moddalar, oqava suvlar tarkibidagi bekorchi jinslar va boshqalar) tuproqqa qo’shilishi natijasida kuzatiladi.

Sanoat chiqindilari 2 xil ko’rinishda tashqariga chiqarib yuboriladi:

a) Qattiq sanoat chiqindilariga: qurum, kul, shlak, tosh, kon chiqindilari, yog’och, plastmassa va boshqa chiqindi materiallar, mineral va organik changlar

hamda sanoat axlatlari kiradi.

b) Suyuq chiqindilarga: oqava suvlar qayta ishlanganidan keyin qoladigan chiqindilar kiradi.

Sanoat chiqindilarining asosiy qismi konchilik, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, yog'ochni qayta ishlash, IES, kimyo, neftni qayta ishlash, paxta tozalash, to'qimachilik, sement ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlarda hosil bo'ladi.

Sanoat qattiq chiqindilari o'simliklarga, hayvonlarga va odamlarga katta zarar keltiradi. Masalan, fosfogips (o'g'it ishlab chiqarish sanoatida chiqadigan chiqindi mahsulot) sizot suvlarini ifloslantirishi va zaharlashi mumkin. Ishlab chiqarishning ba'zi chiqindilari tarkibida og'ir metallar: xrom, qalay, qo'rg'oshin, surma va boshqa zaharli moddalarning birikmalari tuproqdan o'simliklar va hayvonlar orqali odam organizmiga tushadi va turli xil og'ir kasalliklarga olib keladi. Konserogen xossalarga ega bo'lgan changlarni, oltingugurt, azot, uglerod birikmalarini ajralishi inson faoliyati uchun juda xavflidir.

Tuproq qatlamining radiaktiv moddalar bilan ifloslanishi ham juda xavflidir. So'ngi yillarda dunyoning bir qator mamlakatlarida radiaktiv moddalardan foydalanish (harbiy va tinchlik maqsadlarida) oqibatida ekologik falokatlar kuzatilmoqda. Radiaktiv moddalarni qazish, tashish va ishlatish jarayonida, atom bombalarini ishlashi va portlashi davrida, AES larni avariyaga uchrashida, radiaktivlashgan juda mayda chang zarrachalari atmosferaga ko'tarilib, keyin yomg'ir bilan yoki o'zi yerga-tuproqqa tushib, uni zaharlaydi. Bunga misol qilib, 1986 yilda CHernobl AES dagi avariyani keltirish mumkin.

Ma'lumotlarga qaraganda 1946-1970 yillari mobaynida sobiq ittifoq tomonidan Qirg'izistonning Maylisoy hududining 23 ta yeriga radiaktiv chiqindilar ko'milgan. Mabodo, o'sha hududlarda sel, yer ko'chkisi ofatlari yuz beradigan bo'lsa, nafaqat Qirg'iziston hududi va xalqi uchun, balki O'zbekistonning Farg'ona vodiysi uchun ham katta ekologik xavf tug'diradi. Bunday xavfli hududlarda 10mln.dan ortiq fuqarolar yashaydi. Tuproq qatlamining kimyoviy moddalar, ayniqsa pestitsidlar, gerbitsidlar bilan ifloslanishidan saqlashda ularni qoidasiga, normasiga, vaqtiga qarab ishlatishga erishish muhim ahamiyatga ega. Biroq ba'zan yuqori hosil olish va zararkunanda hashoratlariga, begona o'tlarga qarshi kurashish maqsadida o'g'itlarni hamda zaharli kimyoviy moddalar haddan tashqari ko'p ishlatiladi. Natijada qishloq xo'jaligi ekinlari ularni o'zlashtira olmaydi va oqibatda ularning bir qismi tuproqda to'planib qolib uni zaharlaydi. Jumladan, MDH davlatlarida o'rtacha 1 gk yerga 113 kg.dan ko'proq mineral o'g'it, 2 kg zaharli moddalar ishlatilmoqda. Bu moddalar tuproqda yig'ilib, tuproq tagiga suv, havo o'tkazishni, modda almashinuvini, mikro organizmlarni rivojlanishini yomonlashtiruvchi qavat hosil qiladi.

Olimlarning fikricha kimyoviy zaharli moddalarning xavfi AES larning radiaktiv chiqindilari xavfidan 9 barobar xavfli ekan. Hozirgi vaqtda jahon bo'yicha ekinlarni himoya qilish uchun turli kimyoviy moddalardan gektariga 300 g., G'arbiy Yevropa va AQSHda 2-3 kilogramm, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida 200 gramm solinayotgan bir vaqtda, paxta dalalarimizda ishlatilayotgan kimyoviy moddalarning yillik miqdori (1990 yil) gektariga 19,5 kg ni tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda ulardan foydalanish deyarli 2 barobar

kamaygan. Bunday kimyoviy moddalar zararkunanda bilan birga tuproq hosildorligini oshirish uchun foydali hasharotlarning qirilib ketishiga ham sabab bo'ladi. SHuning uchun tuproqni zaharli kimyoviy moddalar bilan ifloslanishidan saqlash uchun begona o'tlarga qarshi, o'simliklar bargini to'kishda, zaharsiz, kishi salomatligiga zarar yetkazmaydigan zaharsiz kimyoviy vositalarni qo'llash katta ahamiyatga ega. SHu bilan birga keyingi vaqtlarda qishloq xo'jaligida zararkunandalarga qarshi kurashishda atrof-muhit uchun zararsiz biologik usullardan foydalanilmoqda va u o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Hozirgi kunda maishiy chiqindilarning miqdori ham ortib, ekologik muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra har yili bir nafar shahar aholisiga o'rtacha 300 kg miqdordagi maishiy chiqindilarni ishlash to'g'ri kelmoqda. SHuning uchun Dunyo miqyosida sanoat va maishiy chiqindi axlatlarni yo'qotish, jahonshumul masalaga aylandi. CHunki uni yoqish atrof-muhitni, yerlarga ko'mish esa tuproqni ifloslashtiradi va har xil kasalliklar tarqatuvchi mikroblarning ko'payishiga imkon yaratadi. SHuning uchun hozirgi kunda tuproq qoplamini ifloslanishidan saqlash, chiqindilarni qayta ishlash yoki ularni zararsizlantirib tashlash eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Jumladan chiqindilarni qayta ishlash orqali qimmatbaho metallar (konserva bankalar, har xil metall parchalari) rezina buyumlari, plastmassa materiallari va boshqalar ajratib olinmoqda. Ajratib olingan rezina, yog'och parchalarini gidroliz yordamida (parchalash orqali) yonuvchi gaz, saqichli smola, qattiq uglerodli birikmalar, qolgan qismidan esa kompost olinmoqda. Kompostning harorati yuqori bo'lganligidan undan issiq xonalarda tuproqni qizdirishda, o'g'itlashda ishlatiladi. SHahar axlati va sanoat chiqindilari (simob, rux, margimush, mis, qo'rg'oshin, ftor, marganes kabi zaharli kimyoviy moddalar tutgan va maishiy kommunal chiqindilari) tashlangan yerlarda tezlik bilan sanitariya hududlari tashkil etilib oldi olinmasa, o'sha joylar tuprog'i o'ta ifloslashib, tabiiy holda tozalana olmaydi. CHunki tuproqda kimyoviy va organik moddalar miqdori ortib, mikroorganizmlar, ayniqsa (kasallik tarqaluvchi) mikroorganizmlar ko'payib ketishiga sharoit vujudga keladi. Ma'lumotlarga ko'ra 1 ga toza tuproqda 16-150000 ming bakteriya mavjud bo'lsa, birga ifloslangan tuproqda 1 mld.gacha mikroblar borligi aniqlangan. Oqibatda tuproq ifloslanib, har xil yuqumli kasalliklarni, jumladan sibir yazvasi, o'lat, vabo, ichburug' tifi, sil kasalligini tarqatuvchi manbaaga aylanadi.

SHunday qilib, atmosfera havosini, tuproqni va suv basseynlarini turli xil zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar kelib chiqadi. Bunday ekologik vaziyatlar nafaqat atrof-muhitni izdan chiqaradi, balki insonlarning salomatligiga, normal hayot faoliyatiga katta xavf tug'diradi.

20-ma’ruza Favqulodda vaziyatlar prognozlash.
O’quv savollari

1. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tasnifi
2. Texnogen xususiyatli FV yuzaga kelganda qutqaruv va birlamchi tiklash ishlarini olib borish

Qutqaruv va birlamchi tiklash ishlarining tashkiliy asoslari Ma’lumki, dushman tomonidan qo’llaniladigan umumiy qirg’in qurollarining oqibatlari turli xil darajada bo’ladl. Albatta, talafot darajasi lshlatilgan qurol turiga, uning qo’llanllish miqyosiga bog’liq. Yadroviy, kimyoviy, biologik va kombinatsiyalashgan shikastlangan o’choqlarida qutqaruv va tiki ash lshlarini (QBT!) amalga oshirish juda murakkab ahvolda ro’)’ beradL sababi bUflday paytda hamma inshootlar deyarli shikastlangan, yongan. yiqilgan, suv bosgan, atmosfera hamda barcha yerlar zaharlangan va shunga o’xshash boshqa noxush holatlar kuzatilgan bo’ladi. Xuddi shunga o’xshash holatlar tinchlik davrida ham (tabiiy ofatlar, ishlab chlqarish avarlyalari, fOJialar oqibatida) kuzatihshl murnkm. SHu sababdan fuqarolar muhofazasining eng asosiy vazifalaridan biri, harbiy holatlarda va tinchlik davrlaridagi favqulodda vaziyatlarda umumiy shikastlangan o’choqlardagi QBT! ni amalga oshirish hisoblanadi. SHikastlangan o’choqlarda QBTIni olib borishdan maqsad, fuqaro-larm qutqarish va zararlangan odamlarga blrlamchi tibbiy yordam ko’r-satish, qutqaruv lshlarim amalga oshirishda halaqit beradigan avari-yalami to’sish, shlkastlangan joylarni tikI ash ishlarini amalga oshirishda sharoitm yaratish va boshqa vazifalarini bajarish ko’zda tutiladi.

Umumiy qirg’in qurollari qo’llanilganda quyidagl qutqaruv ishlari bajariladi:

• obektlar tomon tizimlaming harakatlanlsh yo’llarini razvedka qilish;

• shikastlangan obektlarda harakat qilishda, yong’inlarni o’chirish va to’sish;

• zaharlangan, yong’inli. gazga to’lgan, suv bosgan joylarda va yer ostida qolgan holatlarda odamlarni topish va qutqarish,

• shikastlangan, buzilgan va .laharlangan himoya inshootlaridagi fuqarolami qutqarish:

• havo almashtirgichi buzilgan, shikastlangan himoya inshootlariga havoni yetkazib berish;

• shikastlangan fuqarolarga birinchi tibbiy yordarn ko’rsatish va ularni tibbiy shoxobchalarlga eltib qo’yish, • xavfli hududdagi fuqarolarni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish,

• odamlarni sanitar qayta ishlovdan o’tkazish, uy hayvonlarga veterinar qayta ishlov berish, texnika, kiyim-kechak, oziq-ovqat, xom ashyo, suv va yem-xashaklarni dezaktivatsiya va degazatsiya qilish Boshqa birlamchl tiklov ishlanga quyidagilar kiradi:

• shikastIangan hududlardagi (zaharlangan, yiqilgan, buzilgan inshootlar) yo’llarni tozalash,

• qutqaruv ishlarini olib borishda gazli, elektrli, suvli, kanallzatsiya va texnologlk tizimlardagi avariyalarni to’sish ishlari;

• shikastlangan inshootlarni buzish yokl um mustahkarnlash;

• aloqa va kommunal-energetik tarmoqIardagi falokatlarni tuzatish va tiklash ishlari;

• turli xildagi portlovchi qismlarni. portIovchi aslahalarni topish, zararsizlantirish va yo’ qotish ishlari;

QBTI kunu tun, doimiy ravishdlL har qanday tabiiy sharoitda olib boriladi.

UmumlY qlfg’in qurollarining shikastIanlsh o’chog’ida QBTIni olib borish uchun, tinchhk davridayoq tuman fuqarolar muhofazasining boshlig’i qarori bilan fuqaro muhofazasl kuchlarining harakat qilish

yo’llari tuziladi. Harakatlanuvchan kuchlar tarklbiga shahar, tuman fuqarolar muhofazasining hududiy, ishlab chiqarish tarnoyilga ko’ra tuzllgan tizimlari hamda harbiylashgan fuqaro muhofazasi qismlari kiradi. Bu kuchlar asosan birinchi va ikkinchi eshelondan va qo’shimcha qismlardan tashkil topadi. Eshelonlar tarkibiga kiruvchi tuzilmalar uzluksiz faoliyat ko’r-satish uchun ular smenalarga bo’linib ishlab chiqarish tarnoyiliga asos-langan bo’ladi. Birinchi eshelonda asosan fuqarolar muhofazasi harbiy qismlari, korxonaning obekth tuzilmalari va ma’lum qismdagi hududiy tuzil-malari harakatlanadi. Bunda fuqarolar muhofazasining harbiy qismlari va hududiy tizimlari asosan shahar, tuman fuqarolar muhofazasi rejasiga asosan xalq xo’jahgi tarmoqlarining eng muhim obektlarida QBTI bajaradilar.

Ikkinchl eshelon tizmlari asosan birinchi eshelon tizimlari kuchini oshirish hamda faoIiyat ko’rsata olmaydigan tizimlar o’mini egallash maqsadida harakatlanadi. Obektning fuqarolar muhofazasini harakatlanuvchan kuchlari asosan umumiy otryadi, qutqaruv otryadl hamda ishlarni ba,iaruvchi tizmlardan tashkil topgan. Fuqarolar muhofazasining texnika vositalari hamda kuchlari shi-kastlangan hududga juda qisqa vaqtda kirishi, QBTI ni muvaffaqiyatli bajarishi, zamonaviy texnikadan unurnli foydalanishi, ish jarayonida qo’l ostidagi kuchlarni, tizimlarni almashtirib turishi va boshqa ishlarni bajarishi lozim. Albatta, turli xildagi texnikalardan foydalanmay shikast-langan hududda katta, unumli ishlarni bajarib bo’lmaydi. Faqatgina mexanizrnlar yordarnidagina, jumladan, qurilish va yo’l mashina va me-xanlzmlari, kommunal-texnika Jlhozlari yordamlda, yer ostida, buzilgan, yonayotgan, gazga to’lgan inshootlar ichida qolgan, buzilgan himoya in-shootlari ostida qolgan fuqarolarni qutqarish va boshqa ishlarni ba,iarish mumkin. Bajariladigan ishlarni tavsifiga qarab mexanizmlarni quyidagi guruhlarga bo’lish mumkin: .bosib qolgan himoya inshootlarini ochish, to’silib qolgan, bosib qolgan joylarni ochish va tozalash, yo’llarni tozalashda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar (ekskavatorlar, traktorlar, buldozerlar. kranlar, yuk tashuvchi mashinalar va boshqalar) .

• bosib qolgan chiqish joylari to’silib qolgan inshootlarda teshik ochish uchun ishlatiladigan pnevmatik jihozlar (parmalaydigan va urib sindiradigan bolg’alar) .

• metallarni kesuvchi jihozlar.

suv haydaydigan mexanizmlar (nasoslar, suv sepadlgan mashi-nalar, yong’inni o’chiruvchi va boshqalar) suv yo’llari orqali tashuvchi mexanizmlar (parornlar, trayler-tya-gachlar, yuk tashuvchi pritseplar)

ta’mirlovchi va xizmat qiluvchi jihozlar (ta’mirlovchi qismlar, ben-zin, suv quyish, yorituvchi maskanlarda va xizmat ko’rsatuvchi mas-kanlarda qo’Uaniladiganjihoz va mexanizrnlar).

QBTI muvaffaqiyatli bajarishda mexanizm va mashinalardan oqi-lona foydalanishdan tashqari, razvedka ishlarini o’z vaqtida tashkil etib o’tkazishi.

ko’rsatilgan muddatda ishonchli ma’lumotlarga ega bo’lishi, shikastlangan o’choqda bajarilishi lozim bo’lgan ishlarga tuzilmalami jalb etilishi, ishlarni bajarishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi, tuzilrna boshliqlarining shikastlangan o’choqdagi ishlaming tavsifini oldindan o’rganishi, komrnunal-energetik va texnologik jarayonlarga e’tibor berishi, hududda saqlanadigan KTZM o’rni, himoya inshootlari-ningjOY1, tavsifnomasi va boshqa vazifalarga katta e’tibor beriladi. QBTI o’sha obektning fuqaro rnuhofazasi shtabi tomonidan oldin-dan rejalashtlriladi va favqulodda holatda qo’l ostidagi kuchlar, rnab-lag’lar, texnikalar, bajaradigan ish hajmi ani qlashtiriladi.

21-ma’ruza Aholining barcha qatlamlari favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash

O’quv savollari

1. **Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tasnifi**
2. **Texnogen halokatlar**

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil ko’rimshidagi falokatlar kirib, ular O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrdagi 455-sonli qarorida "Texnogen, tabiiy va ekolo-gIk tusdagi favqulodda vazlyatlar tasnifi"da ko’rsatib o’tilgan.

Gidrotexnik inshootlardagi avariyalar. Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasida hozirgi paytda 53 ta suv omborlar daryo suvlarini iste’molchilarga taqsimlab beruvchi 150 dan ortiq suv to’g’onlari, 28122 km uzunlikdagi magistral kanallar va boshqa suv inshootlari mavjud. Bunday inshootIar har qanday favqulodda vaziyatlar yuz berganda (harbiy holatda ham. tinchlik davrida ham) katta xavf tug’diradi. Gidrotexnika inshootlaming ayrimlari katta shaharlar va yirik ahoh yashashjoylari yaqinidajoylashgan bo’lIb, yuqori darajadagi xavfli obektlar hisoblanadi. Gidrotexmk inshootlari, kO’rsatkichlariga ko’ra har xiI bo’ladi:

1) joylashgan o"rniga ko’ra:
a) yer usti mshootIari (daryo, ko’l, kanal va h.k);
b) yer osti inshootlari (o’tkazuYchi quvurlar, tunellar va h.k).
2) foydalanish maqsadiga ko’ra:
a) suv-energetika inshootlari;
b) suv ta’minoti inshootlari;
v) sug’orish inshootlari:
g) chiqindi suvlami chiqarish inshootlari:
d) baliqchilik xo’jalik inshootIari:
e) suv-sport inshootlari va h.k.
3) vazifasiga qarab:
a) GES lar va boshqa suv inshootlari (to’g’onlar va boshqalar);
b) suv o’tkazISH inshootlari (kanallar, tunellar, quvur o’tkazgichlar);
v) tarnovlar, osma quvurlar va h.k.;
g) tashlandiq suv inshootlari (ortiqcha suvni chiqarish uchun);
d) suv oqimini tartIblash inshootlari (suv oqirnini to’g’rilovchi.
daryo va qirg’oq o’zanlarini yaxshilovchi va boshqalar);
e) baJiq xo’jaligi inshootlan (baliq boqish uchun).

Gidrotexnik inshootlarning buzilishi juda katta hududlarni, jumladan: shaharlar va aholi yashash joylarini, sanoat tarmoqlarini va moddiy resurslarni suv ostida qolishiga olib kelishi mumkin, oqibatda juda katta ham ma’naviy, ham rnoddiy zararlami olib kelishiga sabab bo’ladi. Jum-ladan, suv urib ketgan inshootlar, avtomobil va ternir yo’lIar, elektr va aloqa uzatish simiarining zararlanishi, chorva molIari, qishloq xo’jalik ekinlari hosili, ekinzorlar va boshqalarning nobud bo"lishi, xomashyo, yoqilg’i, oziq-ovqat mahsulotlari, o’g’itlar va boshqa resurslarni yaroqsiz holga kelishi; aholini xavfsiz joylarga vaqtincha evakuatsiya qilish xara-jatlari; yerlarning hosildor qatlamining yuvilib ketishi; suv bosgan hudud-larda oziq-

ovqat, kiyirn-kechak, dori-darmon va boshqa kerakli mahsu-lotlami olib kelish xarajatJari va boshqa Salbiy talafotlarga olib keladi.

Gidrotexnik inshootlari quyidagi ta’sirlar natijasida buziladi:

1) tabiiy ofatlar oqibatlda (zilzila.. ko’chki, jala yomg"irlar yuvib ketish va boshqalar);
2) uskunalarning tabiiy yemirihshi va eskirishi;
3) inshootni loyihalash va qurishdagi xatohklar;
4) suvlami ishlatish qoidalarini buzilishi;
5) portlatishlar oqibatida (harbiy harakatlar, terrorchilik va boshqalar)

Gidrotexnik inshootlarining buziIi shi natijasida muayyan oqibat-larga olib keladi, jumladan: Gidrotexnik inshooti o’z vazifasmi bajarmay qo’yishi; suv to’lqinini insonlarga zarar yetkazishi va turh inshootlami buzilishi; hududlarni suv bosib, mol-rnulkka, yerlarga, rnoddiy resurs-larga va boshqa obektlarga jiddiy moddiy zarar keltiradi. SHuning uchun bunday inshootlardan foydalanuvchi tashkilotlar zimmasiga ular-ning xavfsizligini ta’minlash maqsadida "Fuqaro muhofazasi to"g’ri-sida"gi qonunining 8,9-moddalarida ko’rsatib o’tilgan majburiyatlar yuklangan. Unga ko’ra bunday xavfli obektlarni loyihalash, qunsh va ishlatish davomida xavfsizligini pasayish sabablarini tahlil etish, sodir bo’lishi mumkin bo’lgan avariyani oldini olish bo’yicha chora-tadbir-larni ishlab chiqish va bajarish, shuningdek, bunday masalalar bo’yicha favqulodda vaziyatlar tizimlari bilan hamkorlik qilish ta’kidlab o’tilgan.

Yong’in xavfi bo’lgan obektlardagi avariyalar

Yong’in - bu nazorat qilib bO’lmaydigan hodisa bo’lib, bebaho moddiy va madaniy boyliklaml bir daqiqada yo’q qiluvchi, atrof-muhit-ni izdan chiqaruvchi of at ayniqsa, u fuqarolarning joniga kulfat keltI-ruvchi favquloddagi vaziyatdir. Yong’inning kelib chiqishi uch omilning bir vaqtda, bir joyda duch kelishining oqibatidir, ya ‘ni:

-yonuvchan moddani (neft, qog’oz, yog’och va boshqalar):
-havo harorati (issiqlik),
-uchqun-alanga (gugurt, uchqun, elektr simining qisqa tutashuvi). Portlash xavfi bo’igan obektlardagi avariyalar. Ma’lumki, yong’in va portlashlar o’zaro uzviy bog’liqIigi sababli ko’pchilik avariyalarda yong’inlar natijasida portlashlar bo’lishi yoki aksincha portlash natijasida yong’inlar sodir bo’lishi mumkin.

Portlash - bu qisqa vaqtda chegaralangan hajmdagi, katta miqdor-dagi quvvatning aJralib chiqishi tushuniladi yoki portlash suyuqliklari-ning, portlovchi moddalarning kuch yoki issiqlik ta’sirida o’zi joylash-gan hajmiga sig’may qolishi tufayli otilib chiqadigan hodisadir. Odatda, portlash gazlarning qattiq qizishi oqibatida, yuqori bosim hosil qilib kuzatiladi.

Avariya va fojiali hodisalarni keltirib chiqaruvchi omillar

Avariya va falokatlar turli xii sharoitlarda, masalan, temilyo’l avtomobil, suv yo’li. aviatsiya transportiarida sodir bo’lishi rnumkin.

a) Temiryo’l transportida avariya va fojia bo’lishining asosiy sababi, yo’llarning to’g’n bo’lmasligi, harakatlanuvchi tarkibning kam-chilikka ega bo’lishi, ya’ni boshqarishda texnik nosozliklaming rnav-judligi (signal bo’lrnasligi va b.) yurish qoidalarini buzilishi va boshqa sabablardir.

Avtomobil transportida bo’ladigan avariyalar ham katta foji-ali hodisalami keltirib chiqaradi. Bunday ofatlar yuz berishining bir qan-cha sabablari bor:

22-ma’ruza. Aholini tayyorlash shakllari

O’quv savollari

1. Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish rejasi
2. Hamkorlikda harakat qilish rejalari, ularga qo’yiladigan talablar, tuzish tartibi
3. Evakuatsiya rejasi, unga qo’yiladigan talablar, tuzish tartibi, rejalarni tuzish uchun dastlabki ma’lumotlar

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va iqtisodiyot ob’ektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo’yicha harakat qilish rejasining asosiy maqsadi, aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda FVDT va Fuqaro muhofazasi tuzilmalarini harakatga tayyorlash, favqulodda vaziyatlar salbiy oqibatlarini kamaytirish, favqulodda vaziyatlarni tezkorlik bilan bartaraf etish, moddiy talofatlarni oldini olish va kamaytirishdan iborat.

Harakat qilish rejasi xarita, asosiy matn qismi va ilovalardan tashkil topgan. Harakat qilish rejasi asosiy matn qismi quyidagilarni o’z ichiga oladi:

birinchi bo’limda, viloyat, shahar va tuman hududida yirik avriyalar, talofatlar va tabiiy ofatlar yuz berganda ehtimoli bo’lgan vaziyatning qisqacha bahosi. Jumladan, shahar va tuman joylashuvi, tashkil topgan yili, viloyat markazidan uzoqligi, rel’efi, maydoni, aholi soni, mavjud ijtimoiy muassasalar soni, hududda radiatsiyaviy, kimyoviy va portlash xavfi mavjud ob’ektlar ro’yxati, chegaradosh tuman yoki shaharlar, hududda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlar. SHuningdek, aeroportlar, temir yo’llar va avtotransport magistral yo’llar mavjudligi hamda hududning viloyat markazidan uzoqligi va hududga chegaradosh hududlar hamda ulardagi kuch vositalar va boshqa manblar o’rin oladi.

ikkinchi bo’limda, favqulodda vaziyatlarning oldini olish tadbirlari deb nomlanadi. Ushbu bo’limda “Kundalik faoliyat” rejimida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilab beriladi. Jumladan, Fuqaro muhofazasi boshlig’ining normativ hujjatlarini ishlab chiqish, aholi va hududlarni texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat nazoratini tashkil qilish, fuqaro muhofazasi sohasida rejalar ishlab chiqish, favqulodda vaziyatlarning olidini olish va bartaraf etish bo’yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish, xavfli hududlarda yashovchi aholini ko’chirish, favqulodda vaziyatlarning bartaraf moliyaviy va moddiy resurslar zaxirasini yaratish va boshqa tadbirlarni ishlab chiqish uni amalga oshirish bo’yicha vazifalar kiritiladi.

uchinchi bo’limda, tabiiy ofatlar, yirik ishlab chiarish avariyalari va halokatlar sodir bo’lish xavfi tug’ilganda hamda sodir bo’lganda fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarish bo’yicha rejalarni o’z ichiga oladi. Ushbu bo’limda “Yuqori tayyorgarlik” va “Favqulodda vaziyat” rejimida aholini muhofaza qilish tadbirlari va FVDTning vazifalarini ifoda etadi.

“Yuqori tayyorgarlik” rejimida tabiiy va texnogen hususiyatli favqulodda vaziyatlar xavfi tug’ilganda amalga oshiriladigan ishlar belgilangan. Jumladan, shahar va tuman hokimiyat organlari rahbarlari-Fuqaro muhofazasi boshlig’ining qarori bilan FVDT quyi tizimi yoki alohida bo’g’inlari uchun “Yuqori tayyorgarlik” rejimini o’rnatish, tegishli xizmatlarda navbatchi-dispetchirlik kuchaytirish, xavfli ob’ektlar va ularga tutash hududlarda vaziyatni kuzatish, nazoratni kuchaytirish bo’yicha topshiriqlar berish, kuch va vositalarni shay holatga keltirish, favqulodda vaziyat ro’y berishi mumkin bo’lgan hududlarga yaqinlashtirish hamda boshqa zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqish.

“Favqulodda vaziyat” rejimida favqulodda vaziyat yuzaga kelganligi haqida ma’lumotni FVDT quyi tizimi boshqaruv organlari xabar berish tartibi, favqulodda vaziyatlarning barataraf etish shtabi zudlik bilan tashkil etish tartibi, “Favqulodda vaziyat” rejimiga o’tkazish tartibi va boshqa zaruriy tadbirlar jamlanadi.

Harakat qilish rejasiga quyidagilar ilova qilinadi.

1-ilovada, hududda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyat xaritasi;

2-ilovada, favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda asosiy tadbirlar kalendar rejasi;



Табиий ва техноген тусдаги Фавкулодда вазиятлар хавфи тугилганда ва содир бўлганда Фукаро
мухофазаси тадбирларининг
КАЛЕНДАР РЕЖАСИ

т/р	Чора-тадбирлар	Минутлар	Соатлар	Сут-ка-лар
	I. Профилактик ва огохлантирувчи тадбирлар			
1	Фукаро мухофазаси ўқув машғулотларини ўтказиш.			
2	Шахсий таркибни фавкулодда вазиятлар содир бўлганда ўзини бошқариш бўйича ўқитиш.			
3	Ёнғин хавфсизлиги бўйича профилактик ишларини амалга оширши.			
4	Табиий ва техноген хусусиятли Фавкулодда вазиятлар потенциал манбаларини аниқлаш.			
5	Аҳоли ва ҳудудларни техноген тусдаги фавкулодда вазиятларда мухофаза килиш сохасида ахолат маърифатини ташкил этиш.			
6	Фавкулодда вазиятларни бартараф этиш учун моддий ва молиявий ресурслар захирасини яратиш.			
	II. Техноген тусдаги Фавкулодда вазиятлар хавфи тугилганда.			
1	-авария хавфи тугилган хали ҳўжалиги объектининг шахсий таркиби ёки туркини хабардор килиш; -туман ФВ бўлимларини огохлантириш; -туман ФВДТ рахбар ходимларини огохлантириш; -туман ФВДТ куйи тизимлари рахбарларини ёнғин;			

3-ilovada, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish komissiya qarori;

4-ilovada, favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda tadbirlarni amalga oshirish uchun jalb etiladigan kuch va vositalar hisobi;

5-ilovada, favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda ogohlantirish, FVDT xabar berish va aloqani tashkil qilish chizmasi;

3-илова

Халқаро аҳамиятга молик А373 “М39 Гулистон – Бўка – Ангрен – Қўқон - Андижон орқали Ўш” автомобиль йўлининг Ангрен - Қўқон йўналиши (“Қамчиқ” довони қисми)да ҳамкорликда ҳаракат қилувчи вазирликлар ва идораларнинг алоқа ва хабар бериш
ЧИЗМАСИ

6-ilovada, muhofaza inshootlariga mas’ul shaxslar xabar yuerish va boshqa rejalar ilova qilinadi.

Harakat qilish rejasi 5 yildan ortiq bo’lmagan muddatda yuritiladi va yiliga bir marta tegishli qismiga aniqlik kiritiladi hamda 5 yildan so’ng qaytadan ishlab chiqiladi. Aniqlik kiritilgan vaqti doim qayd etib boriladi.

Ushbu hujjatni saqlash va foydalanish belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Aholini va moddiy boyliklarni favqulodda vaziyatlar hududidan ko’chirish (evakuatsiya) rejasi.

Viloyat, shahar va tuman aholisini, moddiy boyliklarini ko’chirish, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar zonalarida va ular yuzaga kelish ehtimoli bor zonalardan olib chiqish hamda uni oldindan tayyorlab quyilgan xavfsiz joylarga joylashtirish tadbirlari majmuidir.

Aholini ko’chirishni rejalashtirish uchun asosiy ko’chiriladigan aholi ro’yxati, joyi, binosi, ko’chiriladigan xavsiz hudud haritasi va ko’chirish tartibi hisobga olinadi.

Evakuatsiya rejasining ilovasida aholini vaqtincha yoki doimiy ko’chirish xaritasi, ko’chiriladigan aholini yig’ish, ko’chirilgan aholini qabul qilish punktlari, ko’chiriladigan aholi soni, mol-mulki, ko’chirilgan aholiga ta’minot masalalari va boshqa zarur ehtiyojlarini qondirish masalalari keltiriladi.

Aholini va moddiy boyliklarini favqulodda vaziyatlar hududidan ko’chirish rejasi tarkibiga uch bo’limni o’z ichiga oladi:

birinchi bo’limda, umumiy ma’lumotlar ya’ni ko’chirish tadbirlarini boshlanganligi to’g’risida ko’chiriladiganlarga xabar berish tizimining holati, ko’chirish organlari to’g’risida ma’lumot va ko’chirish tadbirlarida foydalaniladigan

tibbiy, aloqa, oziq-ovqat, transport va boshqa ta’minotlar bo’yicha umumiy ma’lumot;

ikkinchi bo’limda, ko’chirish tadbirlarini talab etishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlar turlari. Jumladan, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning aholiga shikastlovchi turlari alohida ta’kidlab o’tiladi. Ko’chirilganlarni qabul qilish joyi ya’ni aholini va moddiy boyliklarini vaqtincha joylashtirishi bo’yicha rejalashtirilgan hududlar to’g’risida umumiy ma’lumot;

uchinchi bo’limda, ko’chirish tadbirlarini tashkil etish. Ushbu bo’limda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar xavfi “Yuqori tayyorgarlik” rejimida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni o’zida aks ettiradi. Ya’ni ko’chirish organlarning faoliyatini tashkil qilish tartibi va ularning vazifalari, ko’chiriladiganlarga xabar berish tartibi, ko’chiriladigan aholining soni, toifasi, ko’chirish usullari, ko’chiriladigan moddiy boyliklari, ko’chiriladigan hudud, talab etiladigan texnikalar va ta’minot xizmatlari hamda ko’chirish tadbirlariga mo’ljallangan vaqtlar keltiriladi. Ko’chirilganlarni qabul qilish maskanida jamoat tartibini saqlash, texnika va sanitariya xavsizligi talablarini hamda hayot faoliyatini ta’minlash bo’yicha zaruriy talablar keltirib o’tiladi.

“Favqulodda vaziyat” rejimida ko’chirish tadbirlarini tartibi yuqori tayyyorgarlik rejimida belgilangan vazifalar amalga oshiriladi.

Evakuatsiya rejasida quyidagilar ilova qilinadi:

hudud xaritasi va yo’nalish chizmasi;

favkulodda vaziyatlarda aholini hamda moddiy boyliklarini xavfsiz hududga ko’chirish hisobi;

jalb etiladigan xizmatlarga xabar berish chizmasi;

ko’chiriladigan aholini yig’ish punktiga mas’ul shaxslar va jalb etiladigan xizmatlar hisobi hamda boshqa me’yoriy hujjatlari;

ko’chiriladigan axolini qabul qilish punktiga mas’ul shaxslar va xizmatlar hisobi hamda tegishli me’yoriy hujjatlari;

evakuatsiya komissiyasiga xabar berish chizmasi;

Ko’chirish tabbiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda hamda harbiy davrlarda amalga oshiriladi, ba’zan kundalik faoliyatda mavsumiy ko’chirish ishlari olib boriladi.

Evakuatsiya (Ko’chirish) komissiyasi va uning Nizomi

Evakuatsiya komissiyaning asosiy vazifalari Favqulodda vaziyatlar organlari bilan birgalikda aholini evakuatsiya qilish rejasiga aniqlik kiritish va uni qayta ishlab chiqish, shaxsiy tarkibni jipslashtirish va ko’chirish organlariga bo’ysunuvchilarni tayyorlashni nazorat qilishni tashkil etib boradi. SHuningdek, bo’ysunuvchi organlarning evakuatsiya rejalarini, evakuatsiyani tashkil qilish bo’yicha tadbirlarni, evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish va joylashtirish rejalarini tekshirish uchun vaqti-vaqti bilan yig’ilishlar olib borish, ishlab chiqilgan reja haqqoniyligini tekshirish maqsadida o’quv mashg’ulotlarida (KSHO’M, MTO’M) qatnashish iborat. Evakuatsiya komissiyasining vazifalari va majburiyatlarini belgilab beruvchi evakuatsiya komissiyasining nizomi mavjud. Nizomda komissiya tarkibi “Kundalik faoliyatda”, “Yuqori tayyorgarlikda” va

“Favqulodda vaziyat” rejimida faoliyati belgilangan. Komissiya raisi viloyat, shahar va tuman hokimlarini o’rinbosarilaridan tayinlanadi va Fuqaro muhofazasi boshlig’iga to’g’ridan-to’g’ri bo’ysinadi. Evakuatsiya komissiyasi tarkibiga davlat va ho’jalik boshqaruv organlari rahbarlari kiritiladi hamda hokimi o’rinbosari komissiyasi raisi etib tayinlanadi. Komissiya tarkibi va a’zolari Fuqaro muhofazasi farmoyishi yoki buyrug’i bilan tasdiqlanadi. Evakuatsiya komissiyasining hujjatlari quyidagilar: komissiya tashkil etish buyruq yoki qaror, komissiya a’zolari va tarkibi, evakuatsiya rejasi va ilovalari bilan, komissiya a’zolari bilan o’tkazilgan yig’ilishlar va uning bayonnomalari, komissiya a’zolari dastur asosida o’qitilishi va boshqalar.

23-ma’ruza. Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlarida barqarorligini ta’minlash

O’quv savollari

1. Iqtisodiyot ob’ektlarida favqulodda vaziyat sodir bo’lganda aholiga xabar berish
2. Favqulodda vaziyatlar sodir bo’lganda vazirlik va idoralarning qutqaruv ishlari bo’yicha hamkorlikdagi harakatlari
3. Jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko’rsatishni tashkil etish va yordam ko’rsatish qoidalari

Favqulodda vaziyadarda (tinchlik va harbiy davrlarda) xalq xo’jaligi tarmoqlarining barqaror ishlashini ta’minlash yo’llari va usullari turli xilda bo’lib, har bir korxona bajaradigan ishlarining xususiyatlariga qarab olib boriladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida iqtisodiy jihatdan eng qulay yo’lni tanlash, har bir korxona o’z inshootini, fuqarolarni muhofaza qiluvchi obekt sifatida, vaziyatni har tomonlarna muhokama etib, keyin uning barqaror ishlashini ta’minlash yo’li va usulini tanlashi kerak.



Aloqa va xabar berishni tashkil etishga fuqoro muxofazasi boshligi ma`suldir. Fuqaro muhofazasi havf - xatar haqida yoki uning yuz berishi mumkinligi to’g’risida o’z vaqtida xabar va ma`lumot berishdan boshlanadi. Aholiga xabar berish - bu yuzaga kelishi mumkin bo’lgan, zilzila, suv bosishi, yoki boshqa tabiiy ofatlar haqida ogohlantirish bo’lib, o’tgan avariya, katastrofalar haqida xabar berishdir.

4. Xabar berish aholiga tushunarli avvaldan belgilangan shartli signallardan (sirena ovozi, korxona va muassasalardan beriladigan signallar) boshlanadi. Maqsad aholining e`tiborini insonlar hayoti va salomatligiga xavf soluvchi qandaydir vaziyat sodir bo’lishi mumkinligiga qaratish va bunday vaziyatlarda xarakat tartibini tushuntirishdan

iborat.

Favqulodda vaziyatlar ochog’ida qutqaruv ishlarini olib borish

Kimyoviy shikastlangan o’choqda qutqaruv ishlari.

• Kimyoviy shikastlangan o’choqda qutqaruv ishlari birmuncha oldingisidan farqlanadi. Bu holatda birinchi navbatda ogohlantirish belgisi «Kimyoviy trevoga» berilib, darhol o’sha joyga ra-diatsiya, kimyoviy vatibbiy razvedka bo’limlari yuboriladi. Ular shikastlangan joyni, vaqtni, qo’llanilgan qurol turini (yoki zaharli moddalar — KTZM), zaharlangan hudud o’lchamini va uni tarqalish yo`lini aniqlab beradilar.

• Mana shularga asoslanib shu ob’ekt fuqaro muhofazasi boshlig`i qaror qabul qilib, o’zi qutqaruv omillarini hamda kimyoviy zararlanishni to’sish omillarini tashkil etadi. Bunday holatlarda qutqaruv ishlariga birinchi navbatda sanitar drujinachilari, umumiy otryad, zararsizlantirish guruhlari va mexanizatsiya tuzilmalari jalb etiladi.

• Bunda har bir tuzilmalar aniq vazifa va texnikalar, jihozlar bilan ta’minlanadi. CHunonchi:

• Sanitar va qutqaruv tuzilmalariga ish joylarini, transport vositalarini, zararlangan odamlarni o’chokdan olib chiqish, birlamchi tibbiy yordam ko’rsatish va evakuatsiyani tashkil etish vazifalari;

• Radiatsiyaga qarshi (Rq) va kimyoviy himoya (KTQ) hamda umumiy tuzilmalarga qutqaruv ishlarining joyi, KTZM saqlanadigan joylardagi avariyani to’sish va zaharlangan inshootlarni, atrof-muhitni degazatsiya qilish ishlari;

Zararsizlantirish guruhlarigadegazatsiya bajariladigan ish joylari, ob’ektlari, degazatsiya qiluvchi eritmalarni tayyorlash va mashinalarni to’ldirish, degazatsiya ishlarini olib borish yuklatiladi.

Kimyoviy o’choqda qutqaruv ishlarini bajarishi lozim bo’lgan vazifalar olinganlan keyin har bir tuzilma boshliqlari o’z qo’l ostidagi fuqarolarni yakka tartibdagi himoya vositalari, antidotlar, SHKP-8 bilan ta’minlaydilar. SHundan keyin ular raz-vedka, sanitar drujina, RQ va KTQ tuzilmalaridan keyin o’z ish joylariga borib, vazifalarini bajarishga kirishadilar.

Bunda birinchi bo’lib zararlangan odamlarga yordam ko’rsatiladi, ya’ni gazniqob kiydiriladi, antidot berilib, tibbiy yordam ko’rsatiladi va ular har xil zararlanish toifalariga bo’linib, so’ngra tibbiyot shahobchalariga evakuatsiya qilinadi.

Zararsizlantiruvchi tuzilmalar, hamma yo`llar, inshootlar, texnikalar degazatsiya qilinadi. SHu tariqa kimyoviy shikastlangan o’choqda qutqaruv ishlari bajariladi.

Biologik shikastlangan o’choqda esa biologik razvedka va bakterial moddalar xili, karantin yoki observatsiya rejimini qo’llanilishi; sanitar-ekspertiza, oziq-ovqat mahsulotlari, suv, yemlarning zaharlanganligini aniqlash va ularni zararsizlantirish; epidemiyaga qarshi, sanitar-gigienik, veterinariya ishlari va boshqa omillar amalga oshiriladi.

Bu ishlarni olib borishda biologik shikastlangan o’choqda sanitar-epidemiologik maskan, veterinariya maskani, epidemiyaga qarshi harakatlanuvchi otryad, shifoxonalar, poliklinika, veterinariya tarmoqlari va boshqa meditsina tarmoqlari jalb etiladi. Ular birinchi navbatda og`ir kasallik tarqatuvchilardan saqlash uchun

profilaktik omillar olib borishadi. Bunda turli xildagi ta’sir etuvchi antibiotiklardan hamda SHD-2dan, gazniqoblardan foydalaniladi.

Hududda kasallik tarqatuvchining aniqturi topilgandan keyin, unga qarshi maxsus dorilardan foydalaniladi. SHundan keyin shikastlanganlarning kasallanish holatiga qarab har xil darajada tuzatish muolajalari olib boriladi. Ular darhol kasalxonaga yotqiziladi va juda og`irlari ma’lum joyga, maxsus guruxlar yordamida evakuatsiya qilinib o’sha yerda davolanadilar.

Biologik o’choqning tugatilishi u yerdagi oxirgi kasal odamning tuzalib ketish vaqgi bilan aniqlanadi. Biologik o’choqda harakatlanuvchi qismlar, u yerdagi yuqumli kasallik bilan kasallanmasliklari uchun hamma omillarni olib borishlari kerak, ya’ni kasallar bilan muloqatda bo’lmaslik, inshootlar, xonalar, atrof-muhit zararsizlantirib turilishi, kiyim-kechaklarni dezinfektsiya qilishi va o’zini sanitar-qayta ishlovdan o’tkazib turish talab etiladi. Mana shularga rioya qilib, harakatlanuvchi tuzilmalar hech qanday yo`qotishsiz, o’z vazifalarini bajarib boradilar. Murakkablashgan shikastlanish o’chog`ida QBTIni olib borish, alohida-alohida o’choqdarda olib borilgan ishlarga nisbatan bir necha o’n barobar og`ir hisoblanadi. CHunki bu holatda vaziyat juda murakkab bo’lib, o’choqdagi shikastlantiruvchi faktorlar turini aniqlash juda og`ir hisoblanadi. Bulardan tashqari bunday o’choqda biror faktorga qarshi olib boriladigan omillar ikkinchi faktorga tamoman teskari bo’lishi mumkin. Masalan, xavfli epidemiya bilan kasallangan odamlarni davolashda foydalaniladigan karantin omili kuchli binar-xususiyatli kimyoviy qurollar ishlatilganda qo’llaniladigan evakuatsiya va boshqa vositalardir.

Murakkablashgan o’choqtsa biror uslubiy ko’rsatma asosida emas, QBTI sharoitini aniqo’rganish orqali, o’sha yerdagi vaziyatdan kelib chiqqan holatda ish olib boriladi.

3. Zararlangan materiallarga maxsus qayta ishlov berish

Dushman tomonidan qo’llanilgan qirg`in qurollari oqibatida insonlar, atrof-muhit, suv, oziq-ovqatlar, texnika, transport vositalari va inshootlar radioaktiv zarrachalar, zaharli modtsalar va bakterial moddalar bilan zararlanishi mumkin. SHu sababdan fuqarolarni mana shu zararlanishdan saqlashda maxsus ishlov berish omillari bajariladi. Maxsus ishlov berish omili — umumiy qirg`in qurollari talafotlarini yo`qotish jarayonining asosiy qismini tashkil etib, u qutqaruv va tiklash ishlarini olib borishda kompleks vazifalarni o’z ichiga oladi.

Maxsus ishlov berish omili — to’liq hamda qisman ishlov berish xillariga bo’linadi. To’liq ishlov berish omili deyilganda qo’yilgan vazifalarni bajarishda hech qanday himoya vositalarisiz amalga oshirish, ya’ni xavfsiz sharoit yaratish tushuniladi. qisman ishlov berish omillarida esa qo’yilgan vazifalarni faqat terini himoyalovchi vositalarsiz amalga oshirish sharoiti tushuniladi. Maxsus ishlov berish omili — atrof-muhitni zararsizlantirish hamda fuqarolarni sanitar ishlovdan o’tkazishdan tashkil topgan.

Texnika va transport vositalarini zararsizlantirish avtoservis va boshqa ta’mirlash korxonalarida amalga oshiriladi.

Fuqarolarni sanitar ishlovdan o’tkazish esa, hammom, dushxona va boshqa maxsus yuvinish joylarida amalga oshiriladi.

Zararsizlantirish omiliga dezaktivatsiya, degazatsiya va dezin-fektsiya jarayonlari kiradi.

Dezaktivatsiya deyilganda, zararlangan vositalardan (kiyim-kechak, himoya vositalari, suv, texnika, transport vositalari) hamda inshootlardagi radioaktiv moddalar aktivligini yo`qo-tish tushuniladi. Dezaktivatsiyaning to'liq hamda qisman xili mavjud bo'lib, u asosan mexanik va fizik-kimyoviy usul bilan olib boriladi. Mexanik usulda — radioaktiv moddalar bilan zararlangan sirt yuzalarini artish orqali yo`qotiladi. Fizik-kimyoviy usulda esa radioaktiv moddalar turli xildagi kimyoviy modtsa eritmalari bilan yuvish amalga oshiriladi. Dezaktivatsiyada asosan suv ishlatilib, radioaktiv moddalarning yuviluvchan-ligini oshirishda, sirtaktiv hamda kompleks hosil qiluvchi moddalar, kislota va ishqorlar ishlatiladi. Bular: SF-2, OP-7, OP-10, №3R04, trilon B, shavel, limon kislotalari va uning tuzlaridir.

Degazatsiya omili — zaharlovchi moddalarni parchalab, zararsiz moddalar hosil qilishi, hamda ularning miqdorini kamaytirish hisoblanadi. Degazatsiya omili maxsus texnikalar yordamida amalga oshiriladi. Degazatsiya qiluvchi moddalarga kimyoviy moddalar kirib, ular oksidlovchi xlorli birikmalar (gipoxloritlar, xloramin) va ishqorii birikmalar (№ON, soda, ammiak, ammiakli tuzlar) kiradi. Bu birikmalarning hammasi eritma holida ishlatiladi.

Erituvchi sifatida: suv, dixloretan, trixloretan, benzin ishlatiladi. Degazatsiya qiluvchi eritma №1,5 foizli geksaxlor-melamin yoki 10 foizli dixloramin eritmasi iprit va boshqa kimyoviy qurollarni zararsizlantirishda ishlatiladi. Degazatsiya qiluvchi eritma №2, 2 foiz №ON, 5 foizli monoetanolamin va 20 foizli ammiakli suv eritmasidan tashkil topib, zoman tipidagi zaharlovchilarni zararsizlantiradi. Terini kasallantiruvchi va asabni pallajlovchi zaharli moddalarni zararsizlantirishda xlorli ohak eritmasi ishlatiladi.

Kimyoviy qurollar bilan zararlangan atrof-muhit kimyoviy yoki mexanikusuldadegazatsiya qilinadi. Kimyoviy usul bo'yicha yuqorida aytilganidek, degazatsiyalovchi modda eritmalari bilan qayta ishlanadi. Mexanik usulda esa zararlangan joylarning ustki qismlari (7-8 sm qalinlikda) olib tashlanadi yoki o'sha joyning usti qalin somon, taxtalar bilan berkitilib himoya qilinadi.

Dezinfektsiya omili — bakterial qurollarni yo`q qilish maqsadida amalga oshiriladi. Dezinfektsiya omillari turli xil ko'rinishda amalga oshirilib, ulardan tozalash: maqsadli, doimiy va tugallanadigan xillari qo'llaniladi.

Tozalash dezinfektsiya usuli kasallik tarqalmasdan oldin qilinadigan dezinfektsiya hisoblanadi. Bunda bakteriyalarni o'ldiruvchi vositalar qo'llaniladi. Doimiy dezinfektsiyada epidemiyaga qarshi omillar o'tkaziladi (sanitar-gigienik va zararsizlantirish ishlari). Tugallanadigan dezinfektsiya oxirgi kasal kasalxonaga yotkazilgandan keyin o'tkaziladi. Buni sanitariya epidemiologiya stantsiyasi (SES) xodimlari amalga oshiradi. Dezinfektsiya — kimyoviy, fizik, mexanik va kombinatsiyalashgan usullar bilan amalga oshiriladi. Kimyoviy usulda — kasal tarqatuvchi mikroblar degazatsiyalovchi moddalar bilan yo`qqilinadi. Fizik usulda kiyim-kechaklar, idish-tovoqlar va boshqa vositalarni, materiallarni qaynatish yo`li bilan dezinfektsiya qilish tushuniladi. Bu usul asosan oshqozon-ichak infektsiyasi tarqalganda qo'llaniladi.

Mexanik usul deyilganda degazatsiya qilishda qo’llaniladigan uslublar, qoidalar (yer ustidagi zararlangan qismlarni yo`qotish) tushuniladi. Bunda zararlangan joylar, inshootlar, boshpana, RSB, transportlar, yo`llar zararsizlantiriladi.

Dezaktivatsiya va degazatsiya omillarining tozaligi dozimetrik va kimyoviy asboblar bilan, dezinfektsiya omillar esa bakteriologik usul orqali tekshiriladi.

Sanitar qayta ishlash. Bu omil maxsus qayta ishlov berish usulining asosini tashkil etib, u fuqarolarni radioaktiv, zaharlovchi moddalar va bakterial tumanlar bilan zararlanishining oldini olishda qo’llaniladigan har tomonlamali omillardan tashkil topgan.

Sanitar qayta ishlash, qisman va to’liq turlarga bo’linadi. qisman sanitar qayta ishlash barcha kiyim-kechak, yakka tartibdagi himoya vositalari, ochiq qolgan terilarni mexanik usulda tozalash hisoblanadi.

To’liq sanitar qayta ishlash tana a’zolarini zararsizlantiruvchi usullarni qo’llash (yuvish, dezinfektsiya qilish) tushuniladi. Bu barcha tana a’zolarimizni, kiyim-kechak, himoya vositalari va boshqalarni zararsizlantirish maqsadida qo’llaniladi. Bu usul bo’yicha shikastlangan hududdan chiqqan fuqarolar, ishchi-xizmatchilar, tuzilmalar jalb qilinadi va masalalarga birinchi darajali davlat ahamiyatiga molik vazifa sifatida qaraladi. Odatda, davlat komissiyasi tarkibiga sog`liqni saqlash organi rahbarlari, FVV boshqarma boshliqlari kiradilar. Bunday sharoitda kasalxonalar, ambulatoriya-poliklinika muassasalarining xodimlari doimiy ish tartibiga o’tkaziladi, tibbiy xizmatning barcha kuch va vositalari harakatga keltiriladi.

Tabiiy ofat ro’y bergan hududda birinchi yordam aholining o’zi tomonidan, shuningdek, bu hududda mavjud SD kuchlari tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari zarar ko’rganlarga birinchi tibbiy yordam shu xududdagi tez yordam va birinchi tibbiy yordam kuchlari hamda vositalarini jalb etish orqali amalga oshiriladi, chunki bu yordamlarning salohiyati, zarar ko’rgan joyga tezroqetib kelish imkoniyatini beradi.

Tabiiy ofatdan xalq xo’jaligi ob’ektlarida zarar ko’rganlarga shu korxonalar boshliqlari rahbarligida birinchi yordam ko’rsatiladi. Tez va birinchi tibbiy yordam stantsiyalarining xodimlari qutqaruvchilar guruhlari bilan birgalikda buzilgan imoratlar va vayronalar ostida qolganlarni qidirish va birinchi tibbiy yordam ishlarini avvaldan belgilangan hududlarda tezkorlik bilan boshlab yuborishlari kerak. Odamlarni vayronalar ichidan qutqarib olish, topish jarayonida tez tibbiy yordam xodimlari ularga ham birinchi tibbiy yordam ko’rsatishlari kerak. Yarador va o’lganlar ko’p bo’lgan takdirda, ularni transport vositalariga ortish joylarini belgilash zarur bo’ladi. Bu joylar talafot ko’rganlarni ortish uchun transport vositasi kelishiga qulay bo’lishi lozim. Yengil talafot ko’rganlar transportlarga chiqish joylariga o’z kuchi bilan borishlari uchun ularga yo`nalish belgilab beriladi.

Talafot ko’rganlar transport vositalarida eng yaqin kasalxonalar yoki ambulatoriya va poliklinika muassasalariga evakuatsiya qilinadi hamda birinchi vrach yordami ko’rsatiladi. Ba’zi bir hollarda birinchi vrach yordamini ko’rsatish uchun davolash-profilaktika muassasalari negizida shakllantirilgan — birinchi tibbiy yordam otryadlari (BTYoO) jalb etilishi mumkin.

Talafot ko’rgan aholini davolash-evakuatsiya ta’minoti tizimidagi birinchi bosqichli ambulatoriya poliklinika muassasalarida talafot ko’rganlar uzoq

qolmasliklarini ko’zda tutish kerak. SHu sababli favqulotda holat shtablari tabiiy ofatdan zarar ko’rganlarni statsionar davolash muassasalariga evakuatsiya qilish uchun yetarli bo’lgan transport vositalarini ajratish choralarini ko’rishi kerak.

Toshkent zilzilasi oqibatlarini tugatish tajribasi shuni ko’rsatdiki, talafot ko’rganlarning asosiy qismiga birinchi yordam aynan ambulatoriya-poliklinika muassasalarida berilishi mumkin. Ushbu zilzila paytida qayd etilgan 1623 jarohatlardan 496 holatda birinchi vrach yordami tibbiy tez yordam xodimlari, 781 holatda ambulatoriya-poliklinika muassasalari tomonidan amalga oshirilgan.

Davolash-evakuatsiya ta’minoti tizimidagi ikkinchi hal qiluvchi bosqich sifatida, tabiiy ofatdan zarar ko’rgan aholiga tibbiy yordam ko’rsatishda shu hududga yaqin joylashgan davolash muassasalari hisoblanadi. Faqat keyinroq ayrim hollarda talafot ko’rganlar boshqa tor ixtisosdagi davolash muassasalariga joylashtirilishi mumkin. Talofat ko’rganlarni evakuatsiya qilishni to’g`ri tashkil etish va ularga maxsus tibbiy yordam ko’rsatishni uyushtirish uchun favqulodda holat shtablari davolash-profilaktika muassasasining holati, ulardagi bo’sh o’rinlar to’g`risida, qaysi davolash muassasasiga qancha odamni yuborish mumkinligi haqida aniq ma’lumotga ega bo’lishlari talab qilinadi.

Favqulodda holat shtablari yuz bergan falokatni to’g`ri baholay olish asosida davolash muassasalari hodimlari, tez tibbiy yordam stantsiyalari, birinchi tibbiy yordam otryadlari (BTYoO), poliklinika muassasalariga tegishli ko’rsatmalar berishlari lozim. SHu maqsadlarda shtablar tegishli muassasalar bilan doimiy aloqada bo’lishlari talab qilinadi. Talafot ko’rganlarni evakuatsiya qilish paytida ularni toifalarga ajratib yordam ko’rsatish maqsadga muvofiq. Kasalxonalarga esa faqat statsionar davolanishga muhtoj bo’lganlar yotkizilishi lozim. Yengil va o’rtacha jarohat olganlar hamda statsionar sharoitda davolanishi zarur bo’lmaganlar ambulatoriya sharoitida davolanishlari kerak.

Turli tan jarohati olganlar bilan bir qatorda tabiiy ofat natijasida ruhiy shikast olganlarga, somatik va endokrenologik kasalliklari zo’riqib ketganlarga, bolasi tushib qolganlarga alohida tibbiy yorlam ko’rsatish zarur. Kasallarning yuqorida ko’rsatilgan toifalariga tibbiy yordam berishda tez yordam va birinchi tibbiy yordam ko’rsatish stantsiyalari xodimlari yetakchi o’rindaturishlari, ularni har qanday tasodiflarda to’g`ri qarorga kelishga tayyorgarliklarini oshirish talab etiladi. Tez yordam xodimlari avvaldan yurak-tomir va boshqa kasalliklarni davolash vositalari, zarur asbob va jihozlar bilan ta’minlangan bo’lishlari, bunday kasalliklarni davolash usullari bilan tanish bo’lishlari lozim. Bu toifa kasallarga tibbiy yordam berish uchun ixtisoslashgan tibbiy yordam brigadalarini avvaldan belgilash, tabiiy ofat vaqtida ular xizmatidan (jumladan, akusher-ginekologik, psixonevrologik, kardiologik va h.k.) samarali foydalanish lozim.

SHuni nazardatutish lozimki, tabiiy ofat paytida (ayniqsa, zilzila) tibbiyot muassasalari buzilishi mumkin. SHu tufayli kasallar, tibbiyot xodimlari va jihozlarni ko’chirishni, davolash muassasalarini moslashmagan binolarga o’tkazishni taqozo qiladi. Bunday maqsadlar uchun muayyan binolar (maktab, bolalar bog`chasi va h.k.) tayyorlab qo’yilishi kerak. Tabiiy ofat paytida kasalxonalar va boshqa tibbiyot muassasalarini ko’chirish yuqori saviyadagi tashkilotchilik hamda tibbiyot

xodimlarining yuksak darajada ma’naviy tayyorgarligini talab qiladigan qiyin va mashaqqatli ish.

Toshkent zilzilasi paytida tibbiyot xodimlari tomonidan kasallarni himoya qilish borasida juda katta ish amalga oshirildi. Kechayu-kunduz davomida zarar ko’rgan kasalxonalardan 2000 dan ziyod kasallar ambulatoriya sharoitida davolanishga chiqarildi. 1000 dan ortiq kasal boshqa davolash muassasalariga o’tkazildi. Ko’chirish mumkin bo’lmagan kasallarning bir qismi kasalxonalarning yozgi chodirlariga o’tkazildi.

Tabiiy ofat natijasida aholi va tibbiyot muassasalarining joylanish holatida o’zgarishlar ro’y berganligi tufayli, tibbiyot xizmati boshliqlari tibbiyot kadrlarini qayta taqsimlash, yangi tibbiyot muassasalarini asbob-uskunalar bilan jihozlash, o’rinlarni kasallar soniga muvofiqlashtirish, poliklinikalar o’rtasida vrach-hududlarining chegarasini qayta o’rganish va yangi dorixonalar ochish kabi masalalarni ko’rib chiqishlari lozim. Ba’zi hollarda ko’chma dorixonalar va vrachlik punktlarini tashkil etish talab etiladi.

Kasallarga tibbiy xizmat ko’rsatish jarayoniaa tibbiyot institutlari talabalarini vrachlik va feldsherlik lavozimlariga jalb etish kerak. Bu ishga tibbiy ilmiy-tadqiqot institutlari muassasalarining xodimlarini ham jalb etish mumkin. Tibbiy yordamni tashkil qilishda aholi o’rtasida tushuntirish va sanitariya-profilaktika ishlarini olib borish katta ahamiyatga ega.

O’tgan zilzilalar paytida olingan jarohatlar tahlili shuni ko’rsatdiki, 10 foiz jarohat binolar devori va tomi qulashidan, 35 foizi bino va inshootlar qurilmalari va bo’laklari sinib tushishidan, 55 foizi fuqarolarning zilzila paytida qanday yiqilish kerakligini bilmaganliklaridan yuzaga kelgan. Tabiiy ofatlar tez-tez ro’y beradigan hududlarda sanitar va ma’rifiy tadbirlar doimiy ravishda olib borilishi kerak. Tabiiy ofat hududida sanitar-gigiena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o’tkazishning muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash lozim.

Ba’zida tabiiy ofat natijasida minglab oilalar boshpanasiz qoladilar va noqulay, juda qiyin sharoitga tushadilar. Odamlarni chodirlarga ko’chirish, binolar buzilishi oqibatida oqava kanallari izdan chiqishi, kir yuvish, hammom xizmatining yomonlashuvi natijasida yuqumli kasalliklar paydo bo’lishi uchun qulay vaziyat tug`iladi. Bu sharoitda tibbiy xizmat oldida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish vazifasi paydo bo’ladi. Sanitariya-epidemiologiya stantsiyalari izdan chiqqan sharoitda epidemiyaga qarshi ko’chma otryadlar SES vazifasini o’z zimmmalariga olishlari kerak.

Aholini yaxshi, sifatli ichimlik suvi bilan uzluksiz ta’minlash, uy-joy axlatlarini markazlashtirilgan tarzda olib chiqib ketish, sifatli va to’laqonli oziq-ovqat bilan ta’minlash, hammomlarning doimiy ravishda ishlashi, yuqumli kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Esda saqlash lozimki, bolalarga yuqumli kasalliklar juda tez yuqadi.

Ommaviy yong`in va suv toshqinlari paytida tibbiy yordamni tashkil etish o’ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, yong`in paytida shuni esdan chiqarmaslik lozimki, zarar ko’rganlar ichida aholi vakillaridan tashqari shaxsiy bo’linmalar a’zolari ham bo’lishi mumkin. SHuningdek, favqulodda holat bo’linmalari kuyganlardan tashqari gaz va tutundan zaharlanganlarga ham yordam ko’rsatishlari

talab qilinadi. Bunday vaziyatlarda birinchi tibbiy yordamni tutun tarqalgan hududda qolib, jarohatlanganlarni qidiruvdan boshlash kerak. Bu taqdirda sanitariya bo'linmasi albatta, ikki kishilashib harakat qilishi va bir-birining holidan xabardor bo'libturishi lozim. Sanitar-drujinachilari kuygan kasalga yordam ko'rsatish usullaridan yaxshi xabardor bo'lishi, ularni tutunli hududdan olib chiqib ketishiga mo'ljallangan transport vositalari esa halokat o'chogiga iloji boricha yaqinroq kelishi kerak. Birinchi vrachlik va maxsus tibbiy yordam ham talafot o'chog`iga eng yaqin joyga keltirilishi lozim. Bu tibbiy yordamlar mavjud davolash-profilaktika muassasalari va birinchi tibbiy yordam otryadlari xodimlari kuchi bilan amalga oshiriladi. Davolash muassasalarining ko'pchiligi talafot ko'rgan taqdirda maxsustibbiy yordam brigadalari harakatga keltiriladi. Bunday holatda davolash muassasalari kuyganlarni davolovchi muassasalarga aylantiriladi va tibbiy evakuatsiya qilishning birinchi hamda yagona bosqichi hisoblanadi. Tibbiy yordam otryadlari ko'paytirilgan taqtsirda davolash muassasalarida faqat birinchi yordam amalga oshiriladi.

Suv toshqini paytida talafot ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish ham o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega. Bu paytda birinchi tibbiy yordam, asosan, o'pkalarga sun'iy havo yuborish, yurakni massaj qilish va tanani qizdirish kabi yumushlardan iborat. Vrachlik yordami organizmning hayot faoliyatini ushlab turishga qaratilgan oddiy davolash usullaridan tashkil topadi. Bu paytda asosiy og`irlik davolash muassasalari zimmasiga tushadi va ular ko'p hollarda maxsus tibbiy yordam ko'rsatishadi. Bu yordam kasallarni evakuatsiya qilish jarayonida birinchi va oxirgi bosqich hisoblanadi.

Yirik fojia va avariyalar paytida tibbiy yordamni tashkil etish xususiyatlariga ham to'xtalib o'tish kerak. Bularga quyidagilarni kiritish zarur:

• Talafot ko'rganlarga sanitar-drujinalari kuchi bilan birinchi tibbiy yoramni berish, bunda bir ishchi smenada o'z-o'ziga yordam ko'rsatish ko'zda tutiladi. Zarur paytlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun yaqin joylashgan korxonalarning sanitar drujinalari ham jalb etilishi mumkin;

• Tez yordam va birinchi tibbiy yordam kuchlarini tez va ommaviy ravishda jalb etish imkoniyati mavjudligi;

• Hamma jarohat olganlarga tez va malakali birinchi tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyati mavjudigi.

Bu vaziyatda shahar (tuman)ning barcha tibbiy muassasalari jalb etilishi mumkin. Sanitar drujinalar talafot ko'rganlarga nisbatan kam sonli bo'lgan holda ularni kichik guruhlarga ajratib, barcha mavjud tibbiyot muassasalariga bo'lib yuborish mumkin.

Kimyo sanoati ob'ektlarida yirik avariyalar ro'y bergan holda talafot ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatilishi ham o'z xususiyatlariga ega. Bunday avariyalar paytida faqat avariya ro'y bergan sex va bo'linma ishchilari, rahbarlar, aholi orasida ham zarar ko'rganlar bo'lishi mumkin. Bu narsa yengil uchuvchan gazlar bo'lgan ob'ektlarda ro'y bergan avariyalar oqibatida yuzaga keladi. Bunday avariyalar paytida tibbiy yordam ko'rsatilishi uchun kuch va vositalarni avvaldan, puxta tayyorlash kerak. Kuchli ta'sir qiladigan zararli moddalarning havo orqali ta'sir o'tkazishini hisobga olib, shamolning yo`nalishi, xonalarning joylashishi, zararlashi mumkin bo'lgan maydon kattaligini aniqlab, bu xududda ishlovchi va yashovchi insonlar soni to'g`risida ma'lumotga ega

bo’lish talab qilinadi. Sanitar-talafotlar ko’payishining oldini olish uchun qo’shni korxonalar xizmatchi-ishchilarini ogohlantirish tartibi belgilanishi zarur. Ular shaxsiy vosita va qurilmalardan foydalana olishlari kerak. Mazkur korxonada mavjud kimyoviy moddaning xususiyatlariga qarab, ulardan zaharlanganlik paytida qanday ehgiyot choralari ko’rilishi mumkinligi to’g`risida xabardor bo’lishlari, zarur vositalar va transport bilan ta’minlanishlari lozim. Tez tibbiy yordam va birinchi tibbiy yordam xodimlari kimyoviy moddalardan zaharlanish patalogiyasini yaxshi bilishlari, tibbiy yordam ko’rsatish tartibiga rioya qilishlari talab qilinadi. Bu paytda asosiy vazifa zarar ko’rganlarni zaharlanish hududidan tezroqolib chiqib ketish hisoblanadi. Tibbiy yordam ko’rsatayotgan tibbiyot xodimlari yakka tartibdagi muhofaza vositalaridan foydalanishlari shart.

Radioaktiv moddalarni saqlash, tashish va qayta ishlash texnologiyasi buzilgan paytdagi atrof muhitni zararlantiruvchi avariyalarda tibbiy yordam ko’rsatishi ham vaziyatni to’g`ri baholash paytida o’z xususiyatlariga ega. Atrof muhitni ifloslantiruvchi manbalarga hozirgi davrda kimyoviy sanoatni, turli radioizotop laboratoriyalarini, radioaktiv chiqindilarni ishlab chiqish va ko’mib tashlash joylarini, turli yadroviy reaktorlarni kiritish mumkin.

Radioaktiv moddalar bilan atrof muhit zararlanishining eng katta xavfi atom reaktorlari avariyaga uchragan paytda sodir bo’ladi. Atom elektrostantsiyalarida ro’y bergan avariyalar paytida uzoq yashovchi atom radioaktiv izolyatorlari atrof muhitni zararlantiradi. Bu paytda nurlanish jarayoni yadro portlashi davridagidan ancha sekin kechadi. Vaqt jihatidan sekin parchalanish yadro portlashi oqibatlaridan kam zarar yetkazmaydi.

Tuproq, suv, binolar, inshootlarning zararlanish ehtimoli insonlar uchun katta xavf tug`diradi. Avariya hududida ishlash mumkin bo’lgan eng katta doza 25 R ga tengdir.

Atom elektrostantsiyalaridagi avariya oqibatida tan jarohatdan tashqari radiatsiya talafoti ham ro’y beradi. Favqulotda holat tibbiyot tizimlaridagi faoliyatning bosh yo`nalishi suv ta’minoti, oziq-ovqat ustidan radiatsiyaga oid nazoratni o’rnatish, aholini epidemiyaga qarshi va davolash profilaktika ta’minotini tashkil etish, barchaga muntazam yod preparatini yetkazib berish lozim bo’ladi. Radiatsiya nurlanishi olgan shaxslarni aniqlashga alohida e’tibor beriladi. Bu jihatdan barcha aholini uch guruhga ajratish mumkin: hech qanday radiatsiya jarohati olmaganlar; oz miqdorda nurlanish olgan va radiatsiya jarohati belgilari bo’lmagan shaxslar; nur kasalligi yoki nurlanishdan kuyishga olib keluvchi nurlanishga uchragan shaxslar.

Birinchi guruhga kiruvchi shaxslar qanday bo’lmasin nazoratga muhtoj emaslar, ammo, radiatsiya hududida ishlash paytida ular radiatsiya nazoratiga olinadilar. Ikkinchi guruhga kiruvchilar ustidan doimiy tibbiy nazorat o’rnatiladi, bu narsa qon tarkibini doimiy ravishda tahlil qilib borishidan iborat. Bu shaxslar zararlangan hududda ishlashga qo’yilmaydilar. Nurlanish asorati bor shaxslar kasalxonaga yotkizilishi va maxsus tibbiyot muassasalarida davolanishlari kerak.

SHunday qilib, favqulodda vaziyatlarda tibbiyot xizmatlari yirik avariyalar paytida talafot ko’rganlarga puxta o’ylangan va oddindan rejalashtirilgan tadbirlar asosida yordam berishlari zarur.

Favqulodda vaziyatlarda tibbiyot xizmati shaxsiy tarkibi, ehtimoli bor bo’lgan ishlab chiqarish avariyalari xususiyatini bilishlari va tegishli ravishda talafotlarga

qarshi kurashish qurollariga ega bo’lishlari kerak. Bu vaziyatlarda harakat qilish malakasini tez tibbiy yordam va birinchi tibbiy yordam hamda davolash muassasalari xodimlari yaxshi egallagan bo’lishlari talab etiladi.

Tabiiy ofat, avariya va fojealarda talafot ko’rganlarga tibbiy yordamni tashkil etish. Halokatlar tibbiy xizmatining asosiy vazifasi shikastlangan o’choqlarda avariya-qutqarish ishlarini olib borish hamda tibbiy-sanitariya ta’minoti samaradorligini oshirish hisoblanadi. Ya’ni uning bosh maqsadi - shikastlanganlarni iloji boricha ko’p qutqarishdir.

Halokatlar tibbiy xizmati, amaldagi tibbiy xizmatning kuch va vositalaridan samarali foydalanadi, u uch tarkibiy qismdan tashkil topadi. Birinchi qismga – boshqaruv tizimi, bu tizim respublika darajasida faoliyat ko’rsatib, u sog’liqni saqlash vaziri boshchiligida turli vazirlik va idoralar vakillaridan tashkil topgan idoralararo muvofiqlashtiruvchi hay’atdan iborat. Mahalliy darajadagi bunday hay’atlarga, sog’liqni saqlash boshqarmalari va mahalliy bo’limlarning rahbarlari boshchilik qiladi.

Halokatlar tibbiy xizmatining ikkinchi tarkibiy qismini – amaldagi tez tibbiy yordam tizimi tashkil etadi. Halokatlar tibbiy xizmatining asosiy bo’g’inini kechiktirib bo’lmaydigan ixtisoslashgan tibbiy yordam xizmati (1-bosqich), hamda SHTYoDIM, va uning mintaqaviy filiallari va tuman markaziy kasalxonalari (2-bosqich) tashkil etadi. Bunda SHTYoDIM – saralash – evakuatsiya gospitallari tarzida, tuman markaziy kasalxonalari esa – ixtisoslashgan kasalxonalar sifatida faoliyat ko’rsatadi.

Halokatlar tibbiy xizmatining uchinchi tarkibiy qismini – ixtisoslashgan xizmatlar tashkil etib, u doimo tayyor turadigan maxsus tuzilmalarni o’z ichiga oladi. Bunday tuzilmalarga: ikkinchi bosqichni kuchaytirishga mo’ljallangan ixtisoslashgan shoshilinch tibbiy yordam brigadalari; 1-bosqichni kuchaytirishga mo’ljallangan shoshilinch tibbiy yordam brigadalari kiradi. Bu tuzilmalar asosan o’rtacha halokatlar sodir bo’lganda faoliyat ko’rsatadi. Katta halokatlar yuz berganda zaxirada qolgan, ixtisoslashgan ko’chma gospitallar ishga solinadi.

Halokatlar tibbiy xizmatining asosiy yo’nalishlaridan biri aholiga birinchi tibbiy yordam ko’rsatish hamda favqulodda vaziyatlarda xatti-harakat qoidalarini o’rgatishdan iborat.

Katta miqyosidagi favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordamni tashkil etishda quyidagi ishlar bajariladi:

- SHikastlangan o’choqlarni tibbiy razvedka qilish;
- Jabrlanganlarni qidirib topish va ularni qutqarish;
- Jabrlanganlarni saralash;
- Jabrlanganlarni evakuatsiya qilish;
- Tibbiy yordam berish va davolash.

SHikastlangan o’choqlarni razvedka qilishda – aholini soni, tibbiy xizmat kuchlari va vositalarining soni, talofot darajasi, yo’llar va suv manbalarining mavjudligi, hamda ularning ahvoli haqidagi ma’lumotlar olinadi. Jabrlanganlarni qisqa vaqt mobaynida (bir necha soatdan – bir sutkagacha) qidirib topish va qutqarish talab etiladi, hamda iloji boricha ularning hayotini saqlab qolish omillari

bajariladi. Bu omillarning bajarilishida qutqaruv tizimlaridan tashqari, o’t o’chiruvchilar, jamoat tartibini saqlovchi, harbiy qismlarning xodimlari hamda ko’ngilli fuqarolar bajaradilar.

Jabrlanganlarni saralash tibbiy xizmatining asosiy vazifasi hisoblanadi. Saralash – tibbiy yordamning hajmini, turini, hamda yordam ko’rsatishning keyingi bosqichlarini hisobga olib, jabrlanganlarni transportlarda tashish imkoniyatlari va navbatini aniqlaydi. Jabrlanganlarni evakuatsiya qilish – talofot olganlarning shikastlangan o’choqlardan olib chiqish, ularga tibbiy yordam ko’rsatish, hamda davolash uchun tibbiyot muassasalariga olib borish tadbirlaridan iborat. Bunda tibbiy hisobga olish varaqasi to’ldiriladi va yaradorlarni transport vositalari (temir yo’l, avtomobil, suv va havo yo’li) yordamida evakuatsiya qilinadi.

SHunday qilib shikastlangan o’choqda qolgan jabrlangan aholi tibbiy yordamning hamma turlari bilan: birinchi tibbiy yordam, birinchi shifokor yordami, malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordami birin ketin ko’rsatiladi.

Albatta bu yerda favqulodda vaziyatning shikastlovchi omillarni to’xtatish (suvdan olib chiqish, yonayotgan kiyimlarni o’chirish, yonayotgan, gazga to’lgan uylardan olib chiqish va boshqalar) choralarni ko’rgan holda xatti-harakat qilish kerak.

Talafot olgan kishini tibbiy ko’rikdan o’tkazishda shifokor quyidagi tartibdagi tekshiruvlarni o’tkazadi:

- Og’iz bo’shlig’i va yuqori nafas yo’llarini tekshirish (og’izni begona narsalardan tozalash);
- Nafas olish harakatlarini tekshirish (o’pkaga sun’iy nafas berish va yurakni bevosita uqalash);
- Qon tomirlari butunligini aniqlash (qon tomirlaridan oqayotgan qonni to’xtatish, ayniqsa arterial tomirlardan);
- Yurak-qon tomir tizimini tekshirish (tomir urishini);
- Sezgi a’zolarini tekshirish;
- SHikastlangan kishini nutqini tekshirish.

Birinchi tibbiy yordam berishning eng qisqa vaqti – shikastlangan vaqtdan boshlab 30 minggacha, nafas olishi to’xtagan bo’lsa 5-7 minutgacha amalga oshirilishi lozim. Zaharlangan hududlarda 30 minut ichida birinchi tibbiy yordam ko’rsatilsa, ularning umumiy ahvolining og’irlashuvi ikki barobarga kamayadi. Demak, jarohat olganlarga tibbiy yordam ko’rsatish vaqti nihoyatda muhim hisoblanadi. Birinchi tibbiy yordamni jarohat olgan kishining o’zi yoki uning yonida bo’lganlar (aholi, san drujinachilar yoki fuqaro muhofazasi hodimlari) ko’rsatadi.

SHunday qilib, «Halokatlar tibbiyoti» xizmati tizimlari ikki bosqichli tizimda faoliyat ko’rsatadilar. Birinchi bosqichda – bevosita o’choqning ichida jabrlanganlarni qidirib topish, ularga birinchi tibbiy va birinchi shifokor yordamini ko’rsatish, ularni tibbiy evakuatsiya qilish, hamda sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshiradilar. Ikkinchi bosqichda esa jarohatlanganlarga shifoxonalarda malakali, ixtisoslashgan tibbiy yordamni amalga oshiradi.

24-ma’ruza Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlarida qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini tashkil etish

O’quv savollari

1. FVDT kuch va vositalari
2. Qo’mondonlik-shtab va maxsus taktik mashg’ulotlar.
3. Immitatsiya rejasi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislar qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini o’tkazishi. QBTI uchun FM kuch va vositalarini tayyorlash, ularning boshqarish ko’nikmalarini hosil qilish. Ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalarida band bo’lgan aholini tayyorlash, ish joylarida mashg’ulotlar o’tkazish va tavsiya qilinadigan dasturlarga muvofiq FVda harakat qilishni mustaqil ravishda o’rganish, keyinchalik mustahkamlash yo’li bilan amalga oshiriladi.

Davlat hokimiyat i va boshqaruv organlari, vazirliklar, idoralar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari va mutaxassislar O’zbekiston Respublikasi FVV Fuqaro muhofazasi institutida 40 va 80 soatli mashg’ulotlarni o’tadilar. SHuningdek, o’quvlar harbiylashtirilmagan qo’shilmalarning rahbar boshliqlari tarkibi harbiylashtirilgan avariya-qutqaruv va doimiy tayyor maxsus qo’shilmalar tarkibidagi korxona, muassasa va tashkilotlar xodimlari FVlar bo’yicha rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlarida, shu bilan birga o’quv mashqlari, mashg’ulotlar o’tkaziladigan maskanlarda olib boriladi.

FMning amaliy mashg’ulotlarini zamon talablariga mos holda o’tkazish, fuqarolarni dushman tomonidan qo’llaniladigan zamonaviy qurol vositalaridan, shuningdek hududimizda kuzatiladigan tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariyalari va fojiyalar oqibatlaridan muhofaza qilish, odamlarda ma’naviy-ijtimoiy va psixologik sifatlarni tarbiyalash, obektlarni uzluksiz faoliyat ko’rsatishini ta’minlash, qutqaruv va tiklov ishlarini amalga oshirish bo’yicha bilimlarini, qobiliyatlarini oshirish imkonini beradi.

FVDTda FMning quyidagi amaliy mashg’ulotlari tashkil etiladi va o’tkaziladi:

1. SHaxsiy tarkib uchun maxsus-taktik;
2. Rahbar tarkib uchun shtab-komanda;
3. O’qitilayotgan hamma toifadagilar uchun, kompleks mashg’ulotlar.

Maxsus-taktik amaliy mashg’ulotlar tuzilmalarning oldiga qo’yilgan vazifalarni bajarishga o’rgatishdan iborat. Ya’ni bunday o’quv mashqlari fuqaro muhofazasining harbiylashgan va maxsus bo’limlari, hamda avariya-qutqaruv tuzilmalarining amaliy ishlarni bajarishga o’rgatish, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgandir. Bunday o’quv mashqning maqsadi: tizim boshliqlar tarkibini avariya-qutqaruv va boshqa tiklov ishlarini va aholini muhofaza qilishni tashkil etish, tizimlarni hamda avariya-qutqaruv bo’linmalarini aholini muhofaza etish tadbirlarini mustaqil ravishda bajarish, hamda boshqa tizimlar bilan hamkorlikda harakat qilishga tayyolash. Tizimlarning favqulodda vaziyatlar o’chog’ida harakat qilish tayyorgarligini tekshirish hamda fuqarolarning ruhiy fazilatlarini shakllantirishdan iborat. Maxsus-taktik amaliy mashg’ulotni o’tkazishda mashg’ulotni tayyorlash va o’tkazish haqida

buyruq, mashg'ulotga tayyorgarlikning rejasi, hamda o'quv mashqni o'tkazish rejalari ishlab chiqiladi. O'quv mashqlari umummaqsadli tuzilmalar bilan xizmatli tuzilmalar birgalikda o'tkaziladi. Jumladan, qutqaruv guruhlari bilan sanitar drujinalar, razvedka, aloqa, jamoat tartibini saqlash, himoya inshootlarida xizmat ko'rsatish guruhlari, yong'inga qarshi kurash guruhlari ishtirok etadilar. Bunda ishtirok etadigan tuzilmalarning soni, o'quv mashqini mavzusiga maqsadlariga, xarakteriga, avariya-qutqaruv ishlarining ko'lamiga, favqulodda vaziyat ko'lamiga va boshqa qutqaruv-tiklov ishlarining hajmiga bog'liq bo'ladi.

Komanda-shtab mashg'ulotlari - FVDTning shtab boshliqlarini, FM xizmat boshliqlarini, obektlarning komanda-boshliqlar tarkibini o'z funksional burchlarini bajarishga, birgalikda tayyorlashning asosiy shakllaridan biridir. Komanda-shtab o'quv mashg'ulotlarining ma'zmuni – barcha mashq qatnashchilarining aholi va hududlar muhofazasini tashkil etish, xalq xo'jaligi tarmoqlari barqarorligini ta'minlash bo'yicha tarmoda avariya, halokat, tabiiy ofat yoki zamonaviy qirg'in qurollar qo'llanilishi tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda (uning miqiyosini va texnologik xususiyatlarini hisobga olgan holda) aniq, sharoitdan kelib chiqqan holda tasarruflaridagi kuch va vositalarini boshqarishdan iborat. O'quv mashqlari rahbariyat tarkibi o'z qo'l ostidagilarni boshqarishda ko'nikmalar hosil qilishiga, favqulodda vaziyatlarni oldini olishga va uning oqibatlarini bartaraf etishga, yuzaga keladigan sharoitni to'g'ri baholay bilishga imkon beradi.

Komanda-shtab o'quv mashqlarini yuqori saviyada olib borilishi uchun, mashq mavzusi, uning maqsadi, mashq savollarini tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi fuqarolar boshlig'ining buyruqlari, hamda Vazirlik hay'ati yig'ilishining qarorlari asos qilib olinishi zarur hisoblanadi. O'quv mashqini olib borish uchun, mashqni o'tkazish rejasi, mashqga rahbarlik qilish tartibi, bajariladigan tadbirlar ro'yxati va mazmuni, moddiy texnik ta'minot rejasi va boshqa hujjatlar tayyorlanadi. Komanda-shtab mashg'ulotining maqsadlari har xil bo'lishi mumkin. Bulardan asosiylari: rahbarlarni va komanda boshliqlarining obekt FM tadbirlarini bajarishda nazariy bilimini va amaliy mahoratini oshirish, xodimlar, tuzilmalar va qo'shinlar bilan o'zaro harakat qilishini ta'minlashdan iborat.

Komanda-shtab mashg'ulotlari aniq taktik sharoitga yaqinlashtirlib olib boriladi. Mashg'ulot mavzusi va o'quv savollari odatda oldinda turgan har taraflama mashg'ulotning mavzusi bilan bog'langan bo'ladi. Komanda-shtab mashg'ulotlaridan oldin shtab mashqlarini o'tkazish tavsiya etiladi. Ularning sonini va olib borish vaqtini obekt FM boshlig'i komanda-shtab mashg'ulotlarini oldida turgan maqsadiga hamda rahbar tarkibi va boshqarish organlarining tayyorlanish darajasiga qarab aniqlaydi. Mashg'ulotlarga razvedka, aloqa bo'linmalari, jamoat tartibini saqlash, sanitar-drujinalar, shuningdek umumiy vazifalarni bajaruvchi tizimlar ham jalb etilishi mumkin. Obekt FM boshlig'i komanda-shtab mashg'ulotining rahbari hisoblanadi. Komanda-shtab o'quv mashqlari, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida (3 sutka davom etadi) 5 yilda bir marta; shahar va tumanlarda 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Komanda-shtab

mashqlari yoki mashg’ulotlar vazirliklar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda 1 yilda bir marta (1 sutka) o’tkaziladi.

Kompleks (har taraflama) mashg’ulot - obektni tayyorlashning muhim shakllaridan bo’lib, u FM bo’yicha o’rnatilgan aylanmani amalga oshirish bilan tugaydi. Kompleks mashg’ulotning mohiyati shundan iboratki, uning hamma qatnashchilari bir vaqtda yagona taktik sharoitda, moddiy ishlab chiqarish bazasida harakat qilib, obekt rejasida ko’zda tutilgan ishlab chiqarish faoliyatini to’xtatmasdan amalga oshiradi. Odatda mashg’ulotda: obekt FM rejasining realligi; FM tadbirlarini amalga oshirishga obektning tayyorgarlik darajasi va dushman tomonidan qo’llanilgan zamonaviy qurollar asoratlarini, shuningdek, tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariya va halokatlarning oqibatlarini tugatish bo’yicha tadbirlar o’tkazilishiga e’tibor beriladi; obektning favquloddagi vaziyatlar paytida uzluksiz ishlash yo’li va usullari tekshirib ko’riladi.

Kompleks mashg’ulotning maqsadlari quyidagicha bo’lishi mumkin: obektni har qanday FVlarda xar tamonlama to’xtovsiz ishlashga tayyorlash, tuzilmalar tuzish, boshqarish, hamma soha fuqarolarini tayyorlash, raxbar va komanda-boshliq tarkibda FM tadbirlarini o’tkazishda aniq va mustaqil ko’nikmalarni ishlab chiqish, fuqarolarni turli xil ta’sirlardan himoya qilish usullariga o’rgatish, FV lar oqibatlarini tugatish bo’yicha ishlarni olib borishga tayyorlash, obekt FM rejasini realligini tekshirish va hozirgi talabga mos holga keltirish, FM masalalarini bajarishga obektning tayyorgarlik darajasini aniqlash, obekt shaxsiy tarkibida ma’naviy-ijtimoiy va psixologik xislatni tarbiyalash talab etiladi. Kompleks mashg’ulotlar 3 ta asosiy ko’rsatkichga ega bo’lishi kerak;

4. FM masalalarini to’liq, har tomonlama o’rganish, ya’ni ogohlantirish belgisidan (ishorasidan) tortib, to amaliy mashg’ulotni tugatishgacha bo’lgan masalalar;
5. Kompleks mashg’ulotda, obektda faoliyat ko’rsatuvchi jami fuqarolar tayyorlanadi;
6. Kompleks mashg’ulotda, muhofazaga tayyorlashning jami shakl va uslublari qo’llaniladi.

300 kishidan ortiq fuqarolari bo’lgan korxona, tashkilotlarda, hamda 600 dan ortiq kasallar joyi bo’lgan tibbiy tashkilotlarda 3 yilda bir marta (2 sutkagacha), boshqa tashkilotlarda 3 yilda bir marta obekt trenirovkalari (6 soatgacha) o’tkaziladi. Umumiy o’rta, o’rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari talaba va o’quvchilari bilan har taraflama mashg’ulotlar har yili o’tkaziladi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish soxalarida band bo’lmagan aholini tayyorlash FVlardan muhofazalash masalalari bo’yicha suhbatlar, ma’ruzalar o’tkazish, o’quv filmlarni ko’rsatish, yashash joylarida o’quv mashqlari va mashg’ulotlarga jalb etish, shuningdek qo’llanma va eslatmalarni mustaqil o’rganish, radio eshitirishlarni tinglash, teledasturlarni, ko’rgazmali qurollarni ko’rsatish va boshqa omillar qo’llaniladi.

Mashg’ulotga tayyorlanish. Kompleks mashg’ulotni muvaffaqiyat-li o’tkazish, ko’p jihatdan unga qanchalik tayyorgarlik ko’rilganligiga bog’liq. Mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rish obekt FM rejasini hisobga olgan holda uni tashkiliy shtatlar tuzilishi, material ishlab chiqarish xususiyati, hududiy

joylashganligi, FM holati va boshqa faktlarga amal qilgan holda olib boriladi. Mashg'ulotni tayyorlash, tashkil etish va uni o'tkazishga mashg'ulot rahbari shaxsan javob beradi. Mashg'ulotga oldindan va har taraflama tayyorlanish lozim. Mashg'ulot rahbari mashg'ulotning mavzusini, o'quv maqsadini, o'quv savollari va bosqichlarini, komanda-boshliq tarkiblarining sonlarini, tuzilmalar, jami mashg'ulotga jalb etilganlarning soni, mashg'ulot rejasini asosiy holatlarini ishlab chiqish, material, texnik jihozlar bilan ta'minlanganliklarini aniqlashlari lozim.

Imitatsiya rejasi o'quv mashg'uloti rahbarining yordamchisi tomonidan matn bo'yicha chizma asosida ishlab chiqiladi. Unda odatda: imitatsiya joyi, vaqti va turlari ko'rsatiladi, imitatsiya ishlariga ajratilgan kuchlar va vositalar, ma'sul kishilar, imitatsiyani boshqarish signallari (belgilari) va aloqa vositalari, imitatsiya o'tkaziladigan joyni qo'riqlash choralari va uning xavfsizligini ta'minlash ko'rsatiladi. CHizmada imitatsiya o'tkazadigan joy shartli belgilar bilan ifodalanadi. Imitatsiya rejasi o'quv rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Amaliy mashg'ulotning asosiy maqsadi obektdagi FV oqibatlarni tezroq tugatishdir. U obektda razvedkani tashkil qilish va olib borishdan boshlanadi. Olingan razvedka ma'lumoti va uning tahliliga asosan obektdagi holat aniqlanadi, barcha tuzilmalarga FV oqibatlarini tugatish bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklatiladi. Hamma ko'zda tutilgan o'quv savollari o'rganuvchilar tomonidan amaliy mashg'ulotlar davomida bajarilgandan so'ng, mashg'ulot rahbari ko'rsatmasiga asosan to'xtatiladi.

Tahlil amaliy mashg'ulotning yakuniy bosqichidir. Tahlilda o'qitilganlar har tamonlama muhokama qilinadi, qo'yilgan maqsadni qay tarzda amalga oshirilganligi, o'quv savollarini qanday qilib ishlab chiqilganligi, rahbar va komanda-boshliq tarkibining, shtab xodimlari, tizimlar, har xil toifadagi o'qiganlarning qanday tayyorlanganligi tahlil qilinadi. Tahlil avval rahbarlar bilan, so'ngra mashg'ulotning hamma qatnashchilari bilan o'tkaziladi. Tahlil oxirida mashg'ulot rahbari mashg'ulotlarda qatnalganlarning o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganligini aniqlaydi, o'qiganlarning harakatlarini baholaydi va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tugatish tadbirlarini belgilaydi. Har taraflama o'tkazilgan mashg'ulotning natijalari to'g'risida tuman FM shtabiga kerakli ma'lumot taqdim etiladi.

25-ma’ruza: Favqulodda vaziyatlardan aholini o’z vaqtida ogohlantirish va xabardor etish

O’quv savollari:

1. Favqulodda vaziyatlar bo’yicha xabar berishda xorij davlatlar tajribasi.
2. FV xabar berishda AQSH, Rossiya va boshqa xorij davlatlar tajribasi.

Favqulodda vaziyatlarda oldindan amalga oshirilgan himoya choralari orasida favqulodda vaziyatlarda davlat tuzilmalarini va aholini tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar yoki xarbiy xarakatlar xavfi to’g’risida xabar berish va ogohlantirishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Aholining o’z vaqtida xabardor qilinishi va 7-10 daqiqa ichida ogohlantirilgandan so’ng boshpana berish imkoniyati odamlarning 90-85% dan 4-7 % gacha yo’qotilishini kamaytiradi. SHuning uchun favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilish yaxshi tashkil etilgan xabar berish va ogohlantirish tizimiga bog’liq. Ayni paytda Favqulodda vaziyatlar vazirligining favqulodda vaziyatning tabiati va ko’lamiga qarab, jamoatchilikni turli usullar bilan xabar berish va ogohlantirish yo’lga qo’yilgan. Masalan sms xabarlari, televizor va radio orqali, sirenalar, avtomatik qo’ng’iroqlar va hatto "ekranlar" orqali xabar berish va ogohlantirish yo’lga qo’yilgan.

SHunday bo’lsada insonlarning favqulodda vaziyatlar tufayli talofatlar juda ko’p. Bu vaziyatda kim aybdor? Xabar berish va ogohlantirish tizimi orqali yo’lga qo’yilgan vositalariga befarq insonlarmi? Yoki barcha ogohlantirish tizimini odamlarga yuqori darajada etkazishni to’g’ri yo’lga qo’ymagan favqulodda vaziyatlar vazirligimi? Misol uchun, evropaning ko’plab mamlakatlarida o’tgan asrning birinchi yarmida o’rnatilgan sirena tarmoqlari hali ham qo’llanilmoqda. Afrika mamlakatlari haqida gapirishning hojati yo’q. Buni oldini olish maqsadida BMT 2022 yilgacha ogohlantirish tizimlarini o’rnatish va rivojlantirishni yo’lga qo’yish bo’yicha ishlar olib borilmoqda. SHuni ham yodda tutish kerakki, ogohlantirish tizimi amalda Yaponiya va AQSH mamlakatlarida juda rivojlangan.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bu tizim qanday yo’lga qo’yilgani: **Yaponiya**. **J-Alert** (Zenkoku SHunji Keihō System) - Yaponiyada milliy ogohlantirish tizimi, jamoatchilikni turli favqulodda vaziyatlar haqida tezda xabar berish va ogohlantirish uchun mo’ljallangan. Yaponiyalik ekspertlarning fikriga ko’ra, 2011 yilgi dahshatli tsunamidan so’ng ogohlantiruvchi fuqarolar umumiy sonining 78% ko’cha eshittirish tarmog’i orqali, 5%televideniya orqali, radio orqali 12%, mobil qurilmada 3% ogohlantirish oladilar. Yaponiyada zilziladan tashqari tabiiy ofatlardan 200 dan ortiq vulqon mavjud, shundan 49 faol hisoblanadi.

J-Alert - Yaponiyada butun mamlakat bo’ylab aholini ogohlantirish tizimi mavjud. U sun’iy yo’ldoshlar orqali ishlaydi, bu esa rahbarlar va aholiga mahalliy ommaviy axborot vositalari va sirenalar orqali tezkor xabar berishga imkon beradi. Rasmiy ma’lumotlarga ko’ra, fuqaro muhofazasi rahbarlarini ogohlantirish 1 soniyada amalga oshiriladi va favqulodda vaziyat xavfi to’g’risida aholiga xabar

yuborish uchun 4-20 soniyagacha vaqt etadi. Ogohlantirishlar quydagicha amalga oshiriladi:

Noqulay ob-havo haqida ogohlantirishlar faqat yapon tilida efirga uzatiladi. Boshqa barcha favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish tizimi zilzilalar, tsunami, vulqon portlashlari va harbiy harakatlar haqida besh tilda uzatilishi yo'lga qoyilgan. Bular: Yapon, Ingliz, Xitoy, Koreys va Portugal. Ushbu tizimni yaratish va uni ta'mirlash ko'p mablag' talab etadi.

Bundan tashqari, Yaponiyada zilzila xavfi haqida oldindan ogohlantirish tizimi ham mavjud. Bu bilan Yaponiya meteorologiya agentligi shug'ullanadi, zilzila haqida ogohlantiradi va qanday harakat qilish kerakligi haqida ko'rsatmalar beradi. Yaponiyada 4 mingdan ortiq seysmograf mavjud bo'lib, ulardan kamida ikkitasi silkinishlarni aniqlasa, agentlik zilzila va uning epitsentrining taxminiy maydonini darhol aniqlaydi.

Agar tebranishlarning ortishi kutilsa, agentlik bu haqda aholini darhol ogohlantiradi.

Ogohlantirishning aniqligi zilzila qaysi hududaligiga bog'liq. Epitsentr hududida yer osti silkinishlari ogohlantirishdan oldin sodir bo'lishi mumkin. Episenterdan uzoqroq hudularda ogohlantirishdan so'ng harakat qilish uchun bir daqiqa atrofida vaqt bo'ladi. Bu holatda boshpana topish yoki xavfli hududdan chiqib ketish mumkin. Masalan temiryo'llar poezdlarni sekinlashtiradilar yoki zavod ishchilari ishni to'xtatadilar. Televideniya orqali quydagicha xabar beriladi:

"Bu zilzila haqida ogohlantirish. Iltimos, yer osti silkinishlari uchun tayyorgarlik ko'ring". Ekranda yaqinlashib kelayotgan zilzila epitsentri va unga ta'sir ko'rsatadigan hududlar ro'yxati ko'rsatilgan xarita paydo bo'ladi. Ushbu ogohlantirishlar zilzila oqibatida er ko'chkisi yoki tsunami xavfi haqida ham ma'lumot beradi.

Agar tsunami xavfi mavjud bo'lsa, u holda 1SEG texnologiyasi umumiy aholiga ogohlantirishni yetkazish uchun, xavf mavjud hududlarda televizor va radiolarni avtomatik ravishda ishga tushuradi (agar texnologiya ushbu texnologiyani qo'llab-quvvatlasa). Xabar besh tilda efirga uzatiladi. Bundan tashqari, yaqinda yuzaga keladigan zilzila haqida SMS orqali ham xabarlar yuboriladi. Barcha uchinchi avlod mobil telefonlari va zamonaviy mobil telefonlar uchun ilovalar orqali zilzila yoki tsunamiga oid avtomatik xabarlar uchun o'rnatilgan ogohlantirish tizimi yaratilgan.

AQSH. Amerika Qo'shma SHtatlardagi ogohlantirish tizimi turli yo'nalishlarda ishlaydi. Birinchisi, Simsiz Favqulodda ogohlantirish tizimi (Wireless Emergency Alerts, WEA). Bu vakolatli davlat organlari tomonidan mobil telefonlar va mobil qurilmalarga yuborilgan favqulodda vaziyatlar to'g'risida ogohlantiruvchi matnli xabarlar hisoblanadi.

Xabarlar favqulodda vaziyat xavfi vaqtida ishlashga mo'ljallangan mobil aloqa antennalari orqali uzatiladi. Agar xavf Nyu-Yorkda paydo bo'lsa, ogohlantirishlar Nyu-York fuqarosi bo'lmagan yoki boshqa mamlakatdan kelgan shaxslar mobil qurulmalari uchun ham WEA texnologiyasi qo'llab-quvvatlaydi va Nyuь-Yorkda joylashgan barcha qurilmalarga ogohlantirish xabari keladi. Ular alohida signal va tebranishlarga ega, shuning uchun boshqa aloqa sinallari bilan

aralashmagan holda olohida ishlaydi. Ogohlantirish va xabar berish davlat va mahalliy jamoat xavfsizligi organlari, milliy ob-havo prognozi xizmati va AQSH prezidenti tomonidan berilishi mumkin.

Uchta ogohlantirish toifasi mavjud: yaqinlashib kelayotgan xavf haqida xabar, prezident xabarlari va yo'qolgan bolalar haqida xabarlar berish uchun ham qo'llaniladi. Bu xabarlar 90 belgidan oshmasligi kerak bo'lgan xabarda xavf turi, vaqt, amalga oshirilishi kerak bo'lgan harakatlar haqida ma'lumot beriladi va ogohlantirish yuborgan organ ko'rsatiladi. Ogohlantirishlar tarmoqni talab qilmaydi va oddiy xabarlar, qo'ng'iroqlar va Internet aloqalarining ishlashiga ta'sir ko'rsatmasdan mobil qurilmalarga xabar keladi.

Ikkinchidan, IPAWS – Integrated Public Alert and Warning System tizimi federal aloqa agentligi, federal favqulodda boshqaruv agentligi va Milliy meteorologiya xizmati tomonidan boshqariladi. EAS tizimi AQSH Prezidenti yoki hukumati tizimni faollashtirgandan so'ng 10 daqiqadan kamroq vaqt davomida xalqqa murojaat qilishi uchun mo'ljallangan.

Uchinchidan, xavfli ob-havo voqealarini (NOAA Weather Radio All Hazards, NWR) doimiy ravishda xabar beradigan NOAA radiostantsiyalari tarmog'i mavjud. Rasmiy ogohlantirishlar, favqulodda vaziyatlar haqida prognozlar va boshqa xavflar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etadi. SHuningdek, davlat xavfsizligi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni ogohlantirishda ham qo'llaniladi, bular: milliy xavfsizlikka, tabiiy, ekologik va ijtimoiy xavflar to'g'risida favqulodda xabar berish tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Rossiya. NTSUKS – inqiroz sharoitida milliy boshqaruv markazi – FSSN-seysmologik kuzatuvlar va zilzilalar prognozi Federal tizimi, KSEON-aholini favqulodda ogohlantirish uchun keng qamrovli tizim. Rossiyada 300 dan ortiq vulkanlar mavjud bo'lib, shulardan 55 tasi faol. Dunyoning eng kuchli zilzilalarining 80% tinch okeani havzasida sodir bo'ladi.

Rossiya aholisini xabardor qilishning darajasi bilan bog'liq holda hududlarda texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlar to'g'risida zamonaviy ogohlantirish tizimlarini joriy etish zarur. Keng qamrovli ogohlantirish tizimlarini ishlab chiqish va xizmat ko'rsatishning moliyaviy tomonini kengroq yoritish zarur. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2012 yil 13 noyabrdagi 1522-sonli Farmonini amalga oshirish doirasida KSEON erta ogohlantirish tizimi bo'lishi kerak. Respublika va mahalliy darajada KSEON tizimini joriy etish ogohlantirish muddatini ta'minlaydi 5 daqiqadan oshmasligi kerak; ob'ekt darajasida 1-daqiqadan oshmasligi va aholining 100% qamrab olishi lozim [43].

Moskva shaxrining tashkiliy-texnikaviy ogohlantirish tizimi: Moskva shahridagi favqulodda vaziyatlarda tezkor dispetcherlik boshqaruvining yagona tizimi doirasida navbatchi-dispetcherlik xizmatlari;

Moskva shahrida faoliyat yuritayotgan aloqa operatorlarining kuchlari, vositalari;

Moskva shahridagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va Moskva hududida joylashgan turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlar bilan aloqa va xabar berish kuchlari va vositalari aloqa tarmoqlari;

Moskva favqulodda vaziyatlar vazirligi va fuqarolik mudofaasi organlari aholiga axborot va ogohlantirish signallarini etkazib beradigan aloqa tarmog'ining kanallari.

Moskva shahri aholisini ogohlantirish tizimining kuchi va vositalari

Ogohlantirish turi	**Miqdori**	**Aholini qamrab olish**
Radionuqtalar	2,2 mln. dona	83%
Elektrosirenlar	1316 dona.	80%
OKSION	116 sht. moduley	14%
Ko'chadagi dinamiklar	1745 sht.	34%
Televideniya	1-y i 3-y kanal	100%
Radio UKV	«Mayak» «Radio Rossii» «Orfey» «Yunostь»	

Polsha. Mintaqaviy ogohlantirish tizimi yordamida hukumat aholini televidenia, veb-saytlar va mobil ilovalar orqali yaqinlashib kelayotgan favqulodda vaziyatlar haqida xabar beradi. Televizorda xabarlar favqulodda vaziyat haqida qisqacha ma'lumotni o'z ichiga olgan matn shaklida uzatiladi. Barcha mobil qurilmalar uchun ishlab chiqilgan ilovalarga xabarlarni yuborishdan tashqari, quyidagilar bo'yicha, evakuatsiya, yong'in, suv toshqini va epidemiya va zaharlanish, shoshilinch ob-havo hodisalari, terrorizm, tabiiy ofatlar va boshqalar to'g'ri harakat qilish bo'yicha ko'rsatmalar va tushuntirishlar beriladi.

Bundan tashqari, tizim SMS-xabarlarni yuborish imkoniyatini beradi. Mamlakat hududida faoliyat yurutadigan uyali aloqa operatorlari bilan kelishgan holda, xabarlar telefonlarga avtomatik ravishda yuboriladi, agar kerak bo'lsa, ularni bekor qilishingiz mumkin. SMS orqali boshqa ogohlantirish tizimlari mavjud, ammo ularga ulanish uchun telefon raqamingizni ma'lumotlar bazasida ro'yhatdan o'tishiz lozim bo'ladi.

Favqulodda vaziyatlar signallari va ogohlantirishlar sirenalar bilan ham uzatiladi. SHu bilan bir qatorda, favqulodda vaziyat xavflari haqidagi xabarlar televidenia va radio orqali uzatiladi. Aholi gavjum punktlarini ovozli xabar berish mashinalar orqali ham aholi ogohlantirish mumkin. Lekin bu hammasi emas. Misol uchun, Mazury ko'llarida qirg'oqdan uzoq bo'lgan kichik orollarda yashovchi fuqarolarning bo'ron haqida ogohlantirish uchun maxsus yorug'lik signallari beradigan yoritgichlar o'rnatilgan.

Kanada. Alert Ready milliy jamoatchilik ogohlantirish tizimi yaratilgan. Ob-havo va boshqa favqulodda vaziyatlar haqida ogohlantirishlar xavf ostida bo'lgan hududda televidenia va radio orqali xabar beriladi. Tizim respublika va mahalliy favqulodda vaziyatlarda qutqarish organlari, Kanada atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi va efirga uzatish kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Yong’in, tabiiy, ekologik va biologik xavflar, terroristik xavf, ma’muriy va fuqarolik xavflar haqida ogohlantirishlar efirga uzatiladi. Uyali aloqa orqali xabar berish tizimi yo’lga qo’yilmagan, biroq ba’zi kompaniyalar va davlat muassasalari maxsus obuna bo’yicha xabarlar va ogohlantirishlarni olishi mumkin. Bundan tashqari, Kanadada ob-havo ma’lumoti tarmog’i (The Weather Network) mavjud bo’lib, u televideniada va uning xizmat ilovalari orqali favqulodda ob-havo haqida ogohlantirishlari yuboriladi. Favqulodda vaziyatlar xavfi mavjud bo’lgan taqdirda, o’rnatilgan ilovalar zarur choralarni ko’rish haqida xabar beradi.

Avstraliya. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun ogohlantirish radio va televideniada efirga uzatiladi, jamoat joylarida ham manitorlar orqali uzatiladi. SHundan so’ng favqulodda vaziyat haqida ma’lumot va xavfdan yashirinish uchun zarur bo’lgan harakatlar haqida ko’rsatmalar beriladi. Bundan tashqari, Avstraliyada favqulodda vaziyatlar haqida ogohlantirishlar mavjud. Mahalliy aloqa operatrlari orqali ogohlantirish va uyali telefonlarga matnli xabarlar beriladi. Xabarlar har doim ham yuborilmaydi, lekin vaziyatga qarab: yong’in, suv toshqini yoki ekstremal ob-havo sharoitlari xavfi haqida xabar beriladi. Xabarlar qo’llaniladigan hududda joylashgan uyali aloqaga ulangan barcha abonentlarga yuborish orqali ogohlantiriladi. Favqulodda vaziyatlar haqida ogohlantirish uchun telefon tizimi va veb-sayt orqali, bu ommani ogohlantirish usullaridan biri ekanligini va bu usul har doim ham qo’llanilmaydi. Vaziyat haqida eng to’liq ma’lumotni olish uchun radio va televizor orqali va qutqaruv xizmatlari saytlariga tashrif buyurish orqali ma’lumotlar yetkaziladi.

Frantsiya. Milliy xabar berish tizimi (Le réseau national d’alerte RNA) mavjud. Fransiyada favqulodda vaziyat haqida ogohlantirish havo signalizatsiyasi sirenalari milliy ogohlantirish tarmog’i yordamida amalga oshiriladi. 4500 ta sirenalaridan tashkil topgan va ikkinchi jahon urushi davrida aholini bombardimon qilish xavfidan haqida ogohlantirish uchun ishlab chiqilgan. SHuningdek sirenalar va karnaylar xavfli hududdagi aholi punktlarida ishlaydigan o’t o’chiruvchilar va politsiya mashinalariga ham o’rnatilishi mumkin. Sirena orqali xabar olgandan so’ng, darhol radioning “France Inter” yoki “France Info” kanalari orqali favqulodda vaziyatlarning tabiati va amalga oshirilishi kerak bo’lgan harakatlar haqida gapirishadi. Xuddi shu ma’lumot mahalliy radiostansiyalar tomonidan ham efirga uzatiladi. Sirena bilan ogohlantirish tizimi bir qancha kamchiliklarga ega:

Birinchidan, ko’plab qurilmalar eskirgan va ta’mir talab holatda.

Ikkinchidan, sirenalarning bir qismi hokimiyat tomonidan emas, balki, ular joylashgan korxonalar tomonidan nazorat qilinadi va ishga tushuriladi.

Uchinchidan, sirenlar Fransiya hududini to’liq qamrab olmagan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun mamlakatda yana bir loyiha aholini ogohlantirish va xabardor qilish tizimi (Système d’Alerte et d’Information des Populations) ishga tushirilgan. Sirena signaliga qo’shimcha ravishda, tahdid yuzaga kelganda, boshqa ogohlantirish vositalari ishga tushadi, bular milliy va mintaqaviy ommaviy axborot vositalari, qutqaruv xizmatlarining avtomatik qo’ng’iroqlari va boshqalar. Keng qamrovli ogohlantirish tizimi shahar hokimi, viloyat hokimi yoki bosh vazirning qarori bilan ishga tushiriladi. Xavfli hududdagi barcha telefonlarga ogohlantirish uchun SMS-xabarlar yuboriladi.

SHveytsariya. SHvetsariya sirenlari tarmog'i ikkinchi jahon urushi davrida yaratilgan. Favqulodda vaziyat sharoitida va tabiiy ofatlar xavfi ostida aholini xabardor qilish uchun ishlatiladigan 8 ming ta sirena mavjud. Bu tizim ICARO xavf to'g'risida radioaxborot tashkiloti. (ICARO (Information Catastrophe Radio Organisation). Signalning ikki turi mavjud. Birinchisi, umumiy signal. Umumiy signal olgan fuqarolar radioni yoqishlari va u yerda aytilgan ko'rsatmalarga rioya qilishlari kerak. Bundan tashqari, qo'shnilaringizga favqulodda vaziyat xavfi haqida xabar berish kerak.

To'g'onlar yaqinida joylashgan joylarda umumiy signaldan keyin ikkinchi signal — suv toshqini signalini berilishi mumkin. Bunda agar siz uni eshitgan bo'lsangiz, ko'rsatmalarga rioya qilib, darhol xavfli hududni tark etishingiz kerak. Ko'rsatmalar fuqarolarning telefon ilovalari yoki davlat veb-sayti sahifalarida topish mumkin. 2016 dan beri SHveytsariya sirena tizimini modernizatsiya qilish uchun POLYaLERT loyihasini ishga tushirdi. Ular joylarda masofadan yoki qo'lda ishlatilishi mumkin. SHu bilan birga, so'nggi bir necha yil ichida SHveytsariya ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Davlat va xususiy radio va televidenia kompaniyalari yuqori va favqulodda darajadagi xavf yuzaga kelgan taqdirda o'zlarining efirlarini to'xtatib, favqulodda vaziyatlarga oid davlat ogohlantirishlarini yuborishlari kerak. Ogohlantirishlar SHveytsariya seysmologiya xizmati, Federal atrof-muhitni muhofaza qilish idorasi va tabiiy xavflarni o'rganishga ixtisoslashgan boshqa tashkilotlar tomonidan berilishi mumkin.

Filippin. Favqulodda vaziyatlar paytida Filippin aholisini televizor, radio, qo'ng'iroqlar, SMS-xabarlar va ijtimoiy tarmoqlarga asosan xabar berish tashkil etilgan. Bir necha yil oldin ular Internet-ogohlantirish tizimini sinab ko'rishdi, lekin u ham favqulodda vaziyat sharoitlarda samarali ish bermadi. Xabarlar ko'pincha kelmadi, orollardagi tarmoq qamrovi to'liq emas va har bir kishi internetga ulanmagan. Filippin uchun eng maqbul yechim sirena bilan ogohlantirishdir. Yevropa mamlakatlarida bo'lgani kabi, bunday sirena tarmoqlari Filippin orollarda ham to'liq qamrab olmagan. Tabiiy ofatlar haqidagi ma'lumotlar Filippinning atmosfera, geofizika va astronomik tadqiqot xizmatlari (PAGASA) tomonidan taqdim etilgan. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida, yaqinda yuzaga keladigan ofat xavfi darajasiga qarab, Ogohlantirishlar uchun to'rtta signal turi ishlab chiqilgan, har bir signal uchun hukumat sayti meteorologik sharoit va ehtiyot choralarini tasvirlaydi.

AQSH, Yaponiya va Rossiya aholisini favqulodda ogohlantirish tizimlarini tahlil qilish. Mavjud zamonaviy ogohlantirish tizimlari maxsus sun'iy yo'ldosh tarmog'i va yerga asoslangan axborotni qayta ishlash tizimidan iborat. Tizimlarning tarkibiy qismlari seysmograflar, akselerometrlar, GPS sensorlari, mobil aloqa tizimlari, kabel tarmoqlari, optik tolali tarmoqlar, radar stantsiyalari va boshqalarni o'z ichiga olgan rivojlangan uchta mamlakat tizimini solishtiramiz.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizga ushbu davlatlar tajribasini joriy etish , favqulodda vaziyatlar yuz berishini oldindan bilishimiz mumkin bo'ladi.

26-ma’ruza. **Favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish**

O’quv savollari

1. Halokatlar tibbiyoti
2. Birinchi tibbiy yordam ko’rsatish algoritmi
3. Halokatlar tibbiyotini FV hududiga jalb etish.

Ma’lumki, sobiq Ittifoq davrida favqulodda vaziyatlar yuz berganda jabrlanganlarga tibbiy xizmat ko’rsatish tizimi o’zining samarasizligini ko’rsatdi. Buning asosiy sababi, bir tomondan tez tibbiy yordam ko’rsatish bilan tibbiy ta’minot (sog’liqni saqlash muasasalarining kuch va vositalari) imkoniyatlari o’rtasidagi nomutanosiblikni barcha sog’liqni saqlash tizmlarida yuzaga kelishi bo’lsa, ikkinchi tomondan, tinchlik davrida bo’ladigan tabiiy ofatlar, yirik avariya va halokatlar oqibatida talofot olganlarga tibbiy yordam ko’rsatish yetarli tashkil etilmaganligidandir. Mana shu kamchiliklar natijasida sanitariya talofoti ommaviy tusga kirib, katta miqyosidagi ham moddiy, ham ma’naviy zararlarni keltirib chiqargan, hamda atrof-muhitni izdan chiqishiga olib kelgan.Bunday kamchiliklarni tugatish maqsadida mamlakatimiz Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi Farmoniga muvofiq 1999-2005 yillarda sog’liqni saqlash tizimini isloh qilishga mo’ljallangan dastur qabul qilinib, unda «Halokatlar tibbiyoti» xizmatini tashkil etish ko’zda tutilgan. Dasturda tez tibbiy yordam xizmatini rivojlantirishga katta e’tibor berilgan. SHularga asoslangan holda, Toshkent shahrida SHoshilinch Tibbiy Yordam Davlat Ilmiy Markazi (SHTYoDIM) tashkil etildi. O’z navbatida respublikamizning barcha viloyatlarida ham SHTYoDIMning filialllari tashkil etilib, ular SHTYoDIM tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Bu markazda asosan reanimatsiya-jarrohlik va reanimatsiya-intensiv davolash muolajalarini bajaradi. SHTYoDIM va uning mintaqavi filiallari tarkibiga tez tibbiy yordam va sanitar aviyatsiyasi xizmatlari kiradi. SHTYoDIM huzuridagi tez yordam xizmatida 2 ta bo’linma: 1-tez yordam xizmati (doimiy brigadalar) va 2-maxsus yordam xizmati (reanimatsiya brigadalari) faoliyat ko’rsatadi. Halokatlar tibbiy xizmatining asosiy vazifasi shikastlangan o’choqlarda avariya-qutqarish ishlarini olib borish, hamda tibbiy-sanitariya ta’minoti samaradorligini oshirish hisoblanadi. Ya’ni uning bosh maqsadi - shikastlanganlarni iloji boricha ko’p qutqarishdir. Halokatlar tibbiy xizmati, amaldagi tibbiy xizmatning kuch va vositalaridan samarali foydalanadi, u uch tarkibiy qismdan tashkil topadi. Birinchi qismga – boshqaruv tizimi, bu tizim respublika darajasida faoliyat ko’rsatib, u sog’liqni saqlash vaziri boshchiligida turli vazirlik va idoralar vakillaridan tashkil topgan idoralararo muvofiqlashtiruvchi hay’atdan iborat. Mahalliy darajadagi bunday hay’atlarga, sog’liqni saqlash boshqarmalari va mahalliy bo’limlarning rahbarlari boshchilik qiladi.

Boshqaruv tizimlari favqulodda vaziyat yuz bergan vaqtdan ish boshlab to uning oqibatlari to’liq bartaraf etilguncha faoliyat ko’rsatadilar. Halokatlar tibbiy xizmatining ikkinchi tarkibiy qismini – amaldagi tez tibbiy yordam tizimi tashkil etadi. Halokatlar tibbiy xizmatining asosiy bo’g’inini kechiktirib bo’lmaydigan ixtisoslashgan tibbiy yordam xizmati (1-bosqich), hamda SHTYoDIM, va uning mintaqaviy filiallari va tuman markaziy kasalxonalari (2-bosqich) tashkil etadi. Bunda SHTYoDIM – saralash – evakuatsiya gospitallari tarzida, tuman markaziy kasalxonalari esa – ixtisoslashgan kasalxonalar sifatida faoliyat ko’rsatadi.

Halokatlar tibbiy xizmatining uchinchi tarkibiy qismini – ixtisoslashgan xizmatlar tashkil etib, u doimo tayyor turadigan maxsus tuzilmalarni o’z ichiga oladi. Bunday tuzilmalarga: ikkinchi bosqichni kuchaytirishga mo’ljallangan ixtisoslashgan shoshilinch tibbiy yordam brigadalari; 1-bosqichni kuchaytirishga mo’ljallangan shoshilinch tibbiy yordam brigadalari kiradi. Bu tuzilmalar asosan o’rtacha halokatlar sodir bo’lganda faoliyat ko’rsatadi. Katta halokatlar yuz berganda zaxirada qolgan, ixtisoslashgan ko’chma gospitallar ishga solinadi. Halokatlar tibbiy xizmatining asosiy yo’nalishlaridan biri aholiga birinchi tibbiy yordam ko’rsatish hamda favqulodda vaziyatlarda xatti-harakat qoidalarini o’rgatishdan iborat.

Halokatlar tibbiyoti xizmatini tashkil etishda quydagi ta’moillarga asoslanadi:

1. Halokatlar tibbiyoti xizmati falokat o’choqlarida shikastlanganlarni maksimal darajada qutqarish;
2. Halokatlar tibbiyoti xizmatiga samarali rahbarlik qilish (zamonaviy aloqa va boshqa vositalarni qo’llash);
3. Bosqichma-bosqich tibbiy yordamni ko’rsatishda saralashni tashkil etish;
4. SHikastlangan aholini tibbiy evakuatsiyasini amalga oshirish;
5. Tez tibbiy yordam xizmati kuchlarini yaratadigan davolash-muhofasa muassasalarini kerakli ta’minot bilan ta’minlash (tibbiy ashyolar, texnika-uskunalar va boshqalar);

Halokatlar tibbiyoti xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga tez tibbiy yordam xizmatini ko’rsatish, bu xizmatning kuch va vositalarini shakllantirish;
- Tez tibbiy yordam xizmati kuchlari va vositalarini tayyorgarligini oshirish;
- Halokatlarni oldini oladigan tibbiy tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;
- Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam, birinchi tez shifokor yordami, malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko’rsatish usullarini qo’llash.

Falokat va halokatlarda tibbiy yordam ko’rsatishni tashkil etishda halokatning miqyosi va sanitariya talofotining hajmiga qarab belgilanadi. Albatta tabbiy ofat yoki katta ishlab chiqarish avariyalardan sanitariya talofoti katta miqyosida bo’lganda, buning oqibatlarini tugatishda maxsus yondoshuvlar talab etiladi. Jumladan, bunday holatlarda jabrlanganlarga iloji boricha talofot o’chog’ining o’zida yoki unga yaqin bo’lgan joyda tibbiy yordam ko’rsatilishi lozim bo’ladi.

Katta miqyosidagi favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordamni tashkil etishda quyidagi ishlar bajariladi:

- SHikastlangan o’choqlarni tibbiy razvedka qilish;
- Jabrlanganlarni qidirib topish va ularni qutqarish;
- Jabrlanganlarni saralash;
- Jabrlanganlarni evakuatsiya qilish;
- Tibbiy yordam berish va davolash.

SHikastlangan o’choqlarni razvedka qilishda – aholini soni, tibbiy xizmat kuchlari va vositalarining soni, talofot darajasi, yo’llar va suv manbalarining mavjudligi, hamda ularning ahvoli haqidagi ma’lumotlar olinadi. Jabrlanganlarni

qisqa vaqt mobaynida (bir necha soatdan – bir sutkagacha) qidirib topi shva qutqarish talab etiladi, hamda iloji boricha ularning hayotini saqlab qolish omillari bajariladi. Bu omillarning bajarilishida qutqaruv tizimlaridan tashqari, o't o'chiruvchilar, jamoat tartibini saqlovchi, harbiy qismlarning xodimlari hamda ko'ngilli fuqarolar bajaradilar.Jabrlanganlarni saralash tibbiy xizmatining asosiy vazifasi hisoblanadi. Saralash – tibbiy yordamning hajmini, turini, hamda yordam ko'rsatishning keyingi bosqichlarini hisobga olib, jabrlanganlarni transportlarda tashish imkoniyatlari va navbatini aniqlaydi. Jabrlanganlarni evakuatsiya qilish – talofot olganlarning shikastlangan o'choqlardan olib chiqish, ularga tibbiy yordam ko'rsatish, hamda davolash uchun tibbiyot muassasalariga olib borish tadbirlaridan iborat. Bunda tibbiy hisobga olish varaqasi to'ldiriladi va yaradorlarni transport vositalari (temir yo'l, avtomobil, suv va havo yo'li) yordamida evakuatsiya qilinadi. Davolash muassasalariga keltirilgan saralangan jabrlanganlarga malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordamlar ko'rsatiladi. SHunday qilib, shikastlangan o'choqda qolgan jabrlangan aholi tibbiy yordamning hamma turlari bilan: birinchi tibbiy yordam, birinchi shifokor yordami, malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordami birin ketin ko'rsatiladi.

Birlamchi tibbiy yordam.SHikastlangan o'choqlarda talofot olgan fuqarolarga shu joyning o'zida hayotiy ko'rsatkichlarga muvofiq ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam tushuniladi. O'z vaqtida va to'g'ri ko'rsatilgan birinchi tibbiy yordam shikastlangan odamning hayotini saqlab qoladi va salbiy oqibatlar rivojini oldi olinadi. Albatta bu yerda favqulodda vaziyatning shikastlovchi omillarni to'xtatish (suvdan olib chiqish, yonayotgan kiyimlarni o'chirish, yonayotgan, gazga to'lgan uylardan olib chiqish va boshqalar) choralarni ko'rgan holda xatti-harakat qilish kerak. Talofot olgan kishini tibbiy ko'rikdan o'tkazishda shifokor quyidagi tartibdagi tekshiruvlarni o'tkazadi:

- Og'iz bo'shlig'i va yuqori nafas yo'llarini tekshirish (og'izni begona narsalardan tozalash);
- Nafas olish harakatlarini tekshirish (o'pkaga sun'iy nafas berish va yurakni bevosita uqalash);
- Qon tomirlari butunligini aniqlash (qon tomirlaridan oqayotgan qonni to'xtatish, ayniqsa arterial tomirlardan);
- Yurak-qon tomir tizimini tekshirish (tomir urishini);
- Sezgi a'zolarini tekshirish;
- SHikastlangan kishini nutqini tekshirish.

Birinchi tibbiy yordam berishning eng qisqa vaqti – shikastlangan vaqtdan boshlab 30 minggacha, nafas olishi to'xtagan bo'lsa 5-7 min.gacha amalga oshirilishi lozim. Zaharlangan hududlarda 30 minut ichida birinchi tibbiy yordam ko'rsatilsa, ularning umumiy ahvolining og'irlashuvi ikki barobarga kamayadi. Demak, jarohat olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish vaqti nihoyatda muhim hisoblanadi. Ma'lumotlar ko'rsatishicha, jarahotlanganlarga bir soat mobaynida yordam ko'rsatilmasa o'limga sabab bo'lish 30 foizga, 3 soatgacha yordam ko'rsatilmasa 60 foiz va 6 soatgacha yordam ko'rsatilmasa 90 foizgacha ortadi. Birinchi tibbiy yordamni jarohat olgan kishining o'zi yoki uning yonida bo'lganlar (aholi, san drujinachilar yoki fuqaro muhofazasi hodimlari) ko'rsatadi.

Birinchi shifokor yordam – jarohatning jabrlanganlar hayotiga bevosita xavf soluvchi oqibatlarini bartaraf qilish, jarohat infeksiyasini yanada rivoj topishining oldini olish maqsadida shifokorlar bajaradigan davolash – muhofaza omillaridan iborat. Bunday yordamni umum shifokorlik tayyorgarligi bo'lgan va ixtisoslik jaroh shifokorlari ko'rsatadi. Birinchi shifokor yordamini ko'rsatish vaqti jarohat olgan vaqtdan boshlab 3-6 soat hisoblanadi. Tibbiy yordamning bu turini hamma ixtisoslikdagi shifokorlar bilishlari kerak.

Malakali tibbiy yordam – davolash muassasalarida tegishli ixtisoslikdagi shifokorlar amalga oshiradigan jarohat oqibatlarini, birinchi galda hayot uchun xavfli oqibatlarini bartaraf qilishi, rivojlana boshlagan salbiy oqibatlarga qarshi kurashish, jarohatlanganlarni to'liq davolashga qaratilgan jarrohlik va terapevtik tadbirlar majmuasidir.

Ixtisoslashgan tibbiy yordam – ixtisoslashgan davolash muassasalarida odamning ba'zi a'zolari va tizimlaridagi buzilishlarini maksimal darajada tiklash maqsadida maxsus apparatlar va uskunalardan foydalanib, mutaxassis shifokorlar bajaradigan davolash-muhofaza tadbirlari majmuasidan iborat.

SHunday qilib, «Halokatlar tibbiyoti» xizmati tizimlari ikki bosqichli tizimda faoliyat ko'rsatadilar.Birinchi bosqichda – bevosita o'choqning ichida jabrlanganlarni qidirib topish, ularga birinchi tibbiy va birinchi shifokor yordamini ko'rsatish, ularni tibbiy evakuatsiya qilish, hamda sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshiradilar. Ikkinchi bosqichda esa jarohatlanganlarga shifoxonalarda malakali, ixtisoslashgan tibbiy yordamni amalga oshiradi.

Turli tusdagi favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish.

Er silkinish ofatida: bunday vaziyatlarda «Halokatlar tibbiy xizmati»ning hamma tarkibiy qismlarida ofatning birinchi kunidan boshlab, kunu-tun navbatchilik tashkil etiladi, tibbiyot muassasalarining xodimlari uzluksiz ish tartibiga o'tkaziladi va tibbiy xizmatlarning kuch va vositalari harakatga keltiriladi. Yer silkinishi ro'y bergan hududda birinchi tibbiy yordam aholining o'zi tomonidan, shuningdek shu hududdagi mavjud bo'lgan tibbiy yordam kuchlari tomonidan amalga oshiriladi. CHunki zarar ko'rgan hududlarga yordam beruvchi bunday kuchlarning kelish imkoniyati yuqori hisoblanadi. Bulardan tashqari, zarar ko'rganlarga birinchi tibbiy yordam shu hududda tashkil etilgan mintaqaviy tez yordam ko'rsatish markazi kuchlari tomonidan ham olib boriladi. Tibbiy yordam xizmati xodimlari qutqaruvchilar, o't o'chiruvchilar, avariya-tiklov tizimlari va fuqaro muhofazasining boshqa tizimlari bilan birgalikda buzilgan imoratlar va vayronalar ostida qolganlarni qidirib topish va ularga birinchi tibbiy yordam ishlarini tezkorlik bilan amalga oshirishlari kerak. Bunda odamlarni qutqarish qisqa vaqt davomida, uzog'i bilan bir kun mobaynida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki ularning hayotini saqlab qolish shunchali yengil bo'ladi. Yarador va halok bo'lganlar ko'p bo'lgan taqdirda, ularni transport vositalariga ortish, joylarni tayyorlash, yengil talofot ko'rganlarga transportlarga o'z kuchlari bilan borishlari uchun yo'nalish belgilari qo'yish talab etiladi. Talofot olganlar transport vositalarida eng yaqin bo'lgan tibbiyot shahobchalariga tibbiy saralanib evakuatsiya qilinadi. Bunda albatta favqulodda vaziyatlar shtablari va halokatlar tibbiy xizmati tizimlari

tomonidan talofot ko'rganlarni statsionar davolash muassasalariga tibbiy evakuatsiya qilish uchun yetarli bo'lgan transport vositalarni ajratish choralarini ko'rishlari kerak. Talofotlanganlarni tibbiy saralashda jabrlanganlarning umumiy ahvollariga qarab (tibbiy ko'rsatkichlarga qarab) tibbiy yordam ko'rsatish hajmi, turi aniqlanadi va keyingi davolash bosqichlari belgilanadi hamda ularning har biriga saralash birkasi berkitiladi. Aynan shikastlanganlarni evakuatsiya qilishda tibbiy saralash birinchi shifokor yordami asosida amalga oshiriladi. Bunday tibbiy yordamni umumiy shifokorlik tayyorgarligi bo'lgan hamda ixtisosligi jarroh shifokorlar ko'rsatadilar. Er silkinishida turli tan jarohati olganlar bilan bir qatorda ruhiy shikast olganlarga (endokrenologik kasalliklari, zo'riqib bolasi tushib qolganlarga va boshqalarga) alohida tibbiy yordam ko'rsatilishi zarur. Bunday kasallarga tibbiy yordam berishda tez tibbiy yordam xizmati va maxsus yordam xizmati xodimlari yetakchi o'rinda turishlari, ularni har qanday tasodiflarda to'g'ri qarorga kelishiga tayyorgarliklarini oshirishlari talab etiladi. SHuni nazarda tutish lozimki, yer silkinishi oqibatida tibbiyot muassasalari buzilishi mumkin. SHu tufayli kasallar, tibbiyot xodimlari va tibbiyot jihozlarini ko'chirishni, davolash muassasalarini moslashmagan binolarga, yozgi chodirlarga o'tkazishni taqozo etadi. Bunday maqsadlar uchun muayan binolar (maktab, bolalar bog'chasi va h.k.), hamda chodirlar tayyorlab qo'yilishi zarur.

O'tgan zilzilalar paytida olingan jarohatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, 10 foizi jarohat - binolar devori va tomi qulashidan, 35 foizi - bino va inshootlar qurilmalari va bo'laklari sinib tushishidan, 55 foizi - fuqarolarning zilzila paytida qanday yiqilish kerakligini bilmaganliklaridan yuzaga kelgan. Tabiiy ofatlar tez-tez ro'y beradigan hududlarda sanitar va ma'rifiy tadbirlar doimiy ravishda olib borilishi kerak. Tabiiy ofat hududda sanitar-gigiena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishning muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Ommaviy yong'in va suv toshqinlari paytida tibbiy yordamni tashkil etish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, yong'in paytida shuni esdan chiqarmaslik lozimki, zarar ko'rganlar ichida aholi vakillaridan tashqari shaxsiy bo'linmalar a'zolari ham bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish shikastlangan o'choqni o'zida, yoki unga yaqinroq joylarda olib boriladi. Buning uchun birinchi galda yong'in ichida qolgan, zaharli gaz va tutundan zaharlanganlarni qidirib topib qutqariladi va ularga juda qisqa vaqt mobaynida hayotini saqlab qolish tibbiy muolajalari ko'rsatiladi. Bu vazifalarni qutqaruv tizimlaridan tashqari o't o'chiruvchilar, xizmatli tizimlar va ko'ngilli fuqarolar bajarishlari mumkin. Albatta bu yerda ikki kishilashib harakat qilishi va bir-birining holidan xabardor bo'lib turishi lozim. Tez tibbiy yordam ko'rsatuvchi brigada xodimlari kuyganlarga, zaharli gazlar va tutunlardan zaharlangan fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatish usullaridan yaxshi xabardor bo'lishlari talab etiladi. ***Suv toshqini paytida talofot ko'rganlarga tibbiy yordam*** ko'rsatish ham o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega. Bunday vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam, asosan o'pkalarga sun'iy havo yuborish, yurakni uqalash va tanani qizdirish kabi yumishlardan iborat. ***Yirik fojiya va avariyalar paytida*** tibbiy yordamni tashkil etishga quyidagil kiradi:

- Talofot ko'rganlarga «Halokatlar tibbiy xizmatining» tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimi hamda obektning tibbiyot xizmatlari kuchi bilan tibbiy

yordam ko’rsatilishi. Zaruriy vaziyatlarda tez tibbiy yordam ko’rsatish uchun yaqin joylashgan tashkilot, korxona va muassasalarning sanitar qismlari ham jalb etilishi mumkin;

- Tez tibbiy yordam ko’rsatish tizimi kuchlarining tez va ommaviy ravishda jalb etish imkoniyatlarini yaratish;
- Hamma jarohat olganlarga tez tibbiy yordam ko’rsatish, hamda (halokatlar tibbiy xizmati)ning birinchi shifokor yordamini, malakali va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko’rsatishni tashkil etish.

SHunday qilib, favqulodda vaziyatlarda tibbiyot xizmatlari yirik avariyalar paytida talofot ko’rganlarga puxta o’ylangan va oldindan rejalashtirilgan tadbirlar asosida yordam berishlari kerak. Favqulodda vaziyatlarda tibbiyot xizmati shaxsiy tarkibi ehtimoli bor bo’lgan ishlab chiqarish avariyalari xususiyatini bilishlari va tegishli ravishda vositalariga ega bo’lishlari kerak. Bu vaziyatlarda harakat qilish malakasini tez tibbiy yordam va birinchi tibbiy yordam hamda davolash muassasalari xodimlari ham yaxshi egallagan bo’lishlari talab etiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Birlamchi tibbiy yordam nimalarni o’z ichiga oladi va uni kimlar amalga oshiradi ?
2. Birlamchi tibbiy yordam ko’rsatishning asosiy qoidalari nimalardan iborat ?
3. Jarohat nima va u qanday belgilar bilan xarakterlanadi, ularning qanday turlari tafovut qilinadi ?
4. Qon ketishning xavfi nimadan iborat, uning qanday turlari tafovut qilinadi va ular nima bilan xarakterlanadi ?
5. Arteriyadan qon oqishini vaqtincha to’xtatib turishning qanday usullari bor ?
6. Qon to’xtatishda ishlatiladigan jgut va burama qo’yishning qoidalari qanaka ?
7. Venalar va kapillyalardan oqayotgan qon qanday to’xtatiladi ?
8. Aseptika va antiseptika nima ?
9. Bog’lamlar nima, ularning qanday turlari farqlanadi, ularni qo’yishda qanday materiallardan foydalaniladi ?
10. Badan kuygan mahallarida ko’rsatiladigan birlamchi tibbiy yordam nimalardan iborat
11. Sovuq olgan, hushidan ketib qolgan mahallarda qanday birlamchi tibbiy yordam ko’rsatiladi ?
12. Odam suvga cho’kkan, tok urgan mahallarida qanday birlamchi tibbiy yordam ko’rsatiladi ?

27-ma’ruza. Aholini evakuatsiya qilish

O’quv savollari

1. Potensial xavfli ob’ektlar, ularning guruhlari va toifalari
2. Potensial xavfli ob’ektlarda kelib chiqadigan avariyalar, turlari, kelib chiqish sabablari, avariyalarning oldini olish choralari
3. Potensial xavfli ob’ektlarda avariyalar sodir bo’lganda talofotlarni hisoblash usullari

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida iqtisodiyotimizning salmoqli ravishda rivojlanishida sanoat korxonalari xususan, xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining ishga tushirilishi muhim rolь o’ynamoqda. Hozirgi kunda respublikamizda 40 mingdan ziyod xavfli ishlab chiqarish ob’ekti faoliyat yuritmoqda. Bunday xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarning soni yildan-yilga oshib bormoqda.SHu bilan birga sanoat xavfsizligi talablarining buzilishi natijasida baxtsiz hodisalar sonining yildan-yilga ortib borishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Respublikamiz hududidagi xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan texnogen xavflar, favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va o’z vaqtida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruriyati respublikamizdagi iqtisodiyot ob’ektlarida ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlarda insonlar hayotini saqlash, favqulodda vaziyat ko’lamining kengayib ketishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda respublikamizdagi sanoat korxonalarining faoliyati hamda zamonaviy, ilg’or texnologiyalar bilan jihozlangan yangi ishlab chiqarish korxonalarining ishga tushirilishi mamlakatimiz iqtisodiy o’sishining barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlamoqda. Ushbu sanoat korxonalarining ish faoliyati jarayonida sanoat va texnika xavfsizligini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarida texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi manbalarni monitoring qilish, prognozlashtirish hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf qilishga oid bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, “Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to’g’risida” gi, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to’g’risida”gi, “Radiatsiyaviy xavfsizlik to’g’risida” gi, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to’g’risida” gi qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar haqida” gi 271 sonli, Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to’g’risida” gi 455-sonli, “O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida” gi 242-sonli Qarorlari qabul qilindi.

Hozirgi kunda mazkur sohada oldimizda turgan dolzarb muammolarni hal qilish hamda ustuvor vazifalarni amalga oshirishdan kelib chiqib, mamlakatimizdaO’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi” qabul qilindi. Harakatlar strategiyasining beshinchi

yo’nalishidagi “Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish” bandidan kelib chiqqan holda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yuzaga kelishi va rivojlanishi xavfini monitoring va prognoz qilishni ta’minlash sohasida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora - tadbirlari to’g’risida” gi PF-5066 sonli Farmoni, “O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo’yicha tashkiliy tadbirlar to’g’risida” gi PQ-3029 sonli, “Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish choralari to’g’risida” gi PQ-3030-sonli Qarorlari hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognozlash yagona tizimini tashkil etish to’g’risida” gi 1027-sonli, “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo’yicha hukumat komissiyasi va hududiy komissiyalar to’g’risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 525-sonli,“Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o’tkazish va ekspertiza xulosasini berish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 784-sonli qarorlari qabul qilindi. Ushbu qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar haqida mavzuimiz doirasida qisqacha to’xtalib o’tamiz:

O’zbekiston Respublikasi “Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to’g’risida” gi qonuni (2006 yil 28 sentyabr) respublikamizda faoliyat yuritayotgan xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining barqarorligini ta’minlash, yuzaga kelishi mumkin bo’lgan texnogen xavflarni bartaraf qilish hamda sanoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonun asosida 2008 yil 10 dekabrda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar haqida**” gi 271-sonliqarori qabul qilindi. Mazkur qaror **x**avfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligini ta’minlash, avariya va jarohat yetkazilishi bo’yicha ma’lumotlarni tahlil qilish samaradorligini oshirish, avariyalar kelib chiqishi sabablarini belgilab beradigan qonuniyatlar va omillarni tadqiq etish, xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarini hisobga olish va identifikatsiyalash, sanoat xavfsizligi ekspertizasini o’tkazish tizimini shakllantirish va rivojlantirish, sanoat xavfsizligini deklaratsiyalash hamda “Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to’g’risida” gi qonunga muvofiq boshqa shaxslarning hayoti, sog’lig’i va mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun xavfli ishlab chiqarish ob’ektlaridan foydalanayotgan tashkilotlarning javobgarligini majburiy sug’urta qilish bilan bog’liq munosabatlar tartibga solingan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyunda **“Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi** PF-5066-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonning ijrosini ta’minlash maqsadida, 2017 yil 19 iyulda Vazirlar Mahkamasinining “**Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo’yicha hukumat komissiyasi va hududiy komissiyalar to’g’risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” gi** 525-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu Farmon hamda qarorda mamlakatimizda aholini va hududlarni xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarida sodir bo’lishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida quyidagi vazifalar belgilandi:

- favqulodda vaziyatlar sodir bo’lishi xavfining chuqur tahlilini va aniqlashni nazarda tutuvchi favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va prognozlash tizimini takomillashtirish,

- respublika hududlarini seysmik xavflar, texnogen avariya va halokatlar manbalari bo’yicha rayonlashtirish, fuqarolarning hayoti va sog’ligi, mol-mulkiga xavflarni barvaqt profilaktika qilish va ularning oldini olish;

- hayotiy faoliyatni ta’minlovchi ob’ektlar va tizimlarning barqaror ishlashini, tahdidlar va ularning kelib chiqish omillarini oldindan aniqlash, bartaraf etish borasida aniq choralar ko’rish, aholining ushbu sohada ma’lumotlarga ega bo’lish darajasini oshirishni ta’minlash;

- favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish.

O’zbekiston Respublikasidagi xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarida sodir bo’lishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va ularning yuzaga kelishini oldindan aniqlab, ularni bartaraf etish borasila tegishli tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligiga favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavfi va omillarini oldindan aniqlash, ular vujudga kelishini barvaqt profilaktika qilish, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi xavfini kompleks monitoring va prognoz qilishni ta’minlash, favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini hamda O’zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasini rivojlantirish va boshqaruvini ta’minlash borasida vazifalar belgilab berildi. Bugungi kunda vazirlik tizimida bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. SHu bilan birga mazkur farmonda xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarida texnogen xavflarning oldini olish, avariyalar xavfini kamaytirish hamda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish borasida “Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish komissiyalari” tashkil etildi. Ushbu komissiya favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfi yuqori bo’lgan ob’ektlarning mustahkamligini oshirish, favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatining barqarorligini ta’minlash bo’yicha tashkiliy va muhandislik-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish kabi ishlarni amalga oshirmoqda.

28-ma’ruza. Aholi va hududlarni terroristik harakatlardan muhofaza qilish

O’quv savollari

1. Terrorizmga qarshi kurash to’g’risidagi qonun.
2. Terrorizmning salbiy oqibatlari.
3. Terrorizm milliy xavfsizlikka tahdid**.**

Insoniyat yangi yuz yillikka - XXI asrga qadarn bosdi, lekin shuni ta’kidlash lozirnki, o’tgan asrda bashariyat juda ko’p quvonchli hamda tahlikali, dahshatli voqealarni boshidan kechirdi. Qonli to’qnashuvlami, ikkita jahon urushini, sovuq urush vahimasi va qatag’onlarni boshidan kechirgan insoniyat kelajak sari talpinib, har qanday qiyinchiliklami yengib taraqqiyotga erishib bordi. Afsuski, insoniyatning hayot kechirishi uchun tmdagi imkoniyat-laming borgan sari cheklanib borayotganligi ayon bo’lmoqda. Aholini toza ichimlik suvi, toza havo, oziq-ovqat mahsulotlari bilan bir vaqtda havfsiz hayot masalalari tobora qiyinlashib bonnoqda. Biroq taraq-qiyparvar kuchlar tomonidan bashariyatning gullab-yashnashl, uning sayyoramizda emm-erkin yashashi uchun yangidan-yangi irnkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunda yer yuzida, insoniyat taqdiriga va kelajak istiqboliga jiddiy xavf solayotgan, xuruj qilayotgan xalqaro terrorizm o’zining manfur maqsadlarini jahon ommasiga tobora yaqqol ko’rsat-moqda. Xalqaro terrorizm huruji oqibatida yuz rninglab kishilaming yostug’i qurib, moddiy boyliklar vayron qilinmoqda. Hozirda uning hurujidan hech bir davlat, xatto hech kim mutlaqo muhofazada emas. Har daqiqada insoniyat bunday ijtimoiy ofatning qurboniga aylanishi murnkun. SHu sababdan BMTning favqulodda vaziyatlar tasnifiga qo’-shimcha qilib, aynan ijtimoiy-siyosiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlar-ning kiritilishi be.1iz emas. CHunki bunday tusdagi xavf-hataming dara-jasi yildan-yilga ortib bonnoqda. SHuning uchun har bir inson o’z yurti, millati, muqaddas zarnini va oilasi tmchligi, hotirjamligi uchun kurash-mog’i lozim.Diniy ekstremizm islom olamida ham keng tarqalgan. Diniy ekstremistlar qaerda faoliyat ko’rsatmasin, asosiy maqsadi islom davlatini barpo qilish bo’lib, bu maqsadga o’zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to’qnashuvlar orqali, ya`ni qon to’kish va zo’rlik bilan erishishni ko’zlaydilar.

Terrorizm (lotincha. "terror" - qo’rquv, dahshat) – ma`lum yovuz maqsadlar yo`lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo`q qilishdan iborat bo’lgan g’oyaga asoslangan zo’ravonlik usuli.

O’zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan «Terrorizmga qarshi kurash to’g’risida»gi qonunida terrorizm tushunchasiga quyidagicha ta`rif berilgan:

Terrorizm - mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog’lig’iga xavf tug’diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob`ektlarning yo`q kilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetinq xududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur etkazishga, kurolli mojarolar chiqarishni ko’zlab ig’vogarliklar

qilishga, aholini qo’rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan.

Qo’rqitish va dahshatga solish orqali o’z hukmini o’tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy. g’olviy, irqiy, milliy, guruh, individual shakllarda namoyon bo’lishi mumkin. Ta`qib, zo’ravonlik, qo’poruvchilik va qotillik terrorchilikning har qanday ko’rinishi uchun umumiy xususiyat bo’lib, gumanizm, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. SHuning uchun terrorizm qanday "bayroq" ostida amalga oshirilmasin, mohiyatan insoniyatga, taraqqiyotga, ezgulikka qarshi jinoyatdir.

Iqtisodiy manfaatlarni ko’zlovchi va moddiy boyliklarni o’zlashtirishni maqsad qilib olgan terrorchilik keng tarqalgan. Unda raqiblarini yoki ularning yaqinlarini jismoniy yo`qotish. o’g’irlab ketish, zo’ravonlik, tajovuz bilan qo’rqitib, o’z hukmini o’tkazishga urinish, boyliklarini o’zlashtirib olish yo`llaridan foydalaniladi.

O’zlarining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo’lga kiritishni ko’zlovchi kuchlarning zo’ravonligi va qo’poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo’ladi. Siyosiy terrorizm nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba`zi reaktsion agressiv ruhdagi rasmiy siyosiy doiralar va kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo’llanishi ham mumkin.

Bugungi kunda ham mustaqil rivojlanish yo`lidan borayotgan mamlakatimizga nisbatan g’arazli niyat bilan qarovchi "yovuz" kuchlar terrorchilik yo`li bilan taraqqiyot yo`limizdan chalg’itishga, bizni qaramlikka, asoratga solishga urinmoqda. Ular vatanfurush xoinlardan ham, terrorchilikni "kasb" qilib olgan, "buyurtma" bo’yicha qo’poruvchilik va bosqinchilik bilan shug’ullanuvchi yollanma xalqaro terrorchi, jinoyatchi guruhlardan ham foydalanmoqda.

Terrorizm quyidagi turlarga bo’linadi;

1. milliy;
2. diniy;
3. siyosiy;
4. an`anaviy (bombali);
5. telefon orqali tahdid;
6. yadroviy;
7. kimyoviy;
8. biologik;
9. kiberterrorizm.

Terrorchilik xarakatlarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan vositalar:

- sovuq qurollar;
- o’q otar qurollar;
- portlovchi moddalar;
- zaharlovchi moddalar;
- biologik agentlar;
- radioaktiv moddalar;
- yadro zaryadlari;
- elektromagnit impulsi tarqatuvchilar.

Terrorizmning maqsadlari:

-davlat siyosati va davlat qurilishini zo’rlik yo`li bilan o’zgartirish;

-davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi urinishlarini beqarorlashtirish va buzish;

- ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal etish, dunyo hamjamiyatiga integratsiya qilinish qudratiga ega bo’lgan demokratik siyosiy tuzumni yaratish va mustahkamlash bo’yicha qabul qilinayotgan qarorlarni beqarorlashtirish va buzish;

- shaxsga, jamiyatga, davlatga siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy zarar keltirish.

Terrorizmning ko’lamlari:

- shaxsga qaratilgan jinoyatlar;
- guruhiy qotilliklar;
- odamlarning ommaviy qirilishi;
- butun mamlakat bo’ylab terrorchilik harakatlarini amalga oshirish;
- dunyo hamjamiyatiga qarshi qaratilgan yirik ko’lamli harakatlar.

O’zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to’g’risida»gi qonuniga muvofiq respublikamizda terrorizmga qarshi kurash qonuniylik, shaxs xuquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, terrorizmning oldini olish choralari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi, terrorizmga qarshi kurash oshkora va nooshkora choralari uyg’unligi, jalb kilinadigan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o’tkaziladigan rahbarlik qilishda yakkaboshchilik tamoillari asosida olib boriladi.

Terrorizmga qarshi kurashda O’zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo’mitasi, Mudofaa va Favkulodda vaziyatlar vazirliklari ishtirok etadi.

Agar siz terrorchilik harakatlari bilan bog’liq vaziyatga yoki garovga tushib qolganingizda quyidagi harakatlarni bajaring;

-aslo vahimaga berilmang, baqirib shovqin ko’tarmang;

-«hamma qatori» bo’lishga harakat qiling;

-ko’zga tashlanadigan kiyimlardan xalos bo’ling, bo’yingiz baland bo’lsa engashing, keskin harakatlar qilmang, terrorchining ko’ziga tik qaramang;

- atrofingizdagilarni tinchlantirishga harakat qiling, bunda har qanday usuldan, hattoki musht tushirishdan ham foydalanishingiz mumkin;

- imkon darajasida binoda xavfsizroq joyni aniqlang (oyna, derazalardan uzoq va h.k.);

- iloji boricha yong’in vaqtida hayot uchun xavfli bo’lgan sun`iy toladan tayyorlangan kiyimlardan xalos bo’ling;

-ozod bo’lishingizga bo’lgan umidni yo`qotmang.

Agar sizga telefon orqali tahdid qilinganda:

-iloji boricha «suhbat»ni yozib olishga harakat qiling;

-yozib olish imkoni bo’lmasa, suhbatni eslab qolish lozim;

-qo’ng’iroq qiluvchi bilan uzoqroq muloqotda bo’lishga harakat qiling, uning yoshi, millati, jinsini taxminan aniqlashga harakat qiling, ovozi, gapirish ohangi, nutqiga e’tibor qarating;

-qo’ng’iroq to’g’risida tegishli o’rganlar (MXX, ichki ishlar bo’limi)ga xabar bering, zarur bo’lsa odamlar evakuatsiya qilishni tashkil eting;

Portlovchi qurilma ishga tushganda:

- sodir bo’lgan voqea to’g’risida tegishli joylar (ichki ishlar bo’limi, qutqaruv xizmati, hokimiyatning’ tezkor navbatchisi)ga xabar bering;

- imkon qadar yuzaga kelgan vaziyatga baho berishga harakat qiling: portlash joyi, jarohatlanganlar soni, yong’in chiqqan-chiqmaganligi va h.k.;

-voqea joyiga begonalar va qizikuvchilar yaqinlashishining oldini oling;

-jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko’rsatishni tashkil eting.

Jamoat joylarda (avtobusda, metro, transportlarda, bekatda, ko’chada, oliygohlarda.....) yurganingizda doimo xushyor va diqqatingizni jamlab yurishga xarakat qiling.

Agar siz shubhali buyum topib olsangiz;

- zudlik bilan topilgan shubhali buyum to’g’risida xabar bering;

-odamlarni xavfsiz joyga olib chiqing;

-odamlarning shubhali buyumga yaqinlashishlariga, radioaloqa vositalari, uyali telefon va radioportlatgichning ishlab ketishiga sabab bo’lishi mumkin bo’lgan vositalardan foydalanishga yo`l qo’ymang;

-xuquqni muhofaza qilish organlari vakillari etib kelishini kuting.

Barchamizga ma`lum-ki, hozirgi kunimizni transporsiz tasavvur qila olmaymiz. Xavflarni transport vositalarida paydo bo’lganida avariyadan so’ng qanday xarakat qilish kerakligi xaqida to’xtalib o’tamiz.

Avtomobilning qaerida va qanday holatda ekanligingizni, avtomobil yonmayotganligini, benzin okmayotganligini (ayniqsa, ag’darilib ketishda) aniqlab oling. Agar eshiklar qisilib qolgan bo’lsa, salonni derazalar orqali tark eting. Mashinadan chiqqandan so’ng undan iloji boricha uzoqroqqa qoching, chunki portlash ehtimoli mavjud.

Jamoat transportida o’tirishga joy bo’lmagan taqdirda salonning markaziga o’tib turishga harakat qiling. Avariya va zahira chiqish yo`llarining joylashuviga e`tibor bering. Tramvaylarning elektr manbai insonning elektrdan jarohatlanishida ko’shimcha xatar keltirib chiqaradi (ayniqsa, yog’inli havoda). SHuning uchun o’tiradigan joylar xavfsizroq hisoblanadi. Agar salon kuchlanish ostidaligi ma`lum bo’lsa, uni tark eting. Avariya vaqtida chiqish yo`lida tirbandlik bo’lishi mumkin. Bunday paytda avariya chiqish yo`lidan foydalaning. Maxsus shnurni tortib, oynani tepib oching.

Salonda yong’in sodir bo’lsa, bu haqda haydovchiga ma`lum qiling. Eshiklarni, avariya chiqish yo`llarini oching yoki oynani sindiring. Salonda o’t o’chirish vositasi bo’lsa, yong’inni o’chirish choralarini qo’llang. Nafas yo`lingizni dastro’mol, sharf yoki boshqa kiyim elementlari yordamida tutundan himoya qiling. Salondan egilib, metall bo’laklariga tegmagan holda tashqariga chiqishga harakat qiling. Avtobus suvga qulasa salonning yarmi suv bilan to’lishini kuting, nafasni ushlab, eshik, avariya chiqish yo`llaridan tashqariga chiqib olishga harakat qiling.

Vahima qilmang! Katta odam suvsiz o’rtacha 3 kundan 10 kungacha tirik qolishi mumkinligini yodda tuting. Oziq-ovqatsiz bir oy yoki undan ko’proq yashash mumkin.

Dekompressiya - bu samolyotning germetikligi buzilganda salondagi havoning siyraklashishidir. Tez dekompressiya odatda qattiq g’uvillash bilan boshlanadi (havo chiqib ketayotgan bo’ladi). Salon chang va tuman bilan to’ladi. Ko’rinish birdan pasayadi. Odam o’pkasidan havo tez chiqib keta boshlaydi va uni ushlab qolib

bo’lmaydi. Bir vaqtning o’zida quloqlarda shang’illash va ichakda og’riq paydo bo’lishi mumkin.

Dekompressiya vaqtida ko’rsatmani kutmasdan, zudlik bilan kislorodli niqobni kiyib oling. Niqobni kiymasdan turib, boshqalarga, u hattoki, farzandingiz bo’lsa ham, yordam ko’rsatishga shoshilmang. Niqobni kiygan zahoti xavfsizlik kamarini taqib, keskin pasayishga tayyorlaning.

Evakuatsiyaga shaxsiy muhofaza vositalari, jumladan polietilen plyonkalardan tayyorlangan plashlar, rezina etiklar, ko’lqoplar, yoping’ichlarni tayyorlab qo’ying. Jomadon yoki ryukzakka faslga mos oyoq kiyimi va kiyim-kechaklaringizni, bir kunlik oziq-ovqat zaxirasi, xujjatlar, pul va boshqa zarur narsalarni joylang. Jomadon (ryukzak)ni polietilen plyonkaga o’rang.

Yuzaga kelgan xavf ortidan evakuatsiya qilinish talab etiladigan bo’lsa, evakuatsiya paytida uydan chiqishdan oldin barcha elektr va gaz asboblarini o’chiring, tez ayniydigan mahsulotlarni chiqindi qutisiga olib chiqib tashlang.

_____ Eshikka « -sonli xonadonda hech kim yo`q» yozuvini yopishtiring. Transportga o’tirishdan oldin evakokomissiya vakili ro’yxatidan o’ting. Xavfsiz hududga kelgandan so’ng dush qabul qiling, ichki va oyoq kiyimlaringizni zararsiziga almashtiring.

Xulosa qilib aytganda, ma`naviy-ruxiy tayyorgarlik uchun maxsus o’quv mashg’ulotlari, trenirovkalar o’tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Bularni barchasini bevosita inson bilan hal qilishimiz mumkin. Xo’sh bu  holatlarni korxonalarda inson xavfsizligini  qanday ta`minlash mumkin? Korxonalarda inson xavfsizligini ta`minlash bo’yicha kafolat berish faoliyati bilan muvofiqlashtiriladi, ya`ni xavfni sug’urtalash bilan erishiladi.

29-ma’ruzalar. Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko’rsatish.

O’quv savollari

1. Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko’rsatish algoritmi
2. Tayanch-harakat tizimi shikastlanishlarida birinchi tibbiy yordam.
3. Birlamchi tibbiy yordamning ahamiyati va uni bajarishning umumiy qoidalari.

Birlamchi tibbiy yordamning vazifasi eng oddiy choralarni ko’rish bilan shikastlangan odam hayotini qutqarib qolish, uning azob-uqubatlarini kamaytirish, ro’y berish ehtimoli bo’lgan asoratlarning oldini olish, jarohatning o’tishini engillashtirishdan iboratdir. Birlamchi tibbiy yordam shikastlanish hodisasi ro’y bergan joyda shikastlangan odamning o’zi (o’z-ỳziga yordam berish), o’rtog’i (o’zaro yordam) va sanitar drujinachilar tomonidan berilishi mumkin. Birlamchi tibbiy yordamga kiradigan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- qon oqishini vaqtincha tỳxtatib qỳyish, badanning jarohatlangan va kuygan joyiga steril bog’lam qo’yib bog’lash, sun’iy nafas oldirish va yurakni bilvosita massaj qilish, antidotlar bilan ukol qilish, antibiotiklar berish, og’riq qoldiradigan dorilar yuborish (shok -holsiz holatda), yonib turgan kiyimni o’chirish, transportda olib borish uchun shikastlangan joyni qimirlamaydigan qilib bog’lab qo’yish (transport immobilizatsiyasi), odamning badanini isitish (sovuq urib qotib qolganda), shikastlangan kishini zaharlangan joydan olib chiqish, qisman sanitar ko’rigidan o’tkazish.

- Birlamchi tibbiy yordamni mumkin qadar tezroq ko’rsatish kasallik va jarohatning qanday o’tishi hamda oqibati nima bilan tugashi uchun, ba’zida esa hayotni qutqarib qolish uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ayniqsa, qon ko’p ketib turganda, odam elektr tokidan shikastlanganda, suvga cho’kkan paytida, yurak faoliyati to’xtab, nafasi chiqmay qolgan paytda birinchi tibbiy yordam darhol ko’rsatilishi kerak.

- Bolalarga va shu damning o’zida yordam olmasa o’lib qolishi mumkin bo’lgan shikastlanganlarga birinchi navbatda birinchi tibbiy yordam ko’rsatiladi.

- Son suyagi ochiq sinib, arteriyadan qon ketib turgan mahalda birinchi navbatda hayot uchun xatarli bo’lgan qon ketishini to’xtatish, keyin jarohatga steril bog’lam qo’yish va shundan keyingina oyoqni qimirlamaydigan qilib bog’lashga kirishish lozim. Bunda singan joyni qimirlamaydigan qilib qo’yish uchun maxsus shina solib bog’lash yoki qo’lida bor bo’lgan boshqa vositalardan foydalanish kerak.

Qon ketishida ko’rsatiladigan birlamchi tibbiy yordam. Qon ketishi jarohatlarning bevosita hayotga xavf soluvchi eng xatarli asoratidir. Qon ketishi deganda shikastlangan tomirlardan qon chiqib turishi tushuniladi. SHikastlangan tomirlarning tabiatiga qarab arteriyalardan, venalardan, kapillyardan qon ketishi tafovut qilinadi. **Arteriyalardan qon ketishi** hammadan xatarlidir, bunda qisqa muddat ichida organizmdan talaygina miqdor qon ketib qolishi mumkin. Arteriyalardan qon ketishining alomatlari chiqayotgan qonning qirmizi qizil rangda bỳlishi, uning otilib-otilib chiqib turishidir. **Venalardan qon ketishi** arteriyalardan qon ketishidan farq qilib, birmuncha tỳqroq rangda bỳladigan qonning uzluksiz ravishda oqib chiqib turishi bilan xarakterlanadi, bunda qon otilib chiqmaydi (venoz qon ketishi). **Kapillyarlardan qon ketishi** teri, teri osti kletchatkasi va



muskullardagi mayda-mayda tomirlar zararlanganida sodir bo'ladi. Kapillyarlardan qon ketayotgan mahalda jarohatning butun yuzasi qonab turadi. **Tashqariga arteriyadan oqib chiqayotgan qonni** vaqtincha tўxtatish yўli (qon ketishining bu xili hayot uchun hammadan kўra xatarliroqdir) jgut yoki burama qo'yish orqali, qўl yoki oyoqni imkoni boricha qattiqroq bukilgan holatda bog'lab qўyish, arteriyani shikastlangan joyidan yuqori tomonini barmoqlar bilan bosib turishdir. Bunda arteriyani suyaklarga yaqinroq joyiga bosib turiladigan pulьs nuqtalarini bilish kerak (1-rasm). Arteriyalarni barmoq bilan bosib turish qon oqishini vaqtincha tўxtashining eng oson va tezkor usulidir. Bunda arteriyalar suyak yonidan yoki uning ustidan ўtadigan joylarni barmoq bilan bosib turiladi Tomirni barmoq bilan bosib, qonni tўxtatib turilganidan keyin mumkin bo'lgan joylarga jgut yoki burama qo'yish va jarohatni steril bog'lama bilan bog'lab qўyish kerak**.**

1-rasm Qonni to'xtatish maqsadida arteriyalarni barmoq bilan bosish nuqtalari.

Qo’l-oyoqlarning yirik arterial tomirlari shikastlangan paytlarda jgut (burama) qo’yish qonni vaqtincha tỳxtatib turishning asosiy usulidir. Jgutni son, boldir, elka va bilaklardan, jarohatga yaqinroq qilib, qon oqayotgan joydan yuqoriroqqa, terini qisib qỳymaslik uchun kiyim ustidan yoki tagiga yumshoq material (bint, ro’molcha va b.) qỳyib turib qo’yiladi. Uni odatda oqayotgan qon tỳxtaydigan darajada tortib turib qo’yish maqsadga muvofiq. Jgut qỳyilgan vaqt, kuni, soati va minutlarini qog’ozga yozib, buni yaxshi kỳrinib turadigan qilib jgut ỳrami tagiga qistirib qỳyiladi.Qỳyilgan jgutni qỳl yoki oyoqda kỳpi bilan 1,5-2 soat saqlab turish kerak, aks holda qỳl yoki oyoqning jgut qỳyilgan joydan pastki qismidagi tỳqimalar halok bỳlishi mumkin. Jgut qỳyilgan paytdan hisoblaganda 2 soat ỳtgandan keyin arteriyani barmoq bilan bosib turib, pulsni tekshirib turgan holda jgutni 5-10 minutga asta-sekin bỳshatish va keyin uni oldingi joyidan sal yuqoriroqqa yana qỳyib qỳyish kerak. SHikastlangan odamga xirurgik yordam kỳrsatilmaguncha jgutni har soat oralab shu tariqa vaqtincha bỳshatib, olib turiladi, buni har safar boyagi qog’ozga yozib boriladi. Jgut naysimon bỳlib, uchlarida zanjirchasi bilan ilmoqchasi bỳlmasa, uning uchlari tugun qilib bog’lab qỳyiladi.

Vena va kapillyarlardan tashqariga oqib chiqayotgan qonni jarohatga bosib turadigan steril bog’lama qỳyib bog’lash (jarohat ustiga 3-4 qavat steril salfetka yoki boglama qỳyilib, ustidan gigroskopik paxta va boglama bilan mahkam qilib bog’lab qỳyiladi) va badanning shikastlangan qismini tanaga nisbatan yuqoriroq turadigan holga keltirib qỳyish yỳli bilan vaqtincha tỳxtatiladi.

Jarohatlar asoratlarining oldini olish. Har qanday jarohat, hattoki eng kichkinasi ham, shikastlangan odamning hayoti uchun xavf tug’diradi. U har xil mikroblar yuqtiradigan manba bo’lib qolishi mumkin, ba’zi jarohatlar esa bir talay qon ketib qolishiga sabab bo’ladi. Birinchi tibbiy yordam ko’rsatish mahalida ana shu asoratlar oldini olishning asosiy yo’li jarohatga imkoni boricha ertaroq steril bog’lam qo’yib bog’lash, jarohatga qo’l urish, uni ustidagi har qanday narsalar, kiyim-kechak parchalarini olib tashlash zarur, jarohatni berkitish uchun sterillanmagan materialni ishlatish mumkin emas. Jaroxatlarga infektsiya

yuqishiga qarshi kurashda aseptika va antiseptika usullari qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Bog'lam va bog'lashlar to'g'risida tushuncha. Bog'lamlarning turlari. Bog'lam jarohatni berkitib, bog'lab qo'yish uchun ishlatiladigan materialdir. Bog'lamlarni qo'yish paytida ortiqcha og'riq bo'lmasligiga harakat qilish zarur. Qon aylanishiga xalal bermaslik uchun bog'lamni uncha qattiq bosmaydigan qilib (bosib turadigan maxsus bog'lam qo'yish kerak bo'ladigan hollardan boshqa paytlarda) va jarohatdan tushib ketmasligi uchun uncha bo'sh qilmasdan qo'yiladi. Birlamchi bog'lam qo'yishdan avval jarohatga iflos tekkizmasdan va shikastlangan odamga ozor bermasdan turib jarohatni ochib, yalong'ochlash zarur, ustki kiyim esa echib olinadi yoki qirqib tashlanadi. Jarohatga yopishib qolgan kiyimni uzib olish yaramaydi, uni qaychi bilan ohista kesib olish va so'ngra bog'lam qo'yish kerak. SHaxsiy bog'lovchi paket ikkita paxta-dokali yostiqcha va bintdan iborat. Teshib o'tgan jarohatlarni bog'lash mahalida jarohatning kirish va chiqish teshigini berkitishga imkon beradi.

